

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI  
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI  
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

**F.Z. ATAXANOVA**

# **DIZAYN-LOYIHALASH**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT – 2018**

**UO‘K:  
KBK 37.24-2  
A 87**

**A 87 F.Z. Ataxanova. Dizayn-loyihalash. –T.: «Fan va texnologiya», 2018, 368 bet.**

**ISBN 978-9943-11-890-4**

O‘quv qo‘llanma 5150900 – Dizayn (libos va gazlamalar), 5111000 – Kasb ta’limi (5150900 – Dizayn (libos va gazlamalar)) ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanmada zamonaviy liboslarni dizayn-loyihalash sohasidagi ibora, atamalar, tushunchalarga ta’riflar keltirilgan. Xorijiy ilg‘or tajribalardan kelib chiqqan holda badiiy loyihalash bosqichlarini o‘rganish va har bir bosqichda bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarni tahlil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar keltirilgan.

Undan tashqari liboslar va gazlamalarni badiiy-dekorativ bezashning turli texnikalarining usullari, vositalari, turlarini tahlil qilish va o‘rganish hamda ularning an‘anaviy va zamonaviy vosita, texnikalari bilan tanishishga imkon beruvchi ma’lumotlar keltirilgan.

Bo‘lajak libos dizaynerlari uchun sodda shaklli buyumlar loyihalari hamda “Recycling” yo‘nalishidagi libos loyihalari ustida ishlash bo‘yicha nazariy ma’lumotlar keltirilgan.

\*\*\*

Учебное пособие предназначено для студентов по специальностям: 5150900 – Дизайн (одежды и текстиля), 5111000 – Профессиональное образование (5150900 – Дизайн (одежды и текстиля)).

В данном учебном пособии приведена характеристика терминов, определений, понятий в отрасли дизайн - проектирования одежды и моды. Исходя из передового зарубежного опыта в этой области, изучены этапы современного дизайн - проектирования, а также указаны и проанализированы работы, которые должны выполняться на каждом этапе.

Кроме этого, приведены сведения о различных техниках, способах, видах художественно-декоративного оформления одежды и текстиля. Проанализированы как традиционные, так и современные способы и технологии декорирования.

В данном учебном пособии приведены теоретические сведения по проектированию изделий простых форм и направления ре-дизайн.

\*\*\*

The textbook «Design development» is intended for students of higher education in the specialties: 5150900 - Design (clothing and textiles), 5111000 - Professional education (5150900 - Design (clothing and textiles)).

This tutorial describes the characteristics of terms, definitions, concepts in the clothing and fashion industry.

Based on the best foreign experience in this field, the stages of modern design have been studied, and the work that must be performed at each stage is indicated and analyzed.

In addition, information on various techniques, methods, types of artistic and decorative design of clothes and textiles are given.

Both traditional and modern methods and technologies of decoration are analyzed. In this tutorial, we give theoretical information on the design of simple shapes and directions for re-design.

**ISBN 978-9943-11-890-4**

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.

## FANGA KIRISH

Moda o‘zi nima? Bugungi kunda moda haqida, uning kelib chiqishi va qanday hususiyatlarga egaligi, qay tarzda hayotimizga kirib kelishi haqida fikr bildirayotganda, moda kabi hodisaning turmushimizning barcha jabhalarini egallaganligi hamda iste’molchilik jamiyatida endi modaning o‘zi turmush tarziga aylana-yotganligi hech kimda shubha tug‘dirmasa kerak<sup>1</sup>.

Azaldan libos kiyish kontekstida shakllangan moda mantiqan yangiliklarga asoslangan bo‘lsa, keyinchalik libosga taalluqli va bog‘liq bo‘lmagan ijtimoiy jarayonga aylandi. Buni ilk marta 1890-yilda fransuz sotsiologi Gabriyel de Tarde o‘z ilmiy ishlarida qayd etdi<sup>2</sup>.

Moda serqirra bo‘lgani uchun unga ta’rif berish osonmas, chunki moda madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib turli sohalar – san’atshunoslik va san’at, tarix, jamiyatshunoslik, antropologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik nuqtai nazarlaridan o‘rganilishi mumkin.

Nemis olimi Georg Zimmelning ta’kidlashicha, “...odam libosga muhtoj (va libosni kiyib yuruvchi) bo‘lgan yagona jon-zoddir, moda esa odam ijtimoiy jonzod bo‘lgani sababli paydo bo‘lgan, chunki odamlar ma’lum guruhga tegishlilagini bildirmoqchi ham bo‘ladi, boshqalardan farq qilishni ham istaydilar”<sup>3</sup>.

Moda – bu tizimli jarayon bo‘lib, jamiyat rivojlanishi har bir davrining o‘zgarib borishini o‘zida aks etadi.

Modaning tili ba’zan, albatta tarjima qilinishni talab etadi. Bu talab moda bir paytlari sevgan yoki yaqindagina hayotga

---

<sup>1</sup> Marcarena San Martin, “Field guide: How to be a fashion Designer”. Copyright ©, 2009, by Mao-Mao publications, 13-bet.

<sup>2</sup> Marcarena San Martin, “Field guide: How to be a fashion Designer”. Copyright ©, 2009, by Mao-Mao publications, 13- bet.

<sup>3</sup> Marcarena San Martin, “Field guide: How to be a fashion Designer”. Copyright ©, 2009, by Mao-Mao publications, 13- bet.

kiritib mashhur qilgan narsa va hodisalarga-da bir xilda kerak bo‘ladi. Eskilari ko‘pincha unutilgan, yangilari esa hali ko‘pchilikka tushunarsiz bo‘lgani uchun uning atamalari hamisha izohga, tushuntirishlarga muhtoj bo‘ladi.

Moda tili lug‘atining tarkibida o‘zak va tub ma’noli atamalar, keng tarqalgan nomlar, tushunchalar, so‘zlarning asosiy mazmuni ustida to‘xtalib o‘taylik.

**Moda** (frans. meyor, usul ma’nosida) – bu inson faoliyatining ixtiyoriy sohasida: san’at, kiyinish, xulq-atvor va boshqa sohalarida ma’lum shakllarning tinmay o‘zgarishidir.

**Uslug** – qandaydir vaqt oralig‘ida umumiyo vosita va usullar bilan badiiy ifodalanishga aytildi.

**Kostyum** – vazifasiga, mo‘ljaliga binoan ma’lum darajada terilgan kiyimlardir.

**Kolleksiya** (lot. yig‘ilish, yig‘ma, terma) – uslubi, konstruksiyasi, shakli, materiallarning o‘xshashligi asosida terilgan yoki ma’lum bir badiiy obrazni ifoda etishga xizmat qiladigan kiyim modellari termasi (yig‘masi).

**Ansambl** – fransuzcha (farangcha) bu so‘z tarjimada – to‘liq, tekis, uyg‘un, turli qismlardan yoki bo‘laklardan, kishilardan yig‘ilgan bir butun manosini bildiradi. Kiyimda esa ansambl o‘rniga ba’zan kostyum so‘zi ishlatiladi.

Biroq, modada kostyum ba’zan to‘liq sarponi: boshdan-oyoq, shlyapadan tortib poyafzalgacha, hatto ust kiyimgacha ma’noni sig‘dirsa, ba’zan faqat yubkali kostyumi (misol uchun: jaket bilan yubka, yoki jaket, nimcha va yubka), shimli kostyumi (misol uchun: erkaklarda pidjak bilan shim, yoki pidjak, nimcha va shim; ayollarda jaket bilan shim, yoki jaket, bluzka va shim) yoki bo‘lmasa yolg‘iz jaket, pidjakni anglatishi mumkin.

Ansambl so‘zi libos o‘zining nima maqsadda va qayerda kiyilishiga qarab ko‘proq farqlangani uchun, termin ham qo‘shimcha ma’noli so‘z qo‘shib ishlatiladi. Masalan, bayram yoki tantana ansambli shu vaziyatga mos keluvchi badiiy obraz yaratishga xizmat qiladigan kiyimlar va buyumlar termasini: poyafzal, taqinchoq va boshqa to‘ldiruvchilarni o‘z ichiga oladi.

Bu holatda tantana darajasini nozik ilg‘ash va ansambl hashamini unga moslash talab etiladi.

Misol uchun teatrga borish boshqa narsa, Yangi yil bayrami yoki bironta yubileyga qatnashish boshqa narsa. Agar birinchi vaziyatga marjon, gul yoki sharf taqib olish singari bir-ikki narsa oddiy kiyimni tantanali qilsa, ikkinchi vaziyatda esa butun libos dastasining – poyafzal, paypoq, ko‘ylak matosi, to‘g‘nag‘ich, soat – barining ko‘tarinki nazokatliligi va bir-biriga uyg‘unligi taqozo etiladi. Bundan tashqari, ulug‘vor xonim uchun tanlangan dasta (ansambl) bilan yosh qizning tantanavor libosi butunlay farq qiluvchi tushunchalardir. Yoshlar uchun ansambl bir–biridan keskin farq qiluvchi bo‘laklarni uyg‘unlantirilgan termasidan iborat bo‘lishi mumkin-ki, ulug‘vor xonimlarning kiyimlarida bu xolatning uyg‘unligi tan olinmaydi yoki avangard kiyim toifasiga o‘tib, undagina tan olinishi mumkin.

**“Haute Couture”** (farangcha talaffuzda “ot – kutyur” – yuqori darajadagi tikish, yoki oliy san’at darajasidagi tikish ma’nosida) – hozirgi vaqtida “oliy moda” ma’nosida ishlatilib, eng yuqori sinf darajasidagi kiyimlarni yaratish tushuniladi. Bunday sinfga yoki turkumga kiruvchi kiyimlar yagona nusxada bajariladi, bularga asosan qo‘l mehnati ishlatiladi. Nafaqat kiyim tikilish jarayoni, balki mato yoki material olish jarayoni, bezak turlari va boshqalar yagona, takrorlanmas bo‘ladi. Bu darajadagi kiyimdan nusxa ko‘chirish mumkin, albatta, ammo bu ancha-muncha vaqt va mablag‘ talab etadi.

19-asrda vujudga kelgan “ot-kutyur” oliy moda libos yaratish va uni ta’minalashning tizimi bo‘lib, uning asosiy maqsadi ayollar buyurtmasi asosida liboslarni tayyorlashdir. Bugungi kunda uning mohiyati o‘zgardi, oliy moda endi daromad keltiruvchi faoliyat bo‘lmay qoldi, lekin imkonibor brendlari uchun u yaxshigina reklamadir. Uort (Vort – bu yerda Charlz Frederik Vort) 1858-yilda Parijning Ryu de la Pe ko‘chasi, 7-uyda “Maison SPECIALE de Confections” (fransuzchadan so‘zma-so‘z tarjimada - libos yaratish bilan shug‘ullanuvchi maxsus uy, ya’ni modalar uyi)ni ishga tushurishi tufayli oliy modaga yo‘l ochib berildi (asos solindi). Bu tizim buyurtma asosida liboslarni

yaratuvchi, deyarli hunarmand bo‘lgan kutyurye (dizayner, modelyer, liboslarni yaratuvchi usta) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan. 1869-yilda “Chambre Syndicale de la Haute Couture” – “Oliy moda Sindikati” tashkil etildi. 1911-yilda bu tashkilot “moda uyi” atamasiga quyidagicha ta’rif berdi: “moda uyi” bu ayollar libosini (uning shakli, dizayni va h.k) yaratish hamda uni ham hususiy mijozlarga, ham professionallarga sotish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik faoliyatidir”. “Ot-kutyur Moda uyi” nomini olish mezonlari 1945-yilda ishlab chiqilgan.

Talablar orasida domiy ravishda ishlaydigan dizayner tomonidan o‘ziga hos liboslarni yaratish, ma’lum ishlarni (ko‘klash, kashta tikish) faqat qo‘lda bajarish, Parij shahrida joylashgan ma’lum belgilangan miqdordagi ishchilari bo‘lgan (bugungi kunda kamida o‘n beshta to‘liq ish kunida ishlaydigan xodim bo‘lishi belgilangan) studiyaga ega bo‘lishlik, muntazam ravishda yangi tayyorlangan libos kolleksiyalarni Parijda namoyish etish kabilar mavjuddir. Yillar davomida (so‘nggi yillarda) bu sektor (soha) inqiroz vaziyatidadir (inqirozga uchrab bormoqda). Ikkinci jahon urushidan keyin 106 ta Oliy moda uyi bo‘lgan bo‘lsa, 2007-yilga kelib ularning soni bor-yo‘g‘i o‘ntaga yetdi. Butkul inqirozning oldinin olish uchun 2001-yilda talablar biroz yumshatildi. Bu modalar uyini qutqarish uchun ko‘rilgan birinchi chora emasdi. 1997-yilda xuddi shu maqsad bilan sindikat a’zolari uch toifaga bo‘lindi:

-haqiqiy a’zolar;

-korrespondent-a’zolar – Parijda namoyish o‘tkazish sharti bilan qabul qilingan chet ellik a’zolar;

-barcha talablarni to‘liq qondirish imkonи yo‘q, lekin yuqoridagi ikki kategoriyadagilar tomonidan homiylikka olingan hamda mavsumiy kolleksiyalarni muntazam yarata oladigan mehmonlar va davogarlar.

Bugungi kunda “Ot-kutyur” malakasi yuridik jixatdan himoyalangan bo‘lib, bu faoliyat bilan faqat Fransianing Sanoat vazirligi tomonidan har yili tasdiqlanadigan ro‘yxatga kiritilgan kompaniyalargina shug‘ullana oladilar.



1-rasm. “Ot-kutyur” yo‘nalishidagi libos modellaridan namunalar.

**“Pret-a-porter”** (farangcha talaffuzda “pret-a-porte” – tayyor ko‘ylak industriyasi, tayyor ko‘ylak ishlab chiqarish sanoati ma’nosida) - kiyim korxona va fabrikalarda tayyorlana boshlanishi natijasida XX asrda paydo bo‘lgan tayyor kiyimlar ishlab chiqaruvchi sanoatiga tegishli bo‘lgan kiyimlar sinfi. Bu turkumga mansub kiyimlar nusxalari soni, sifati va narxlari doirasida yana bir necha sinflarga bo‘linadi.



2-rasm. Pret-a-porte toifasidagi libos namunalari.

## **Zamonaviy moda industriyasining tashkillanishi (tuzilishi)**

1830-yilda Bartelemyu Timonye tikuv mashinasini ixtiro qilgandan buyon (liboslarni qo‘lda yaratishni ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash hisobiga harajatlarni kamaytirish) moda industriyasida (sanoatida) ulkan o‘zgarishlar ro‘y berdi. Avvallari kostyum yoki ko‘ylakli bo‘lish (uni xarid qilish yoki tiktirish ma’nosida) qator ishlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab jarayon bo‘lgan. Buning uchun libosni tayyorlash uchun kerak bo‘ladigan mato, aksessuar va bezaklarni tanlash; kiyim uslubi haqida qaror chiqarish (uslubni o‘ylash yoki tanlash); tikuvchini chaqirish (tikuvchi xizmatini buyurtma qilish); libos tayyor bo‘lgunga qadar (nisbatan uzoq vaqt-4-5 hafta) bir necha marta kiyimni o‘lchash, to‘g‘rilash, moslash kabilarga (primerka) sabr qilish kerak edi. Muammo shunda ediki, har bir mijos o‘z buyurmasini vaqtida va tez olshini istar edi. Shuning uchun ba’zi libos bilan shug‘ullanuvchilar kiyimning oldindan tayyorlangan andazalari asosida yaratilgan buyumlarni namuna sifatida taklif eta boshlashdi.

Bu mijozlar uchun tanlashni osonlashtirdi, chunki endi tayyor kiyimlar taklif etila boshlandi. Shuning uchun 19-asrning tijorat nuqati nazaridan eng muhim yangiligi (innovatsiyasi, ixtirosi) bu tayyor tikilgan kiyimlarni: uniforma (maxsus ishchi kiyim), erkaklar kostyumi hamda alohida vaziyatlar uchun mo‘ljallangan liboslar (motam yoki to‘y liboslari, palto)ni sotish edi. Bunday kiyimlar arzon matolardan hamda shu davrdagi asosiy uslublarga mos tikilgan. Bu kabi kiyimlar (bu turdag, toifadagi liboslar) yirik do‘konlarda sotilar va asosan oddiy ishchilar uchun mo‘ljallangan edi.

1920-yillarda moda rivojlanishidagi yana bir omil – bu 1920-yillarda AQShning yirik universal magazinlarida (supermarket) Parijda yaratilgan “ot-kutyur” modellaridan ko‘chirilgan soddalashtirilgan konstruksiyalı liboslarni sotilishini joriy etilishi edi. Bu kelajakda pret-a-portening vujudga kelishidan darak berar edi. Bugungi kunda moda industriyasi tizimi turlicha

yo‘nalishlarda rivojlanadi: ot-kutyur liboslaridan to sport liboslarigacha, pret-a-portedan to kundalik va ommaviy tarqatiladigan toifadagi liboslargacha. Moda deyarli hammabop bo‘lib qolgani uchun uni yaratish turlicha konsepsiya va turli kalendarlar asosida ro‘yobga oshiriladi hamda aholining barcha qatlamlari ehtiyojini qondirishga qaratiladi.

## BADIY LOYIHALASH VA UNING BOSQICHLARI

Zamonaviy kiyimga qo‘yiladigan barcha talablarga javob beruvchi liboslarni loyihalash hamda keyinchalik ularni hayotga tadbiq etish avvalambor oldiga qo‘yilgan professional masalalarni ham ijodkorona, ham muvofiq ravishda to‘g‘ri hal qila oladigan mutaxassis-dizaynerlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘liqdir.

Libos bo‘yicha dizaynerlar oldida nafaqat utilitarlik (ya’ni, amaliy foydalilik) va qulaylik nuqtai nazaridan, balki libos (kostyum)ni turmushimizdagi badiiylik, ta’sirchanlik, ifodalilik, o‘ziga xoslik kabi tushunchalarning badiiy mezoni va badiiy “o‘lchov birligi” deb hisoblanishi aspektidan (jihatidan) kelib chiqib yaratish kabi murakkab masala turadi.

***Badiiy loyihalash*** – bu hali mavjud bo‘lmagan (yoki yaratilishi lozim bo‘lgan) ma’lum berilgan xossaga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan obyektning yaratilishi va vujudga keltirilishidir.<sup>4</sup>

Nomdor tadqiqotchi va olim Kantorning fikricha: “....texnik bilimlarga ega bo‘lgan dizayner konstruktoring ishini takrorlamaydi.... O‘z ishida dizayner buyumning timsoli (obrazi, siymosi)dan boshlab, uni ro‘yobga chiqarishning texnik va texnologik sharoitlarigacha bo‘lgan jarayonni bajaradi....

...Dizaynerlik badiiy loyihalashda bilim va fantaziya, intuitsiya (ichki sezgirlik) va hisob-kitoblar, fan va san’at, iqtidor va mahorat mujassamlanadi.

Loyihalashning asosiy “bosqichi” ijodkor dizaynerning ongida kechadi. Loyihalashning tashqi tashkiliy bosqichlarini esa uning metodlari qatoriga kiritib bo‘lmaydi”.<sup>5</sup>

Zamonaviy libosni loyihalash jarayoni doimo san’at, madaniyat, ilm-fan, iqtisodiyotda ro‘y berayotgan hodisa va jarayonlar kontekstida olib borilishi lozim. Undan tashqari dizayner uslub va moda yo‘nalishlarini farqlashi, yetakchi Moda Uylari, studiyalar va byuolarining ish faoliyati tamoyillarini tushunishi kerak bo‘ladi.

<sup>4</sup> Э.М.Андросова. Основы художественного проектирования костюма. – Челябинск: Медиа-принт, 2004, 9- бет.

<sup>5</sup> Э.М.Андросова. Основы художественного проектирования костюма. – Челябинск: Медиа-принт, 2004, 9- бет.

Yuqorida nomi tilga olingan K.Kantorning ta'kidlashicha, loyihalash bosqichlari va ularning ketma-ketligi sxemasi quyidagilardan iboratdir:

1. Buyum (dizayni) g'oyasining paydo bo'lishi:

a) dizayner jamiyatda shakllanayotgan (yoki shakllangan) extiyojlarni sezgirlik, ziyraklik bilan anglaydi. Bu extiyojlar go'yoki uning shaxsiy extiyojlariga aylanadi.

b) u shu damgacha mavjud bo'lgan loyihaviy g'oyalar, texnika, texnologiyalar, ishlab chiqarish va iqtisodiyot shart-sharoitlari, badiiy madaniyat, shu jumladan, arxitektura, rangtasvir, haykaltaryoshlikning muvaffaqiyatlarini hisobga olgan holda mazkur ehtiyojli buyumning siymosi (obrazi)ni izlaydi.

d) o'zining tassavurida shu obyektning timsolini yaratadi va uning dastlabki grafik tasvirlari, hajmiy shakli, tashqi ko'rinishining tavsifi, uning amaliy qo'llanilish usullari ustida ishlaydi.

2. Muhandis tomonidan g'oyani texnik jihatdan mustaqilligining tekshirilishi hamda umumiyligi texnik g'oyadan buyumning konstruksiyasini (tuzilmasini) ro'yobga chiqarilishiga o'tilishi.

3. Konstruksiya yaratilgandan so'ng predmetning dastlabki g'oyada belgilangan funksional parametrлари va tashqi ko'rinishiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Dizayner real texnik imkoniyatlarni hisobga olgan holda konstruksiyaga o'zining tuzatishlarini kiritadi.

4. Obrazni konstruktiv-texnologik va estetik jihatdan to'ldirib yakunlash bo'yicha dizayner va muhandisning birgalikda olib boradigan ishi<sup>6</sup>.

Ammo, aksariyat hollarda, bugungi kundagi zamonaviy talablardan kelib chiqib, libos dizayneridan loyihalashning ijodiy jarayonida boshqa mutaxassislarning ishtirogisiz kiyim, kostyum yaratish talab qilinadi. Buning uchun konkret buyumni yaratish mobaynida unga kerak bo'ladigan g'oyasini tasvirlash (eskiz grafikasi), materiallarni tushunish, konstruksiyalash va tikish texnologiyasi sohasidan bilim, ko'nikma, mahorat kerakdir.

<sup>6</sup> К.Кантор. Правда о дизайне. – М.: АНИР, 1996.

Undan tashqari dizaynerning kompozitsiya tuzish va rangshunoslik asoslaridan savodi bo‘lishi lozim.

Masalan, jahon miqiyosida oladigan bo‘lsak, bugungi kunda mavjud bo‘lgan kichik mualliflik laboratoriyalari, studiyalarida dizaynerlar ana shu tarzda faoliyat yuritadilar. Bu yerda ularning ijodiy faoliyati natijasida eksperimental, noodatiy modellar paydo bo‘ladi. Agar loyihaviy vazifa yirik ishlab chiqarish sharoitida bajarilsa, u holda dizaynerdan texnik jarayonlarni tushunish va asoslay olish talab qilinadi, hamda u konstruktor va texnolog bilan hamkorlikda ishlab chiqarish sharoitlariga muvofiq ishlaydi.

Ma’lum loyiha ustida ish olib borilayotganda, tug‘ma hususiyat deb hisoblanadigan juda katta iqtidor (kreativlik) kerakdir. Shunga qaramay, muvaffaqiyatga eltuvchi ijodiy jarayonlar konkret vaziyat va muammolarning original, o‘ziga xos yechimini o‘ylab topish qobiliyati natijasidir. Bu qobiliyat esa iqtidor va individual alomatlardan tashqari ishslashning ma’lum metodologiyalariga asoslangandir.<sup>7</sup>

Mashhur rassom Pablo Pikassoning aytishicha: “Ijodiy ilhom mavjud narsa, faqat u sizni topishi kerak”. Yaxshi va qiziqarli g‘oyalar, muhim sarflar, yangi yechimlar – bularning barchasi tahlil, kuzatuv, mulohaza, taklif etish kabi turli ruhiy jarayonlarni qamrab oluvchi konkret tadbirlar natijasidir (oqibatidir).

Agar libos bo‘yicha dizaynerning ijodiy loyiha davomidagi faoliyati ustida to‘xtaladigan bo‘lsak, **ishlash jarayoni** quyidagi tashkillashtirilish maqsadga muvofiqdir. Moda (modellar) kolleksiyasini yaratish jarayonida ish rejasi to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi kerak va u quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olishi lozim:

- 1) manbalarni izlash (o‘rganish, tadqiq qilish);
- 2) “sketchbook” – sketchbuk – chizgilar kitobini yig‘ish (yaratish);
- 3) siluet, chiziqlar, rang, material va matolarni tanlash (aniqlash);
- 4) konsepsiyanı aks ettiruvchi kitob yoki panelni yaratish;

---

<sup>7</sup> Marcarena San Martin. Field guide: How to be a fashion Designer. - USA by Rockport Publishers, Quayside Publishing Group, 2009

5) modellarni ishlab chiqish va dastlabki (sinov) nusxalarni bajarish;

6) prototiplarni (yoki original modellarni) yaratish.

## **1. Manbalarni izlash (o‘rganish, tadqiq qilish) bo‘yicha tavsiyalar.<sup>8</sup>**

Liboslar kolleksiyasi yoki liniyasini (muallif izohi: ba’zan “modellar liniyasi” degan ibora ishlatiladi, aslida libos modellari qatori degan ma’no yaqinroq va to‘g‘riroqdir) yaratishni boshlashdan oldin dizayner tadqiqot ishini olib borishi, keyinchalik o‘ziga yangi mahsulot yaratish uchun xizmat qiladigan ilhom manbasini izlashi kerak.

Yil hali boshlanmasidan oldin keyingi (navbatdagi, kelajakdagi) mavsumda odamlar (libos iste’molchilar) nimani hohlashlarini aniqlash oson emas. Demak, kolleksiyani to‘g‘ri rejalash-tirish uchun yig‘iladigan manbalar keng qamrovli, dunyoda sodir bo‘layotgan hodisalarni aks ettiruvchi bo‘lishi kerak. Undan tashqari modaning dolzarb yo‘nalishlari, ijtimoiy tendensiya va iste’molchi talablari, moda sanoati va boshqa sohalarda nima bo‘layotganini bilish, eng muhimi bo‘lajak mavzu va g‘oyaga qiziqish bo‘lishi kerak.

Ma’lumotlarni to‘plash nafaqat ijod (ilhom) manbaasiga, balki uning qay tarzda talqin etilishi, qay darajada ishlanganligi, kiyimga qanday qilib qo‘llanganligiga ham bog‘liq. Kolleksiya yechimi, g‘oyasi turli manbalardan paydo bo‘lishi mumkin, shuning uchun his etishning beshala organiga, ayniqsa vizual – ko‘rish hissiga tayanib ijad manbasini izlash lozim.

Ijod manbasi turlicha: kitoblar, jurnallar, kino, sayohat, belgilar, ramzlar, o‘ylab chiqarilgan qahramonlar (uydirma personajlar), fotografiyalar, rassomlar ijodi, ixtiolar, arxitektura, musiqa, chiroyli joylar, ertak va hikoyalar, o‘simliklar, oziq-ovqat, televideniye, turli ashyolar, ko‘chalar, veb-saytlar, gadgetmoslamalar, blog va hokazolar bo‘lishi mumkin.

---

<sup>8</sup> Marcarena San Martin. Field guide: How to be a fashion Designer. - USA by Rockport Publishers, Quayside Publishing Group, 2009

Tadqiqot natijalarida yig‘ilgan g‘oyalarning barchasi skeytchbuk – chizgilar kitobchasi (qoralamalar kundaligi)da qamrab olingan (aks etgan yoki to‘plangan, tushurilgan) bo‘lishi kerak.


**2. Sketchbookni yaratish.** Skeytchbuk – (*sketchbook* – ingl. “sketch” – eskiz, chizgi, xomaki qolip, suratning taxminiy nusxasi, dastlabki namunasi, bir onda bajarilgan tavsif, tarx, krok + “book” – kitob, ya’ni loyiha ustida olib borilayotgan kundalik yoki “kuzatuvar kundaligi”) dizayner ijodiy faoliyatini aks ettiruvchi chizgilar, tavsiflar kitobchasiidir.

Bu bo‘lajak kolleksiyaning konsepsiyasini, xarakterini, kiyim tayyorlanadigan mato va materiallarni aks ettiruvchi g‘oyalarni to‘plash va takliflarni erkin tarzda aks ettirish, yaratish, ishlab chiqish uchun, shuningdek, bo‘lajak uslubni shakllantirish imkonini beruvchi vositadir. U aynan kundalik vazifasini bajarib, shaxsiy kechinmalar asosida yig‘ilgan ma’lumotlar qo‘l ostida bo‘lishini ta’minlaydi (keyinchalik tadqiqot uchun). G‘oyalar ikki xil tarzda chizgilarda aks etishi mumkin:

-kuzatuvar: e’tiborga loyiq deb topilgan rasmlar, matn, reklama, fotolardan olingan parchalar va qismlar, mayda buyumlar va boshqa tashqi manbalardan olingan ma’lumotlar orqali to‘planganlar natijasi;

-ixtiolar: matn yoki/va chizgilar orqali original yechimlarni aks ettirish.

Dizaynerning nuqtai nazaridan va qay tarzda ifoda etilishidan kelib chiqib hamda keyinchalik ularga murojaat etish imkonini uchun bo‘lajak loyihaga kerak bo‘ladigan formatlar, ashyolar, material, ilova, o‘lcham, hajm, faktura, teksturalar oddiy bloknotdan to katta chemodanga sig‘adigan darajasigacha bo‘lgan hajmda to‘planadi. To‘plangan ma’lumotlar turlichcha bo‘lishi mumkin, ular dizaynerning aniq maqsadidan kelib chiqib to‘planadi. Ko‘pincha to‘plangan manbaalarni qirqib, yopishtirib, kerak bo‘lsa chizib to‘ldirish imkonini beruvchi kollaj usulidan foydalilaniladi.



3-rasm. Turli mavzulardagi loyihalar uchun to‘plangan sketchbuklardagi sahifalardan namunalar.



4-rasm. Turli mavzulardagi loyihalar uchun to‘plangan sketchbuklardagi sahifalardan namunalar.



5-rasm. Ijod manbasi va uni interpretatsiya qilish jarayonida hosil bo‘lgan shakllarning aks ettiruvchi sahifalar.

Dizaynerlarning ishchi sketchbuki, ko‘rgazma uchun tayyorlanib namoyish qilinadiganlari emas, aynan ish jarayonida yig‘ilib yaratilgan ishchi to‘plamdir. Ijod uchun turtki bo‘ladigan va ilhom baxsh etadigan turli eskizlar (ba’zan betartib va impulsiv bajarilgan xomakilar), turli manbalardan olingan fotosuratlar va fotolavhalar, mato parchalari – bularning barchasi nafaqat joriy, alki keyinchalik bajariladigan loyiha g‘oyalari uchun obrazlarni topishga xizmat qiladi.

Kuzatuvlar kundaligi - “skeytchbuk”ning maqsadi loyiha jarayonida turli manbalarni to‘plib takliflarni shakllantirish hamda ularning liboslar kolleksiyasi uchun rivojlanishi va transformatsiyalashdir. G‘oyalarni yaxshiroq aniqlash, o‘ziga xosligini tanitish, to‘ldirish uchun asosiy omillar mavjuddir. Bular – siluet, shakl chiziqlari, materiallar va matolar (keyingi boblarga qarang).

### **3. Siluet, chiziqlar, rang, material va matolarni tanlash (aniqlash).**

**Siluet va chiziqlar.** XX asr ham ijtimoiy, ham iqtisodiy sohalardagi modaga muqarrar o‘z ta’sirini ko‘rsatgan tub o‘zgarishlarga boy davr bo‘lgan. Bu davrning har bir o‘n yilligida ayollar mavqeining, o‘rnining o‘zgarishi ro‘y bergen-ki, barchasi libos va uning uslubida o‘z aksini topgan: “oltin yigirmanchilar”dagi vaqtichoqliklar, 50-yillardagi “ideal rafiq”ning timsoli, 60-yillardagi “yoshlikka sig‘inish” va mini-moda – bularning barchasi o‘ziga xos siluetli liboslarni shakllantirgan.

## TURLI DAVRLARDA MODADA BO'LGAN LIBOSLARNING SILUETLARI<sup>9</sup>



1775-yillar



1785-yillar



1800-yillar



1820-yillar



1850-yillar



1885-yillar

<sup>9</sup> Сью Джонс. Fashion-дизайн. - Санкт Петербург, “Питер”, 2012 й. -18-21-бетлар.



1910-yillar



1914-yillar



1920-yillar



1926-yillar



1930-yillar



1942-yillar



1947-yillar



1952-yillar



1958-yillar



1967-yillar



1972-yillar



1974-yillar



1978-yillar



1980-yillar



1985-yillar



1997-yillar



2000-yillar



2005-yillar

Siluet kiyim haqidagi birinchi taassurotni qoldirib, kolleksiyaning umumiy mohiyati, ruhi, kayfiyatini belgilab beradi. Shuning uchun siluet har bir kiyimning tayyorlanishi uchun dastur-qo‘llanma bo‘lib, boshqalar qatorida hajmlar, proporsiyalar va materiallarning qanday bo‘lishini belgilab beradi. Masalan, geometrik shaklli siluet qattiq matoni talab qilsa, mayin va erkin siluetlar oquvchan, plastik materiallarni talab qiladi.

Boshqacha qilib aytganda, **libosning silueti** kiyimning tashqi ko‘rinishi va shaklini xarakterlaydi. Kiyim hajmdor shaklining tekislikdagi tasviri ham siluet deb ataladi.

Kiyimning silueti uning bichimi, odam tanasiga yopishib turish darajasi, hajmdor detallarning joylashuvi va ularning kattakichikligi, yelka, bel va etak chiziqlarining holatlarga bog‘liq bo‘ladi.

Kolleksiyadagi uyg‘unlik, uslub va tuzumlilikni saqlab qolish uchun umumiy chiziqlar, detallarning shakli va siluetlarning takrorlanishiga rioya qilish muhimdir.

**Rang** kolleksiya yaratishda asos bo‘ladigan ahamiyatga ega vositadir. Bu bo‘lajak iste’molchi/xaridor/tomoshabinni e’tiborini tortuvchi omillardan biridir. Kolleksiyadagi modellar ifoda etmoqchi bo‘lgan hissiyotlarni, asosiy kayfiyat va ruhini aks ettiradi (beg‘uborlik, telbalik, yetuklik, ajiblik, nafislik, beparvolik, orastalik kabi).


Rangning muhimligi zamonaviy moda rivojidagi ba’zi dizaynerlarning faoliyatida ma’lum ranglar bilan o‘ziga xos bog‘liqlik, rishtalar mavjudligidan ham bilsa bo‘ladi. Bu bog‘liqlik shunchalik-ki, hatto ranglarning atalishida ham rang va dizaynerning ismi ajralmas bo‘lib nomlanadi, ya’ni ular modada o‘ziga xos simbiozni tashkil etgan. Misol uchun: “Lanvinning ko‘k tuni” (Lanvin blue), “Valentinoning qizili” (Valentino red) yoki Elza Skiaparellining “hijolatda qoldiruvchi pushtisi” (the shocking pink of Elsa Schiaparelli).

Kolleksiyada ishtirok etadigan ranglarning menyusini (yoki panelini) tuzish uchun (ya’ni, 4 tadan 10 tagacha bo‘lgan rang tuslarini tanlash hamda ularning qay birlari bazaviy ranglar sifatida, qay birlari esa qo‘srimcha detallarda qo‘llanilishini


belgilash lozim bo‘ladi), rang uchta xossasi bilan xarakterlanishi haqida tessavvurga ega bo‘lish kerak:

- rang tusi – qizil, sariq yoki ko‘k va h.k.;
- rangning och yoki to‘qlik darajasi – oqlashtirilgan (xira) yoki qoralashtirilgan ranglar;
- rangning to‘yinganlik darajasi – rangning yorqinligi, intensivligi, tusining tozaligi darajalari.

Ranglar va ularning yuqorida xossalari yordamida turli uyg‘un bo‘lgan birikmalari hosil qilinadi. Ular o‘zaro monoxrom, o‘xshash, kontrast, o‘xshash-kontrast munosabatlarda (diapazonlar) bo‘lishi mumkin.



5-rasm. Rang doirasi



6-rasm. Monoxrom qator (qizil rang uchun monoxrom diapazon)



7-rasm. O'xshash ranglar diapazoni



8-rasm. Kontrast ranglar diapazoni

**Ashyolar.** Dizayner ishlamoqchi bo'lgan ashylar haqida tushunchaga ega bo'lishi, ularning xossalariini bilish kerakdir. Ashyo teksturasi, uning olinishi va tarkibi, uning xususiyatlari kiyimning kompozitsiyasi va tayyorlanishi jarayoniga ta'sir qiladi.

**Tolalar.** Olinishiga ko'ra tolalar uch turga bo'linadi: tabiiy, sun'iy va sintetik.

Tabiiy tolalar jonivorlardan (jun, ipak), o'simliklardan (paxta, zig'ir) va minerallardan (asbest, lyureks) olinadi.

Sun'iy tolalar bu tabiiy ashylarning (ko'pincha sellyuloza) qayta ishlanishidan sun'iy ravishda hosil bo'ladigan tolalardir. Bularning xossalari tabiiy tollarnikiga o'xshashroq bo'ladi.


Sintetik tolalar kimyoviy moddalarning (neftъ, ko'mir, smola, ammiak) ishlab chiqarilishi natijasidagi qoldiqlardan xosil qilinadi.

Bugungi kunda innovatsion tolalarni ixtiro etish va ishlab chiqarish bo'yicha juda ko'p ishlar olib borilmoqda. Masalan,

nanotexnologiyalar yordamida turli kosmetologik yoki sog‘lom-lashtiruvchi xususiyatli; o‘ta elastik va chidali yoki g‘ijimlanmaydigan; ekologik toza yoki muddati o‘tgach o‘zi chiriydigan tolalarni yaratish.

**Materiallar** – bular gazlama (mato), trikotaj va charm, mo‘yna, kigiz, lateks kabi noto‘qima materiallardir (nonfabrics). Agar o‘zaro kesishuvchi bo‘ylama va ko‘ndalang iplardan tashkil topgan bo‘lsa - bu gazlama, trikotaj – bu halqalarning o‘zaro to‘qilishidan iborat ashyodir. Noto‘qima materillarda esa tolalarning yo‘nalishi sezilmaydi.

Materiallarning kolleksiya g‘oyasi, falsafasini aks etishga xizmat qilishi, kollektsianing mohiyatiga mos kelishi, libos-larning vazifasidan kelib chiqib tanlanishi muximdir.



9-rasm. Libosda qo‘llaniladigan zamonaviy furnitura.

**Dekorativ bezaklar va aksessuarlar** – tugma, tugmacha mix (knopka), kashta, tasma, lenta, jiyak, kantlar, munchoq, payetka, shisha toshlar va boshqalar dizaynga o‘ziga xoslik baxsh etuvchi elementlardir. Ba’zan aynan shu unsurlar kolleksiyaning mohiyatini bo‘rttirib ko‘rsatadi va ochib beradi. Boshqa omillar singari dekor elementlarini tanlash, ularni qo‘llashga, ularning kolleksiya g‘oyasiga mosligini ta’minlashga e’tibor berish muximdir.

#### **4. Konsepsiyanı aks ettiruvchi kitob yoki panelni yaratish (konsept kitobi yoki mavzuli panel).**

Barcha manbalar va mavzu o‘rganilib, tanlangan rang, siluet va ashyolar tahlil qilingandan so‘ng navbatdagi bosqich - to‘plangan ma’lumotlarni tematik panel yoki konsept-kitob shaklida ishlab chiqish bo‘ladi.

Bu vosita yoki usul tasvirlar va kalit so‘zlar orqali kolleksiyaning umumiyligi g‘oyasini ifoda etish imkonini beradi. Ya’ni bu – g‘oyani, hissiyotlarni, vizual havolalarni, rang, ohang, muxim shakllar va shu kabilarni aks ettiruvchi simvollar, belgi va ramzlar to‘plamidir. Undan tashqari ijod manbasi bo‘lib xizmat qilgan ma’lumot (havolalar)ni ko‘rgazmali-vizual va matnli shaklda abstrakt yoki konkret ravishda ifoda etish chog‘ida g‘oyani (brendi g‘oyasi, kolleksiya g‘oyasi, modellar qatori g‘oyasi va b.ni) yo‘naltirish, boshqarish jarayonini yaxshilash mumkin. Bu to‘plamni qo‘llanma desa ham bo‘ladi, ya’ni g‘oya (mavzu)ni yaratishning ma’lum konteksti bo‘yicha barcha belgilarni o‘zida mujassam etgan qo‘llanma. Bu bo‘lajak mahsulotning sifat yoki sifatlarini aniq belgilab olishga va ularni ko‘rsatishga, ijod qilish jarayonidagi muloqotga, mazkur mahsulotni (dizayn-obyekti) yaratish strategiyasini aniqlashga (ma’lum stilistik filtrlarni yoki uslubiy chegaralarni belgilash evaziga) yordam beradi.

Konsept-kitobi yoki tematik panelning yana bir maqsadi – dizayner-muallif (yakuniy natija ma’suliyati doim aynan dizaynerga tushadi) ishtirogisiz ham dizaynerlarlik komandasini tomonidan barcha ishlar kompleksining bajarishni ta’minlash. Ya’ni, komandadagi ishtirokchilarning barchasi uchun ishni


davom ettirish bo‘yicha asos bo‘ladigan yo‘l-yo‘riq va dastur. Bunda uyushma a’zolari shu asosida alohida buyumlarni, aksessuarlarni, mato naqshlari va bosmagullari (printlar)ni yaratishlari mumkin bo‘ladi. Kolleksiyaning umumiy g‘oyasi va stilistik filtridan chiqib ketmagan holda, albatta. Undan tashqari mavzuiy/g‘oyaviy kitob mazkur jarayonda ishtirok etuvchi boshqa dizaynerga yoki dizaynerlar komandasiga konkret ilovalar va ko‘rsatmalardan tashqari kolleksiyaning ahamiyati va ruxidan kelib chiqib, uni rivojlantirish, davom ettirish uchun to‘ldirishlar kirtishga ko‘mak beradi.

Konsepsiya aks ettiruvchi kitob turlicha hajmda bo‘lishi va tuzilishi (strukturasi) turlicha bo‘lishi mumkin, shunga qaramay, axborotga (ma’lumotlarga) ishlov berishni osonlashtiruvchi, ko‘maklashuvchi ba’zi tamoyillarga asoslanish lozim bo‘ladi. Ularga binoan qo‘yidagilar ko‘rsatiladi:

1. Nomi.
2. Tanlangan yo‘nalishni (yoki nuqtai nazarni) asoslash.
3. Mavzuning o‘ziga xos falsafasi.
4. Aniq ma’lumotlar ro‘yxati (kolleksiyaning ahamiyati va xarakterini, ruhini ishlab chiqish, belgilash).
5. Kolleksiyadagi kiyim modellarining vazifasi va kim uchun mo‘ljallanganligi ko‘rsatish.
6. Rang bo‘yicha takliflar.
7. Kiyim turlari bo‘yicha takliflar.
8. Ashyolar bo‘yicha takliflar.
9. Kiyimlarni yaratish usullarini ishlab chiqish va asoslash.
10. Bezak berish usullari bo‘yicha takliflar.
11. Aksessuarlar.
12. Uslub, obraz (siymo), to‘ldiruvchilar bo‘yicha takliflar.

Bularning barchasi o‘ziga xos yo‘riqnomalar vazifasini bajarib, turli shakl va usullarda keltirilishi mumkin. Masalan, matn ko‘rinishida yoki ma’lum yig‘ma siymolar (obrazlar)ni keltirish usuli bilan va hatto musiqa, animatsiya, qisqa film, raqamli taqdimot ko‘rinishlarida ham aks ettirilish mumkin. Bularning orasida eng keng tarqalgani va ko‘p qo‘llaniladigani eskizlarni

chizishdir. Bunda tasvirlashning ixtiyoriy usulidan foydalansa bo‘ladi (akovayerl, grafika, texnik eskz, kollaj va h.k.).



10-rasm. Rang konsepsiyasini tanlash.

Kolleksiyaning yo‘nalishini belgilab beruvchi asosiy tamoyillari aniqlangandan so‘ng, ularga mos keluvchi va o‘ylangan g‘oya, obrazlarni to‘laqonli ochib berishga xizmat qiluvchi kiyimning konkret buyumlari va detallari ishlab chiqilishi lozim. Buning uchun mazkur konsepsiyaga mos keluvchi odam gavdasining shakli chiziladi. Soha mutaxassislari orasida bu – “*fashion figure*” – modabop figura (yoki *fashion* eskiz) deb nomlanadi.


**Modabop eskiz** – bu odam gavdasidagi ma’lum kiyim shaklining tekislikdagi tasviri. Uning asosiy vazifasi tushunarli tarzda kiyimning nima uchun mo‘ljallanganligini, uning silueti, rangi mato teksturasi va shu kabilarni aniq va ravshan aks ettirishdir. Ehtimol, uning akademik tarzda namunaviy chizilgan bo‘lishi shartmasdir, ammo eskiz muallifning nimani ifodalamoqchi bo‘lganini tushunarli tarzda yetkazishi lozim<sup>10</sup>.

Eskizning badiiy jihatdan ifodali bo‘lishiga odam gavdasining proporsiyalari, figuraning turishi (qomatning holati, vaziyati, qiyofasi), tasvirlash texnikalarining tanlanishi xizmat qiladi.

Figurani beo‘xshov tasvirlamaslik uchun, odam gavdasining proporsiyalarini va tana qismlari orasidagi nisbatlarni bilish hamda ularga rioya qilish zarurdir. Gavdani shartli ravishda uchta qismga – kalla, tana hamda qo‘l va oyoqlarga ajratish mumkin. odam bo‘yining uzunligi kallaning 8 karra balandligiga barobar deb olish qabul qilingan. Ba’zi modabop eskizlarda uning proporsiyasi hatto 1/9 nisbatda ham olinadi, ya’ni figura uslublashtiriladi. Kalla balandligiga teng keladigan moduldan kelib chiqib, odam gavdasining turli holatlarini chizish mumkindir. Gavdaning aynan ana shunday turlicha holatlarda tasvirlanishi kolleksiyaning asosiy ruhini aks ettirishga yordam beradi. Kolleksiyani aks ettiruvchi liboslar kamdan-kam hollarda tik va to‘g‘ri (harakatsiz) holatdagi gavdada tasvirlanadi. Aks ettirilayotgan libosning uslubi, kim uchun va qayerda kiyishga mo‘ljallanganliga qarab, odam gavdasini ham turlicha holatlarda


<sup>10</sup> Marcarena San Martin. Field guide: How to be a fashion Designer. - USA by Rockport Publishers, Quayside Publishing Group, 2009, - 72-bet

tasvirlash kerak. Kiyimning o‘ziga xosliklarini ko‘rsatish uchun gavdani turli rakurslardan (masalan, yon yoki ort tarafdan, ma’lum harakatda) ham tasvirlash mumkin.




11-rasm. Ayollar gavdasining tasvirlanishidagi nisbatlar<sup>11</sup>.

<sup>11</sup> Marcarena San Martin. Field guide: How to be a fashion Designer. - USA by Rockport Publishers, Quayside Publishing Group, 2009, - 73-bet



12-rasm. Ayollar gavdasining tasvirlanishidagi nisbatlar.<sup>12</sup>


<sup>12</sup> Elisabetta ‘Kuky’ Drudi, Tizian Paci. Figure Drawing for Fashion Design. Amsterdam, The Pepun Press, 2011 y., - 18 p



13-rasm. Ayollar gavdasini turli holatlarda sxematik ravishda tasvirlash.<sup>13</sup>

---

<sup>13</sup> Elisabetta ‘Kuky’ Drudi, Tizian Paci. Figure Drawing for Fashion Design. Amsterdam, The Pepun Press, 2011 y., - 18 p



14-rasm. Turli holat va rakurslardagi ayollar gavdasini tasvirlash.<sup>14</sup>

---

<sup>14</sup> Elisabetta ‘Kuky’ Drudi, Tizian Paci. Figure Drawing for Fashion Design. Amsterdam, The Pepun Press, 2011 y., - 18 p



58

15-rasm. Harakatdagi (dinamik) gavdalarni tasvirlash.<sup>15</sup>

---

<sup>15</sup> Elisabetta ‘Kuky’ Drudi, Tizian Paci. Figure Drawing for Fashion Design. Amsterdam, The Pepun Press, 2011 y., - 18 p

**Tasvirlash texnikalari.** Fashion eskiz yaratish uchun tasvirlashning turli texnikalarini: qora va rangli qalamlar, akvarelъ, guash, tush va gelli ruchkalar, flomaster (markerlar), pastel, kollaj, fotolar, kompyuter vositasida hamda turli texnikalarni aralashashtirib ham qo'llash mumkin. mazkur usul va vositalarning har biri taqdim etiladigan eskizlarga o'ziga xoslik bag'ishlaydi, shuning uchun dizayner o'zining g'oyasi va kolleksiyaning konsepsiyasini to'laroq ochib beradigan hamda shu payt uchun qulayroq va osonroq bo'ladiganini tanlashi lozim bo'ladi.<sup>16</sup>



16-rasm. Turli texnikalar qo'llangan har xil obrazlarni tasvirlovchi (A-rangli qalam va pastel; B-akvarel) eskizlar.<sup>17</sup>

<sup>16</sup> Marcarena San Martin. Field guide: How to be a fashion Designer. - USA by Rockport Publishers, Quayside Publishing Group, 2009, - 74-бет

<sup>17</sup> Bethan Morris. Fashion Illustrator. Laurence King Publishing, 2006 y. -64 p.



17-rasm. Kollaj texnikasi qo‘llangan eskiz.<sup>18</sup>

---

<sup>18</sup> Pinterest сайтидан олинган



A<sup>19</sup>



B<sup>20</sup>

18-rasm. Turli texnikalar qo‘llangan har xil obrazlarni tasvirlovchi eskizlar: A-akvarel, tush va applikatsiya –Yelena Krajinskaniing sketchlari; B- markerlar va gelli ruchka – Luis del’Olloning 1973-yilda bajargan sketchlari.

<sup>19</sup> John Hopkins. Basics Fashion Design or Fashion Drawing. AVA Publishing, SA, 2010-y., - 25p.

<sup>20</sup> John Hopkins. Basics Fashion Design or Fashion Drawing. AVA Publishing, SA, 2010-y., - 18p.

**Texnik spetsifikatsiya.** Bu fashion-eskizda tasvirlangan libosni (kostyumni) tashkil etuvchi har bir kiyim turi va uning to‘ldiruvchi akssesuarlarining texnik eskizlari hamda qo‘llanilishi nazarda tutilgan materiallar, furnituralarning namunalari va tavsiya etilayotgan ranglardan tuzilgan hujjatdir. Texnik chizmalar masshtabda bajarilishi, kiyim shaklini hosil qiluvchi uzunlik va kenglik, astarlik va qo‘sishimcha qatalmlar, aksessuar va furnitralar, bezaklar kabi barcha elementlar va tavsiflar keltirilgan bo‘lishi shart.

**Texnik eskiz chizish qoidalari.** Texnik eskiz yoki texnik rasm kiyim ishlab chiqarish sohasida ishlayotgan dizayner uchun muhim ahamiyatga ega. Ijodiy eskizlar odatda o‘zgacha ko‘rinishga ega va odam qomatining tabiiy ko‘rinishidan farqlanadi. Ko‘pincha rasmda figuralar uslublashtirilgan bo‘lib, odatiy qomat ko‘rinishlaridan u yoki bu tomonga ajralib turadi.

Modelning loyihalash jarayonida uni chizmalarda aks etilishida loyihalovchi badiiy, texnik va texnologik vazifalar bog‘lamasining to‘g‘ri yechimini topishi shart. Bir ko‘rinishda to‘g‘ri yechimga konstruktiv usullari orqali yetiladi, boshqa ko‘rinishda esa - texnologik ishlov berish yo‘li bilan yoki birinchi va ikkinchi usul uyg‘unlashuvi orqali. Qo‘llanilayotgan usullarning ratsionalligi o‘rganib chiqilishi kerak, so‘ng eng qulay qaror qabul qilinadi. Model aniq nusxasi yoki fotosurati uning loyihasini yaratishni yengillashtiradi. Shunga qaramay loyihalovchi:

- u yoki bu ashyolardan foydalanish imkoniyati,
- buyum tayyorlashida texnologik ishlov berish jarayonlarini kiritish yoki olib tashlash,
- turli uskunalardan foydalanish kabi savollarga javob topishi lozim.

Kiyim shakllari juda xilma-xildir. Murakkab bichimli kiyimning shakli shu kiyim detallarining shaklidan hosil bo‘ladi. Yelkada turuvchi kiyimlarda bu old va ort bo‘laklar (va ulardagi bo‘linishlar), 2 ta yeng, yoqa; shimda chap va o‘ng old, ort bo‘laklar; yubkada old va ort bo‘laklardir. Kiyim detallarining har biri alohida yoki ayrimlarining shakli ham murakkab bo‘linishli, hajmdor bo‘lishi mumkin.

Texnik rasm modelyer - rassom va konstruktor orasidagi professional “ziddiyatini” kamaytirib, “yumshatib”, model tasvirini yagona xalqaro standartlarga olib keladi. Texnik rasm badiiy muloqotni, fikr almashinuvini yengillashtiradi; asosiy konstruktorlik yechimlarini aniqroq tushunishga imkon beradi; rassom eskizidagi (yoki “fashion” rasmdagi) stilizatsiyani kamaytirib, nisbatan tasvirni iloji boricha aniqlashtirib beradi. Shunga mos ravishda model eskizi faqat eskiz avtorigagina emas, balki o‘zining mamlakati yoki chet elda ish yuritayotgan, o‘zining korxonasi va boshqa korxonalarda ham tushunarli bo‘ladi. Texnik rasmni 2 xil usul bilan bajarish mumkin:

- 1) Qo‘lda A4 o‘lchamdagи varaqda, chizg‘ich va qora qalam yordamida.
- 2) Kompyuterda Coral Draw, CAD programmalari ishtirokida.

Texnik rasmni kompyuterda bajarish usuli katta imkoniyatlarni beradi. Asboblarning yordamchi paneli kerakli tasvirni o‘sha zahotiyoy qilishni ta’minlaydi. Programmalarning to‘liq paketi bilan savodli foydalana bilish rasmni bajarayotganda yuqori anqlikka erishishga va vaqt ni tejashta yordam beradi.

Texnik rasmning (yoki texnik eskizning) ikki xil turi bor:

- 1) Odam gavdasi tasvirining shablonida (qolipida). Bu qolipda odam gavdasi “1 ga 8” nisbatda chizilgan bo‘ladi. Shundagina “FASHION” rasmdagi uslublashtirilgan (stilizatsiyalashtirilgan) gavda tasvirining yanglish aks etishi to‘g‘rulanadi.

- 2) Odam gavdasisiz modelning yassi tasvirida. Bunda ham ma’lum qoidalarga rioya qilib, aniq proporsiyalarda chizish zarur.

Texnik rasmni bajara olish uchun qanday shartlar bo‘lishi kerak:

- 1) Asosiy g‘oyani aks ettiruvchi badiiy eskizning yoki FASHION eskizning borligi.
- 2) Odam gavdasi proporsiyalarini bilish (tana qismlari o‘lchamlarining o‘zaro va butun gavdaga nisbatan nisbatlari).
- 3) Rasmni yelka, bel, bo‘ksa qismlari bo‘ylab ishlab chiqish texnik eskiz kamida kiyimning old va ort taraflarini aks etishi

yoki uch yoqlama bo‘lishi kerak (old, yon, ort ko‘rinishlar). Undan tashqari texnik eskizda barcha bezak banya qatorlar ko‘rsatilishi kerak. Chunki bezak banya qatorlarning turi, soni, katta - kichikligi, rangi kiyim tashqi ko‘rinishiga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi.

**Texnik spetsifikatsiyaning ham asosiy maqsadi – dizaynerlik eskizidagi g‘oyani kiyim ishlab chiqaruvchi, konstruktor, texnologlar uchun tushunarli tarzda interpretatsiya qilishdir.**



19-rasm. Etno-uslubdagi libos eskizlari va ularning texnik eskizi. MRDI bitiruvchisi Tashlanova Saidaning malakaviy bitiruv ishidan.



20-rasm. Yoshlarbop kiyimlarning fashion va texnik eskizlari.  
MRDI bitiruvchisi Munisaning kurs loyihasidan.



21-rasm. Odam gavdasining shabloni yordamida tasvirlangan texnik eskiz. MRDI bitiruvchisi G'aniyeva (Xodjayeva) Zuhraning malakaviy bitiruv ishidan.



22-rasm. Kolleksiyadagi libosning fashion va texnik eskizlari, taklif etilayotgan mato namunalari bilan. ACADEMY OF ART UNIVERSITY saytidan olingan FASHION DESIGN BFA talabalarininig ishlaridan.

## **1. Modellarni ishlab chiqish va dastlabki (sinov) nusxalarini bajarish.**

**Bichim va andazalar tayyorlash.** 1830-yilda tikuv mashinasi ixtiro qilingan davrdan boshlab kiyimni sanoat usuli bilan tayyorlash imkonи vujudga keldi. Buning uchun standart o‘lchamlar asosida kiyimni konstruksiyalash metodikasi va tizimini ishlab chiqish zarur edi. Natijada qisqa vaqt mobaynida ham tikuvchilarga, ham iste’molchilarga ma’qul keladigan bichish usullari va turli qoliplar (shablon yoki andazalar) paydo bo‘ldi. Konstruksiyalashning va andazalarning qo‘llanilishi kiyimda ko‘proq bezaklar emas uning shakli, bichimi va gavdada yaxshi “o‘tirishi” qadrlanishiga sabab bo‘ldi.

Andazalarni (aniqrog‘i konstruksiyalarni) modaning arxitekturasi deb atash mumkin. gavda o‘lchamlariga asoslanib qurilgan mazkur shakllar, ya’ni andazalar (qolip, shablonlar) o‘z mohiyatiga ko‘ra geometrik konstruksiyalar bo‘lib, kiyim shaklini yaratishda qo‘llaniladi. Boshqacha qilib aytganda, bu – kiyimning uch o‘lchovli hajmini yaratadigan ikki o‘lchamli yassi shakllar.

Yuqorida aytilgandek, murakkab shaklli va bichimli kiyimning shakli shu kiyim detallarining shaklidan hosil bo‘ladi. Bichim qanchalik murakkab bo‘lsa, uning tarkibi, detallari (va andazalari) shunchalik ko‘p va murakkab bo‘lishi mumkin. Kiyim detallarining har biri alohida yoki ayrimlarining shakli ham murakkab bo‘linishli, hajmdor bo‘lishi ham mumkin. Masalan, kurtkaning detallari old va ort ho‘laklarning markaziy va yon qismlari, yeng va yoqa, cho‘ntak detallari, avra va astarlik detallardan tashkil topgan. Bularning barchasi bir butunning tarkibiy qismlari ekanligini, qismlaridan bittasidagi o‘zgarish boshqalariga ham ta’sir ko‘rsatishi va barchasiga o‘zgartirishlar kiritilishiga olib kelishi mumkinligini yodda tutish muhim.

Andazalarning sifati kiyimning tikilish sifatini va benuqsonligi hamda qulayligini ta’minlaydi.

Bazaviy andazalarga modellashtirish usuli bilan o‘zgartirishlar kiritib, turli murakkablikdagi boshqa andazalarni hosil qilish mumkin.

**Mulyaj usulining mohiyati** bevosita odam tanasi yoki mane-kenda materialni shakllantirib libosning hajmiy-fazoviy shaklini (yoki 3 yoqlama dizaynini) yaratishdan iborat. Boshqachasiga aytganda, xuddi haykaltaryosh kabi matodan tana atrofida libosning shakli yaratiladi.

Ma'lum darajada mashaqqatli jarayon bo'lishiga qaramay, mulyaj usuli noan'anaviy va g'ayrioddiy shakllarni yaratishda qo'l keladi.

Aynan shuning uchun mulyaj usuli "haute couture" liboslarini yaratishda keng foydalaniladigan texnikadir. Hatto "pret-a-porter" yo'nalishida libos yaratuvchi dizaynerlar ham mazkur usulni ba'zi kiyimlarning shaklini hosil qilishda qo'llashadi.

**Sinov nusxalari yoki maketlarni bajarish.** Konstruksiya, bichim, andazalar tayyorlangandan so'ng kiyimning maketi yoki sinov nusxasi bajariladi. Buning uchun arzonroq bo'lgan chit, bo'z, doka yoki boshqa ashylardan foydalanish kerakdir. Biroq sinov nusxasi uchun tanlangan ashyoning yakuniy modelda qo'llanilishi nazarda tutilgan material bilan hususiyatlari (og'irligi, plastikasi, shakl hosil qilish va uni ushslash xossasi va h.k.) yaqinrog'ini tanlash lozim bo'ladi. Bu o'z navbatida yakuniy modelni original materialdan bajarayotganda o'yangan natijaga erishish uchun yordam bo'ladi. Masalan, o'yangan kiyimdagi material elastik bo'lishi nazarda tutilgan bo'lsa, maket uchun ham elastik trikotaj tanlanishi kerak. Barcha choclar va bichimning kamchiliklari yaqqolroq ko'ringani sababli maket uchun ashyoning rangi iloji bo'lsa oq (och) yoki bo'yalmagan tabiiy bo'lsa maqsadga muvofiq.

Dastlabki sinov nusxalarida astar yoki cko'ntaklarga texnologik ishlov berishning ehtiyoji yo'q. Bunda faqat uning uch yoqlama hajmiy-fazoviy shaklini hosil qilishda ishtirok etadigan yoki konstruksiyasidagi ahamiyatli elementlar tayyorlanadi. Shu tarzda detallarni o'rni va shakli, bo'linishlarning proporsiyalari aniqlashtiriladi, bichimning gavdada benuqson o'tirishi tekshiriladi. Kerakli o'zgartirilishlar andazalarga kiritiladi.



23-rasm. Kiyim modelining sinov va original nusxalari.

## **2. Prototiplarni (yoki original yakuniy modellarni) yaratish.**

**Prototip** – (frans. prototype < yunon. protos – birlamchi + tupos – namuna, shakl<sup>21</sup>) kolleksiyadagi liboslarning ilk original namunalari. Ijodiy jarayonning so‘nggi bosqichida liboslarni asosiy g‘oyadan kelib chiqib o‘ylangan asl materiallar, ranglar, bezaklarni qo‘llab tayyorlanadi. Odatda prototiplar kolleksiyasi asl nusxalardan tashkil etgan bo‘lib, podiumda namoyish etish, ommaviy axborot vositalari va chakana savdo vakillariga taqdimot uchun tayyorlanadi. Shuning uchun bu libos nusxalari kiyimlarni namoyish etuvchi – manekenchilarning gavda o‘lchamlariga mos ravishda bajarilishi kerak<sup>22</sup>.

**Kiyimning sinflanishi.** Odamlarning kundalik hayotida kiyim oziq-ovqat va turar joy kabilalar muhim o‘rinda turadi. Inson uchun kiyim zarur narsalardan biridir, chunki u insonni issiq va

---

<sup>21</sup> Л.П. Крисин. Chet tilidan kirib kelgan so‘zlarning izohli lug‘ati. M., Eksmo, 2016-yil, - 580 b.

<sup>22</sup> Marcarena San Martin. Field guide: How to be a fashion Designer. - USA by Rockport Publishers, Quayside Publishing Group, 2009, - 75-б.

sovuv havodan, qor va yomg‘irdan muhofaza qiladi. Odam tanasini butunlay yoki qisman o‘rab turuvchi buyumlar yig‘indisini **kiyim** deb ataymiz.

Kiyimlarning turli funksiyalari yoki vazifalari bor. Muhofaza qilish vazifasini yuqorida aytib o‘tdik. Ya’ni, kiyim odam tanasini muhofaza qilishi zarur.

Bundan tashqari kiyimning axborot berish vazifasi ya’ni informativ vazifasi ham bor. Kiyim hamma vaqt, har yerda odamning qay ijtimoiy tabaqaga mansubligini va qaysi kasbga taalluqligini bildiruvchi belgi rolini o‘ynab kelgan.

Kiyimning yana bir vazifasi estetik vazifadir. Kiyimga nafa-qat iste’mol buyumidek, balki amaliy san’at asaridek qarash kerak. Bunga dunyoning turli muzeylarida yig‘ilgan tarixiy va an-anaviy kiyimning go‘zal namunalarini misol qilib keltirsa bo‘ladi.

Zamonaviy kiyim turli-tumandir. Uni quyidagicha sinflash mumkin:

1) yosh va jins alomatlariga ko‘ra;

2) kostyum sistemasida ishlatalishiga binoan;

3) inson faoliyatining turli sohalarida ishlatalishiga, ya’ni vazifasiga qarab;

4) mavsum bo‘yicha;

5) materialiga qarab.

1. Yosh va jins alomatlariga ko‘ra kiyim kattalarnikiga (erkak va ayollar kiyimiga) va bolalarnikiga (o‘g‘il va qiz bolalarnikiga) bo‘linadi.

2. Kostyum sistemasida ishlatalishiga qarab kiyim ichki kiyim, ko‘ylak va ust kiyimga bo‘linadi. Ichki kiyim bevosita odam badaniga kiyiladi. Ko‘ylak bu ich kiyim ustidan kiyiladigan kiyimdir. Bu kiyim qatlami bir qavat ko‘ylakning o‘zidan yoki ikki - uch qavatli kostyumdan (bluzka bilan yubka; bluzka, yengil jaket, nimcha va shim va hokazolardan) iborat bo‘lishi mumkin. Ustki kiyimga mavsumga qarab kiyiladigan turli ko‘rinishdagi palto, kurtka, plashchlar kiradi.

3. Inson faoliyatining turli sohalaridagi vazifasiga qarab kiyim:

a) maishiy kiyim ;

b) sport kiyimi;

- d) ish kiyimi (aniqrog‘i ishlab chiqarishda kiyiladigan kiyim );
- e) forma kiyimi ;
- f) sahna kiyimlariga bo‘linadi.

Maishiy kiyim turli mashg‘ulotlar uchun mo‘ljallangan kundalik kiyimni, bashang kiyimni (turli bayram, to‘y-hashamlar, tantanali yig‘ilishlar, teatr va kinoga borish uchun mo‘ljallangan kiyimlar); uy ichi kiyimini o‘z ichiga oladi.

Sport kiyimi professional va havaskor sportchilar kiyimi uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Professional sport uchun mo‘ljallangan kiyim ma’lum sport turi talab qiluvchi hususiyatlarga maksimal javob berishi kerak. Bunday kiyimda konkret sport turida eng zo‘r natijalarga erishish uchun kerak bo‘ladigan talablarga javob beruvchi – qulaylik, ergonomik, gigiyenik, estetik kabi hususiyatlar mujassam bo‘ladi. Bunga albatta, eng zamonaviy, yangicha xossal materiallar, zamonaviy tikish texnologiyalari xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish kiyimi o‘z navbatida maxsus kiyim va ish kiyimiga bo‘linadi.

Maxsus kiyim ishlab chiqarish sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. U ishchini ishlab chiqarishning zararli ta’siridan himoya qiladi , hamda havfli yoki g‘ayrioddiy sharoitda ma’lum ishlarning bajarilishini ta’minlaydi. Sohasiga qarab har bir maxsus kiyim maxsus materiallardan, Davlat standartiga qat’iyan rioya qilib tikiladi. Misol uchun: kimyo sanoati xodimlarining mahsus kiyimi; metall erituvchi ishchilarning maxsus kiyimi; o‘t o‘chiruvchilarning yoki g‘ovvoslarning o‘ziga xos maxsus kiyimlari.

Ish kiyimi ham ishlovchini xavfsizlik va qulaylik jihatidan himoyalaydi.


Bunday kiyimga misol qilib tikuvchi, to‘quvchilarning, tibbiyat xodimlarining, supermarket sotuvchilarining, sartaroshlarining ish kiyimini olish mumkin. Bunday kiyim ma’lum darajada odam tanasi uchun xavfsizlikni ta’minlashdan tashqari, kundalik kiyimni kirlanishdan, yirtilishdan asraydi. Undan tashqari, bunday kiyim ramziy ahamiyatiga ega.

Forma kiyimi harbiylar kiyimiga, turli mahkamalarga mansub kiyimga, jamoat tashkilotlari va sport jamoalari forma kiyimiga, mакtab formasiga bo‘linadi.

Sahna kiyimlari teatr-estrada, karnaval, sirk, teatrlashtirilgan bayramlarda, umuman olganda, sahnada tomosha qilish uchun mo‘ljallangan har xil kiyimlarni o‘z ichiga oladi.

4. Mavsumga qarab kiyimni qishki, yozgi, kuzgi-bahorgi kiyimlarga ajratiladi.

5. Vazifasi (nimaga mo‘ljallanganiga) va kiyiladigan mavsumga qarab kiyim turli materiallardan tikiladi. Ishlatilgan ashyoga qarab, kiyim jun tolali, ipak tolali, paxta tolali, zig‘ir tolali, yarim jun tolali, aralash tolali materiallardan, shuningdek, sun’iy va sintetik materiallardan tayyorlangan kiyimga bo‘linadi.



## **1-BOB. ZAMONAVIY KIYIM MODASIDAGI USLUB VA YO‘NALISHLARNI O‘RGANISH**

Yuqorida aytganimizdek, uslub – qandaydir vaqt oralig‘idagi badiiy ifodalanishda umumiyoq vosita va usullardan foydalanishdir. Zamonaviy kiyim modasida, libos dizaynida ham o‘ziga xos yo‘nalish, oqim va uslublar mavjud. Umuman olganda, zamonaviy modada asosiy yirik uslublar – **makrouslublar** 5 ta:

1. **Klassik uslub**
2. **Romantik uslub**
3. **Etno uslub**
4. **Sport uslubi**
5. **Avangard yo‘nalishi**

**Klassik uslub (mumtoz uslub, mumtoz kostyum, mumtoz moda)** – shunday kiyimlar borki, insonning didi, talablari, qiziqliklari, odatlarining o‘zgarishiga qaramay, ular ma’lum ma’noda o‘zgarishsiz qolaveradi. Mumtoz modaga taalluqli, va xatto ba’zan mumtoz moda deb ataluvchi ingliz kostyumi ana shunday kiyimlardandir. Umumjamoatchilik uni hamisha ajoyib, zo‘r, o‘rnak bo‘ladigan deb hisoblayveradi (1.1-rasm).

Franzus modelyeri Gabriel Shanel taklif etgan ayollar kostyumi va “kichkina qora ko‘ylak” ham shunday kiyim qatoriga kiradi.

Mumtoz kiyim pishiqlik, estetik tarafidan to‘kis, o‘ktam va mukammal bo‘lgani uchun kiyim modasida uzoq yashaydi.

Ingliz kostyumi – umumlashgan bir tushuncha sifatida, rang va shakli jihatidan ishchanlik va jiddiylik timsolini anglatuvchi kiyim turidir. U fransuzlarning (faranglarning) Versal modasidagi erkaklar kiyimiga qarama-qarshilik sifatida XVIII asrda paydo bo‘lgan. Fransuzlar u paytda shoyi kaftan va kyulot deb ataluvchi kalta sharvar kiyishgan. Inglizlar esa yuqorida aytilgandek, qarama-qarshilikdek, kundalik kiyim sifatida ot minib yurishga chidamli va qulay sarpo taklif etdilar. Bu sarpo – ustidan redingot

(uzun syurtuk) kiyiladigan movut frak (orqasida uzun etagi bo‘lgan jilet), tor shim (pantalon) va tepasiga qaytarma qo‘sh qo‘nj tikilgan etikdan iborat edi. Erkaklarning bu yangicha libosi ayollar kiyinishiga ham ta’sir etdi: ayollar 19-asrning 80-yillaridayoq o‘zлari ingliz kostyumi deb atagan bu sarpaga o‘tgandilar. Uning tarkibiga to‘g‘ri bichimli yubka (burmali va burmasiz), astarli jaket kirardi. Jaketning bo‘ynida tik yoqasi, ko‘krak qismida esa qaytarma yoqasi bo‘lgan. Erkak va ayollarning bu sarpasiga ishlatilgan mato - to‘kis, sezilmas yo‘li yoki kataklari bo‘lgan, rangi sipo - movut keyinchalik kostyumbop mato yoki kostyumbop movut deb nom oldi. Bu libosni odatda, maxsus shunga moslashgan tikuvchilar yasashardi. Tez orada ma’lum bo‘ldiki, ingliz kostyumini ommaviy ravishda tayyorlash ham mumkin ekan. Oqibatda, tayyor kiyim tikuvchi ustaxonalar paydo bo‘ldi.



1.1-rasm. Zamonaviy ayollar libosida klassik uslubning ko‘rinishi.

**Romantik uslub** o‘tgan asrlar bezaklarning barchasini o‘z ichiga olgan: to‘rlar, nozik kashtalar, gullar, burmalar, pirpiraklar, qo‘shetaklar, bantlar. Bu uslubdagi kiyimlar uchun murakkab bichim; chiroyli, ammo amaliy jihatdan befoyda detallar; nafis yoki murakkab ranglar, matolarning g‘ayrioddiy fakturalari xosdir (1.2-rasm). An’anaga ko‘ra oqshom liboslari romantik uslubda tikiladi.



A



B

1.2 - rasm. Ayollarning zamonaviy libosidagi romantik uslubning ko‘rinishi:

A - Galyanoning Dior Modalar uyi uchun yaratgan libosi, 1997-yil “ot-kutyur” namoyishidan.

B - Marissa Webb brendining 2017-yilda taklif etgan kruiz kolleksiyasidan

Yasan-tusan, tantanavor libos – bayramona, ko‘tarinki ruhdagi kiyim. Ba’zan bayramona ruhli libosga qo‘srimcha

shaklida bezak qilingan kashtalik yoqa, sharf, gul, marjon taqish bilan ham erishiladi. Bu usul jiddiy ish kiyimini ham tantanavor yasan-tusan libosga aylantirish imkonini beradi. Maxsus bayramona libosda barcha mayda-chuyda, ikir-chikir detallar diqqat-e'tibor bilan amalga oshiriladi. Bichimida kutilmagan uslub qo'llanishi va bunda odatlarga atay aks yechimlar topilishi mumkin. Ya'ni, dekolte (yoqa o'mizining chuqur o'yilishi), etakdagi yormalarning o'ta ochiq yoki modaga qarab, o'ta yopiq va hokazolar atay teskari yoki boshqacharoq qilinadi. Taqinchoqlar, poyabzal, paypoq, sumkalar – hammasi sinchiklab tanlanadi. Bu mayda-chuydalarning bari uyg'un, bir-biriga mos tushgan, bir g'oyaga bo'ysungan to'plam, ansambl yaratishga xizmat etishi kerak.

**Etno-uslub (folklor uslubi).** Zamonaviy kiyimda milliy va an'anaviy libos elementlarining ishlatilishi. Boshqacha qilib aytganda, milliy libos asosida zamonaviy kiyimni uslublashtirish. Bunda libos ansambli butunlay yoki uning bir qismi uslublashtirilishi mumkin. Ba'zan esa modellarga an'anaviy libosning rostmana haqiqiy elementlari kiritilishi mumkin (1.3-rasm, A, B, C, D, E).

**Sport uslubi** – bu uslub professional va havaskor sportchilarning gigiyenik va qulaylik jihatidan mukammal va chiroyli kiyimining modaga ta'siri va ommalashuvi oqibatida tug'ilgan. Sodda konstruksiyalar, nisbatan arzon materiallar (sintetik materiallar va sun'iy charm bundan mustasno emas) qulaylik, universallik, yorqin ranglar, turli yozuvlarning bezak sifatida qo'llanishi sport uslubining tashkil etuvchilaridir. Bu yerda sport kiyimi va sport uslubidagi kiyimni farqlash darkor. Agar sport kiyimi professional va havaskor spotchilarning ma'lum sport turi bilan shug'ullanishlari uchun mo'ljallangan maxsus kiyim bo'lsa, sport uslubidagi kiyimlar esa, mo'ljallangaligiga va badiiy yechimiga qarab yo kundalik kiyim, yo uy-ichi kiyimi, yoki dam olish kiyimi, va hatto bashang kiyim ham bo'lishi mumkin (1.4-rasm).



A



C



D



E

1.3-rasm. Zamonaviy modada etno-uslubning namoyon bo‘lishi. A -O‘zbekistonlik dizayner Saida Amir yaratgan etno-uslubdagi libos modeli. Bunda an’anaviy mato hamda zamonaviy bichim mujassam bo‘lgan.

B - zamonaviy mato va bichimda an’naviy arabcha naqshlarni o‘zida mujassam etgan libos tasviri. Undan tashqari bu model romantik uslubni ham o‘zida aks etadi. Internet sahifalaridan olingan rasm.

C - Lotin Amerikasi etnomavzulari aks etgan zamonaviy libos. Bunda yaqqol naqsh, matolar bilinmasa-da, an’anaviy libosdagi bezaklar va kashtaning ranglari, popukli bezak va rangli tasmalar siymoga ham zamonaviy, ham etno ohanglarni bag‘ishlagan. Internet sahifalaridan olingan rasm.

D – fransuz modelyeri Iv Sen-Loranning 20-asr 70-yillarida yaratgan etno uslubidagi libosi. Bunda turkcha an’analarning zamonaviy interpretatsiyasi namoyon bo‘lgan.

E – o‘zbek dizayneri Dildora Qosimovaning (Dildora Kasimova brendi) 2016 yil bahor-yoz mavsumi uchun taqdim etilgan liboslar kolleksiysi. Romantik obrazlarga erishish uchun ham an’anaviy, ham zamonaviy matolar qo‘llangan.



1.4-rasm. Zamonaviy modadagi sport uslubiga misollar.

**Avangard yo‘nalishi** – (fransuzcha – oldinda yuruvchi) yangicha ko‘rinishdagi, avvalgilarini inkor etuvchi, ommabop buyumlarga qarama-qarshisini tanlovchi oqim (1.5-rasm).



1.5-rasm. Avangard yo‘nalishdagi libos modellari.

**Disko** – yoshlar libosidagi kichik bir uslubiy oqimcha. Diskoning ko‘ylak va kostyumlari ishlatalish maqsadi juda tor, ya’ni faqat diskotekaga borish va raqs tushish. Aksariyat bu liboslar yarqiroq, “baqiroq” va ola-chalpoq bo‘ladi. Trikotajdan ham foydalilaniladi. Ularning shakli, bichimi shu davrdagi modaning talabiga mos o‘zgaruvchan. Disko-ko‘ylak (yoki diskotek-ko‘ylak) bu raqs va o‘yining tantanavor libosidir (1.6-rasm).



1.6.-rasm. Disko uslubidagi libos va disco uslubiga xos bo‘lgan elementlar

**Uniseks** (fransuzcha), yoki oneseks (nemischa) – bu so‘zlarning tarjimasi bir jinsli yoki jinsdan tashqari ma’nosini bildiradi. Oddiy qilib aytilsa, bu shunday uslubdagi kiyimki, uni erkaklar ham, ayollar ham kiyaveradi. Jinsi kiyimlari buning uchun yorqin misoldir. Ham erkak, ham ayolning libosiga kiruvchi bunday kiyimlar keyingi paytda ancha seroblashgan: sviter, pulover, kurtka va hokazolar.

**Retro uslub** – zamonaviy modaning o‘tgan zamonlar modasidan amalga oshiradigan mayda-chuyda “o‘g‘irliliklari” shunday deb ataladi. Masalan XX asrning 80-yillarida moda 20–50 yillardagi liboslarning ayrim g‘oyalarini o‘zlashtirishni odat qilgan. Albatta, bunda detallarning ko‘rinishi ancha-muncha o‘zgartiriladi, zamonaviylashtiriladi. Har holda bu ishni uslub emas, uslublashtirish, desa ham bo‘ladi. Balki bu narsa – eski zamonlarni sog‘inish, qo‘msash, deyish mumkin (1.7-rasm).



1.7-rasm. XX asrning 70-yillari ruxida yaratilgan retro uslubidagi zamonaviy liboslar

**Pijama uslubi** – qachonlardir kamzul va shimdan iborat pijama faqat erkaklarning uxlayotganda kiyadigani edi. Ammo, pijama o‘ziga xos uslubdagi ust kiyimi yaratilishiga turtki bo‘ldi. Aslida ular ayollar libosidagi eng odatiy shim, bluzka (kofta), jaket va hokazolar bo‘lib, faqat hajmi ancha keng, qomat qiyofasi berilmagan (qomatlash tirilmagan) va ehtimol xuddi shu tufayli juda qulay kiyimga aylandi. Keng, qo‘yma cho‘ntaklari bo‘lib, yirik, yapasqi katta tugmalari serob kiyimdir.

**Matroscha (dengizcha) uslubdag'i kiyim** – (“matros” – gollandcha, kemadagi eng quyi lavozimdagi ishchi yoki askar) kiyimlar ichida mutlaqo o‘ziga xos go‘zallikka ega kiyimlardan biri. Vaqt-i-vaqti bilan yo‘qolib, ikkinchi o‘rinlarga o‘tib qolsa-da, yangi zamon talabining shakl va proporsiyalarini o‘zlashtirib, yana modaga kirib kelaveradi. Asosiy xususiyatlari taxlamali yoki qisman taxlamali yubka, matroscha keng yoqali bluza (kofta), yoki yo‘l-yo‘l mayka bilan kiyiluvchi jaket. Tasmalar va dengizcha nishonlar bezak sifatida ishlatiladi. Oq, ko‘k ranglar albatta bo‘lishi lozim (1.8-rasm).



1.8-rasm. Dengizcha uslubdag'i liboslarga misollar.

**Safari** – (arabcha so‘zdan kelib chiqqan, “safar” ma’nosida). Yevropada bu Afrikaning ichkarisiga yurish, savannaga yoki junglilarga ovga borish mazmunida ishlatiladi. Ov ishtirokchilari


safar uchun qulay, mo‘ljallangan ishlariga moslashtirilgan kiyimlar kiyganlar. Fazilatlaridan eng muhimi esa bichig‘idagi hamma narsa qulaylikka, yurganda va harakat qilganda badanning hech bir a’zosiga to‘sinqilik keltirmaslikka buysunganligidir. Safar chog‘ida kerak bo‘ladigan qopqali va qopqasiz cho‘ntagu-cho‘ntak-chalar, ilgaklar; kiyimni istagan paytda sharoitga moslab shaklini o‘zgartirish mumkinligi (boshqacha qilib aytganda transformatsiyalanishi); o‘q soladigan joylari bor keng kamarlar; dubulg‘ani eslatuvchi, chivinga qarshi chachvonli bosh kiyim; zaharli ilonlar bilan uchrashuv ehtimolini nazarda tutgan qo‘nji baland botinka yoki etik - bularning bari libosda mujassam edi. Nihoyat libosning o‘zi qalin va pishiq paxta matodan tikilib, unga sintetika aralashtirilmaydi. Djungli va savannada ko‘zga tashlanmaydigan moshrang (xaki) yoki qum rangida bo‘ladi (1.9-rasm).



1.9-rasm. Safari uslubini aks ettiruvchi zamonaviy liboslar.

Xullas, ana shu kiyimdan safari uslubi paydo bo‘ldi. Uni bir paytning o‘zida ishbop, sayrbop yoki sportbop deyish ham mumkin. Safari uslubini ilk bor modaga Iv Sen-Loran kiritgan.

**Op-art** (inglizcha “optikal art” – optik san’at) – ranglar kontrasti, kesishuvchi egri chiziqlar yordamida hosil bo‘luvchi illyuziyalar ishtirokida rangtasvir, grafika asarlarini yoki liboslar yaratish yo‘nalishi (1.10-rasm, A va B). Kiyimda bunday illyuziyalar juda ko‘p ishlataladi (1.10-rasm, V).



A



B



V



PASSION RU

1.10-rasm. A va B – optik illyuziyalarga misollar.  
V - op-art uslubini aks ettiruvchi libos namunalari.

**Pop-art** (inglizcha “popular art” – populyar, ommaviy san’at) – XX asr 50-yillarining ikkinchi yarmida AQSH va Buyuk Britaniyada paydo bo‘lgan badiiy oqim; kompozitsiyalar real buyumlarni, fotorasmlarni, reproduksiyalar, illyustratsiyalarni o‘z ichiga olishi mumkin<sup>23</sup> (1.11-rasm).



A



B

1.11-rasm. Pop-art yo‘nalishidagi liboslarga misollar  
 A - Djanni Versachening “Warholl Dress” ko‘ylagi, Endi Uorxollning grafika va foto asarlariga asoslanib yaratilgan.  
 B – komikslarning tasviri tushurilgan yubkali libos.



1.12-rasm. Zamonaviy modadagi “graffiti” uslubining namoyon bo‘lishi.

<sup>23</sup> Современная энциклопедия “Мода и Стиль”. Москва, “Аванта+”, 2002 г., 282-бет

**Graffiti** – 60-yillardagi pop-artning o‘ziga xos davomi sifatidagi yoshlar kiyimi uslubining davomidir. Yozgi maykalar, jinsi kostyumlari kashta, “shahar folklori” mavzularidagi bosma rasmlar, bolalar chizgan rasmga o‘xshatmalar, turli matnlar (tekstlar) va yozuvlar bilan bezaladi (1.12-rasm).

**Belyo uslubi** – retro uslubining ko‘rinishlaridan biri. Yuqa och rang shoyi va paxta matosidan kishilik uchun tikilgan ko‘ylak, bluzka va sarafanlar. Ular tagdo‘zi, gulduzi kashta yoki oddiy to‘rdo‘z, ko‘z-ko‘z gul, ingichka gul chok bilan hashamlangan. Ayollar ich ko‘ylagini eskitdan shunday bezaganlari uchun uslubning nomi ham shundan tarqagan (1.13-rasm).



1.13-rasm. “Belyo” uslubining zamonaviy ko‘rinishi. Yubka taglik va korsetlarning ichkiyim emas, ustki kiyim sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin.

**Jinsi modasi va jinsi uslubidagi kiyim.** Kurtkalar (ular issiq, paxtali, mo‘ynali bo‘lishi ham mumkin), shim, ko‘ylak, yubka, bosh kiyim, sumka va xatto poyafzal va paltolarning ham jinsi matosidan tikilishi. Sport kiyimiga o‘xshashlik; cho‘ntak-larning, “molniya” qulf-tasmalarining, bezama choklarning, metall tugmalarning, pistonlarning borligi; tejamkor bichim - bularning bari jinsi uslubining o‘ziga xos xususiyatidir. Ba’zan duxoba, charm va boshqa matolardan jinsi kiyimiga o‘xshatmalar chiqa boshlaydi. Hozirgi kunda jinsi uslubidagi ba’zi kiyimlarni o‘ziga xos mumtoz kiyimlar qatoriga kiritish mumkin (1.14-rasm).



1.14-rasm. Zamonaviy modadagi djinsi uslubining ko‘rinshlari

**Ishbop kiyim uslubi.** Dam olish, bog‘ ishlari bilan shug‘ul lanish va qisman mehnat faoliyati uchun mo‘ljallangan liboslarda ishchilarining mahsus kiyimlarining shakli va xususiyatlari saq-

lanadi. Misol uchun, modaga sexdan “kelgan” kombinezon uyda va ko‘chada ham o‘zinig qulay cho‘ntak va pistonlarini saqlab qoladi.

**Diffuz uslubi** (lotincha – “bir-biriga o‘tish”) - XX asr 70-yillari mahsuli. Avvaldan bilib turib, o‘ylab, libosdagi qismlarni turli uslublardan tanlab terish. Romantik uslubdagi ko‘ylak ustidan ishchanlik pidjagi; folklor uslubidagi bluzkaga sport shimi ni kiyish va hokazo. Ammo, har narsaga ruxsat ko‘ngilga kelganini qilish degani emas, har xil uslublardan kostyum yig‘ilarkan, libosning mo‘ljallangan maqsadi, adresi, talablari mustahkam ushlanishi zarur. Bema’ni bachkanalik bachkanaligicha qolaveradi. Bugungi kunda bunday uslubning “fusion” (o‘zb.talafuzda – “fyujn”) va “miks” kabi nomlari kengroq tarqalgan (diffuz degan nomlanishaga nisbatan) (1.15-rasm).



A



B



V

1.15-rasm. Turli uslub elementlarining uyg‘unlashuvidan hosil bo‘lgan diffuz uslubidagi har xil kolleksiyalardan keltirilgan libos namunalari.

**Konstruktiv uslub** - shunday uslubki, bunda dizayn obyekt yoki badiiy asarning tuzilishi, shakli (konstruksiyasi), texnik jihatlari ustun qo‘yiladi. G‘oyadagi asosiy jixatlar – maqsadga muvofiqlik, tejamkorlik va ratsionallik<sup>24</sup>. Konstruktivism – tasviriy san’at, arxitektura, fotografiya, amaliy san’atlarda 1920-yillar 1930-yillarning birinchi yarmida sobiq Sovet Ittifoqida shakllangan avangard yo‘nalish<sup>25</sup>.

Konstruktiv uslubning o‘ziga xosligi shakllarning ixchamligi va soddaligi, geometrikligi va aniqligi hamda obrazlarning jiddiyligi va yaxlitligi bilan belgilanadi. Kiyimda uning konstruksiya maxsus dekorativ bezaklar va usullar bilan bo‘rttirib ko‘rsatiladi (1.16-rasm). XX asrning 50-60-yillarida fransuz dizaynerlari Andre Kurrej bilan Pyer Kardenlar konstruktiv uslubda qiziqarli libos to‘plamlarini (kolleksiyalarini) ko‘rsatgan edilar.



1.16-rasm. Liboslardagi konstruktivizmga misollar.

<sup>24</sup> Современная энциклопедия “Мода и Стиль”. Москва, “Аванта+”, 2002 г., 243-бет

<sup>25</sup> Википедия

**Dekonstruktivizm uslubi** – 20-asr 60-yillarining oxiriga kelib shakllangan bu uslub falsafa, adabiyot, arxitektura va tasviriy san’atga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatgan. Dekonstruktivizm uchun turli tuzilmalar (strukturalar), shakllarning – bu hoh matn, hox arxitekturaviy fazo, hoh badiiy obyekt, hoh kiyimning odatiy bichimlarining - qabul qilingan mumtoz proporsiyalarini, konstruksiyalarini (qurilmalari, tuzilishlarini) hamda elementlari orasidagi odatiy o‘zaro bog‘liqliklarini buzish xosdir. Libos modasida bu uslub Belgiya maktabi vakillari hamda yaponiyalik ustalar ijodida yaqqol namoyon bo‘lgan<sup>26</sup>.

Dekonstruktivizm – bu o‘ziga shakl va strukturaga tegishli tushunchalarni qayta tushunish bo‘yicha o‘ziga xos falsafiy yondashuv. Modada bu kiyimning odatiy bichimini buzish, asimetrik shakllar, erkakcha va ayollarga xos obrazlarning aralashuvi, shakl va bichim to‘g‘risidagi stereotiplarning o‘zgarishi, g‘ayrioddiy ko‘rinishdagi buyum, bichim va matolar sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, bitta yengli bluzalar, bir yelkasi ochiq ko‘ylaklar, ikki tomonlama kiysa bo‘ladigan ustki kiyimlar, haddan tashqari keng o‘lchamli kiyimlar (oversayz), shimdagi ko‘ndalangiga tushgan burmalar, libosdagi ko‘p qavatlilik, aksessuarlar dizayni, rangi va shaklining tartibsiz va mantiqsiz tanlanganligi (1.17-rasm).

XX asrning zamonaviy libos loyihalash sohasidagi yetakchi hisoblangan Yodji Yamamoto, Rey Kavakubo, Jan-Pol Gotye, Vivyen Vestvud, Martin Marjela, Xelmut Lang, Ann Demelmeyster kabi dizaynerlarning bu yo‘nalishdagi ijodi e’tiborga loyiqdir.

“Militari” – harbiylar formasidagi elementlarni boshqa kiyimga ko‘chirish, yoki zamonaviy kiyimni harbiy forma asosida uslublashtirish (1.18-rasm).

---

<sup>26</sup> Современная энциклопедия “Мода и Стиль”. Москва, “Аванта+”, 2002 г., 283-бет



A



B



D



E

1.17-rasm. Libosdagi dekonstruktivizmga misollar.



1.18-rasm. Zamonaviy liboslardagi “militari” uslubining namoyon bo‘lishi.

**Xippi uslubi** – (*inglizcha hip* yoki *hep* – bilmoq, tushunmoq, “mavzuda, oqimda bo‘lmoq” ma’nolarida) – XX asrning 50-60-yillarida Amerikadagi xippilar harakati va submadaniyati nomidan kelib chiqqan libos modasidagi uslub. Bu uslub oddiyligi, kamsuqumligi va notalabchanligi, aksessuarlarning serobligi, etnik tashkil etuvchilarning borligi bilan xarakterlanadi.

Tabiiy matolar, o‘ta yorqin ranglar, qo‘lda to‘qilgan nimcha va poncholar, tosh va yog‘ochdan qo‘lbola yasalgan taqinchoqlar, to‘zigan djinsi shimplar, shim pochasidagi o‘ta keng “klyosh”lar, oddiygina trikotaj futboldalar, barcha kiyimlarda “leybl” larning yo‘qligi (chunki xippilar antiglobalist bo‘lishgan), tabiiy tirik gullar (xippilar o‘zlarini “gullarning farzandlari” deb atashgan) va boshqalar xippi uslubiga xosdir (1.19-rasm).

**Boxo-uslubi (yoki bogema uslubi).** Markaziy Yevropada Bogemiya hududidagi yashovchi Bohemiens (frans.) – lo‘lilar) degan nomdan kelib chiqqan. Muhtojlikda kun kechiruvchi artist, musiqachi, rassom, shoirlarning sargardon va beorom hayoti, qo‘nimsiz turmush tarzi natijasida mazkur sohalardagi ijod odamlarni “bogema” deb atashni boshlashgan. Boshdan kechirilayotgan turmush tarziga o‘xhash “boxo”- uslubi eklektik uslubdir, unda hashamatli kiyimlar bilan oddiylari, o‘zi uchun buyurtmaga tikilganlari bilan begonadan olinganlari (o‘zinikimaslari), kechagina xarid qilinganlari bilan bir necha yil kiyilganlari birgalikda kiyilgan bo‘lishi mumkin edi. Bu uslubga qo‘shqavatlilik, ko‘p fakturalilik, eklektiklik, g‘alatilik, tabiiylik xosdir (1.20-rasm).

Boxo uslubini xippi uslubi bilan solishtirsa bo‘ladi. Har ikkala uslubni to‘zigan djinsi shimlar, ana’naviy shakldagi xalq ko‘ylaklari, lo‘licha yubkalar birlashtirib turadi. Ammo bu uslublarning mafkurasi turlichadir: xippi uslubi - ommaga, ko‘pchilikka mos, demokratik bo‘lsa, boxo uslubi elitardir.

**Granj** (inglizcha-amerikacha “grunge” – yoqimsiz, jirkanch so‘zidan kelib chiqqan) – XX asr oxirida Amerikadan kelib chiqqan uslub bo‘lib, uning asosida zamonaviy yoshlarning jamiyatga qarshi e’tirozlarining ifodasi yotgan. Bu uslub paydo bo‘lishiga XX asrning 90-yillarida paydo bo‘lgan yoshlar submadaniyati va “granj” uslubidagi musiqiy yo‘nalish sababchidir. Dadil va o‘ziga yarasha qo‘rs “granj” uslubi hashamatni yoqtiruvchilar, dabdaba bilan zavqlanuvchilar, ortiqcha zebzynatga burjuacha berilganlarning ustidan kulib, ko‘chadagi o‘smirlarning madaniyati, aniqrog‘i kontrmadaniyatini madh etar edi. XX asr 90-yillarida paydo bo‘lgan “Nirvana” (“Nirvana”) guruhining sardori Kurt Kobeyni granj uslubining ikonasidir.

70-yillar xippi uslubiga biroz o‘xshashib ketishiga qaramay, granjda “gullar bolalari”ning romantikasi uchramaydi, unda pankmodaning yorqin tomoshabopligi ham yo‘q.



1.19-rasm. Zamonaviy liboslardagi “xippi” uslubining namoyon bo‘lishi.



1.20-rasm. Zamonaviy liboslardagi “boxo” uslubining namoyon bo‘lishi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra granj uslubi dastavval antimoda bo‘lgan. Bir-birining ustidan katta-kichikligi qandayligiga qaramay eski yirtiq buyumlarni kiyib chiqib mashshoqlar va ularning muxlislari odob meyorlari va kiyinish qoidalariga to‘la befarqliknamoyish etdilar. Biroq, har doim antimodada bo‘lgani kabi, “Nirvana” guruhining ijrochisi Kurt Kobeyni MTV da va moda jurnallari sahifalarida paydo bo‘ldi demaguncha, uning liboslari – unniqqan futfolkalar, cho‘zilib shaklini yo‘qotgan trikotaj djemperlar, djinsi va kedalari modali uslubga aylana boshlandi. Second hand kiyimlari va qo‘pol botinkalarga xuddi yuvilmasdan bir-biriga yopishib ketgan sochlar effektini beruvchi palapartishdek qilib kesilgan sochlar, uzun-yuluq yirtilgandek ko‘ylak va rubashkalar, rangi oqorgan futfolkalar, keng bichimli g‘ijimlangan shimlar, harbiylar botinkasi, metalldan yirik bezaktaqinchoqlar, qo‘pol-dag‘al matolardan yoki usti yorilgan va g‘ijimlangan charmdan qilingan xira gungurt ranglardagi kurtkalar kelib qo‘sildi (1.21-rasm).



1.21-rasm. Zamonaviy liboslardagi “graj” uslubi elementlari.

**Glamur uslubi** – bugungi kunda ayollarning yorqin obrazlarini namoyon etuvchi eng ommabop va modabop uslublardan biridir.



1.22-rasm. Zamonaviy liboslardagi “glamur” uslubi elementlari.

**Casual uslubining** (inglizcha – “tasodifiy, kundalik”, talafuzda “kejual”) asosiy jihatlari bu amaliylik, qulaylik, siluetlarning soddaligidir. Klassik uslub elementlari bilan noformal liboslarning uyg‘unlashuvi shahar ichida kiyishga mo‘ljallangan kiyimlarni birlashtirgan mazkur uslubcha (mikrouslub) shakllantiradi. Zamon modasining liboslaridan kelib chiqib, odam o‘zi hohlagan narsasining tanlanishidan hal etilishi mumkin. Faslga qarab, moda taklif etayotgan narsalarga qarab shimning kengligi, yubkaning uzunligi, yelka kengligi, detallarning shakllari tanlanadi. Bu uslubni taklif etarkan moda ko‘cha uchun norasmiy kiyimning qanday bo‘lishi kerakligini maslahat beradi xolos. Bular ochiq sport libosi bo‘lmasa-da, harakatlarga to‘sqinlik qilmaydigan, kerak bo‘lsa ishbop, kerak bo‘lsa erkin yurishni taminlaydigan o‘rtacha mezondagi narsalardir: o‘rtacha yoki past

poshnali qulay poyafzal, shlyapa va plashchlar; galstuksiz kiyiladigan ko‘ylak; kostyum yoki jilet; ayollarga meyyorida uzunlikdagi yubkalar, vaziyatga qarab turli sharflar; to‘qima, yumshoq bosh kiyimlar – ana shu liboslarning bari sayrbop bo‘lishi mumkin. Eng asosiysi kostyumdagi – qavat–qavatlilik; “qavat”larning sonini esa obi-havoning avzoyi belgilaydi.



1.23-rasm. Zamonaviy liboslardagi “casual” uslubi elementlari.

Yuqorida keltirilgan zamonaviy modadagi uslub va yo‘nalishlar amalda nihoyatda ko‘p va serqirra. Dizayner uchun libos modasidagi uslubning kelib chiqishi, uning tashkil etuvchilarini bilish va tushunish, ularni o‘z ijodida qo‘llash o‘ziga xos professionallik darajasini belgilab beruvchi ko‘rsatkichlardan biridir.

## **1-loyiha: Kollaj kollaj texnikasi yordamida zamonaviy modadagi turli uslublarni aks ettiruvchi kompozitsiyalar yaratish**

### ***Loyihaning maqsadi:***

- kollaj texnikasini o‘rganish;
- texnikaning usul va vositalari bilan tanishish;
- zamonaviy modadagi uslublarni o‘rganish;
- kollaj texnikasi yordamida zamonaviy modadagi turli uslublarni aks ettiruvchi kompozitsiyalar yaratish.

### ***Tayanch ma’lumotlar:***

**Kollaj** – tasvirlash texnikasi, unda turli faktura va teksturali ashylarni hamda rangtasvir, akvarel, grafika texnikalarining vosita va usullaridan foydalanib kompozitsiya yaratish mumkin.

**Faktura** – bu material tashqi ko‘rinishi (uning bo‘rtma yoki bo‘rtma emasligi, o‘ng tarafidagi sirtining guli, yaltiroqligi) va boshqa xususiyatlariga ta’sir etuvchi sirtining strukturasi, tuzilishi. Umuman olganda, faktura o‘ta qudratli vositadir.

Demak, kollaj - tasviriylar san’atdagi texnik usullardan biri bo‘lib, unda ma’lum bir asosga rangi va fakturasi turlichay bo‘lgan ashyo parchalari yopishtiriladi. Kollaj so‘zining ma’nosi ham fransuzchadan “yelim, yelimlash” so‘zlaridan kelib chiqqan. Hatto qadimgi Xitoyda rangli qog‘oz, quritilgan barg va gullardan kompozitsiyalar yaratish keng urf bo‘lgan.

Kollajni qo‘lda, fotolar yordamida yoki kompyuterda (masalan CorelDraw dasturida) bajarish mumkin.

### ***Loyiha doirasidagi ishlar ketma-ketligi:***

- 1.Zamonaviy modadagi biror usubning paydo bo‘lish, shakllanish va rivojlanish tarixini o‘rganing.
- 2.Ushbu uslubni aks ettiruvchi ma’lumotlar, materiallarni to‘plang.
- 3.Bo‘lajak kompozitsiyaning mavzusini aniqlashtiring. Modadagi ma’lum uslub bo‘yicha tanlangan mavzu mazkur usulbga bo‘lgan ijobiy yoki salbiy munosabatingizni, uslubning shakllanish tarixini yoki uning bugungi kundagi rivojlanish yoki

rivojlanmaslik omillarini, tanlangan uslub yo‘nalishida ijod qilayotgan dizaynerlarning faoliyatini va boshqalarni aks ettirishi mumkin.

4. Bo‘lajak kollajning kompozitsiyasini mavzu g‘oyasidan kelib chiqib tuzing. To‘plangan ashylarni tahlil qiling. Kollaj yaratish uchun yana kerak bo‘ladigan turli faktura va teksturalarni tayyorlang.

5. Kollajli ijodiy kompozitsiyani yakunlab, bajarilgan ishlar bo‘yicha taqdimot tayyorlang.

### ***Loyihani bajarish bo‘yicha tavsiyalar:***

Har qanday kompozitsiyada bo‘lgani kabi kollaj yaratayotganda ham uyg‘unlik, meyyor, go‘zallik kategoriyalariiga rioya qilish kerak. Undan tashqari kollajning vositalari tanlangan mavzuga mos bo‘lishi ham talab qilinadi.

Ushbu mashg‘ulot kollaj texnikasini san’atning bir turi sifatida o‘rganish, barchada ijodkorlikni oshirish uchun mo‘ljallangandir. O‘tgan asrning eng inqilobiy badiiy innovatsiyalaridan biri deb hisoblangan kollaj (fransuzcha “koller” – yelim, yelimalsh so‘zidan kelib chiqqan) barcha uchun – badiiy ma’lumoti bo‘lgan rassomdan to chizishni bilmaydiganlarga ijod qilish imkonini beruvchi vositadir.

Atrofimizdagи tinimsiz o‘zgarish va ixtiolar, yangicha ashylarning paydo bo‘lishi rassom tomonidan badiiy asarlarni yaratishga chorlaydi, ularni ifoda etishdagi erkinlikni ta’minlaydi. Kollaj kuch-g‘ayrat taratayotgandek hayotiy kuch beradi ham. Shuning uchun bu san’at turi (shakli) talabalar uchun kompozitsiyaning chiziq, shakl, rang, miqdor, faktura, hajm va makon kabi elementlaridan foydalanishni o‘rganishda tabiiy vositalardan biri hisoblanadi<sup>27</sup>.

Bizning hayotimiz turli siymolar (obrazlarga) to‘la (bosh-qacha qilib aytganda, hayotimiz davomida turli siymolar, xotiralarni to‘plab boramiz). Ko‘pchilik bunday vizual xotiralar: fotografiyalar, eski jurnallar, kitoblar, tashlab yuborilmagan

---

<sup>27</sup> Collage and Texture in Painting: Step-by-Step guide. 2014 y.

buyumlar, parchalar, qismlar va hokazolarni umri davomida har kuni to‘playdi.



1.24-rasm. P.Pikassoning “Shisha stakan va butilkadan tuzilgan natyurmort”i. Bu asarni yaratishda Pikasso kollaj texnikasidan mohirona foydalangan. Unda gazeta parchasi, oddiy oq varaq hamda devorga yopishtiriladigan gulqog‘oz – oboy ishlataligan.

Ushbu mashg‘ulotda dizayn va kompozitsiyaning an'anaviy elementlari, rang nazariyasi haqida ma'lumotlar sharhi bilan bir qatorda amaliy ishslash uchun har bir talabaga qator g‘oyalar (mavzular) va turli ashylar bilan ishslash tavsiyalari beriladi. Kollaj to‘g‘risidagi chuqur tanqidiy mulohazalar va uning tarixidan sharhlar kollaj yaratayotganda g‘oyalarni qaytadan ishslash, ularning avvalgi talqinin yangilash imkonini beradi, hamma vaqt yangilanib chegaralarni kengaytiradi<sup>28</sup>.

Mashg‘ulot ijodiy, konseptual, texnik imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, aralash metodlarni qo‘llaydi, mustaqil ishslash uchun kerakli ko‘nikmalarni o‘rgatadi.

**Kerak bo‘ladigan ashylar va matnlarni to‘plash.** Kitob va san’atga doir buyumlarni sotadigan do‘konlardan olingan ba’zi yangi narsalardan tashqari, eski yoki tashlab yuborilish lozim bo‘lgan buyumlar ham kerak bo‘ladi. Kollaj yaratishning maqsadi ham utilizatsiya qilinadigan narsalardan qayta foydalanishdir. Undan tashqari eski jurnallarni sotadigan magazin va savdo qatorlaridagi buyumlar kerak bo‘ladi.

Kollaj yaratish uchun kerak bo‘ladigan asboblar: kanselyariya pichog‘i, qaychi, akril uchun mo‘ljallangan mo‘y-qalamlar (arzonrog‘i ham bo‘ladi), yelimli tasma –skotch, rangli qalamlar, akvarel va akril bo‘yoqlar, yelim va boshqalar.

Undan tashqari jurnal, gazeta, kitob, yozuvli eski daftarlardan varaqlar, mato parchalari, fotosuratlar, aji-bujilar va turli chizgilar tushirilgan rasmlar, rangli qog‘oz parchalari, quritilgan gul va barglar, patlar, turli bo‘rtma mayda-chuydalar - mexanizmlar, singan bo‘laklar, zanjirlar, tugmacha, knopka, munchoqlar va boshqalar kerak bo‘ladi.


Kollaj yaratish uchun turli fakturalar ham kerakdir. Masalan, har xil sirtli qog‘ozlarga turli usullar bilan tushurilgan dog‘lar va izlar, bo‘rtma rasmlar va naqshlar.

Qog‘ozlarga turlicha ishlov berish, ularni buklash, taxlash va g‘ijimlash natijasida ham turlicha faktura va tekstura berish mumkin. Masalan, g‘ijimlangan qog‘ozni kseroks yoki skanerdan

---

<sup>28</sup> Collage and Texture in Painting: Step-by-Step guide. 2014-y.

o‘tkazish, turli narsalarni betartib qavatma-qavat joylashtirib undan nusxa olish kabi usullarni qo‘llash mumkin. Chetlari yoqib kuydirilgan qog‘oz parchalari yoki choy, kofe yordamida bo‘yalgan qog‘ozni ham qo‘llasa bo‘ladi.



1.25-rasm. Turli rang va faktrali qog‘ozga chizishning har xil vositalari qoldiradigan izlar (dog‘lar)

Qog‘oz parchalarini turli eritmalarda ivitib, ivitilgan massadan boshqacha fakturali qog‘oz ham yaratish mumkin. Buning uchun qog‘ozga maxsus ishlov beriladi:

- qog‘ozni yirtib yoki qirqib parchalar eritmada (oddiy suv, bo‘sh kislota) ivitiladi;
- ivitilgan massaga yelim qorishtiriladi;
- massani g‘alvir yoki yirik elakka qo‘yib, ortiqcha suyuqlik oqib ketishi ta’minlanadi; bunda qorishmaning bir tekis va ravon yoyilishiga e’tibor berish kerak;
- massa presslanadi. Buning ikki usuli mavjud. Birinchisida faqat bosim ishlatilsa, ikkinchisida ham bosim, ham yuqori temperatrua qo‘llanadi (dazmol yordamida). Birinchi

usulda hosil qilingan qog‘oz sirti dag‘alroq, dazmol yordamida presslangan qog‘oz esa silliqroq bo‘ladi.



Porolon gubka  
aylantirib botirishdan  
qolgan iz



Gubkadan puantilizm  
usuli bilan qoldirilgan iz



Gubkani surtish tufayli  
qolgan izlar



Mastixin qirrasi bilan  
qoldirilgan izlar



Mastixinning yassi  
qismi bilan surtilgan  
bo‘yoq izi



Sanchqi yordamida  
grattaj izlari



Akvarel yordamida  
hosil qilingan faktura




Quyuqroq bo‘yoqni  
(guash, moybo‘yoq,  
akril) bo‘rtma qirra  
yordamida surtish



Qattiqroq mo‘yqalam  
yordamida bo‘yoqni  
sachratish

### 1.26-rasm. Faktura bilan eksperimentlar



Suv solingan idishga moy bo‘yoq tomiziladi



Moybo‘yoq suv bilan aralashmaydi, suvning sirtida turli dog‘lar paydo bo‘ladi



Oq varaqni suv sirtiga tegizib, biroz botirib olinadi



Aylanma harakat bilan qog‘oz suvdan ko‘tarib olinadi



Endi suvning sirtiga ikkinchi rangdagi bo‘yoq tomiziladi



Bir marta bo‘yalib qurigan qog‘oz yana bir bor suv sirtiga tegiziladi

1.27-rasm. Qog‘oz sirtini “marmarlash”



1.28-rasm. Rangli ko‘piklarning qoldirgan izidan hosil bo‘lgan faktura.



1.29-rasm. Jurnal va gazeta sahifalarini qirqib hamda fotosurat yordamida tayyorlangan kollajli kompozitsiya. Casual uslubi.



1.30-rasm. Fotomateriallar yordamida tayyorlangan kollajli kompozitsiya. “Militari” uslubi.



1.31-rasm. Turlicha ishlov berilgan va har xil shakldagi qog‘oz bo‘lakchalari, faktura, mato parchalari, qo‘lda chizilgan eskizlar ishtirogida tayyorlangan kollajli kompozitsiya.

98



1.32-rasm. Kompyuterda tayyorlangan kollaj. Zamonaviy romantik xipster.



1.33-rasm. Jurnal va gazeta sahifalari hamda rangli qog‘oz parchalarida tuzilgan kollaj. Kompozitsiya grafik chizgilar orqali tugallangan ko‘rinishga ega bo‘lgan.



1.35-rasm. Fotolar, geometrik shakllar va turlichay matndan foydalanib tuzilgan kollajli kompozitsiya.



1.34-rasm. Fotosurat, gulli qog‘oz xamda grafika yordamida tuzilgan kollajli kompozitsiya. Bundagi fon ham kompozitsiya elementi bo‘lib xizmat qiladi.



1.36-rasm. Turli faktura va  
ashyolardan, mayda buyumlar va  
otosurattdan tuzilgan kollaj



1.37-rasm. Jurnal va gazeta sahifalari yordamida tayyorlangan kollajli kompozitsiya.

## **Nazorat uchun savollar:**

1. “Moda”, “uslub”, ”ansambl”, ”kostyum” tushunchalariga ta’rif bering.
2. Zamonaviy modadagi “Houte Couture” (“ot-kutyur”) va “pret-a-porter” (pret-a-porte”) terminlari nimani anglatadi?
3. Zamoniy modadagi klassik (mumtoz) uslubga ta’rif bering.
4. Zamonaviy modadagi sport uslubiga ta’rif bering.
5. Zamonaviy modadagi romantik uslubga ta’rif bering.
6. Zamonaviy modadagi etno - uslubga ta’rif bering.
7. Zamonaviy modadagi safari uslubiga ta’rif bering.
8. Zamonaviy modadagi retro - uslubga ta’rif bering.
9. Zamonaviy modadagi “militari” uslubiga ta’rif bering.
10. Zamonaviy modadagi diffuz uslubga ta’rif bering.
11. Zamonaviy kiyim modasidagi yana qanday uslublarni bilasiz?
12. Zamonaviy kiyim modasida yangi uslub va oqimlar paydo bo‘lishiga nimalar sabab bo‘lishi mumkin?
13. Kollaj so‘zi nimani anglatadi?
14. Ilk marta kollaj texnikasini kimlar qo‘llagan?
15. Qog‘ozda turlicha fakturalarni hosil qilishining qanday usullarini bilasiz?

## **2-BOB. LIBOSLAR VA GAZLAMALARINI BADIY-DEKORATIV BEZASH USULLARI**

Libosning ahamiyatli va muhim vazifalaridan biri estetik funksiyadir. Boshqacha qilib aytganda, moddiy madaniyatning tashkiliy qismi sifatida libos estetik vazifani bajarishi lozimdir. Hatto ibridoib odam ham kiyimga faqatgina himoya vositasidek qaramay, balki e'tiborni o'ziga qaratish va qabiladoshlariga jozibakor ko'rinish maqsadida uni bezatgan.

Amaliy san'atning haqiqiy durdonasiga namuna sifatida o'zining sodda bichimida rango-rang kashta, turli jiyaklar bilan bezatilishi, ranglarining tabiiyligi, matolarining ko'rakmili bilan ajralib turadigan an'anaviy o'zbek libosini keltirsa bo'ladi.

Jamiyatning rivojlanishi jarayonida libosning estetik ahamiyati oshib borgan. U turli usullar bilan juda ko'p hashamlangan, ba'zan hatto haqiqiy san'at asariga aylangan. Libosni yaratishda uni badiy-dekorativ bezash jarayoni ma'lum davrning estetik ideali va moda talablariga mosligini belgilab beruvchi ajralmas bosqichi bo'lib qoldi. Libosning vazifasi va kiyilish sharoitidan kelib chiqqan holda uni dekorativ bezash tamoyillari ham shakllantirib borildi.

Libosdagi dekor – badiy bezak - amaliy jihatdan hech qanday vazifani bajarmaydigan, faqat libosni bezash uchun ishlatiladigan elementlarning yig'idisidan hosil bo'lgan badiy tizimdir.

Libos bezatishdagi dekorativ elementlar muhim hususiyatga ega: ular bizning nazarimiz, nigohimizni fazoviy shakl sirti bo'ylab yetaklaydi, u yoki bu taassurotlar, hissiyotlar, emotsiyalarni baxsh etadi. Turli emotsiyalarni yetkazish, ta'sirchanlik va ifodalilikka libosda turli dekorativ elementlar, badiy bezash usullari yordamida erishiladi.

Bezak libos kompozitsiyasining elementlaridan biri hisoblanadi. U albatta asosiy chiziqlar, shakllar, mato, konstruksiya, rang bilan bog'liq va muvofiqlashgan bo'lishi lozim.

Amaliylik, ya’ni utilitarlik jihatidan, libosdagi dekorativ elementlar konstruktiv yoki funksional elementlarga nisbatan majburiyemasdek, ammo asrlar oshib ham ular o‘z dolzarbliji va jozibasini yo‘qotmagan. Ming yillik taraqqiyoti davrida libos va matolarni bezashning ko‘pdan-ko‘p usullari qo‘llab kelingan. Bu usullar takomillashgan, ulardagi shakl-shamoyillar modaga mos ravishda o‘zgartirilgan, yangicha texnologiyalar va ashyolar paydo bo‘lgani tufayli zamonaviylashtirilgan. Ulardan eng ko‘p uchraydiganlari quyidagilardir:

**Kashtado‘zlik** – rangli iplar, kumush va tilla simlar, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, marjon va munchoqlar, biser va shisha toshlar (steklyarus), payetkalar yordamida mato va materiallarga naqsh, rasm, gul solish (tushurish).

**Applikatsiya** - rang-barang qog‘oz yoki mato parchalarini biror narsaga yopishtirib yoki tikib naqsh, gul hosil qilish usuli; shu usulda hosil qilingan naqsh, gul.

**Batik** – matoga maxsus bo‘yoqlar yordamida turli usullar bilan rasm tushurish.

**Bosma qilish** – mato sirtiga turli shakl, qolip, trafaretlar yordamida gul bosish.

**Quroq, pechvork** – turli material va mato bo‘lakchalaridan ma’lum rasmli yoki naqshli polotno yig‘ish.

**Kvilt** – quroq qilingan polotno ustidan naqshli qaviqlar o‘tkazish. Ba’zan polotno shishibroq turishi va qalinroq bo‘lishi uchun unga sintepon, paxta, vatinli qo‘shimcha qatlama qilinadi.

**Perforatsiya** – material sirtida turli shakl va kattalikdagi teshiklardan naqsh tushurish (o‘yib-qirqib yoki maxsus pichoqli qoliqlar yordamida teshib).

**Bosma iz qoldirish** – materialning yumshoq sirtini ezib rasm yoki naqsh hosil qilish. Asosan charmada qo‘llaniladi, ya’ni ko‘nga naqsh solish texnologiyasi (“tisneniye”). Bunda yuqori harorat va katta bosim beradigan maxsus moslamalar zarur.

**Plisse** - matodan turli usullar bilan kengligi 5 mm dan 5 sm ga qadar bo‘lgan parallel taxlamalar hosil qilish usuli

**Gofre** – bir tomonlama yo‘nalishdagi mayda yoki yirik g‘ijimlangan faktura.

**Drapirovka** – materialni turli xarakterga ega bo‘lgan taxlamalarga yig‘ish. Bunda taxlamalar turli yo‘nalishlarda va erkin to‘kilib turuvchi bo‘lishi mumkin.

**Badiiy to‘qimachilik** – naqsh yoki ma’lum tasvirni ko‘pincha har xail fakturaga ega bo‘lgan rangli iplar yordamida polotno yoki tasma to‘qish.

Dekorativ bezaklar turlichadir. Ularni turi, shakli, bajarilish usullari va materiallariga binoan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- bevosita material yoki kiyim detali sirtida turli texnologik usullar orqali bajarilgan bezaklar: bo‘rtma choklar, bezak banya qatorlar, taxlamalar, buflar, drapirovkalar, burmalar, plisse, gofre;

- kashta kashta va uning elementlari, applikatsiya orqali bezak berish;

- asosiy yoki bezak materialidan bajarilgan bezak detallarini – pirpirak, volan, bantlar, xlyastik, klapan, beyka, mag‘izlar – kantlar va h.klarni qo‘llash;

- to‘qimachilik ashyolaridan bajarilgan - krujevo – to‘r, tasmalar, jiyaklar, chilvir, shokila, popuklar bilan bezatish;

- tabiiy va sun’iy mo‘yna, charm, tagcharm (zamsh), barxat, trikotajni bezak sifatida qo‘llash;

- furniture yordamida bajarilgan: tugmacha, pryajka, “molniya” tasmasi bilan bezash;

- gulli, naqshli, turli mavzudagi “print” va yozuvlarni bosma qilish.

## **2-loyiha: Liboslar va gazlamalarni badiiy-dekorativ bezashning turli usullarni o‘rganish**

### ***Loyihaning maqsadi:***

- badiiy-dekorativ bezash usullari, texnikalarini o‘rganish;

- ularning texnik imkoniyatlari bilan tanishish;

- badiiy-dekorativ bezash usullarining qo‘llanilish sohalari va ko‘rinishlarini o‘rganish;

- badiiy-dekorativ bezashning turli usullaridan foydalanib namunalar tayyorlash.

### ***Loyiha doirasidagi quyidagi amaliy topshiriqlar bajariladi:***

1. Kashta tikish texnologiyasi, kashta turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.
2. Kvilting, quroq, pechvork texnologiyasi, turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.
3. Bo'yash, batik texnikasi texnologiyasi, usullari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.
4. Bosma qilish, blokprinting texnologiyalari, turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.
5. Plisse, gofre, taxlamalar va boshqa bezak turlari, ularning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.

### ***Topshiriqlarni bajarish bo'yicha umumiy uslubiy ko'rsatmalar:***

1. Badiiy-dekorativ bezash usullari, texnikalari bo'yicha ma'lumot to'plang. Ularning tarixi, an'anaviy usullarini o'rganing.
2. Bezak berish usullarining zamonaviy liboslarda qo'llanilishi tadqiq qiling. Usullarning zamonaviy ko'rinishlarini o'rganing.
3. Bajariladigan namunalarning konsepsiyasini o'ylab chiqing. Kerak bo'ladigan ashyolar va jixozlarni tayyorlab namunalarni bajaring. Namunalarning o'lchами 40x40 sm.dan kichik bo'lmasin.
4. Bajarilgan ishlarni asoslang va ular bo'yicha taqdimot tayyorlang.

### ***1-amaliy topshiriq: Kashta tikish texnologiyasi, kashta turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish***

#### ***Tayanch ma'lumotlar va topshiriqni bajarish bo'yicha tavsiyalar:***

Yuqorida aytilganidek, **kashtado'zlik, kashta** – rangli iplar, kumush va tilla simlar, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, marjon va munchoqlar, biser va shisha toshlar (steklyarus),

payetkalar yordamida mato va materiallarga naqsh, rasm, gul solish (tushurish).

Kashtado‘zlik xalq hunarmandchilik san’atining eng qadimiy turlaridan bo‘lib, u xalqning o‘z turmushini go‘zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro‘zg‘or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo‘llaniladi<sup>29</sup>.

**Zardo‘zlik** – kashtachilikning muxim turlaridan biri bo‘lib, kashtalarda oltin, kumush rangdagi ipak va zar tolalardan foydalaniadi.

**Aplikatsiya** – (lot. yopishtirish) asos materialga (gazlama, charm, trikotaj, qog‘iz va b.) rang-barang materiallarni yopishtirish yoki tikish yo‘li bilan bezashdir.

Kashta tikish uchun kashta gul, rasm, naqsh, ornament bo‘lishi zarur.

**Naqsh** - arabcha tasvir, gul degan ma’nioni anglatadi.

**Ornáment** - (lot. ornemantum - bezak) tarkibiga kiruvchi elementlarning takrorlanishidan hosil bo‘lgan naqsh.

Ornament – insoniyatning tasvirlash faoliyatidagi eng qadimgi usullaridan biri bo‘lib, uzoq o‘tmishda ramziy hamda fusunkor ma’noga ega bo‘lgan.

Kashtachilik san’atida har bir millatning o‘ziga xos eng ko‘p qo‘llaydigan naqshlari (ornamentlari) bo‘ladi. An’anaviy kashtalarda qo‘llaniladigan ornamentlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Geometrik ornament – nuqta, chiziqlar va geometrik shakllardan tashkil topgan bo‘ladi.



<sup>29</sup> S. Bulatov. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. T.: “Mehnat”, 1991-y., - 312 b.

2. O'simliksimon ornament barg, gul, mevalar, shox va novdalarning uslublashtirilgan shakllaridan tuzilgan bo'ladi.



3. Zoomorf ornament o'z ichiga real yoki fantastik jonzotlar (hayvon, qush, baliqlar va h.k.)ning uslublashtirilgan tasvirini o'z ichiga oladi.



4. Antropomorf ornamentda odamlarning stilizatsiya qilingan gavdalari yoki tana qismlari qo'llaniladi.

**O'zbek an'anaviy kashtachiligi haqida qisqacha ma'lumotlar.** Respublika Davlat Amaliy san'at muzeyida milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan xalq amaliy san'atining eng noyob yodgorliklari saqlanadi. Muzey ekspozitsiyalarida xalq

amaliy san'atining 50 dan ortiq turi namoyish etib kelinmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston hududida asrlar davomida xalq badiiy hunarmandchiligining o'ziga xos yirik markazlari shakllangan.

San'atning har bir yo'nalishi insondan qalb go'zalligini, nafislikni talab qiladi. Amaliy bezak san'atining ham qadimiy va o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan turlaridan biri kashtachilikdir. Respublikamiz hududida mavjud kashtachilik maktablari juda boy tarixiy-ijtimoiy, falsafiy-ramziy hamda amaliy san'atning rang-barang ko'rinishi bilan alohida o'rin tutadi.

Yurtimizning turli viloyatlarida kashtachilikning o'ziga xos maktablari mavjud. Aniqrog'i, har bir hududning o'z maktabi bor. So'zanayu palaklarga nazar tashlar ekansiz, ularda aks etgan manzaralarni ko'rib, o'zbek ayolining bilim va salohiyatiga tan bermaslik mumkin emas. So'zanalar asosan ayollar qo'l mehnatining mahsuli sanaladi. Ta'kidlash kerakki, har bir so'zana yoki palakda olam-olam sir-sinoat mujassam. Ularda nabotot dunyosidan tortib, koinot kengliklarigacha bo'lgan ko'z ilg'ammas ajoyibotlar turli shakl va kompozitsiyalarda aks ettirilgan.

Buxoro kashtachilik maktabi yopiq kompozitsiyali bo'lib, markazi va cheti zanjirli kashta bilan ajratilgan. Samarqand kashtachilik maktabiga kelsak, naqshi to'q qizil rangdan iborat bo'lib, aylana shakldagi to'pbarggul so'zana atrofiga joylashtiriladi. Urgutlik chevarlar esa asosan oppoq bosma chokdan foydalanishadi. Ulardagi to'q qizil va sariq gulli naqshlar quyosh ramzini ifodalaydi. So'zana markazida katta aylana, unga nisbatan chorak kattalikdagi to'rt dona aylana to'rt chetiga joylashtirilgan bo'lsa, u Shahrисабз kashtachilik maktabiga taalluqli. Toshkentlik chevarlar esa katta aylanali qoramtil qizil rangli palak mato ustiga zinch qilib tikilgan gulko'rpani afzal ko'radilar.

Farg'ona kashtachiligi maktabida so'zana qoramtil yashil va binafsha rang ipak gazlama yoki satinka nafis naqshlar tikiladi.

Jumladan, Nurota maktabida so'zana asosan oq fondagi gulli naqshlarni aks ettirishi bilan farqlanadi. Qush va jonivorlar ramzi ularni yanada to'ldiradi, o'zgacha ma'no va mazmun bag'ishlaydi.

Kashtachilik maktablari ichida Nurota kashtachiligi o‘zining kompozitsion tuzilishi va yorqin koloriti bilan e’tiborga molik bo‘lib kelgan. Nurotada ham maishiy hayotda bevosita qo‘llanadigan turli shakldagi kashtachilik buyumlari: “so‘zana”, “nimso‘zana”, “zardevor”, “joypo‘sh”, “belbog”, “peshonaband”, “shonahalta” “oyna-halta”, “qalamdon-qopi” kabi ko‘pgina buyumlar keng tarqalgan. Bularning har biri ishlatilishiga ko‘ra naqshlar bilan bezatilgan. Nurota an’anaviy kashtachiligidagi shoh, novda, barg singarilar qo‘shimcha unsurlar sifatida kiritilsa, asosiy mohiyatni ochib berish, aynan gullarga yuklatiladi. “Guli safsar”, “guli hafrang”, “guli lola”, “chinnigul”, “mug‘chagul”, “xibcha baxmal” kabi gulli naqshlar ishlatiladi.

Bugungi kunda Nurota kashtalari jozibadorligi bilan ajralib turadi. Kashta uchun aynan, oq matoni tanlanishi va tagzaminning oq qoldirilishi Nurota kashtachilik maktabiga xos xususiyat bo‘lib, bu kashtado‘zdan kuchli mahorat va nozik didni talab qiladi.

Umuman olganda, kashtachilik dastgohining ham ostidan ham ustidan chaqqonlik bilan harakat qilayotgan sehrli qo‘llar go‘yoki takrorlanmas mo‘jiza yaratayotganday tuyuladi. Bunda kashta tikish jarayoni – so‘zana, sandalpo‘sh singari yirik hajmdagi buyumlar uchun 3-4 oyda, taqiya, joynamoz, nimso‘zana kabi o‘rtacha xajmli kashtalar uchun esa 2-3 haftada nihoyasiga yetadi. Kichik va mitti shakldagi yostiqpo‘sh, belbog‘, sumkacha, jiyaklarni 4-5 yoki 1-2 kunda tikiladi. Keyingi paytlarda ko‘ylak, xalat, sharf kabi yo‘qolib ketgan mahalliy aholining udumlariga xos liboslarning ayrim qismlarini kashta bilan bezashni yo‘lga qo‘ygan izlanuvchi hunarmandlar respublikamizda mavjud kashtachilik maktablarini bir-birovidan farqini ilmiy asosda o‘rganishga muyassar bo‘lishdi. Ular yaratgan kashtalar mazmundorligi, badiiy tomonidan mohirona tikilganligi, rang-bo‘yoqlarning uyg‘unligi sababli respublika, horijiy mamlakatlarda o‘tkazilgan ko‘rgazmalarda mutaxassislar tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda.

Bu borada so‘zana haqida alohida so‘z yuritish ham lozimdir. So‘zana kashtasi yorqin va o‘ziga xosdir. Yorqin ranglar, jimjimador naqshlar insonni bir qarashdayoq o‘ziga jalb eta oladi. Qorong‘u xonaga yorug‘lik va yorqinlik kiritadi.

Shuningdek, uni bugungi kunda zamonaviy mehmonxona, yotoqxonan, hatto bolalar xonasiga ham ilib qo'yish mumkin. Endilikda o'zbek so'zanalaridagi naqshlar xorijlik dizaynerlarning ham diqqatini tortmoqda. Zamonaviy dizaynerlar o'z ishlarida so'zanadagi naqsh va ranglardan foydalanishni ma'qul ko'rishadi. Chet ellik sayyoohlar esa so'zanayu palaklarimizga Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi asarlari qatoridan joy ajratishmoqda.

Mashhur interyer-dizaynerlar so'zanadan dekorativ detal sifatida ham foydalanishmoqda. Haqiqiy so'zana, albatta, qo'lida tikilishi kerak. Unda ko'proq uzum, anor, rang-barang gul, qush va aylana shaklidagi naqshlar aks etadi.

Bugungi kunda ko'rpalarni ham yorqin so'zana naqshlari bilan bezash urfga kirib bormoqda. Chunki har qanday so'zana interyerga mos tushaveradi. Uning yordamida rangga urg'u berish, yostiq, dasturxon, gilamcha, karkas panellarga ham o'zgartirish kiritish mumkin.

Jahon interyer-dizayniga doir saytlarda faqat qo'lida tikilgan so'zanaga e'tibor qaratish lozimligi, texnika vositasida bosilgan so'zana naqshlarni tanlamaslik tavsiya qilinadi. Milliy so'zanalarimizga bo'lgan qiziqish xorijda ham kun sayin ortib borayotgandan faxr va g'urur tuyamiz. Ana shunday sirli, serjilo, ma'no va mazmunga, tasvir, naqshu nigorga boy so'zanalar qadr topib, dunyo miqyosida ommalashayotgani, e'tirof etilayotgani o'zbek xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchiligidan berilgan yuksak bahodir. Zotan, xalqimizning noyob durdonasi bo'lgan milliy meros va an'analarimiz barhayotdir. Ayrim kashta naqshlarining mazmun-mohiyati: :

O'simliklar aks ettirilgan motivlardagi naqshlar. O'simlik shakllaridan – dala-bog' gullari, o'tlar va shu kabilardan yaratiladigan kompozitsiyalar kashta maydoni ichidagi joylashgan zichligi, harakati, ritmi, burilishlari, kattaligi bo'yicha turli xil bo'ladi. Bunda o'zining dekorativ mazmuni bilan bir qatorda biron-bir xastalikka davo bo'luvchi, shifobaxsh kuchga ega bo'lgan o'simliklar tasvirlangan.

Gullar. Gulli motivlar orasida atirgul, gulsafsar, chinnigul, lola, gultojixo'roz, olma guli va hokazolar, mevalilar ichida esa –

anor, olcha va gilos, bodom va qalampirlarning tasvirlanishi keng tarqalgan. Ba’zan lola guli yoki nilufarga o‘xshash motivdagi gulning tasviri uchraydi: qadimgi san’at asarlarida tashqi ko‘rinishidan ularni eslatadigan gulni ko‘rish mumkin. Bu qadimgi to‘kinsochinlik xudosi bo‘lgan Anaxitaning atributlaridan biri bo‘lgan. O‘simlik ornamentining shakllari uslublashtirilgan yechimga ega bo‘lsa-da, gullar ichidagi detallar har doim sinchkovlik bilan ishlangan.

Barglar. Kashta ornamentlarida barglar bir necha turli formada uchraydi: oval, ninabargli, nastarin bargini eslatuvchi yurakkalar shaklida, har xil uchbargli va beshbargli ko‘rinishdagilari, archasimon uzun barglar, bir taraflama tishli va hokazolar. Bargli aylanalarning tasviri keng tarqalgan shakllardan. To‘lqinsimon o‘rmalovchi mayda yoki o‘rta bargli tasmalar boylik va hayotsevarlikni bildirgan.

Bodom. Bodomsimon motivlar hosildorlik va hayot simvollarining timsoli sifatida xizmat qiluvchi keng tarqalgan ornamentlardir. O‘zbekiston hududida o‘zining shakliga ko‘ra bodom belgisida talqin etiladi. Uning ingichka va uzunchoq shakllari qalampir deb nomlanadi. Qalampir azal-azaldan tumor o‘rnida ham ishlatilgan. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar, yangi kelinlar va homilador ayollarga qalampirmunchoqli tumorlar taqib yurish tavsiya etilgan. Bu yomon ko‘z va g‘ayritabiyy yovuz kuchlardan asrash ma’nosida qilingan bo‘lib, buning tagzaminida bodom va qalampirlarning shifobaxsh xususiyatlarini naqshlarga ongli ravishda talqin etilganligi yotadi.

Shoxlar. Bu qadimgi motiv ko‘pgina turkiy xalqlarda – Sibirdan to Kichik Osiyogacha keng tarqalgan. Qo‘chqor – o‘ziga xos himoya rolini o‘ynagan. Qoraqalpoq xalqida qo‘chqor shoxlarining tasviri boylik va to‘qchilikning belgisi sifatida qabul qilingan. Taxmin etilishicha, spiral ko‘rinishiga ega qo‘chqor shoxlarining naqshlarida qadimgi kosmologik motiv – borliq, abadiy xarakat – talqini mavjud.

Ilon. Kashta ishlarida keng tarqalgan yana bir ornament – bu to‘lg‘onayotgan ilon. Qadimda ilon totemlik vazifasini o‘tagan xayvon bo‘lib, yaxshilik va yomonlikni ifodalagan. Unga

ko‘pgina ijobiy mohiyat yuklanib – uy-joy, boylik, mol, don, suv, va xazinalar saqlaguchisi sanalgan. Jiyaklardagi ilon izi naqshi mifologik an’analarga ko‘ra tumor rolini o‘ynagan. Shuning uchun jiyaklar ayollar va bolalar kiyimida ko‘p ishlatalgan.

Eng qadimgi ornamentlarning motivlarida esa geometrik simvollar ifodalanib, ular yer, suv, quyosh va olov kabi elementar tushunchalarni o‘z ichiga olgan.

Kashta simvolikasini biladigan kishi, kashtado‘z chevar o‘z mehnati orqali kashta ishi mo‘ljallangan inson uchun qanday tilaklar bildirgani, nimalardan uni ehtiyot etishni, qanday balolardan saqlashga harakat qilganini hech qiyalmay aytib bera oladi.

**Kashtachilik texnologiyalari.** Kashtani qo‘lda yoki maxsus mashinada bajarish mumkin.

**Qo‘lda bajariladigan kashtachilikda** ignalar, angishvona, qaychi, santimetr lenta, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar hamda chambarak ishlataladi.



2.1-rasm. Kashtalangan ustki kiyim. Madina Qosimboyeva tomonidan “So‘zananing tug‘ilishi” nomli ko‘rgazmasi uchun taqdim etilgan namuna.



2.2-rasm. “Butador” choponning bir qismi. Duxoba, guldo‘zi texnikasi, 19-asrning 80-yillari.

Qo‘lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqoq hamda o‘rim iplarini sanab kashta tikish; ikkinchisi esa matoga naqsh-gul, tasvir konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. Arqoq va o‘rish iplari kesishtirib to‘qilgan mato polotno, bo‘z shaklida to‘qilgan matoga tikiladi. Chunki bunday mato iplarini sanab tikish qulay. Bunday kashta gullari geometrik shakllar, uzun-qisqa to‘g‘ri chiziqlardan iborat. O‘zbekistonda sanama kashtaning iroqi turi tarqalgan.

Erkin kashta esa har qanday matoga tikilaveradi, chunki u tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. Kashta tikishni boshlaganda naqshlar cheti (konturi) oldin tikib chiqilib, keyin ichi to‘ldiriladi.



2.3-rasm. Kontur bo‘yicha bajarilga kashta. Rishelye texnikasi.



2.4-rasm. Qo‘lda kashta tikish.



2.5-rasm. Qo‘l kashtachiligidagi qo‘llaniladigan qaviqlarning namunalari.




2.6-rasm. Elza Skiaparellining kolleksiyasi uchun yaratilgan qo‘lqoplar, 20-asrning 30-yillari. Mazkur aksessuardagi kashta Lesaj oliv Moda uyi tomonidan tayyorlangan.



2.7-rasm. Ot-kutyur yo‘nalishidagi libosdagi kashta.



Fashionity.ru



2.8-rasm. Kashtachilik bilan shug‘ullanuvchi Lesaj oliy Moda uyida bajarilgan kashta. Fransua Lesaj tomonidan asos solingan moda uyi ot-kutyur yo‘nalishidagi liboslar va aksessuarlarni kashta yordamida bezash bilan shug‘ullanadi.



2.9-rasm. Kashta va applikatsiya qo‘llangan zamonaviy kiyimlar.



2.10-rasm. Yoshlarbop ustki kiyim – djinsi kurtkalarda qo‘llangan etno-motivli kashtalar.

**Mashinada bajariladigan kashtado‘zlik** ikki xil usulda bajarilishi mumkin:

1. Erkin yuritilib mashinada tikiladigan kashta.
2. Kompyuterli kashtachilik.



2.11-rasm. Mashinada kashta tikish.

**Mashinada erkin yuritilib kashta tikishda** avval tikuv mashinasiga to‘rlash funksiyasiga sozlanadi. Keyin tikuvchi-kashtachi chambarakka tortilgan matoni chizilgan tasvir bo‘yicha turli yo‘nalishlarda surib mato sirtida kashtali naqsh hosil qiladi.

**Kompyuterli kashta** maxsus avtomatik kashta tikish mashinasida bajariladi. Bu mashina maxsus yaratilgan hamda konstruktor yoki dizayner tomonida belgilangan kompyuterli dastur asosida ishlaydi.

Bir necha yuz yillik tarixga ega qo‘l kashtasiga nisbatan mashina kashtasi xali navqiron – kashta tikishga mo‘ljallangan maxsus mashina ilk marotaba Fransiyada 1821-yilda paydo bo‘lgan. Xuddi shu yerda 1854-yilda namoyish etilgan

Geylmanning mashinasi haqiqiy shov-shuvga sabab bo‘lgan<sup>30</sup>. Aynan shu kashtachilik sanoati rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Zamonaviy sharoitda kashtaning rasmi kompyuterda bajariladi va bu kompyuter kashta tikish stanogi, moslamasi, mashinasiga ulanadi. Dasturiy buyruqlar asosida bir marta shakllantiriladigan naqsh mato sirtiga tushuriladi. Mashinali kashta uchun naqshlar turli kompyuterli dasturlarning dasturiy muharrirlarida shakllantirilishi va saqlanishi mumkin. Masalan: ART (Bernina), EMB, DST (sanoatda eng ko‘p qo‘llaniladigan format), PES (Brother), HUS (Husquarna), JEF (Janome) va boshqalar. Undan tashqari WILCOM, TAJIMA, BARUDAN kabi kompyuterli dasturiy muharrirlar ham mavjud. Kompyuterdagи axborotni tikuv mashinasiga ko‘chirishning vositasi bo‘lib perforatsiya tushurilgan tasmalar xizmat qiladi. Mazkur muharrirlar kashta dizaynni dasturlash jarayonini ancha osonlashtirishiga qaramay, kashta urishning dasturiy ta’minoti va perfokartasi birgalikda ancha qimmat, shuning uchun uni faqat katta hajmli ishlab chiqarishlarda qo‘llashadi. Shu sababli bitta muharrir bilan komplektda 5-10 ta kallalik tikuv mashinalari uchun yaratilgan perfokartalar bajariladi.

Bugungi kunda esa kashta tikadigan maishiy mashinalar ham o‘ylab topilgan. Ularda axborot kompyuterdan mashinaga elektr kabel yoki axborot tashuvchilar (disk, flesh-disklar) orqali uzatiladi.

**Pancherlar** – avtomatik kashta tikish mashinalari uchun dastur yaratuvchilar. Bu so‘z inglizcha “puncher” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “perforator, teshgich” ma’nolarini bildiradi. Zamonaviy pancherlar yuqori texnologik texnikani qo‘llashadi. Ular ham rassom, ham dizayner, ham dasturlovchi vazifalarini bajarishadi.

---

<sup>30</sup> Vikipediya-erkin ensiklopediya saytidan.


## Zamonaviy shakldagi kashta namunalar.



Oddiy bahya va yo‘rma bahyalar yordamida bajarilgan kashta - chiziqli kompozitsiya (internetdan olingan)



Oddiy bahyalar yordamida bajarilgan kashta - chiziqli kompozitsiya (internetdan olingan)



Iroqisimon kashta – to‘ldirilgan yuzali kompozitsiya  
(internetdan olingan)



Kashtachilikdagi turli banya va choklarning aralashuvidan foydalanim bajarilgan kashta (xorijiy Maricor/Maricar studiyasida bajarilgan ishlar)



Kashtachilikdagi turli bahya va choklarning aralashuvidan foydalanib bajarilgan kashta (xorijiy Maricor/Maricar studiyasida bajarilgan ishlar)



Zanjirsimon bahyachokning turli ko‘rinishlaridan foydalanib bajarilgan kashta (xorijiy Maricor/Maricar studiyasida bajarilgan ishlar)



Oddiy bahyalardan foydalanib bajarilgan kashta. Bunda fon kashta bilan to‘ldirilgani evaziga rasm paydo bo‘lgan (xorijiy Maricor/Maricar studiyasida bajarilgan ishlar)



Yo‘rma chok bajarilgan yozuvli kashta (xorijiy Maricor/Maricar studiyasida bajarilgan ishlar)



“Rishelye” (yoki “glad”) texnikasida bajarilgan kashta (xorijiy Maricor/Maricar studiyasida bajarilgan ishlar)



**Trapunto** texnikasi - kashta tikishning bir turi bo‘lib, unda qaviqlar hisobiga gul va rasmlar bo‘rttirib kashtalanadi. Kelib chiqishi Italiyaning Florensiya shahridan<sup>31</sup>. Shuning uchun bu kash-tani ba’zan italyancha yoki florenitiycha kashta deb ham atashadi



Trapunto texnikasida bajarilgan qaviqli kashta

---


<sup>31</sup> Розальба Пепи. “Объемная вышивка. Техника трапунто”. Арт родник, 2005 г.

## **2-amaliy topshiriq: Quroq, pechvork, kvilting texnologiyasi, turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish**

*Tayanch ma'lumotlar va topshiriqni bajarish bo'yicha tavsiyalar:*

**Quroq** – turli rang va shakldagi gazlama parchalarini ulab – qurab hosil qilingan buyum yoki ana shunday usulning nomi.

Xuddi shunday, **pechvork** (*engl. patchwork* – parchalardan ishlangan, parchalardan tuzilgan) – qiyqimlarni tikish, qiyqimli texnika, qiyqimli mozaika, gazlamali mozaika – chevarchilikning bir turi, bunda mato parchalaridan (qiyqimlar, qiyindilaridan) mozaikaga o'xshatib (yoki mozaika tamoyillariga asoslanib) yaxlit buyum tikiladi. **Mozaika** (*ital. mosaiko*) – qadama, terma naqsh va shunday naqsh ishslash san'ati.



2.12-rasm. Topkapidagi toshtaxta poldagi mozaika

Pechvork yoki quroq tikish jarayonida yangicha rangli, yangicha naqshli, ba'zan hatto yangicha fakturali polotno hosil bo'ladi. Shuningdek, bugungi kunda pechvork texnikasida hajmiy-fazoviy kompozitsiyalar ham yaratilmoqda. Qiyiqimlardan

tikilgan polotnoda barcha chok haqlari uning teskari tomonida bo‘ladi.

Qiymatlarni ulab yaxlit polotno, choyshab yig‘ish, mato parchalaridan applikatsiya qilish, qavilgan buyumlarni tikish qadimdan deyarli barcha xalqlarda mavjud bo‘lgan. Mato bilan ishlangan barcha sohada, ehtimol uni tejash, hatto kichik bo‘lagini ham bekorga sarflamaslik maqsadida, u yoki bu ko‘rinishda quroq, qurama yaratish paydo bo‘lgan. Masalan, ohu terisining parchalaridan eramizdan avvalgi 980-yillarda yaratilgan misrcha naqshli polotno topilgan; Tokio shahrining muzeylaridan birida taxminan shu davrlarda tikilgan libos saqlanadi. Libosning bezagi qiyqimlardan tayyorlangan. 1920-yilda “Mingta Budda G‘ori”dan deyarli IX asrga mansub gilam topilgan bo‘lib, mazkur gilam ziyyoratchilar o‘z kiyimlaridan uzib qoldirgan minglab parchalardan yig‘ilgan.



A



B

2.13-rasm:

A – Pechvorkli polotno, AQSH, 1940-y. Asosi yaxlit va uchburchaklardan yig‘ilgan oltiburchaklardan tashkil topgan.

B - quroq ko‘rpalar, O‘rta Osiyo, XX asrning 90-yillari.

**Kvilt** – (ingl. *quilt* – qavilgan) – bahyalarni turli shakldagi bahaqaqatorlaga joylashtirib qavilgan qurama yoki pechvork. Bunda qaviqlar bo‘rtibroq turishi uchun buyumga qo‘sishimcha qatlam sifatida paxta, vatin yoki sintepon qo‘yiladi.

1876-yilda Filadelfiyada o‘tkazilgan Xalqaro ko‘rgazmada Angliya ipak matolardan bajarilib kashta bilan to‘ldirilgan yangicha “**kreyzi**” (ingl. *crazy* – aqldan ozgan) texnikasida bajarilgan pechvork namunalarini namoyish etadi. Kreyzi usuli kimxob, zarbof, barqut, ipak kabi hashamatli matolardan ixtiyoriy shakl, rang va rasmli kompozitsiyalarni hohlagancha tuzish imkonini berardi. Bu texnika bugungi kunda “Spiral”, “Karusel”, “Atirgul” nomlari bilan tanilgan. Bunda qiyqimlarni ulaydigan choklar turli kashtalar bilan bezatilib, buyumlarning o‘zi yana applikatsiya va turli rasmlar bilan bezatilgan.



2.14-rasm. Kvilt texnikasida yaratilgan polotnoning bir qismi.

Chevarchilikning bu turini 1879-yilda “Peterson” nomli illyustratsiyali jurnal tavsiflab bergen. Pechvork yig‘ishning bu yo‘nalishi (usuli, texnikasi) “kashtalangan kvilt” yoki “yaponcha kvilt” (sharqona mavzular juda keng qo‘llangani uchun) degan

nomni oladi. Mazkur buyumlardagi parchalar puxta choklanmagan, chetlari shokila, to‘rdo‘zi, doka, popuklar bilan bezatilgan, astari esa yuvilganda kirishgani uchun ularni asosan bezak sifatida qo‘llash mo‘ljallangan. Qo‘llashga nisbatan qulayroq buyumlar diniy to‘garaklarda chevarchilik bilan shug‘ullanadiganlar tomonida yaratilgan – kreyzi uslubidagi namunalarga jun va paxta tolali amaliy matolar ishlatilgan. Yangicha texnika tufayli savdoning yangicha yo‘nalishi paydo bo‘ldi – Amerika tikishni hohlovchilar uchun tayyor to‘plamlar, kashtaning rasmlari hamda pechvork uchun qo‘lda bo‘yab rasm solingan bloklar –ipak matosidan parchalar taklif etila boshlandi<sup>32</sup>.

XX asrning 70-yillarida pechvork bilan qayta qiziqish boshlandi. Kvilt-klublar ommalashdi, aynan shu dekorativ-amaliy san’at turi bilan shug‘ullanuvchilar uchun barcha narsalarni sotuvchi ixtisoslashgan do‘konlar ochildi, turli mavzuiy kitoblar va jurnallar chop etila boshladи.

1971-yilda Iv Sen-Loran quroq bilan bezatilgan libos modelini yaratadi. Bu bilan modelyer boshqalardan oldinroq modadagi yangi yo‘nalish – folklor romantizm bilan qiziqish boshlanishi belgilab berdi.

XX asr boshlarida quroqli tikish bilan kollaj texnikasi ifoda etishining yangi usullarini izlash bilan shug‘ullanuvchi avangardist va futurist rassomlarning e’tiborini jalb etdi.

**O‘zbekistonda ham** quroq tikish xalq amaliy san’atining alohida bir turi bo‘lib, yurtimizda azaldan mavjud bo‘lgan. U qadimiy manbalarda ham tilga olingani e’tiborga molik. Jumladan, Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat"ida, shuningdek, Husayn Voiz Koshifiy asarlarida "muraqqa'" (quroq to‘n, janda) — avliyo yoki darveshlar kiyimi sifatida qayd etilgan.

Xalq orasida quroq yoki muraqqa' o‘z egasini turli balo-qazolardan saqlashiga oid qarash mavjud. Qadimdan momolimiz turli mato parchalaridan ko‘rpacha, yostiq, ko‘rpa, chimildiq, nimcha va do‘ppilar tikkan. Mamlakatimizning turli hududlari o‘z quroqchilik usuliga egaligini ta’kidlash lozim.

<sup>32</sup> Vikipediya internet ensiklopediyasi sahifalaridan.



2.15-rasm: Vogue jurnalida chop etilgan libos modeli, 1967-yil;  
A – Iv Sen-Loran tomonidan yaratilgan pechvorkli libos, 1971-yil.



2.16-rasm. “Samarqand arxitekturasi ohanglari”, Vyacheslav Useinov, pechvork, 2002 y., 320x310 sm. O‘zbekiston TIV kolleksiyasi, Toshkent.

Chunonchi, Xorazmda, asosan, oq va qora rangli matolardan foydalaniladi. Bunda ham o‘ziga xos tushuncha mujassam: oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida esa quroqlarning shakli dumaloq va uchburchak bo‘ladi. Ushbu hududlarda qizil, yashil, sariq va ko‘k rangli matolardan foydalaniladi. Uchburchak quroqlar tumorga qiyoslanib, turli yomon nazarlardan saqlasin, degan ma’noni anglatgan<sup>33</sup>.

**Qo‘llaniladigan matolar va bichim.** Quroq tikish uchun deyarli barcha matolarni qo‘llash mumkin, ammo eng yaxshi mato - bu paxta ipidan tayyorlangani. Ip mato yaxshi yuviladi va dazmollanadi, shuningdek shoyi, atlas, drap, zich to‘qilgan polotno va movutdan ham quroq tikish mumkin.


Quroqli polotnoni yig‘ishda bichimning aniq bo‘lishi o‘ta muhimdir. Bunda kartondan yoki shaffof plastikdan qilingan shablonlardan foydalaniladi. Shablonlar oddiy geometrik shakllarda bo‘lib, ularda chok haqi va qirqim chiziqlari belgilovchi kertimlar qo‘yilgan bo‘ladi. Undan tashqari metalldan yaasalgan shablonlar ham mavjud bo‘lib, ularda chok tikiladigan chiziqni maxsustirqishlar orqali tushurish mumkin. Quroq tikayotgnda chok haqiga 5 mm (paxta tolali matolar uchun) yoki 10 mm (mato iplari to‘qiluvchan bo‘lsa) qoldiriladi. Qismlarni bichayotganda tanda ipining yo‘nalishiga ham e’tibor berish kerak. To‘rtburchak detallarda tanda ipi shakl tomonlariga parallel, uchburchak va oltiburchaklarda asosiga perpendikulyar bo‘lishi kerak.

Quyida pechvorkda qo‘llaniladigan ba’zi shakllarning nomi, ularni tashkil etuvchi detallari, bitta blokning hamda shu bloklardan yig‘ilgan polotnoning ko‘rinishlari keltirilgan.



Zamonaviy liboslarda quroq va pechvorkning qo‘llanilishi o‘zning dolzarbligini yo‘qomagan. Bu usulga murojaatlarni deyarli barcha taniqli dizaynerlarning kolleksiyalarida kuzatish mumkin va uni qo‘llashda ham turlicha ijodiy yondoshuvlar ko‘zga tashlanadi.

---




<sup>33</sup> Internet sahifalaridan.




Yulduz (Barbara fritch'i yulduzi)




Tun va kun





Dengiz shtormi (bloklardagi ranglarning turlicha tanlanishi)





Brilliant yulduz




Ikkita g'ildirakli kvadrat





Karolinalik nilufar guli (bloklarning turlicha joylashuvi – 1-gulbarglar ichkarida, 2-barg dastasi ichkarida)




Lentasimon blok





Qartali fokus






Ekssentrik yulduz






Le mone yulduzi




O'rgimchak ini




Kolumbiya




Virdjiniiya shamoli




Tamaki bargi




Yelpig‘ich



Ilon izi



Ananas



Gikori daraxtining bargi



2.17-rasm. Quroqning zamonaviy liboslarda va aksessuarlarda qo‘llanlishi.



2.18-rasm. Quroqning zamonaviy interyerda qo‘llanilishi.

### **3-amaliy topshiriq: Bo‘yash, batik texnikasi texnologiyasi, usullari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish**

*Tayanch ma'lumotlar va topshiriqni bajarish bo‘yicha tavsiyalar:*

**Batik** – XVII asrda Indoneziyada kashf etilgan bo‘lib, oq rangli ipak yoki paxta tolali mato ustiga turli xil gullar, naqsh va boshqa tasvirlar tushirish imkonini yaratuvchi texnologiyadir.

**Kerakli asboblar:** ipak mato, mato bo‘yash bo‘yoqlari (batik, akril), kontur uchun rezerv, distillangan suv, spirt, tuz, mustahkam iplar, mo‘yqalamlar, pipetka, qalam, dazmol, qaychi, fen, bug‘da ishlov berish uchun idish yoki qasqon, matoni tortish uchun ramka va knopkalar.

Batik san’ati bir necha xil texnologiyada: issiq, sovuq, tugunli va erkin naqsh tushirish usullarida bajariladi.

Har bir usulda bajariladigan ishlar ketma-ketligida umumi bosqichlar mavjuddir. Ya’ni, bo‘yashdan avval matonisovunli iliq suvda yaxshilab yuvib chayish lozim. Matoni qurigandan keyin dazmollanadi va bo‘yashga tayyorlanadi.

Bo‘yalgan yoki rasm tushurilgan mato folga bilan o‘ralib, bug‘da ishlov beriladi. Bu matodagi bo‘yoqning mahkamlanishiga olib keladi. So‘ng mato yana chayiladi va quritiladi.

**Sovuq usulda bajariladigan batik (“gutta” texnikasi)** sovuq rezervlash jarayoni amalga oshirilishi bilan farqlanadi. Matoga tasvir tushirish shisha naycha orqali rezerv, ya’ni sovuq mumni surat konturi bo‘ylab oqizib chiqish orqali amalga oshiriladi? Bunda mum tushgan joy matoda rangsiz chiziq qoldiradi. Mumni turli xil ranglarga bo‘yab xam surat tushirsa bo‘ladi, bunda surat bir muncha aniqlashib grafik xarakterga ega bo‘ladi. Bo‘yoqlar rang-tasvirli texnikada mo‘yqalamlar yordamida surat konturi bo‘ylab beriladi. Tayyor ish issiq bug‘da puxtalanadi va dazmollanib, sovunli iliq suvda yuviladi.



2.19-rasm. Shaffof rezerv yordamida tasvirning chetlarini chizish.



2.20-rasm. Konturlariga rezerv bilan chizilgan tasvir

**Issiq usulda bajariladigan batik** matoga badiiy ishlov berishning qadimgi usullaridan biridir. Ipak matoga eritilgan mum bilan tasvir tushirilib tasvir ranglari ochdan to‘q ranga qadar buyoqlar bilan bo‘yalish bosqichlaridan o‘tadi, so‘ng ish nihoyasida qotib qolgan mum issiq dazmol yordamida olib tashlanadi. Bunda bo‘yalgan mato ikki tarafdan qog‘oz bilan yopiladi va mum erib qog‘ozga shimilib ketguniga qadar dazmol urilib turiladi.



2.21-rasm. Rezervli batik texnologiyasining ketma-ketligi



2.22-rasm. Rezervli batik namunasi

**Erkin naqsh tushirish usuli** rezerv va mumlarsiz amalga oshiriladi. Matoga naqsh va suratlarni tasvirlash mo‘yqalam yordamida bo‘yoqlarni erkin qo‘yish bilan amalga oshiriladi, ba’zi hollarda yakuniy ishlar uchun rezervdan foydalaniladi. Hozirgi kunda turli hil akril bo‘yoqlarining ishlab chiqarilishi batik jarayonini birmuncha yengillashtirdi, chunki akril bo‘yoqlarini puxtalash qizdirilgan dazmol urish bilan amalga oshiriladi.




2.23-rasm. Batikka misollar



2.24-rasm. Batikka misollar

**Tugunli batik** batikning qadimiylaridan bo‘lib, Hindistonda paydo bo‘lgan va shu yerning o‘zida keng tarqalgan. Matoning bo‘yoqlar tegishi lozim bo‘lmagan joylariga ip puxta qilib bir necha marta o‘ralib bog‘lanadi, so‘ngra mato to‘laligicha bo‘yoqga botiriladi. Tugunlar ichiga kichik hajmga ega buyumlar – tugmachalar, yoki toshchalarni qo‘yib bog‘lash ham turli bejirim qiziqarli naqshlar chiqishiga yordam beradi. Bo‘yoqlash jarayonidan so‘ng bu joylar rang tegmagan holda qoladi. Tugun hosil qilish jarayonida turli xil shakllar, naqshlar, aylanalar, gorizontal va vertikal chizgilar va ularning uyg‘unlashuvini hosil qilish mumkin.



2.25-rasm. Tugunli bo‘yash texnologiyasida tugunlarni o‘rashga misollar.



2.25-rasm. Tugunli bo‘yash texnologiyasida tugunlarni o‘rashga misollar.



2.25-rasm. Tugunli bo'yash texnologiyasida tugunlarni o'rashga misollar.




2.25-rasm. Tugunli bo‘yash texnologiyasida tugunlarni o‘rashga misollar.




2.26-rasm. Tugunli bo‘yash texnologiyasi ketma-ketligi.



2.27-rasm. Tugunli bo'yash texnologiyasi natijalari.



2.27-rasm. Tugunli bo‘yash texnologiyasi natijalari.



2.27-rasm. Tugunli bo‘yash texnologiyasi natijalari.

## **4-amaliy topshiriq: Bosma qilish, blokprinting texnologiyalari, turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish**

### ***Tayanch ma'lumotlar va topshiriqni bajarish bo'yicha tavsiyalar:***

Mato ustiga yoki sirtiga bo'yoq yordamida bosma gul (naqsh) solish Vavilon podshohligi davridan mavjud bo'lgan. Matodagi dekorativ rangli effektlarni hosil qilish haqidagi ilk ma'lumotlar esa Pliniyning "Tabiiy tarix" kitobida keltirib o'tilgan.

Aslida bosma qilingan naqshli matolar kashtalangan qimmat matolarga o'xshatib tayyorlangan arzon matolar edi. Keyinchalik matoga bosma qilish alohida san'at turi kabi shakllandi. Boshida matoga gul tushurish uchun yozish va chizishda qo'llanadigan asboblar – pero, mo'yqalam, qalamlardan foydalanilgan bo'lsa, keyinchalik O'rta asrlarda yog'ochdan yasalgan o'yma qolip yordamida amalga oshirilgan.

Bunda usta qolipni kerakli joyga qo'yib, qolipni mahkam bosgan va to'qmoqcha yoki yog'och bolg'a bilan urib chiqqan. Bosilgan qolipning izi turlicha naqshlarni qoldirgan. Naqshdag'i har bir rang uchun alohida qolip ishlangan.

O'zbekistonda hunarmandchilikning bu turi chitgarlik deb ataladi.

**Chitgarlik** – paxta yoki ipakdan to'qilgan matolarga o'yma yog'och qolip yordamida qo'lda gul bosish hunaridir. Chitgar – matoga qolip vositasida gul bosib mahsulot tayyorlaydigan usta<sup>34</sup>.

Chitgarlikning vatani Hindiston hisoblanib, u yerdan bu hunarmandchilik turi Xitoy, O'rta Osiyo, Eronga hamda Yevropa va Shimoliy Afrika mamlakatlariga tarqalgan.

“...Chitgarlik O'rta Osiyoga ham Buyuk Ipak yo'li orqali kirib kelgan bo'lsa ajab emas. Qadimdan mintaqqa xalqlari gul bosilgan chitdan dasturxon, joynamoz, parda, palak, ko'rpacha,

<sup>34</sup> R. Mirzaahmedov. "Chitgarlik sirlari", Toshkent, Islom Karimov nomidagi Respublika hayriya jamoat fondi, "San'at" jurnali nashriyoti, 2017 y., - 5 bet.

belbog‘, chopon astarları, shuningdek choyshab tikshda foydalanishgan<sup>35</sup>”.



A



B

2.28-rasm. Matoga gul bosish uchun yog‘ochdan ishlangan qoliplar:

A – Hindiston chitgarlari qo‘llagan qolip, taxm.1900-yil;  
B- bugungi kundagi qo‘lbola qoliplar.

<sup>35</sup> R. Mirzaahmedov. “Chitgarlik sirlari”, Toshkent, Islom Karimov nomidagi Respublika hayriya jamoat fondi, “San'at” jurnali nashriyoti, 2017 y., - 5 bet.



A



B

2.29-rasm. Matoga qo‘lda gul bosish: A-qadimgi freskadan lavha;  
B-bugungi kunlardagi usta.



2.30-rasm. Dasturxon. Chust, Namangan. 19-asr oxiri<sup>36</sup>.

---

<sup>36</sup> R. Mirzaahmedov. “Chitgarlik sirlari”, Toshkent, Islom Karimov nomidagi Respublika hayriya jamoat fondi, “San'at” jurnali nashriyoti, 2017 y., - 43 bet

Qo‘lda bosma qiluvchi hunarmandchilikni saqlab qolishga bo‘lgan urinishlarga qaramay, matoga gul bosish jarayonini mexanizatsiyalash muqarrar edi. XVIII asr o‘rtalarida boshlangan bu jarayon uchun asrning oxiriga kelib yog‘och, keyinchalik esa metall o‘yma (gravirovkali) valli bosma mashina yaratildi.

Bugungi kunda mato ustiga rasm bosma qilishning bir necha samarali usullari mavjud. Amaliy san’at va hunarmandchilikning alohida turi sifatida qo‘lda bosma qilish saqlanib qolgan. Lekin ommaviy ishlab chiqarish bosma qilishning borgan sari mukammalroq va unumli usullarini talab qilmoqda. Matoga rasm, gul yoki naqsh bosma qilishining sanoat usullariga quyidagilarni misol qilib keltirsa bo‘ladi:

- paxta va viskoza tolali matolarga bosma qilish uchun vallari o‘yma metalldan bo‘lgan mexanizmda;

- trafaret usuli (“shelkotrafaret”) yoki fotofilmpechat (FFP) – setkali yassi shablonlar yordamida ipakli, aralash ipakli, ipaksimon, jun va zig‘ir tolali matolarga badiiy bezak berish hamda tayyor buyumlar dizaynini yaratish;

- trikotaj va noto‘qima polotnlarga hamda boshqa mato va to‘qimachilik polotnolariga rotatsion mashinada gul bosish (rotatsion mashina - aylanuvchi silindrлari orasidan mato o‘tib turuvchi serunum bosma mashina);

- aerograf yordamida gul solish;

- mato yoki tayyor buyumlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri printerda bosma qilish;

- ba’zi polotno yoki tayyor buyumlarga rasmning nusxasini ko‘chirish (maxsus printerda).

Bosma qilishning har bir usulining imkoniyatlari turlicha hamda ular mato bezagi xarakteriga o‘ziga xos ravishda ta’sir qiladi. Shuning uchun dizayner bu usullarning imkoniyatlarini, ularni bajarish uchun kerak bo‘ladigan asboblarni, bosma qilishining texnologiyalarini bilishi va tushunishi kerakdir.




2.31-rasm. O‘yma ishlangan vallar yordamida mashinada bosma qilish.



2.32-rasm. Qo‘lda trafaretli bosma qilish.



2.33-rasm. Mashinada tarfaretli bosma qilish. “Roll-to-Roll” prinsipi.



2.34-rasm. Bosma qiluvchi mashinani rollarining ko‘rinishi.



2.35-rasm. Tayyor buyumlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri printerda bosma tushurish.



2.36-rasm. Matoga bosma rasm tushurish uchun keng formatli rangli printer.

**Print** – bu ma’lum usul (kashta, bosma qilish, termotransfer) bilan mato, qog‘oz yoki boshqa sirtlarga tushurilgan tasvir (rasm, yozuv, fotosurat, naqsh)dir.

Xilma-xil printlarning qo‘llanilishi libos dizaynidagi oxirgi 5 yil ichida eng faol tendensiyalardan biridir.

Nomdor Moda Uylari borgan sari etnik printlarni ko‘proq qo‘llamoqdalar, ba’zilari hatto brendlarning taniqli uslubini ushbu printlar yordamida ko‘tarmoqda.

Masalan, “Etro” markasi kolleksiyalarining ahamiyatli qismida (butun assortimentning deyarli 30 % i) naqshli motivlar o‘rin olgan. Bunda ishlatilgan naqshli printlarni quyidagicha tavsiflash mumkin: eng afzal ko‘rilgan printlar bu Sharq mamlakatlari naqshlari, “peysli” (“bodring gul”, bodom gul”) ornamenti esa ushbu markaning vizit kartochkasiga aylangan. Uning asoschisi Djimmo Etro esa ushbu ornamentni nafaqat ommabop qilishni, balki bir necha o‘n yillar davomida uning ommabopligrini saqlab qolishni uddaladi.

Topshriqni bajarish uchun turli qoliplarni, tarfaretlarni yasash mumkin. Undan tashqari qo‘l ostida bo‘lgan ba’zi narsalarning fakturasi yoki bo‘rtma sirtlaridan foydalanib ham turli izlarni, rasm va naqshlarni hosil qilish mumkin.

Samarali usullardan yana biri sifatida barg, gullarning izini matoga tushurishni ham aytib o‘tish joizdir.



2.37-rasm. Turli buyumlarning bo‘rtma sirti yordamida bosma qilish.



2.38-rasm. O‘yma qilingan val ishtirogida bosma rasm solish



2.39-rasm. Trafaret va trafaretli bosma gul.



2.40-rasm. Bosma qilish uchun qo‘lbola qolip.

**5-amaliy topshiriq: Plisse, gofre, taxlamalar va boshqa bezak turlari, ularning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish**

*Tayanch ma’lumotlar va topshiriqni bajarish bo‘yicha tavsiyalar:*

Mato va libosga bezak berishlar qatoriga plisse va gofre qilish, mato sirtini turli usullar bilan (g‘ijimlash, drapirovkalash, buf yoki “vafli”ga yig‘ish, burmaga yig‘ish, perforatsiya qilish,

merejka va sinel texnikasini qo'llash kabi) bezash ancha e'tiborlidir.

**Plisse** (plisserovka) - fr. plisse so'zidan ("plissé" deb o'qiladi) – mato turli usullar bilan kengligi 5 mm dan 5 sm ga qadar bo'lgan parallel taxlamalar hosil qilish usuli. Plisse degan nom XVII ga kelib paydo bo'lgan va fransuzcha so'z "pli" — ("taxlama" ma'nosi)dan kelib chiqqan.

Bunda ishlov berish fabrikalardagi presslar yoki dazmolda namlab-isitib- ishlov berish usuli bilan amalga oshiriladi. Bunda ham mato, ham tayyor buyum plisserovka qilinishi mumkin.

Tabiiy tolali matolardan plisse qilingan bo'lsa, ularni faqat kimyoviy usul bilan tozalash mumkin, sintetiklarni esa qo'lda avaylab yuvsa bo'ladi.

Plisseda taxlama eni uning qaytarmasidan keng, gofreda esa ular barobar.

**Gofre** - (fr. gaufré; "gofre" deb o'qiladi) bu ham xuddi plissega o'xshab mato sirtiga ishlov berish usuli bo'lib, bunda taxlamalar "qovurg'a"siga turgazilib presslanadi (xuddi garmonga o'xshab). Gofreda taxlamalar ham parallel, ham radial kengaygan bo'lishi mumkin.

Taxlamali kiyimlar Qadimiy Misrda mavjud bo'lgani ma'lum. Lekin plisserovkalangan shoyini ishlab chiqarish usulinii 1907 yilda Mariano Fortuni ixtiro qilgan va patentlagan. U materialni qo'lda birma-bir taxlab, maxsus tarkibli eritma bilan ishlov berib, qaynoq farfor valiklar orasidan o'tkazgan. Avval "delfos" deb nomlangan liboslarni omma oldida, ko'chalikka kiyishmagan, lekin Sara Bernar va Aysedora Dunkan kabi raqqosalar tufayli plisselangan ko'yaklar uy-ichi kiyimi bo'lishdan to'xtagan.

Plisse ayrim sharqiy xalqlar an'anaviy liboslarining ajralmas elementi hisoblanadi. Masalan, ozarbayjonliklarning ustki kiyimi – "arxalig"da, XX asrga qadar xitoy yubkalari "plaxta"ning yon sirtlarida ham taxlamalar bo'lgan. Yaponlarning maktab formasi – "seyfuku"da ham plisse qo'llaniladi.


Yuqorida aytilganidek taxlamali matolar ilk bor Qadimgi Misrda: avval fir'avnlarning libosida, so'ng ayollar an'anaviy

kiyimi –kalazirisda va erkaklar kiyimi sxentida bezak sifatida paydo bo‘lgan.



Erkaklarning taxlamali kundalik libosi Uyg‘onish davrida paydo bo‘ldi. Shotland “kilt”ining o‘ziga xos jixati – bu taxlamalardir.



2.41-rasm. Londondagi Gerard Atelyesi tomonidan mato sirtiga turli effektlar beriladi.



2.42-rasm. “Vafli”ga ishvlov berish texnologiyasi ketma-ketligi



2.43-rasm. Turli usullar bilan ishlov berish natijasidagi fakturalar.



2.44-rasm. Turli usullar bilan ishlov berish  
natijasidagi fakturalar.

## **Nazorat uchun savollar:**

1. Material va liboslarga badiiy ishlov berish usullaridan qay birini bilasiz?
2. Kashtado‘zlik texnologiyasiga ta’rif bering.
3. Kashtachilikning qanday turlari mavjud?
4. Kashtachilikning zamonaviy usullari va zamonaviy texnologiyalari haqida nimalarni bilasiz?
5. Applikatsiya nima? Uni bajarish usullari haqida nimalar bilasiz?
6. Batik texnologiyasi qanday?
7. Batikning necha xil turi mavjud?
8. Bosma qilishning necha xili bor?
9. Trafaret usuli haqida nimalarni bilasiz?
10. Quroq, pechvork texnologiyalari qanday?
11. Kvilt nima?
12. Perforatsiya natijasida material sirtida nimalar paydo bo‘ladi?
13. Bosma iz qoldirish asosan qanday ashyoda qo‘llaniladi?
14. Plisse natijasida material sirti qanday o‘zgaradi?
15. Gofre nima?
16. Drapirovska haqida nimalarni bilasiz?
17. Badiiy to‘qimachilik texnologiyasiga ta’rif bering.
18. Dekorativ bezaklarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?
19. Furnituraga nimalar kiradi?
20. Print nima degani?

## **3-BOB. DASTLABKI LOYIHALAR**

### **3-loyiha. Sodda shaklli buyumlar dizaynini yaratish (futbolkaning shakli misolida)**

#### ***Loyihaning maqsadi:***

- dizayn-loyihalash jarayonidagi bosqichlarni asosli ravishda amaliy bajarish;
- libos va gazlamalarни badiiy bezash usullarini qo'llashda kompozitsiya kategoriyalarini o'rganish;
- bo'lajak dizayner uchun o'zining ijodiy uslubini shakllantirishga yo'naltirish; o'z konsepsiyasini badiiy ifodalashning vositalarini asoslashni o'rganish;
- futbolkaning zamonaviy dizaynini yaratish.

#### ***Loyiha doirasidagi ishlar ketma-ketligi:***

1. Futbolka turlari hamda ularning shakli va bichimini o'rganing.
2. Ijodiy manba tanlang va uni o'rganing. Tadqiq qilingan manba asosida bo'lajak loyihaning mavzusini (konsepsiyasini) ishlab chiqing. Tanlangan mavzu bo'yicha konsepsiya qisqacha ta'rif yozing.
3. Futbolka shaklining shablonlarida eskizlar yarating. Modellarni ishlab chiqish va dastlabki (sinov) nusxalarni bajarish.
4. Prototiplar ustida ishlash.
5. Loyiha asosida sodda shaklli buyum modellarini yakunlash. Sketchbukda yakuniy xulosa va natijalarini keltirish.

#### ***Tayanch ma'lumotlar va loyihami bajarish bo'yicha tavsiyalar:***

**Futbolka haqida ma'lumot:** **Futbolka** – bevosita tanaga kiyiladigan ham ayollar, ham erkaklar uchun mo'ljallangan uzun yoki kalta yengli yelka kiyimi. Odatda taqilmasi, yoqasi va cho'ntagi bo'lmaydi. Kiyilish vaziyatiga ko'ra futfolkalar ikki xil toifada – ichkiyim (ya'ni, boshqa kiyimlar ichidan kiyiladigan) va

ustki kiyim (ya’ni, ko‘rinib turadigan va ustidan boshqa kiyim kiyilmaydigan) toifasida bo‘lishi mumkin. Birinchi toifadagilarni ichki ko‘ylak deb ham atashadi va ularni sorochka, sviter, djemper, pulover, ko‘ylaklar ostidan kiyishadi. Aynan ichkiyim toifasidagi futbolkalardan ikkinchi toifadagilari kelib chiqqan. Bularning ustida boshqa kiyim kiyilmaydi yoki bunday futbolkalar boshqa turdagи kiyimlar bilan mustaqil buyum sifatida kostyum tizimida uyg‘unlashtirilish mumkindir. Aksariyat hollarda bunday futbolkalar yozuvlar, naqshlar, rasmlar bilan bezatilishi mumkin.

Yuqorida aytilganidek, futbolka – garderobdagи ichkiyim buyumi bo‘lib, qo‘ylak tagidan kiyilgan, shuning uchun uni ostki sorochka yoki fufayka deb ham atashgan.

Boshida - XIX asr va XX asr boshlarida ostki ko‘ylakning trikotaji unchalik cho‘zilmagani uchun hamda kiyib-yechishni osonlashtirish maqsadida ular taqilmali bo‘lib, 2-3ta tugmachaga qadalgan. Keyinchalik ustki ko‘ylakning (aynan erkaklar rubashkasi haqida so‘z boryapti) yuqoridagi bitta yoki ikkita tugmachasi taqilmagan xolatlarda ichkiyim ko‘rinmasligi uchun futbolkaning yoqa o‘yindisi uchburchak shaklda qilinishni boshlangan.

Ingliz tilidagi “**t-shirt**” nomini (so‘zma-so‘z – T-simon ko‘ylak) Birinchi jahon urushi (1914-1918-yy.) yillarida olgan. Bu davrda futbolkalar g‘arbiy armiya harbiylari formasida ichkiyim vazifasini o‘tagan. Havoning issiq yoki sovuqligiga qarab ularning yengi kalta yoki uzun bo‘lishi mumkin bo‘lgan. Biz o‘rgangan “futbolka” so‘zi esa rus tilidan kelgan bo‘lib, futbol o‘yinchilarining uniformasini aynan shu kiyim turi tashkil etgani uchun shu nomni olgan.

Ikkinci jahon urushi davrida ham futbolka hamon harbiylarning ichkiyimi hisoblangan. Shahar ichida yalang qavat futbolkada yurish, yalang‘och yurish bilan barobar edi. Futbolkani kiyib yurishga bo‘lgan tarzning o‘zgarishi 1951-yilda “Orzu” nomli tramvay” nomli kinofilmning katta ekranda namoyish etilganda boshlandi. Filmdagi Marlon Brando tomonidan ijro etilgan bosh qahramon oq rangdagi futbolkada deyarli har bir kadrda ko‘rinadi. Biroq, hatto elliginchi yillarda yalang qavat


futbolkaning o‘zini oshkora kiyib yurish o‘ziga xos isyonkorlik edi va uncha ommalashmagandi. Lekin yigirmanchi asrning 60-yillariga kelib printli ustki futboldalar paydo bo‘la boshlagan. Ularni yoshlarning noformal uyushmalari, musiqiy guruhlarning ixlosmandlari, xippilar kiyishardi. 1980-yillarga kelib esa bir qavat futboldakada ommada ko‘rinish odatiy tusga aylandi.



3.1-rasm. “Orzu” nomli tramvay” kinofilmidan olingan kadr.

Futboldalarni tayyorlash uchun asosiy ashyo sifatida turli qalinlik va zichlikdagi (130 dan 260gacha g/m<sup>2</sup>), turlicha to‘qilgan (kulirli glad, interlok, pike o‘rilishli), tolaviy tarkibi turlicha bo‘lgan (100% paxta tolali, aralash tolali (paxta tolasi bilan elastan yoki poliester), viskozali, viskoza va elastan, 100% poliester) trikotaj qo‘llaniladi. Tikish jarayonida esa trikotaj polotnosi bilan ishlash qoidalariga rioya etish hamda maxsus jihozlardan foydalanish maqsadga muvofiqli. Ularni bezatishda har xil turdag'i bo‘yoqlar

bilan bosma qilish, kashta va applikatsiyani qo'llash, fotosublimatsiya va shularga o'xhash boshqa usullarni qo'llash mumkin. nisbatan sodda bichimli bo'lgani bilan futbolkalar uzun yoki kalta yengli, yengsiz, reglan yoki o'tkazma yengli, yelka kengligi tabiiy yoki uzaytirilgan bo'lishi mumkin. aksariyat hollarda yoqa o'mizi dumaloq yoki uchburchak (V-simon) shaklda bo'ladi.



3.2-rasm. Zamonaviy futbolkalarning shakli va bichimi.

Dizayn yo‘nalishida **ijodiy konsepsiyanı ishlab chiqish** sirli jarayondek tuyulishi mumkin, aslida buning negizida ijod manbasi bo‘yicha sinchiklab bajarilgan tadtiqot, ijod manbasini ishslash va uni qayta o‘zgartirish bosqichlarini o‘z ichiga olgan jarayondir<sup>37</sup>. Bekorga ham “....dizayner – bu ko‘rishni (kuzatishni), e’tibor bilan qayd qilishni, saralashni (tahlil qilishni), kombinatsiyalashni uddalaydigan odam”<sup>38</sup> deb aytishmagan.

Dizayner ijod qilish uchun ilhomni turlicha manbaalardan – muzey yoki badiiy galereyalar, dengiz sohili yoki yirik shaharning ko‘chalari, tanish bo‘lgan uylar yoki bog‘lardan topishi mumkin. Haqiqatni olganda mutlaqo yangicha g‘oyalar kamdan-kam uchrashi mumkin, dizaynerlar atrofdagi dunyoni qayta o‘zlashtirib, uni turlicha interpretatsiyalab ijod qilishadi.

Libosdagi shakl kompozitsiyasini turli vositalar bilan namoyon qilish mumkin. Bunda g‘oyani grafik tasvirlar orqali ifodalashdan tortib o‘yangan loyihani sinov ashyolaridan marketlar va original liboslar yaratishgacha bo‘lgan jarayonlar qamrab olinishi mumkin bo‘ladi.

Libos shakllarining rivojlanishi kuzatilsa, uning siluetini tashkil etishda faqatgina mato va materiallar emas, balki jonivor va o‘simpliklarning shakli hamda boshqa turli manbalar xizmat qilganligini ko‘rish mumkin. Libos ko‘rinishining yangicha shaklini yaratish manbasi sifatida hayotning deyarli barcha hodisalari olinishi mumkindir.

Har bir san’at turida o‘zining qo‘llanilish sohasi, o‘ziga xos g‘oyalari, vositalari, ashyolari hamda g‘oyani ro‘yobga chiqarishning o‘ziga xos usullari mavjud. Shunga qaramay, yakuniy natija doim bitta – insonni yaxshiroq, uni ma’naviy va jismoniy jixatdan mukammalroq qilish maqsadiga yo‘naltirilgan bo‘lishi darkor.

**“Kompozitsiya”** (lot. “compositio” – tashkil qilish, tuzish, joylashtirish, bog‘lash, qurish, struktura) – san’at asarining tuzilishi, qurilishi.

<sup>37</sup> К.Тетхем, Дж. Симен. “Дизайн в моде. Моделирование одежды”. Москва, “Риппол классик”, 2005 й., - 6-бет.

<sup>38</sup> А.Н. Лаврентьев. “История дизайна”, Москва, “Гардарики”, 2007 й., - 14-бет.

Ya’ni, kompozitsiya - qismlarni bir yaxlitlikka biriktirish, badiiy shaklni yaratishda turli-tuman unsurlarni (elementlarni) ma’lum tartibda joylashtirish degani. Kompozitsiya yordamida badiiy asarning ifodaliligiga erishiladi.

Kompozitsiyani qurish va uning elementlari orasidagi bog‘-liklarni tuzish uchun ritm, muvozanat, simmetriya, asimmetriya, dinamika, statika, masshtab va ko‘lamlilik, proporsiya, kontrast, nyuans, o‘xshashlik va boshqalar kabi **kompozitsiya kategoriylaridan** foydalaniladi.

### **Tashqi shaklining yaxlitligi va tabiiylici (uzviylici).**

Kompozitsyaning umumlashtiruvchi kategoriyasi deb buyumni tashqi shaklining tabiiylici va yaxlitligini hisoblash qabul qilingan. “Tabiiylik”ni so‘zma-so‘z tabiatga yaqinlik ma’nosida emas, balki yaratilgan kompozitsyaning yaxlitligi, uni tarkibidagi har bir unsurning bir butunni tabiiy ravishda tashkil etilishiga tushuniladi.

Tugallangan mukammal kompozitsiyada yaxlitlikni o‘zgartirmasdan, uni buzmasdan turib hech narsani o‘zgartirib bo‘lmaydi. Aynan mana shu ma’noda tugallangan kompozitsiya tabiiy organizmga o‘xshaydi: u yaxlit va barcha detallari chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Undan hech narsani olib tashlab ham bo‘lmaydi, ortiqcha narsani qo‘shib ham bo‘lmaydi.

San’at va texnika tutashuvida bo‘lgan badiiy loyihalashda buyum shaklining yaxlitligi uni konstruktorlik yechimi va kompozitsion amalga oshirilishi orasidagi mantiqlik va uzviylikni aks ettiradi, mujassamlashtiradi. Yaxlitlik kompozitsyaning boshqa bir muhim xossasi – o‘zaro tobelik bilan bog‘liqdir. Yaxlitlik - elementlarning kompozitsiya qonun-qoidalariga rioya etilishiga asoslanib o‘zaro bir-biriga mohirona buysundirilishi natijasidir. Tuzilishi, shakli jixatidan murakkab bo‘lmagan buyum kompozitsiyasining tugallanganligi undagi kompozitsion yechimning yaxlitligi hamda shu buyum tabiiy yaratilgandek tuyulishiga olib keladi.

**Elementlarning o‘zaro tobeligi.** Kompozitsyaning asosiy xossasi bir butunni tashkil etuvchi barcha unsurlarining o‘zaro tobeligi natijasidagi shaklining uyg‘un bo‘lgan yaxlitiligidir.

Lekin shakl elementlarining o‘zaro muvofiq bo‘lgan tobeligi shunchaki beixtiyor yuzaki ravishdagi bog‘liq bo‘lmasligi kerak, garchi qismlar orasidagi aloqalar konstruktiv jihatdan yetarlicha mantiqan yechimni topgan bo‘lsa ham. Muvofiq tobelik asosida doimo kompozitsiyaning bitta yoki bir nechta qonuniyatları yotadi. Bulardan chekinish esa, odatda, shaklning qisman yoki butkul buzilishiga, noto‘g‘ri tashkil etilishiga olib keladi.

Shunday qilib, shakl yaxlitligi va undagi elementlarning o‘zaro tobeligi bir-bir bilan sabab va oqibatdek bog‘liqdir. Agar kompozitsiyadagi asosiy elementlarni o‘zaro muvofiqlashtirilishga erishilmasa, ularning shakli va bog‘liqliklarining xususiyati orasida kompozitsion ziddiyatlar paydo bo‘lsa, u holda yaxlitlikka erishish ham muammoli bo‘ladi.

Ko‘pincha dizaynerlar yagona uslubga ega bo‘lmagan va aniq bir ilxom manbasidan kelib chiqmagan holda loyiha eskizlarini yaratib ijodiy xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Ammo asosiy mavzu (motiv, konsepsiya) belgilab olingandan so‘ng ijodiy yo‘nalish belgilanadi, natijada g‘oyalarning dadil va original yechimini qog‘ozga tushurish osonlashadi<sup>39</sup>.

Ijod manbasini tinimsiz turli tarzda hamda usul va vositalarni qo‘llab eskizlash, uning qoralamalarini ishslash dizayner tadqiqotining asosiy qismidir. Mazkur bosqichda ijodkor uchun tanlangan ilhom manbasidagi (yoki ijod mavzusida) aynan qaysi jihat qiziqarli ekanligi aniqlanadi, bu – ranglarning hayratomuz birikuvi va monandligi, nafis shakllar, naqsh chiziqlari bo‘lishi mumkin.

G‘oyalarni eskizlash jarayonida (xorij manbalarida sketchlarni yaratish) ularga unchalik tanqidiy yondoshmasdan erkin tarzda ishslash lozim.

---

<sup>39</sup> К.Тетхем, Дж. Симен. “Дизайн в моде. Моделирование одежды”. Москва, “Риппол классик”, 2005 й., - 7-бет.



3.3-rasm. Futbolka shablonining nusxasi.



3.4-rasm. Ijod manbasi uchun tanlangan Pikassoning 1928-yilda yaratgan grafik asari.<sup>40</sup>

---

<sup>40</sup> [www.studyblue.com/notes/note/n/picasso-exam-2/deck/13066450](http://www.studyblue.com/notes/note/n/picasso-exam-2/deck/13066450)




3.5-rasm. Ijod manbasiga asoslanib yaratilgan eskizlar<sup>41</sup>. Ural Davlat arxitektura san'ati universiteti (Rossiya) talabalarining kurs ishlaridan namunalar

<sup>41</sup> [www.usaaa.ru/faculties/fd/dizain-odezhdy/1-kurs](http://www.usaaa.ru/faculties/fd/dizain-odezhdy/1-kurs)



3.6-rasm. Prototiplar ustida ishlash. Internet sahifalaridan olingan namunalar.



3.7-rasm. “Men O‘zbekistonlikman” mavzusidagi futbolka loyihalari. MRDI talabasi Aysulu Boymirzayevaning ishlaridan namunalar.



3.8-rasm. “Adabiyot shinavandalari” nomli loyiha. [www/piotr-kowalczyk.com](http://www/piotr-kowalczyk.com) saytidan “50 best literary gifts for a modern-day book lover” nomli maqola.



1



2

3.9-rasm. Applikatsiya (1) va kashta (2) qo'llangan futbolkalarning dizayni



3.10-rasm. Applikatsiya, to‘rdo‘zi va pechvork prinsiplaridan foydalanib bezak berilgan futfolkalar.



1



2




3



4

3.11-rasm. Bezak va shakl berishning turli usullari qo‘llanilib yaratilgan futboldalar:

1-makrame; 2-trikotajni teshib unga chilvirlar yordamida fakutra berish; 3-drapirovka yordamida asimmetrik shakldagi bezak berish; 4-ro ‘moldan olingan naqsh va shokilani tikish orqali dizayn yaratish.



3.12-rasm. Futbolkaning uzunligini o‘zgartirib undan boshqa kiyim yaratish hamda ikkita futboldan foydalanib yaratilgan dizayn.

## **4-loyiha. “Recycling” yo‘nalishidagi loyiha ustida ishlash**

### ***Loyihaning maqsadi:***

- “re-dizayn”, “recycling” kabi tushunchalar va konsepsiylar bilan tanishish;
- konstruksiyalash, bichish hamda murakkab shakldagi kiyimlarni tikish texnologiyasini mukammal bilmaganlik darajasidagi ilk loyiha ishini bajarish;
- erkaklar ko‘ylagini (futbolka, svitshot, va/yoki boshqa turdagи kiyimlarni) yangilab o‘zgartirish va qayta tikish natijasida ularning yangicha dizaynni yaratish.

### ***Loyiha doirasidagi ishlar ketma-ketligi:***

1. Erkaklar ko‘ylagining shakli va bichimi o‘rganish, assortimenti haqida ma’lumot bilan tanishish.
2. Erkaklar ko‘ylagi asosida yangi model shaklini hosil qilish usullari bilan tanishish.
3. Manekenda yangi modelni yaratishda erkaklar ko‘ylagini qadalma qilish jarayonini fotoga olish yoki eskizlash. Surat va eskizlar xomaki modellarni uch tarafdan – old, ort va yon tomonidan aks ettirilishi kerak. Undan tashqari modellarning o‘ziga xos bo‘lgan original yechimlarini aks ettiruvchi ulanish joylari, detallar va bezaklari ham tasvirlanishi kerak.
4. Prototiplarni yaratish.
5. Yakuniy xulosa va natijalarni keltirish.

### ***Tayanch ma’lumotlar va loyihani bajarish bo‘yicha tavsiyalar:***

Yigirmanchi asrning 70-yillarida texnologik jadallikning ijobiy natijalari bilan barobar uning salbiy ta’siri - insoniyat oldida real ekologik xavf paydo bo‘layotgani namoyon bo‘la boshladi. Ekologik muammolar loyihalashdagi yangicha yondashuvlar zarurligi tufayli dizaynda yangicha konsepsiyalarni yaratish bo‘yicha mutlaqo yangi vazifalar qo‘yildi.

1980-yillarda dizaynda “alternativ dizayn”, “yangi dizayn”, “metaforik dizayn”, “antifunksionalizm” kabi yangi konsepsiylar shakllandi. Atrof-muhitning ekologik inqirozi jahon miqiyosida sodir bo‘lib, inson faoliyatida keskin o‘zgarishlarni talab qildi.

Liboslar dizayni sohasi sog‘lom va komfort mahsulot ishlab chiqarishga ongli yondoshuv ehtiyojiga shiddatli ravishda munosabat bildirdi. Buning sabablaridan biri libosning insonga nafaqat estetik, balki fiziologik ta’sirining ahamiyatli ekanligidadir. Yangicha ashyolar, matolarni tabiiy bo‘yashning yangicha usullarini izlash, to‘qimachilikda qayta ishlangan tolalarni ishlatish, kiyim ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan an’anaviy hunarmandchilik turlarini tiklash – bularning barchasi bir paytlari tushunarsiz bo‘lgan nazariy qarashlardan bugungi kunlarda umumiyligi tarzda “Eco-fashion” deb ta’riflanuvchi muhim va hamma sohada qo‘llaniluvchi amaliyotga aylangandir.



3.13-rasm. Redizayn g‘oyasi asosida yaratilgan libos namunalari.

Ekologik muammoni yechishning yana bir yo‘li – chiqindisiz texnologiyalar va resurslar bilan qayta foydalanishga imkon beruvchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ekotsikllarni qo‘llashdan iborat, chunki xom ashyodan nooqilona foydalanish “axlat

(chiqindilar) inqiroz”ini keltirib chiqardi. Natijada bugungi kunda tashqi muhitni ifloslantirish muammosini yechish uchun eng ommabop usuli qayta ishlangan xom ashyodan foydalanish bo‘lib qoldi. Kiyim dizaynida bu masalani yechish uchun qayta ishlov berilgan chiqindilarni qo‘llashdan to ma’naviy eskirgan kiyimlar- dan foydalanishgacha bo‘lgan bir necha variantlari taqdim etiladi. 1990-yillarda “*sekond xend*” biznesining ravnaq topishi ham shundan dalolat beradi.

Ekologik ishlab chiqarishning yana bir konsepsiyasini “alternativ iqtisod” tarafdarlari taqdim etishmoqda. Ularning fikri-cha, ixtiyoriy ishlab chiqarish xomashyoning nobudgarchiligini kamaytirishni (iloji boricha nobudgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikni) ta’minlovchi mukammal texnologiyalarga hamda katta bo‘lmagan guruhlardagi iste’molchilarning aniq (konkret) talablarini hisobga oluvchi kichik seriyali ishlab chiqarishga asoslanishi (tayanishi) lozim. Bularning natijasi esa resurslarning juda ulkan tejam- korligiga sabab bo‘ladi. birinchi qarashda bu konsepsiya mantiqqa mos kelmaydiganga o‘xshasa-da, aslida ommaviy katta seriyali ishlab chiqarishning bir xilligiga qaraganda turfa uslubiy yechimga ega differensial loyihalash (iste’molchilarning kichik guruhlariga yoki alohida oddamga mo‘ljallangan dizaynni yaratish) oxir-pirovardida nisbatan kamroq isrofgarchilikka olib keladi va ekologikligi jihatidan ham afzalligi yuqoriroqdir. Shu tariqa individual buyurtmalarni bajarishga oriyentir olish ortiqcha xarajatli ishlab chiqarishga qarshilik ko‘rsatishning yo‘llaridan biriga aylanadi. Undan tashqari borgan sari vintaj buyumlarining qo‘l mehnati va noyoblikning uyg‘unligi - o‘z “tarixi”ga ega bo‘lgan buyumlarning qadrlanishi ham bunga misol bo‘la oladi.

Yuqorida aytilganidek, jamiyatning ekologik muammolar bilan tashvishlanishi dizaynda yangicha konsepsiyaning shakllani- shiga sabab bo‘ldi. Buyumlarni o‘ylamasdan iste’mol qilish, ishlatish, qo‘llash o‘rniga ularga qayta ishlov berish, qayta qo‘llash va qayta iste’mol qilish g‘oyalari avj olmoqda. Moda olamidagi bu qayta tikish, qayta ishlov berish, yangilash jarayoni redizayn, restayling, refeshion, resaykling, apsaykling, trefeshion, kastomáyzing kabi nomlanishlar bilan ma’lumdir:

-redizayn - (ingl. redesign - *re-* qaytadan, yangidan, boshqatdan + design - o‘ylamoq, loyihalamoq, ishlab chiqarmoq, ixtiro qilmoq), ya’ni eski shaklni qaytadan ishlab chiqish natijasida yangi shakl, yangi dizayn yaratib, buyumga ikkinchi xayot berish; buyumga qaytadan yangicha ishlov berish natijasida unga yangicha ko‘rinish berish<sup>42</sup>;

-restayling (ingl. restyling) – buyumning, brendning, logotip tashqi ko‘rinishidagi elementlarning vizual o‘zgartirilishi; buyum tashqi ko‘rinishini modabop uslublarga mos tarzda o‘zgartirilishi;

-resaykling (ingl. recycling – takroriy sikl) va apsaykling (ingl. up-yuqoriga + cycling – sikl, ya’ni siklning yuqoriga harakatlanib takrorlanishi) –qayta ishlov berib eski ashyolardan yangi buyumlarni yaratish;

-trefeshion (ingl. trashion so‘zidan: trash – chiqindi, axlat + fashion – moda) – tashlab yuborilgan narsalardan zamonaviy, modabop buyumlar yaratish;

-kastomáyzing (ingl. customize; *custom* — buyurtmaga binoan bajarilgan) – mijozning hohishi yoki ma’lum vaziyat va mavzuga mos ravishda kiyim, poyabzal, aksessuarlarni qayta ishslash yoki qaytadan bezash<sup>43</sup>.

Ko‘pchilik dizaynerlar va brendlар modadagi bu kabi eko- logik konsepsiyalardan, ya’ni resaykling g‘oyalarini yangi kolleksiyalarni yaratishda qo‘llab kelishmoqda. Bular qatoriga H&M brendini, Patagonia kompaniyasini, Solosso, Anya Hindmarch, Ralph Lauren kabi dizaynerlarni keltirish mumkin. Masalan Martin Mardjella (Martin Margiella) eski kiyimlarni qaytadan bichib yangi buyumlar yaratgan (sharflardan tikilgan nimcha, bolalar paypoqlaridan yig‘ilgan sviter va boshqalar).

**Erkaklar ko‘ylagi (rubashka)ning bichimi.** Odatda erkaklar ko‘ylagi old va ort bo‘laklar, koketka, yenglar (bilakkacha uzun yoki tirsakkacha kalta), yoqa kabi detallardan tashkil topgan. Yengi uzun rubashkalarda manjetlar (tugmachali yoki ilmatugma-zaponkali) bo‘lishi shart. Aksariyat ko‘ylaklar old bo‘lagining chap tomonida bitta cho‘ntakli bo‘ladi, ba’zi kundalik va

<sup>42</sup> <https://diyfashionsense.wordpress.com/>

<sup>43</sup> <http://www.trashtocouture.com/>

norasmiy sharoitda kiyiladiganlarida har ikkala tarafda cho‘ntaklar tikilishi mumkin. Uslubiy yechimiga muvofiq cho‘ntak qopqoqlar ham tikilishi mumkin.



3.14-rasm. Erkaklar ko‘ylagining detallari.

**“Recycling” yo‘nalishidagi loyiha** doirasida libosning yangicha dizaynnini yaratish jarayonida noan’anaviy materiallarni qo‘llash, eskirgan kiyimlarga qayta ishlov berish va ulardan foydalanish mumkin. Bu loyiha uchun to‘plangan ashyolarning yangicha xossalalarini ochish, yangicha ko‘rinishdagi buyumlarni yaratish, yangi o‘zgacha obrazlarni hosil qilish, turli g‘oya va turli materiallarning uyg‘unligini yagona nusxadagi buyumlarda aks ettirish, tikishning innovatsion texnologiyalarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini beradi.

Resaykling yo‘nalishidagi loyihani bajarish asosida yangi dizaynni yaratish turlicha usulda va turlicha ketma-ketlikda bajarilish mumkin.



3.15-rasm. Erkaklar ko‘ylagining bir donasida detallarning tashqi ko‘rinishini o‘zgartirib qayta ishlov berish hisobiga buyumning tashqi ko‘rinishini yangilash, zamonaviylashtirish, boshqa vazifa uchun moslash.



3.16-rasm. Ko‘ylakning siluetini o‘zgartirmagan holda ikkinchi ko‘ylakdan olingan detallar evaziga uning dizaynini o‘zgartirish: yoqa ikki qavatli qilingan; ikkinchi ko‘ylakning yengi 1-sining ort bo‘lagiga kiritma tarzida tikilgan. Old bo‘lakda ham 2-ko‘ylakdan doira ko‘rinishidagi bezak detallar bichilgan.



3.17-rasm. Ikkita yoki undan ortiq sondagi ko‘ylaklardan foydalanib yaratilgan modellar<sup>44</sup>.



3.18-rasm. Ikkita yoki undan ortiq sondagi ko‘ylaklardan foydalanib yaratilgan modellar.

---

<sup>44</sup> Paganoonoo интернет сайтидан олинган.



3.19-rasm. Ikkita yoki undan ortiq sondagi ko‘ylaklardan foydalanib yaratilgan modellar<sup>45</sup>.



3.20-rasm. Manekenga turlicha tarzda 2-3ta ko‘ylakni kiydirib yangicha siluetli model hosil qilish hamda erkaklar rubashkasidagi detallarning o‘ziga xos shaklidan kelib chiqib boshqa kiyim turini yaratish.

<sup>45</sup> Paganoonoo интернет сайтидан олинган.



3.21-rasm. 5-6ta eski shim va charm kamar bo‘lagidan foydalanib yaratilgan ustki kiyim (kurtka modeli)<sup>46</sup>.



3.22-rasm. Loyiha doirasida yaratilag prototiplar.<sup>47</sup>

---

<sup>46</sup> Paganoonoо интернет сайтидан олинган.

<sup>47</sup> Хорижий таълим юрти талабаларининг ижодий иши.



3.23-rasm. Loyiha doirasida yaratilgan prototiplar.<sup>48</sup>

## **5-loyiha. Hajmiy-fazoviy struktura qurish**

### ***Loyihaning maqsadi:***

- geometrik hajmiy–fazoviy struktura tushunchasi hamda uning qurilish prinsiplari bilan tanishish;
- struktura qurilishiga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olishni o‘rganish;
- materiallar tektonikasi va plastikasini o‘rganish hamda amaliy loyihalarda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish.

Hajmiy-fazoviy kompozitsiya – predmetni loyihalash va modellashtirish dizaynining amaliyoti va nazariyasidagi muhim loyihalardan biridir. Bu badiiy-konstruktiv yechimlarni tekshirish va ulardan eng optimal variantlarini tanlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi loyihadir.

Ko‘pincha hajmiy-fazoviy struktura (kompozitsiya, model) vizual fikrlashning hamda g‘oyani namoyish etishning vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

---

<sup>48</sup> Интернетдан олинган.

Hajmiy modellashtirish fazoviy va konstruktiv hissiyotni, ijodiy fantaziyani hamda yaratilayotgan shakllarning estetik xossalariini professional baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Libosning shaklini yaratishda mutaxassis matoni chuqur his qilishi: u kimga mo‘ljallanganligini, plastik va kompozitsion-tarkibiy imkoniyatlarini tushunishi kerak. Arxitektonika bo‘yicha amaliy topshiriqni talabalarning materialni taktil his qilish, keyinchalik matoning kostyumda plastik va dekorativ jihatdan namoyon bo‘lishini kuchaytirish uchun tekstil material bilan ishslash bo‘yicha manipulyativ qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan trening sifatida qabul qilish zarur. Imkon qadar oz vositalardan foydalangan holda imkon qadar ma’nodor mahsulot yaratish jarayonida hosil qilinayotgan muayyan shaklga va, umuman, muammoga yaxlit qarash shakllanadi.

### ***Loyiha doirasidagi ishlar ketma-ketligi:***

1. Turli usullar bilan yassi sirdan bo‘rtma (relyef) yuza va hajmlli yuzalarni yaratish.
2. Tektonikasi turlicha bo‘lgan qog‘ozdan hajmiy – fazoviy struktura qurish.
3. Turli usullardan foydalanib (drapirovka, taxlamalar qilish, qiyalama bichim, kiritma va qirqimlar berish orqali) matodan hajmiy-fazoviy struktura yaratish.

### ***Tayanch ma’lumotlar va loyihani bajarish bo‘yicha tavsiyalar:***

Har bir buyum shakliga uning hamma elementlarining bir-biri bilan va fazo bilan o‘zaro muayyan ta’sir etishi nuqtai nazaridan qarash, ya’ni uni hajmiy-fazoviy struktura, deb hisoblash mumkin.

Bu struktura ba’zan oddiy va ixcham, ba’zan esa juda murakkab bo‘ladi. Hajmiy-fazoviy strukturaning murakkablik darajasi qandaylidan qat’iynazar undagi barcha elementlarning o‘zaro aloqadorlik sistemasi tektonika bilan bir qatorda chinakam uyg‘unlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Kompozitsiyaning ikkita asosiy kategoriyasi o‘zaro mustahkam bog‘liqdir. Tektonikaning buzilishi (konstruktiv asos

ishining soxta aks etishi) sanoat buyumi hajmiy-fazoviy Strukturasi elementlarining uzviy aloqadorligiga albatta tasir etadi, shuningdek hajmiy-fazoviy yechimning prinsip jihatidan noto‘g‘ri hal etilishi tektonik xarakterdagi xatoliklarga olib keladi.

Shakl yaratayotganda uning nimaga mo‘ljallanganligini va qanday sharoitda ishlatalishini bilish kerak. Shuning uchun shakl konstruktiv hal etilishi, materiallarning tanlanishi, bezaklari va rangi uning asosiy vazifalariga, ya’ni estetik va amaliy vazifalariga itoat etgan bo‘lishi lozim. Qismlarning muayyan tartibda tashkil topganligi, ya’ni strukturasi shaklni xarakterlab beradi.

**Struktura** deganda obrazli, funksional va texnik yechimga bog‘liq bo‘lgan geometrik shakl elementlarining muayyan fazoviy sistemasini tushunish kerak.

Shakl makon va vaqt o‘zgargani sayin oldinga intilib rivojlanadi. Shu tariqa, to‘planib qolgan miqdor o‘zgarishlar yangi sifatda namoyon bo‘ladi.

Jonli tabiatda har bir jonzotning shakli faqat o‘ziga xos yo‘l bilan o‘zgaradi, bunda birinchi navbatda yetakchi elementlar, ulardan so‘ng ergash elementlar rivojlanadi (masalan, bosqichma-bosqich rivojlanish – daraxtlarning bir yilga to‘g‘ri keladigan gardishlari, chig‘anoqning yoysimon rivojlanishi va h.k.). Bu jarayon shaklning tashqi ko‘rinishida aks etadi.

Inson narsalarning shaklini uni qurshab turgan tabiatdagи shakllarga qarab yaratgan. Atrof muhitni anglagani sayin insonning abstrakt fikrlash qobiliyati rivojlanib borgan. Bu predmetlarning shaklini material qanday maqsadga mo‘ljallanganligi va uning imkoniyatlariga qarab yaratish imkonini berdi. Obyektlarning shakli ko‘p jihatdan ularni yaratish texnologiyasiga bog‘liq bo‘lib bordi, bu esa tashqi shaklni yaratish sur’atini (yog‘och uy, tosh qal’a, g‘isht devor qurish, to‘qilgan yuzalar, matoni ulaydigan konstruktiv choklar yaratish sur’atini) belgilab berdi.

Shu tariqa inson qo‘li bilan shakl yaratish san’ati – bu ma’lum usulda yaratilgan **ichki tuzilmaning tashqi namoyon bo‘lishi**.

Jonli tabiatda shaklning tarkibiy tuzilmasi undan foydalanish usulini (yashash, rivojlanish tarzi) belgilab beradi.

Tabiatdagi shakllarni o‘rgangan me’morlar yangi ko‘rinishdagi: spiral bo‘yicha birlashtirilgan, prujinalanadigan, sharnirlarga qurilgan, markaziy o‘q simmetriyasi prinsipi bo‘yicha qurilgan, konstruksiyalarining shakli o‘zgaradigan qurilmalarni kashf etdilar. Bu kabi obyektlar yangi obrazlarga boy, ularning bir vaqtning o‘zida yangi va juda tanish bo‘lgan ritmik tuzilishi original dizayn alomatiga aylanadi. Dizayner bunday hodisalarni aniq ilg‘ashi lozim, zero kiyim o‘zgaruvchan atrof muhit bilan uyg‘unlikda bo‘lishi kerak.

Uch o‘lchamli strukturani kompozitsion-plastik yaratish prinsiplari turli xil plastika va kompozitsion makon tiplari uyg‘unlashuviga asoslangan. Geometrik plastika negizida aniq va qat’iy geometrizm yotadi. Geometrizm yordamida kompozitsion uyg‘unlikka, estetik jihatdan mukammal asar yaratish uchun talab etiladigan badiiy-obrazli ma’nodorlikka erishiladi.

Geometrik shakllarni yaratish juda murakkab jarayon bo‘lib, buning uchun nozik did talab etiladi, chunki har bir elementning o‘zi mukammal, tugallangan va mustaqil bo‘lib, oldidagi elementdan mutlaqo mustaqil. Bu sovuq shakllarga jon ato etish uchun katta kompozitsion mahorat talab etiladi.

**Haykalga xos plastika** deganda monolitlik, tutashlik, cheklanganlik, muttasil rivojlanish va harakat tushuniladi, bunda bitta element sezilar-sezilmas ikkinchisiga qo‘silib ketadi, unga aylanadi. Bu shakl hosil qiluvchi murakkab yuzali shakllar dunyosi, unda bir necha yo‘nalishda shakllar biridan-ikkinchisiga o‘tib, harakatga keladi, yangidan yangi shakllar hosil qiladi. Haykalga xos plastikaga misol tariqasida insonning qulog‘ini yoki uning tanasini keltirish mumkin, qulqoq va tana shaklining elementlari aniq chegaraga ega emas.

Geometrik plastikaning kompozitsion tuzilmasida elementlar va intervallar hajmini uyg‘unlashtirish (ko‘lam, proporsiya mutanosibligi, metrik-ritmik nisbat) vositalari asosiy rol o‘ynasa, haykalga xos plastikada – bu plastik mavzu tabiiy ravishda rivojlanishi, bunda ritm tushunchasi jadal rivojlanishning hissiyotga boy obraziga (tez-sekin, shiddatli-so‘liq, keskin-ravon) aylanadi.

Tomoshabinga ta'sir kuchi nuqtai nazaridan plastikaning ikkala turi inson idrokining ikki turli ko'rinishiga: aql va hissiyotga qaratilgan.

Kompozitsiya nazariyasi o'rganilayotgan narsalar o'rtasidagi eng umumiyligi, eng muhim bog'lanish va munosabatlarni aks ettiruvchi kategoriyalarga asoslanadi. **Tektonika esa kostyum kompozitsiyasidagi (qurulishidagi) eng muhim kategoriylardandir.**

**Tektonika** shaklga olgan konstruksiya va materialning ko'zga tashlanuvchi akslanishidir. Tektonika – grekcha «qurilish san'ati». Bu yerda tikish, tiklash san'ati. Ikkinchisi mazmuni – o'zgaruvchan holatlarni o'rganish.

Tektonik shakl – bu materialning hususiyatini konstruksiya bajarilishining hamda mahsulot tayyorlanishi uslubidagi xususiyatlarining badiiy mushohada qilishdagi jonli, ifodali aniqlovichisidir. Bu aniqlanishga asos bo'lib material yoki materillar yig'indisi ham, mahsulot konstruksiyasi ham, tayyorlash texnologiyasi ham xizmat qiladi.

Shakl ko'rinishining tektonik mantig'iga tabiat yaratgan shakllar juda yaxshi misol bo'la oladi (yaproq, gul, ari uyasi, novdalar va h.k.)

Asrlar davomida sayqallangan tabiatning ko'rinishlari materiallarni o'z joyida ratsional va tejamkor foydalanishning va u asosda go'zal shakl turlarini yaratishning son-sanoqsiz misollarini beradi. Bu misollarini sinchiklab kuzatish, ularning tektonik jozibasini o'rganish, kiyim konstruksiyalarini yaratishda, ularni ijodiy o'zlashtirishda tunganmas manba'dir.

Ijodkor material tanlashda, xususiyatlarini aniqlashda va bu xususiyatlarga urg'u berishda, ularning kompozitsiyada ish berishida, mahsulot tayyorlash texnologiyasini, xususiyatlarini aniqlashda juda ko'p o'ylaydi. Va bularning barini o'zining asosiy maqsadiga, ya'ni ijodiy va kompozitsion g'oyasiga bo'ysindiradi.

Kostyum shaklining plastikligi to'g'risida so'z yuritganda (uning geometrik aniqligi, ovalga moyilligi, qattiqligi va hokazo), biz hamisha materiallarning o'ziga xos plastikligi hususiyatlarini nazarda tutamiz. Shuning uchun turli xil geometrik shakllardan

birortasida to‘xtar ekanmiz biz fakat muayyan shaklning turg‘unligini saqlab qola oladigan materialnigina tanlab olamiz.

Ma’lum bir kompozitsion reja va kerakli texnologiyaga asoslanib maxsus tanlab olingan materialning xususiyatlari ba’zan bir-biridan keskin farq qiluvchi rejalarни amalga oshirish imkonini beradi. Misol uchun jun matodan tikilgan ko‘ylakning yoqasi va yoqa qaytarmasi qotirmali, yubkasi esa karnay bichiq bo‘lsa, mato birinchi holda (yoqa va latskan) qattiq, haykalsimon xarakter, ikkinchi holda (yubka) muloyim, egiluvchan xarakter kasb etadi. Ya’ni texnologik uslubning turliligi bitta matoga turlicha ko‘rinish beradi. Shakl sirtining bu yerda aytilayotgan batafsil sharhi uning shu mahsulotdagi bajargan vazifasini va mahsulotning tayyorlanish jarayonini izohlab beradi. Shuning uchun bu sharh mahsulotning tektonik mohiyatini ifodalovchi mahsulotning obrazli ijod etilishini badiiy tasvirlovchi vositada namoyon bo‘luvchi o‘ziga xos texnologik tilni shakllantiradi.

Badiyatni ifodalovchi boshqa vositalariga qaraganda tektonikaning o‘ziga xos hususiyati shundaki, unga ilmiy texnika inqilobi (ITI) katta ta’sir o‘tkazib boradi. Ilm-fan bilan texnik, iqtisodiyot, yangi materiallarni ishlatish turli texnologiyalarning mukammalashuvi, yangilarning tug‘ilishi, insoniyatning yaratuvchilik va amaliy faoliyati, loyihalashda ilmiy usullarning qo‘llanishi kabi sohalar bilan uzviy bog‘liqligi – bularning bari tektonik sistemalar haqida ilgarigi tasavvurlarni o‘zgartirib, yangilib keladi. Keyingi yillarda kimyo sanoati to‘qimachilik sanoati sintetik tola ishlab chiqarish sohasining hom-ashyo bazasini ancha boyitdi va boyitib boraveradi. Sun’iy, sintetik tolalarning tabiiy tolalar bilan turli hil qo‘shilmalari esa plastik xususiyatlar palitrasini yanada kengaytiradi. Bugungi kunlarda olimlar bu yangi materiallarning gigiyenik va texnologik xususiyatlarini takomillashtirish ustida ham katta ishlar qilmoqdalar. Shuningdek, kostyumga qo‘llash borasida o‘zining badiiy mushohadasi hali yetarlicha topilmagan to‘qimasiz materiallar ham ko‘plab ishlab chiqarilmoqda.

Yangi matoga (materialga) yangi shakl, yangi konstruksiya talab etiladi. Biroq shu kungacha sun’iy va sintetik materiallardan

kiyim tikishda plastik va texnologik xususiyatlar butunlay boshqa bo‘lgan tabiiy materiallarni tikish asosida tug‘ilgan uslublar ishlatalib kelinmoqda.

Bundan tashqari zamonaviy kimyo va to‘qimachilik sanoati ko‘p miqdorda o‘xshatma, yasama («simon») materiallarni ham (sun’iy charm – charmsimon, ko‘nsimon, plastmassa simon va h.k.) ishlab chiqarmoqda-ki, bularni qo‘llaganda juda jiddiy tanlov va o‘rganish talab etiladi. Chunki har qanday yasama-yu, o‘xshatmalar materialning tektonik mohiyatini buzadi. Ijodkor uchun materialga yondoshishdagi estetik mezon bo‘lib rostgo‘y mutanosiblik xizmat qilishi kerak. Agar materialga unga xos bo‘limgan xususiyat yuklansa, bu uning ustidan g‘alaba qozonish emas – estetik zo‘rlash bo‘ladi. Zeroki yapon iborasi shunday deydi: “Ijodkorning vazifasi, roli materialga o‘z xohishini kuch bilan o‘tkazish emas, jonga kirgan qo‘lidagi materialning o‘z imkoniyat va tuyg‘ularini tilga kiritishdir”<sup>49</sup>.

Kostyum shaklining yaxlitligi uning bo‘laklarini bir – biriga uyg‘unlashtirilishi, moslashtirilishi bilan erishiladi. Bu ishdagi bosh maqsad kiyimning (ko‘ylak, palto, kostyum va h.k.). boshdan–oyoq yaxlitligidir. Yaxlitlik uning konstruksiya mantig‘ining va libos bo‘laklari oyoq kiyim, bosh kiyim va h.k. va materialining bir – biriga moslashuvchi mutanosibligi orqali erishiladi. Kostyuminning yorqin va shu bilan bir paytda (sistema sifatida) mantiiqiy qurilmasi tektonika ham bo‘ladi. Ya’ni, tektonika bu faqatgina badiiy sifat emas, balki kostyum deyiluvchi yagona badiiy tizimga oyoq kiyim, bosh kiyim, qo‘shimchalar, bezaklarning bir – biriga moslashuvi va hamisha harakatdagi bog‘liqligidir<sup>50</sup>.

Kostyum tektonikasi bu konstruktiv tizimlari, ritmi, bezaklari, kontrastlari, nyuanslari, plastikasi, mato ranglari uyg‘un proporsiyaga yetkazilgan – shakling badiiy mantiiq‘idir (mantiiq‘i asosidagi yaxlitligidir).

<sup>49</sup> В.Овчинников. «Сакура новдаси». М., «Молодая гвардия», 1971 й.

<sup>50</sup> Т.В. Козлова, Р. Степучев и др. «Основы теории проектирования костюма» Лекцияларнинг конспектлари. М., Москва тўқимачилик саноати институти. 1982 й. 64 – бет.

Ko‘pincha mato rangi kostyum shaklining qandayligini belgilaydi<sup>51</sup>. Kostyum va uning hajmi – plastik xususiyatlari bo‘laklarining hajmlari qandayligi ta’sir ko‘rsatuvchi konkret materiallarga bog‘liqdir.

Tektonika bilan bog‘liq masalalarni hal etarkan, ijodkor maqsadga muvofiqlik, tejamkorlik, pishiqlik, tayyorlashning oson yo‘llari, materialning unumli xususiyatlaridan foydalanish va boshqa masalalarni hisobga olishiga to‘g‘ri keladi. Tektonik yechimlarni izlash va yangi–yangilarini topish – bu tinimsiz diqqat-e’tibor bilan o‘ylash, o‘rganish va yana qayta - qayta izlanishidir. Faqat shu yo‘agina tektonikada durkun, qiziqarli va jasur g‘oya va yechimlarga olib boradi.

Aniqlikning foydalilik va go‘zallik bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak, degan Vitruviyning shiori buyumning mohiyatini, uning tektonikasi mohiyatini belgilaydi. Iste’molchi bugungi kunda mahsulotning juda yuqori sifatli bo‘lishini talab qiladi. Shuning uchun sanoat miqyosi va sharoitida ishlab chiqarishga kirishilar ekan foydalilik va go‘zallik bilan uzviy bog‘liqligi mo‘ljalini loyihalash jarayonidayoq joriy qilib borish kerak.

Loyihalash biron buyumning konstruksiyasini tuzish jarayonini-bir tomondan, g‘oyaning struktura (tizim) darajasida ta’riflanishi, ikkinchi tomondan esa, obyekt shaklining moddiylashtirilishida bir vosita rolini o‘ynaydi.

Ijodkorning (rassomning) vazifasi keyingi ish rivojining ko‘zni qanoatlantiradigan texnik konstruktiv shaklini yaratishdir. Rassomning g‘oyasi ustida ishlayotgan konstruktor – muhandis ham o‘z navbatida texnik, sog‘lom mantiq bilimlariga ega talantli ijodkor odam bo‘lishi kerak. Bu xususiyatlari badiiy obrazni o‘zgartirmay hayotiy qoliplarga solishiga yordam beradi. Yangi modelni yaratishda qatnashayotgan konstruktor – muhandis faqat texnolog yoki faqat hisob – kitobchi bo‘lishi mumkin emas. Chunki u konstruksiyaning rassomdan keyingi hayotini hal etadi. Yangi model mahsuloti o‘z «tabiat», o‘z «hulq - atvori» mavjud

<sup>51</sup> Т.В. Козлова. «Основы теории проектирования костюма». М., «Легпромбытиздан». 1988 й. 352 – бет.

bo‘lgan narsadir. Bu «hulq - atvorning», bu «tabiatning» negizini rassom konstruktor yaratishi kerak. Konstruktor – muhandis esa rassom yaratgan obrazni bo‘laklarga ajratib, rassom bilan birgalikda material tanlash, pardoz berish, tashqi ko‘rinish chiziqlarini moslash, hayoliy obrazni materialda ko‘tarish kabi masalalarni bиринчи navbatda ishlab chiqarishdagi qulaylikni o‘ylab tuzadi. Bunda kostyum bichimi ko‘pincha sodda bo‘lsa-da, uning ayrim qismlarining bichimiga qo‘yiladigan talablar, ularning mutanosibligi juda katta aniqlikni taqazo etadi. Estetik funksiyalar yetakchi mo‘ljal bo‘lgan kostyumlarda esa materialning plastik imkoniyatlarini ta’kidlash uchun konstruksiya ko‘pincha murakkab bo‘ladi. Materialning hususiyatlariga qarab konstruksiyada kiyimning mo‘jaliga qarab ish berishlari (kishilikka kiyilganda ko‘zga yaxshi ko‘rinishlari uchun) ayrim detallarning (ort, old bo‘lak, yeng, cho‘ntak va h.k.) qiyofalari jiddiyroq ishlanishlari hisobga olish lozimdir. Mahsulot konstruksiyasi soddalashgan sari mato hususiyatlari uning shakliy tuzulishiga, tektonikasiga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsata boshlaydi.

### **1-topshiriq: Yassi sirdan bo‘rtma (relyef) yuza yaratish.**

Yassi sirdan bo‘rtma (relyef) yuza yaratishni tekislikning dekorativ transformatsiyasi, ya’ni tekis yuzaning tashqi ko‘rinishi yoki hajmini o‘zgartirish deyish mumkin.

Yassi materialni transformatsiya qilish natijasida nafaqat uning dekorativ (bezakli) va estetik sifatlarining yaxshi natijalari hosil qilinadi, balki konstruktorlik-mexanik xossalarini ham yaxshilashga erishiladi.

O‘simlik va hayvonot dunyosida transformatsiyalangan tekisliklarni juda ko‘p uchratish mumkin. Bu ularga pishiqlik va turg‘unlik baxsh etadi. Atrofimizdagi tabiat bizga eng ratsional shakllarni tavsiya etadi.

Daraxtlarning bargi, yong‘oqning po‘sti, gullarning gulbarglari, dengiz tipratikanining zirhi, qisqichbaqaning sovuti, chig‘anoqlar – bularning barchasi murakkab fazoviy shaklga ega va materiali unchalik pishiq bo‘lmasa ham, ahamiyatli zo‘riqishlarga chidamlidir.

Oddiy qog'oz varag'i o'zining og'irligi ostida bukilib ketadi. Lekin uni gumbazsimon, taxlamali yoki quvursimon tarzda buklansa, u hatto kichik vazndagi yukni ham ko'tara oladi. Garchi qog'ozning tarkibi va xossalari o'zgarmagan bo'lsa ham, shakli o'zgargani hisobiga uning mexanik sifatlari yaxshilandi.

Yapon san'atidagi origami va kurigami yasash bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Qog'ozda loyihalashtirish bo'yicha o'quv topshirig'i berishdan asosiy metodik maqsad – shaklning tarkibiy elementlarini erkin yaratish imkoniyatiga ega bo'lish va zarur kompozitsion bog'liqlikni ta'minlash uchun ulardan bemalol foydalanishdir. Amaliyotda bunday erkinlik shakl hosil qilishga qo'yiladigan turli funksional, konstruktiv, texnologik talablar bilan cheklanadi. Kasb faoliyati dizaynerdan kompozitsion mahorat talab etadi, chunki u turli materiallarni plastik tashkil eta olishi kerak. Qog'ozdan bichganda faoliyatning tahliliy xususiyati namoyon bo'ladi, bichish ko'nikmalari sayqal topadi, nostandart fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Qattiq va aniq shakllarni tuzish uchun rasm yoki chizmachilikka mo'ljallangan qalin qog'ozidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu qog'ozlar bukish, burash, kesiq qilish, gofrelash va shu kabilarni bajarish imkonini beradi.


Qog'oz bilan ishslash uchun uning teksturasiga xos xususiyatlarni bilish kerak. Tolasining yo'nalishiga qarab qog'oz turlicha bukiladi. Tolasiga qarshi bukilsa ideal yuza o'rniga mayda-mayda darz va siniqlarni ko'rish mumkin. Tolalarining yo'nalishini aniqlash qiyin emas. Buning uchun listdan ikkita ingichka parcha qirqib olinadi, bittasi eniga, ikkinchisi bo'yiga bukiladi. Silliq qalam yordamida qog'oz parchalarini spiral qilib burang. Bittasining yuzasi silliq bo'ladi, ikkinchisiniki mayda darzlar bilan qoplangan bo'ladi. Bu silindrik ko'rinishdagi bo'rtma-fazoviy strukturani tayyorlayotganda mato teksturasining yo'nalishini aniqlash imkonini beradi.

Qog'ozni yopishtirish uchun PVA yelimdan foydalanish kerak, u tez quriydi va qog'oz ustida ko'rinishmaydigan shaffof qatlam hosil qiladi. Qog'oz bilan ishslash uchun qog'oz kesadigan

pichoq yoki o'tkir maket pichog'i, bigiz, qaychi, burchaklar, lineyka, lekala, iloji bo'lsa temir lekala kerak.

Qog'ozdan konstruksiya yasash texnologiyasi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Murakkab plastik strukturalarni yasash uchun oldindan ayrim mashqlarni o'zlashtirish, yordamchi bichim va sxemalardan foydalanish talab etiladi.

Topshiriq 20x20 sm yoki 20x40 sm o'lchamli formatda bajariladi. Relyef hosil qilinganda, qog'oz turli burchaklarda, yo'nalishda bukilishi, kesilishi mumkin, ammo imkon qadar biror elementni kesib olish va yopishtirishdan tiyilish lozim. Relyeflar metrik va ritmik, oddiy va murakkab qatorlar, bir tarafga qaragan va qarama-qarshi yo'nalishlar uyg'unlashuvidan iborat bo'lishi mumkin.



3.24-rasm. Qog'ozni buklash sxemalari va shu taxlamalar natijasida hosil bo'lgan relyefli yuza. A- o'ng tomondan ko'rinish, B-teskari tomondan ko'rinish.<sup>52</sup>


Ammo, an'anaviy tushunchaga ko'ra qog'oz listi faqat to'g'ri chiziq bo'ylab bukiladi. Murakkab shakl yaratishda egri bukiqlarsiz ish bitmaydi. Maket pichoq yordamida egri chiziq bo'ylab kesish mumkin. Qog'ozning u burchagidan bu burchagigacha ixtiyoriy egri chiziq bo'ylab kesik qilib, bukilsa

<sup>52</sup> А.В. Шилкина. Объемно-пространственная композиция. Практический курс: Методические указания для студентов. – Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2012. – 72 с.


aniq va plastik bukiq hosil bo‘ladi, bu qog‘ozning yuzasini butkul o‘zgartirib yuboradi. Kesiq list qalilgining yarmidan chuqur bo‘lmashligi kerak. Kesiq yetarlicha chuqur bo‘lmasa qog‘oz yoki bukilmay g‘ijimlanadi, yoki noaniq shakl hosil bo‘ladi. Chuqur kesiq esa yirtiq hosil qilishi mumkin.

Qog‘ozning o‘ngi va teskarisiga kerakli bo‘lgan geometrik shakl ehtiyyotkorlik bilan tushuriladi. Qog‘ozni aniq buklash uchun belgilangan chiziqlar bo‘yicha qog‘oz sirtining yuqori qatlami ohista kertiladi. Agar qog‘oz qavariq bo‘lib bukilsa, uning sirti o‘ng tomonidan, botiq bo‘lsa, teskarisidan kesib tilinadi.


Rasmlarda keltirilgan sxemalardagi tutash chiziqlar bo‘ylab qog‘oz sirtining o‘ng tomoni tilib kesiladi, punktir chiziqlar bo‘icha esa teskari tomonidan kesiladi.



3.25 -rasm. Qog‘ozni buklash sxemalari va shu taxlamalar natijasida hosil bo‘lgan relyefli yuza (o‘ng tomondan ko‘rinish) .



3.26-rasm. Qog‘ozni buklash sxemalari va shu taxlamalar natijasida hosil bo‘lgan relyefli yuza<sup>53</sup>.




3.27-rasm. Relyefli yuzani hosil qilishi uchun doira shaklidagi qog‘ozni buklash sxemasi<sup>54</sup>

<sup>53</sup> А.В. Шилкина. Объемно-пространственная композиция. Практический курс: Методические указания для студентов. – Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2012. – 72 с.


<sup>54</sup> А.В. Шилкина. Объемно-пространственная композиция. Практический курс: Методические указания для студентов. – Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2012. – 72 с.

## **2-topshiriq: Yassi sirtni taxlamalar yordamida hajmga transformatsiyalash**

Qog‘ozni turlicha buklash va taxlamalarga yig‘ish hisobiga shaklning qattiqligini oshirishning badiiy-konstruktiv usullarini o‘rganish. Bu kabi kompozitsiyalarni bajarish uchun ham turli xossalarga ega bo‘lgan qog‘ozni tanlash (qattiqligi, zichligi, rangi bo‘yicha) kerak bo‘ladi.



3.28-rasm. Taxlamalar yordamida yassilikni hajmga o‘zgartirishga misollar: A-taxlamalar yo‘nalishining sxemasi; B-shu sxema asosida taxlamalar yordamida buklangan qog‘ozdan kompozitsiya; V-kompozitsiyaning yon tomondan ko‘rinishi.




3.29-rasm. Taxlamalar yordamida yassilikni hajmga o‘zgartirishga misollar: A-taxlamalar yo‘nalishining sxemasi; B-shu sxema asosida taxlamalar yordamida buklangan qog‘ozdan kompozitsiya; V-kompozitsiyaning yon tomondan ko‘rinishi<sup>55</sup>.

Bu yerdagи transformatsiya shaklning ikkita xolati: tekislik va hajmnинг o‘zaro asl holiga qayta oladigan o‘zgarish tamo-yiliga asoslanadi. Kompozitsiyalar simmetrik yoki asimmetrik bo‘lishi, haykalbop, geometrik yoki aralash plastikani aks etishi,

<sup>55</sup> А.В. Шилкина. Объемно-пространственная композиция. Практический курс: Методические указания для студентов. – Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2012. – 72 с.

turli morfologik murakkablikka ega bo‘lishi, ixcham (kompakt) yoki hajmiy joy egallovchi bo‘lishi mumkin.



3.30-rasm. Taxlamalar yordamida yassilikni hajmga o‘zgartirishga misollar:


A-taxlamalar yo‘nalishining sxemasi;  
B-shu sxema asosida taxlamalar yordamida buklangan qog‘ozdan kompozitsiya; D- kompozitsiyaning yon tomondan ko‘rinishi<sup>56</sup>.

D

Barcha kompozitsiyalarni texnik jihatdan aniq va ozoda bajarilishi, elementlar tuzilishi va ularning faolligining murakkablik darjasini ham optimal bo‘lishi talab qilinadi.

<sup>56</sup> А.В. Шилкина. Объемно-пространственная композиция. Практический курс: Методические указания для студентов. – Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2012. – 72 с.

Quyida berilgan sxemalarda taxlamalarning aniq geometrik tarzda taxlanishi sxemalari bilan misollar hamda doimiy geometrik negizsiz bo‘lgan haykalbop shakllarga misollar keltirilgan. Ikkinchi toifadagi kompozitsiyalar ham to‘g‘ri, ham egri chiziqli bo‘lishi mumkin.




3.31-rasm. Taxlamalar yordamida yassilikni hajmga o‘zgartirishga taxlamalar yo‘nalishining sxemasi.



3.32-rasm. Qog‘ozni haykalbop plastik taxlamalar orqali transformatsiyalashga misollar<sup>57</sup>.

<sup>57</sup> А.В. Шилкина. Объемно-пространственная композиция. Практический курс: Методические указания для студентов. – Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2012. – 72 с.



*Relief of a Wave – Jun Mitani (Japan) ~ Photo © OrigamiSpirit.com*



3.33-rasm. Qog‘ozni haykalbop plastik taxlamalar  
orqali transformatsiyalashga misollar  
(internet sahifalaridan olingan).

### **3-topshiriq. Yassi tekislikni kesiklar (o‘yiq va teshiklar) yordamida shaklini o‘zgartirish (transformatsiyalash)**


Topshiriqning maqsadi – qog‘oz, karton, plyonkadan uch yoqlama shakllarni plastik-kompozitsion tuzishda kesiklar natijasida tekislik qismlarini bukish, egish, burash, cho‘zish kabi usullarni qo‘llash. Buning uchun zaruriy qattiqlik, zichlik, qayishqoqlik, bukiluvchanlik, elastiklik xossalariiga yetarlicha ega bo‘lgan ashylarni tanlash hamda ulardan ifodalish kompozitsiya yaratish lozim. Tekislikdan kompozitsion shakl yasayotganda uni faqat kesib-tilish, burash, taxlash mumkin, ammo uning hech bir qismini olib tashlash mumkin emas. Ya’ni ashyo varag‘ining butunligi yo‘qolmasligi kerak.

Bunday texnologiyani egallash materialni “his qilish” tuy-g‘usini rivojlantiradi va ashygaga turli ta’sirlar natijasida uning “o‘zini tutishi” qanday bo‘lishini avvaldan ko‘ra bilish ko‘nikmasini shakllantiradi.



**3.34-rasm. Ixtiyoriy tarzda badiiy kesiklar berish natijasida tekislikning hajmga tarnsformatsiyalanishiga misol<sup>58</sup>.**

<sup>58</sup> А.В. Шилкина. Объемно-пространственная композиция. Практический курс: Методические указания для студентов. – Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2012. – 72 с.



A




B

3.35-rasm. To‘g‘ri aniq geometriya prinsipi asosida yaratilgan hajmiy kompozitsiya. A-tekislikni kesish va buklash sxemasi; B-shu sxema asosida kesilib taxlangan qag‘oz varag‘idan hosil bo‘lgan hajm.




3.36-rasm. Kesiklar berib, tilimlarni biroz burib bitta nuqtaga tugish usuli bilan yaratilgan hajmiy kompozitsiya<sup>59</sup>.

<sup>59</sup> А.В. Шилкина. Объемно-пространственная композиция. Практический курс: Методические указания для студентов. – Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2012. – 72 с.




3.37 -rasm. To‘g‘ri aniq geometriya prinsipi asosida badiiy kesiklar berish natijasida tekislikning hajmga tarnsformatsiya-lanishiga misol A-tekislikni kesish va buklash sxemasi; B-shu sxema asosida kesilib taxlangan qag‘oz varag‘idan hosil bo‘lgan hajm<sup>60</sup>. Bunda kesilgan tilimlar buralib o‘zaro birlashtirilganda Mebius xalqasinini tashkil etgan.



3.38-rasm. To‘g‘ri aniq geometriya prinsipi asosida badiiy kesiklar berish natijasida tekislikning hajmga transformatsiyalanishiga misol

<sup>60</sup> А.В. Шилкина. Объемно-пространственная композиция. Практический курс: Методические указания для студентов. – Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2012. – 72 с.



3.39 -rasm. To‘g‘ri aniq geometriya prinsipi asosida yaratilgan hajmiy kompozitsiyaga misollar. Murakkab bo‘rtma sirtlarni hosil qilishda qator tilimlar egri chiziq orqali hosil qilingan hamda qog‘oz buklangan (interent manbalaridan).

## **4-topshiriq: Tektonikasi turlicha bo‘lgan qog‘ozdan hajmiy – fazoviy struktura qurish**

Kompozitsiya (struktura) yuzasi mato relyefiga mos qo‘g‘ozda (trikotaj, drapirovska, buflar, tizim burmalar) tayyorlanadi.

Istalgan formatdagi to‘g‘ri to‘rtburchak listlar yordamida turli fazoviy faollikka ega, geometrik va haykalga xos plastikaning shakl hosil qiluvchi xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan ikkita bo‘rtma-plastik kompozitsiya yaratish. Kompoziyatsiya yaratishda qog‘oz uchastkalarini kesib olib tashlash mumkin emas, ya’ni tugallangan ish dastlabki holatga keltirilsa, to‘g‘ri to‘rtburchak qog‘oz listi tiklanishi lozim. Vazifani yuqori texnik mahorat bilan bajarishga intilish kerak.

Geometrik va haykalga xos plastikaning formal mavzulari asosida kombinator-modulli relyef yaratish.

Mazkur topshiriqda transformatsiya yangi narsa yaratish prinsipi sifatida bir necha darajada amalga oshadi. Birinchi daraja tekislik va relyef o‘zaro bir-biriga aylanishi bilan bog‘liq. Bu shart bo‘lmasa edi relyefni papye-mashe texnikasi yordamida bajarish mumkin bo‘lardi. Transformatsiya prinsipining ikkinchi darjasasi aynan kombinator-modulli relyef yaratish talab etilishi bilan bog‘liq, relyef vertikal va gorizontal takrorlanadigan, siklik ravishda o‘z holiga qaytadigan elementdan hosil bo‘ladi. Transformatsiya prinsipining shakl hosil qiluvchi imkoniyatlari amalga oshishining uchinchi darjasasi geometrik va haykalga xos plastikaning obrazli talqin qilish uchun turli usullar qo‘llanilishini talab etuvchi ikki mavzusi yaratilishi bilan bog‘liq.

Geometrik va haykalga xos plastika asosida kombinator-modulli relyef ko‘rinishida 20x20 sm formatli qohozda hamda maneken atrofida barcha konstruktiv kamarlarni hisobga olgan holda bir necha kompozitsiya yaratiladi.



3.40 -rasm. Tektonikasi turlicha bo‘lgan qog‘ozdan har xil usullar yordamida qurilgan hajmiy-fazoviy strukturaga misollar (internet manbalaridan).



3.41 -rasm. Tektonikasi turlicha bo‘lgan qog‘ozdan har xil usullar yordamida qurilgan hajmiy-fazoviy strukturaga misollar (internet manbalaridan).

## **5-topshiriq: Tektonikasi turlicha bo‘lgan matolardan turli usullardan foydalanib hajmiy – fazoviy struktura qurish**

Kompozitsiya tekstil matoda tayyorlanadi. Mashg‘ulotga qo‘yilgan plastik xususiyatlari turlicha bo‘lgan material bilan tanishing. Materialni manekenga ignalar bilan tortib uning draplanishini, sirg‘aluvchanligini, cho‘ziladigan – cho‘zilmaydiganligini, shakl ushlanishi, ezilish darajasini va hokazolarni o‘rganing. Bularning bari model ustida ishlashda asos qilib olinadi.

Eng qiziqarli modellarning chizgi nusxalarini tayyorlang.

Matoga bevosita ta’sir ko‘rsatish uchun an’anaviy usullardan ham (masalan, tikuvchilik mahsulotiga ishlov berishning odatiy usullari), fizikaviy xususiyatlar va tashqi topologik tavsiflarni o‘zgartiradigan original usullardan ham foydalanish mumkin. Tekstil matoning fizikaviy xususiyatlari deganda uning qattiqligi, g‘ijimlanishi, bukiluvchanligi, bir xilda qalinligi, kompozitsion-mazmunan passivligi, vizual, ton-faktura jihatdan bir xilligi tushuniladi. Mato strukturasi ni shaklan va to‘liq o‘zgartirishning texnologik usullariga kesish, bukish, burash, yopishtirish, qo‘lda va mashinada choklash, baxyalash, eritish va hokazolar kiradi. Tekstil mato bilan ishlaganda obraz va assotsiatsiyaga asoslangan yangi yechimlarni izlash lozim.

Umuman olganda, har qanday mahsulotning tuzilmaviy va konstruktiv xususiyatlari qattiqlik qovurg‘alarining xususiyati, soni va yo‘nalishiga bog‘liq.

Matolar, trikotaj polotnolar, to‘qimasiz, plyonkali va hokazo kiyim tayyorlanadigan materiallarning har biri o‘ziga xos egiluvchanlikka (plastikaga), draplanish darajasiga ega bo‘ladiki, kiyimni shakllantirishda (muloyimlik, to‘kilib turuvchi to‘kislik), gavdaga muqobililikda, qat’iy qiyofadalik va boshqa kompozitsiyalarda materialning yuqoridagi o‘ziga xosliklari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Misol uchun, ma’lum darajada pishiqlikka ega harir va ingichka kapron matolaridan ishib turuvchi (“pishnaya forma”) mahsulotlar tayyorlanadi. Bu mahsulotlarning shakli mato yengilligiga mos kelishi kerak. Shuningdek, kapron kiyimlar harir

bo‘lganligidan, ya’ni ko‘rinib turuvchi xususiyati uchun choklar soni imkonli boricha kamaygani yaxshi.



3.42 -rasm. Tektonikasi turlicha bo‘lgan to‘qimachilik ashyolaridan har xil usullar yordamida qurilgan hajmiy-fazoviy strukturaga misollar (internet manbalaridan).



3.43 -rasm. Tektonikasi turlicha bo‘lgan materiallardan har xil usullar yordamida qurilgan hajmiy-fazoviy strukturaga misollar (internet manbalaridan).

Krepsatin, atlas va boshqa “yog‘langan”, “to‘kiluvchi» matolar draplanish xususiyatlari yaxshi ekanligidan hajmi keng, gavdada sirg‘anuvchanligi, nur mavjlarini akslantirishi kiyimini yanada to‘kis qiladi.

Lavsanli jun, zig‘ir tolali va boshqa shu singari «quruqshoq» (“suxiye”) matolar tikishlish jarayoni qiyinroq bo‘lsada, o‘ziga yarasha egiluvchanlikka (plastiklikka) egalar. Bu matolardan sipo, salovatli qiyofadagi kiyimlar tikilgani maqsadga muvofiq.

Trikotaj polotnolarining (matolarning) o‘ta egiluvchanligi ulardan gavda chiziqlariga aynan mos keluvchi kiyimlar tikilishini, biroq uning texnologik o‘ziga xosligi (izmaning bo‘shashib ketishi) mumkin qadar yaxlitlik, kam bo‘linishlar, choklarning oz bo‘lishini taqazo etadi.



3.44-rasm. Tektonikasi turlicha bo‘lgan materiallardan har xil usullar yordamida qurilgan hajmiy-fazoviy strukturaga misollar (internet manbalaridan).



**3.45-rasm.** Tektonikasi turlichay bo‘lgan materiallardan har xil usullar yordamida qurilgan hajmiy-fazoviy strukturaga misollar (internet manbalaridan).

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Dizayn-loyihalash jarayonidagi bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Kompozitsiyaning qanday kategoriyalarini bilasiz?
3. Dizayn-konsepsiya deganda nima tushuniladi?
4. Futbolka haqida nimalarni bilasiz? Uning qanday turlari va shakllari mavjud?
5. Prototip nima?
6. “T-Shirt” degani qanday tarjima qilinadi?
7. Futbolkaning ommalashuviga nimalar sabab bo‘lgan?
8. Futmobilolar uchun asosan qanday ashyo qo‘llaniladi?
9. “Recycling” yo‘nalishiga ta’rif bering.
10. Ekologik muammolar haqida nimalar bilasiz?
11. Ekologik yo‘nalishlar dizaynda qanday konsepsiyalarni shakllantirgan?

12. Erkaklar ko‘ylagining shakli va bichimi haqida nimalar bilasiz? Uning asosiy detallari qanday?
13. Hajmiy-fazoviy struktura nima?
14. Tekislikning dekorativ transformatsiyasi deganda nima tushuniladi?
15. Shabl tektonikasi deganda nima tushuniladi?
16. Turli materiallar tektonikasining turlicha bo‘lishini tushuntiring.
17. Plastik xususiyatlari turlicha bo‘lgan materiallardan shaklni ishlashning qanday o‘ziga xosliklar mavjud?

## **4-BOB. RASSOM-DIZAYNERNING IJODIY MANBALARI**

Mazkur bobda bir necha dizayn-loyihalar bo'yicha ishlarni amalga oshirish borasidagi ma'lumot va tavsiyalar keltirilgan. Bu o'ziga xos mini-loyihalarning maqsadi va vazifasi hamda loyiham doirasida bajariladigan ishlar ketma-ketligi umumiyl jixatlarga ega.

### ***Loyihalarning maqsadi:***

- ijod qilishning turli usullarini qo'llashni o'rganish;
- assotsiativ, siymoli fikrlashni o'rganish;
- yaratilgan eskizlar bo'yicha loyihani amaliy ro'yobga chiqarishni asoslash va ashyoda amalga oshirish.

### ***Loyihalar doirasidagi umumiyl ishlar ketma-ketligi:***

1. Ijodiy manba sifatida tanlangan tabiat dunyosi vakillari (o'simliklar, hasharot va jonivorlar), me'moriy inshootlarni tuzilishi, shakli, proporsiyalari, o'ziga xos plastikasini o'rganing. Rangtasvir va musiqiy asar yoki yo'nalishining kelib chiqish tarixini o'rganing. Ularning koloriti va ritmini, baxsh etuvchi kayfiyatini his qilib tahlil qiling.

2. Ishni materialni o'rganishdan, assotsiativ fikr yuritishdan, timsollar izlashdan boshlash lozim. O'rganilgan materiallar qanday obrazlarni paydo qilayotganini, sizda obraz nima bilan assotsiatsiyalangani, uning timsoli nimaligini – aniqlab oling.

3. Siluetli va mantiqiy qatorlarni bajaring. Ijodiy manbalar transformatsiyasi va uslublashuvi – ishingizning keyingi bosqichi. Agar tanlangan shakl yaratish yoki dekor manbai uni moda standartiga moslashtirishni talab qilsa yoki dekor uslublashuvining yangi variantini topish kerak bo'la, transformatsiya va uslublash-tirishga topshiriqni bajarish kerak bo'ladi. Siz faqat mantiqiy

qatorlar bilan kifoyalanishingiz ham mumkin, chunki davomiy amaliyotda ehtimoliy variantlarni ko‘rish malakasi rivojalanadi va ishning bir qismini miyada bajarib qo‘yish mumkin bo‘ladi.

Mantiqiy, uslubiy qatorlar va toza eskizlar tayyorlash. Kelgusi ishlar oldingizga qo‘ygan maqsadlarga bog‘liq. Bu individual imijni yaratish, liboslar dizaynida yangi avangard yo‘nalishlarni kashf etish, pret-a-porte uchun libos yaratish va shu kabilar bo‘lishi mumkin. Har qanday holatda mantiqiy va uslubiy qatorlarni bajarishga, libos loyihalashtirishga diqqatni jalb qilish va libosning toza eskizlarda namunaviy namoyon etilishi vazifalarini hal etish lozim.

4. Texnik eskizlarni bajarish. Maketlarni yasash. Kolleksiya dagi kiyim modellari namunalarini yaratish.

Dizayner atrofdagi dunyoni kuzatib, uni qayta o‘zlashtirib – “o‘zidan o‘tkazib”, uni turlichal talqin etib ijod qiladi. Ijod qilish uchun esa ijodiy manbani tabiat shakllari yoki me’morchilikdan, muzey yoki badiiy galereyalardan, dengiz sohili yoki yirik shaharning ko‘chalaridan, musiqiy konsert yoki kinofilmardan, tanish bo‘lgan uylar yoki bog‘lardan topishi mumkin.

Libos bo‘yicha rassom-modelyerning ijodiy faoliyati faqatgina uning qanchalik chuqur, nafis va shoirona fikrlashiga emas, balki ijodkorning o‘z g‘oyalarini qanchalik mahorat bilan san’at asarlarida ro‘yobga chiarish usullarining butun arsenali bilan mohirona egalik qilishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni o‘zining hayolidagi g‘oyani o‘ta moddiy bo‘lgan ashyolarda gavdalantirish lozimdir.

Bunda rassomning ijodiy imkoniyatlari, uning potensialining katta-kichikligidan kelib chiqib ijodiy manbaa bilan “aloqa-muloqot” ba’zan darhol, ba’zan esa manbani uzoq va sinchkovlik bilan o‘rganilgandan keyin o‘rnataladi. Bu jarayon barcha ijod turlari – u musiqa bo‘ladimi, adabiyotmi yoki amaliy san’atmi – barchasi uchun xarakterlidir.

Ijodiy manba keyinchalik uni kiyimdagи yangicha shakl va chiziqlarga aylantirish maqsadida o‘rganiladi. Bunda ham miqdoriy, ham sifatiy tarzda transformatsiya yuz beradi, ya’ni manbadagi shakl vizual tadqiq qilinadi, uning chizgilari bajariladi,

kerak bo'lsa o'lchanadi, uning o'ziga xos xossalari tizimlash-tiriladi. Undan so'ng manbaning biror bir alomati yoki xossasi ajratib olinib, aynan shu alomat yoki xossa eskizlarni bajarish jarayonida asos qilib olinadi va endi u yangi asar yoki loyihada o'zgacha yangi sifatda namoyon bo'ladi.

Har bir ijod manbasi faqat ungagina xos bo'lgan alomat-xususiyatga ega. Ana shunday o'ziga xosliklarga e'tibor bergen holda dizayner ijodiy g'oyani to'playdi va rivojlantiradi.

Masalan, bayramona milliy libosda rangdorlik, dekorativlik ko'proq bo'lishi, rang va shakllarning yorqin ritmi namoyon bo'ladi. O'simliklar ijodkorga qiziqarli chiziqlar, shakllar, fakturalar, tektonik hosilalarning keskinligi, simmetriya va asimetriyaga misollarni taqdim etsa, me'morchilik durdonalari o'zining yaxlitligining uyg'unligi, siluet chiziqlarining go'zalligi, shu siluetni tashkil etuvchi shakllarning ritmi, ichki bo'linishlari bilan e'tiborni tortadi. Ko'pincha rassom-modelyer uchun ijod manbasi bo'lib milliy an'anaviy liboslar xizmat qiladi. Bunda libosning qaysi millatga etnografik mansubligi muxim emas.

Manbalar bilan ishni boshlashdan oldin, ijodning boshlanishi nimadan iborat, yakuniy natija qanday bo'lishini, dizayn-loiyha natijasi kim uchun mo'ljallanganligi va rasoom iste'molchi bilan qay tarzda muloqot qilayotganini aniqlab olish darkor. Chunki ijodning eng birinchi manbasi – bu odam: uning gavda tuzilishi, tashqi qiyofasi, xarakteri. Odam kallasi, bo'yni, qo'l, oyoqlari, tanasi, bo'ksalarining shakli va chiziqlarining plastikasi kiyim shaklini hosil qilish usullariga turtki bo'lib xizmat qiladi.

Obyektning konkret konstruksiyasi – odam gavdasi bilan ijodiy g'oyani solishtirilishi natijasida dastlabki obrazning chiziq va shakllari vujudga keladi. Libos shaklini yaratar ekan ijodkor gavdaning chiziqlarini: uning tashqi ko'rinishi, konturlari, figuraning konstruktiv nuqtalaridan o'tuvchi chiziqlarini hayolan kuzatadi. Aynan inson rassom-modelyer, dizaynerlar ijodining obyektiidir.

## Zamonaviy dizaynda libosni loyihalashtirish metodlari

Zamonaviy dizayndagi loyihalashtirishning eng keng tarqalgan metodlari bu:

- yangi obrazni yaratish maqsadida eskisini buzish;
- iqtiboslar (sitatalar) metodi;
- birikmaydiganni biriktirish.

Liboslarni loyihalashtirishda yangi konstruktiv yechimlar izlash natijasida klassik shakllarni yaratishga intilish dekonstruktivizm (destroyed look – moda olamida 1990-yillardan buyon mavjud atama) yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Liboslar dizaynidagi dekonstruktivizm asoschilari Yoji Yamamoto (Yohji Yamamoto) va Rei Kawakubo (Rei Kawakubo) sanaladi. Uslub konsepsiyasida Yevropa liboslari konstruksiyasi tugallanmagan va asimetrik ko'rinish oldi, afzallik qora rangga berildi. Hozirda dekonstruktivizm o'tmish qoidalari va yutuqlariga istehzo bilan qarashni, an'analarni zamonaviy kontektsda interpretatsiyalashni va qonuniyatlarni buzishni ifodalaydi. 1990- yillarda dekonstruktivistlar vakillari belgiyalik dizaynerlar: Anna Demalmeyster (Ann Demeulemeester) – asimetrik konstruksiyani xippi obraz stilistikasi va O'rta asrlar bilan biriktirish, Dris van Noten (Dries van Noten) – minimalizm, dekonstruktivizm va etnik kostyum, Martin Marjela (Martin Marghela) – vintaj, buyumlarning takroriy ishlatalishi (sim bilan mahkamlangan fayans parchalaridan jaket, paypoqlardan pulover, jinsilardan qilingan ashyolar), Valter van Beyrendok (Beirendonk) – kiber-pank, kompyuter o'yinlaridagi virtual voqelikdan grotesk obrazlar, O. Teyskens (O. Theyskens) – gotika, bo'rttirilgan teatrga xoslik va O'rta asrlar muhiti.

Birikmaydiganni biriktirish ushbu turdag'i libos uchun an'anaviy bo'limgan materiallarni qo'llash (Skyaparelli oqshom kolleksiysi uchun tviddan foydalangan, unga qadar "molniya" tasmasi sport kiyimlarining emas, sumka detali sanalgan; Rudi Gernreyx shifondan ishchi kiyimi va ipakdan sport paltosi yaratgan, to'plamlarda katak, yo'l-yo'l va no'xatsimon naqshlarni aralashtirib qo'llagan); umuman kiyim-kechak uchun noan'anaviy materiallardan foydalanish demakdir (1960-yillarda Pako Rabann

vinil, metall va palstikadan narsalar yaratardi; Gotye rezina, granj uslubi bilan bir vaqtida yuzaga kelgan va “yashillar” g‘oyalarini mafkuraviy amalga oshirgan “chiqindi dizayni” qog‘ozdan tortib, pivo tiqiniga qadar inson hayot faoliyatining barcha chiqindilarini qo‘llagan).

XX asr oxiriga kelib eng keng shuhrat qozongan metod iqtiboslar metodi bo‘ldi. Bir vaqtning o‘zida o‘tayotgan asrning barcha moda tendensiyalaridan iqtibos olindi. XXI asr boshlari ham, insonlar va moda takliflar soni teng kelishi haqidagi sarobdan va moda namunalari o‘zgarishi iqtisodiy o‘sish tufayli ro‘y berishini his etishdan o‘zga hech qanday tub o‘zgarishlar keltirmadi.

**Eskiz yaratishda va liboslarni loyihalashtirishda innovatsiyalarini izlash.** Har bir musavvir o‘z tasvirlash tarziga ega. Unga mavjud tasvir madaniyati va foydalanish mumkin bo‘lgan zamonaviy texnik vositalar (masalan, zamonaviy markerlar yoki kompyuter dasturlari) ta’sir ko‘rsatadi. Tasviriylar san’atda o‘z uslubini izlash yillar davomida kechishi mumkin. Dizaynerda ham eskizni tayyorlash tarzi, uslubi vaqt o‘tgan sayin nafaqat ijodiy o‘sish tufayli, balki, ko‘p jihatdan, zamonaviy bo‘lishga intilish oqibatida o‘zgarishi mumkin.

Dizayner moda va uslub o‘zgarishiga hamohang tarzda o‘z tarzini o‘zgartira olishi lozim. Eskizga nisbatan bunday plastik yondashuvni o‘zlashtirishga har gal yangi obraz va tasvirlash tarzini izlash vazifasini qo‘yish yordam berishi mumkin. Turli ijodiy manbalar bilan ishslash va turli madaniyatlar va davrlarga oid tasviriylar bilan tanishish ijodiy izlash doirasini kengaytirishga yordam beradi.

**Ijodiy manbani ishlab chiqish xususiyatlari.** Tom ma’noda yangilik topish – liboslardizayneri uchun eng munosib va muhim vazifadir. XX asr modasida innovatsiyalar g‘ayrioddiy materiallar (plastik, metall, rezina va sh.k.)dan foydalanishda; haddan ortiqlik, shakllar o‘ta to‘yinganligida (masalan, Kristian Lakrua neobarokko uslubi yoki Jon Gallyano dizayni); timsoliylashuv (mahsulotni timsolga aylantiradilar, masalan mashhurlar – sport yulduzlari); ma’nolar o‘yini (obrazlarning ko‘p

ma'noliligi); eklektizm; iqtiboslar metodi; neotexnologik dizayn (xay-tek).

Ijodkor o'ziga ruhan yaqinini tanlashi maqsadga muvo-fiqdir. Materiallarni noan'anaviy maqsadlarda qo'llash yoki ularni noan'anaviy yo'lida uyg'unlashtirish mumkin. Masalan, shokila sifatida zanjirlardan foydalanish. Yoki ob-havoga muvofiq o'zgaradigan yoxud sohibining kayfiyatiga qarab hidini o'zgartiradigan libos qanday bo'lishi haqida tasavvur qilishga urinib ko'rsa bo'ladi.

Misol uchun, insoniy muloqot hashamat sanaladigan jamiyat uchun futuristik loyiha yarating. Fantaziya qiling, kosmos, yulduzlarga sayohat, insonning o'zga sayyorraliklar bilan uchrashuvi mavzuidan foydalaning. Yoki, shunchaki, yaqin kelajakdag'i moda tendensiyalarini bashorat qiling. Bugunning To'marisi qanday bo'lishi va uning qay tarzda kiyinishini o'ylab loyixalar yarating.

## **6-loyiha. Tabiat-ijod manbasi sifatida**

### ***Tayanch ma'lumotlar:***

**Shakl stilizatsiyasi.** Stilizatsiya – bu qator shartli usullar yordamida predmet shakliga xos xususiyatlarni dekorativ umumlashtirish va bo'rttirib ko'rsatish. Obyektning shakli, rangi, detallarini soddallashtirish yoki murakkablashtirish, shuningdek hajmni ko'rsatishdan voz kechish mumkin.

Biroq, shaklni soddallashtirish uni kambag'allashtirish degani emas, balki yorqin taraflariga urg'u berib, ahamiyatsiz detallarini "yashirish"ni anglatadi.

Har qanday badiiy asar negizida uning tarkibiy elementlari o'rtasidagi jonli bog'liqlik yotadi. Xalq va amaliy bezak san'atida, tasviriy san'at va grafikada stilizatsiya prinsiplari o'z xususiyatlariga ega. Masalan, milliy naqshlar tabiat shakllariga taqlid qilish natijasida yaratilgan. Buyumning asosiy shaklini olib, uning shakli va rangini naqshning maromiga moslashtirib, usta

buyumni tubdan o‘zgartiradi. Ijodkor dunyoni o‘z his-tuyg‘ulari, tasavvuri orqali idrok etadi.

Naqshning umumiy uslubi, undagi chiziqlar va ranglar kompozitsiyasi naturani, ya’ni mavjudotni ijodiy idrok etishga ko‘maklashadi. Naqshning mavzusini topish uchun hasharotlar, kaltakesak, minerallar, dengiz chig‘anoqlari va hokazolarni kuzatar ekan, naqqosh shakl va ranglarni uyg‘unlashtirgan holda yangi naqsh yaratadi.

Mavjudotdan ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirmaslik uchun xotirangizga muhrlanib qolgan tasavvurdan kelib chiqib ishlash foydali. Mavjudotni mustaqil idrok etish, uni o‘rganish natijasida unga nisbatan munosabat shakllanadi, ana shu munosabat hayol parvoziga turtki bo‘ladi.

Dizaynerlik, rassomchilik, grafika va amaliy bezak san’atida shaklni umumlashtirish jarayoni ko‘plab umumiy jihatlarga ega. Ijodkor tasvirchi uning plastik ma’nodorligini saqlab qolib, asosiy va tipik jihatlarini bo‘rttiradi, ikkinchi darajali detallarni chiqarib tashlaydi. Mavjud shaklda kuzatiladigan barcha nozik ranglar, odatda, atigi bir necha rang hosilasidir. Haqiqiy rangdan butkul voz kechish ham mumkin. Obraz izlash jarayonida u yoki bu yechim o‘z-o‘zidan keladi.

Dizayner predmetni har qanday darajada o‘zgartirishi, naturadan turli darajada yiroqlashib ketishi mumkin. Gul, barg, shox deyarli geometrik shaklga kirishi ham, tabiiy nozik shakllarini saqlab qolishi ham mumkin. Masalan, tasvirlash usullari yordamida gul obrazini bezakka va, hatto, mavhum obrazga aylantirish mumkin (4.1- va 4.2-rasmlar).

Grafikada qush, kapalak va gul shakllarii stilizatsiyasini ko‘rib chiqing va qanday vositalar yordamida real tasvir bezakka aylanganini aniqlang (4.4 - 4.10-rasmlar).

Ba’zida predmet obrazida bittagina detal hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ongli ravishda butun e’tiborni aynan shu detalga qaratib, uni ma’lum darajada bo‘rttirib, obrazni “kuchaytirish” mumkin. Qushning tanasi, tumshug‘i, patlari va boshqa detallar tasvirning ifodasiga ta’sir qiladi.

Barcha variantlarda naturaning turli sifatlari va turli chiziq tortish usullaridan foydalanilgan. Shaklni umumlashtirish darajasi va badiiy ifoda vositasi oldinga qo‘yilgan vazifa, o‘ylangan obraz bilan belgilanadi.

Misol tariqasida grafik dizaynda belgilar tasvirini yaratish jarayonini keltirish mumkin. Belgining o‘ziga xos xususiyati – bu biror figura yoki voqelikni aks ettiruvchi shaklni tasvirlashdagi umumiylilik va shartlilik. Belgi muayyan-predmetli tasvirdan tubdan farq qiladi, u biror obyektning tashqi alomatlarini ko‘rsatib beradi, xolos.

Belgini mavhum simvol deyish mumkin.

4.6-rasmda boyqushning figurasi shunday umumlashtirilganki, ko‘zni tasvirlovchi belgi tufayli yangicha tasavvur yaratiladi.

Tashqi ko‘rinishdan tashqari, belgi yordamida aks ettirilayotgan mavjudotning boshqa xususiyatlarini ham ifodalash mumkin. Masalan, marayotgan yoki tikilib turgan sigirni, hujumga tayyor turgan timsohni chizish, ko‘rshapalakning lokatsiya xususiyatlarini tasvirlab berish mumkin.

Ko‘pincha bir yoki ikki belgiga bir xil tasviriy element jo qilingan, ammo ularning ma’nosini turlich bo‘ladi.

Masalan, shillaqurt va musiqiy damli cholg‘u belgisida spiralni ko‘rish mumkin, ammo ular mutlaqo har xil ma’noga ega va faqat shaklning o‘ziga xos elementlari har bir belgiga o‘ziga xos ma’no baxsh etadi. Chegara holatlar ham bor, bunda belgi yoki hech nimani anglatmaydi, yoki boshqa predmetni eslatadi. Biror tasviriy element qo‘shilishi yoki olib tashlanishi hisobiga bitta obyektning shakli boshqa predmetning shakliga aylanishi mumkin.

Origami san’atida qog‘ozni buklash orqali belgini eslatadigan umumlashtirilgan shakl paydo bo‘ladi.

Belgi orqali ifodalanadigan va haqiqiy tasvirni aks ettirish abstrakt tasavvurni rivojlantiradi.

### **Uslub va uslublashtirish.**

“Uslub” va “uslublashtirish” tushunchalarini farqlay bilish lozim. Uslub san’at kategoriyasidir. Uslub – bu tasviriy tizim,

badiiy ifoda vositalari, ijodiy usullarning g‘oyaviy mazmun yagonaligi asosidagi umumiyligidir.

Uslublashtirish – bu biror-bir muallif, janr, oqim yoki muayyan ijtimoiy muhit, elat, davr san’ati va madaniyati uchun xarakterli bo‘lgan badiiy uslubning ongli ravishda imitatsiyasidir. Yuqorida keltirilganlardan uslublashtirish uchun ijodiy manba tanlovi qanchalik keng ekanligi ko‘rinib turibdi.

Uslublashtirish odatda san’atning mazmuni va uslubini erkin talqin qilishni nazarda tutadi, uslublashtirish – bu taqlid qilish emas, balki asliyatning yorqin zohiriylar belgilarini o‘zlashtirish asosida o‘ziga xos estetik o‘xshashlikka erishishdir. Boshqacha qilib aytganda, uslublashtirish – bu hajmiy-plastik, koloristik va grafik motivlar shakllantirilishi, ularni kutilgan ma’no va dekorativ taassurotga, badiiy ma’nodorlikka erishish maqsadlarida soddalashtirish, umumlashtirishdir. Uslublashtirishning ikki asosiy metodi mavjud. Birinchisiga o‘zlashtirish, ya’ni umuman uslubning yoki alohida obyektning eng yaqqol vizual belgilarini loyihalashtirilayotgan ashyoga bevosita olib o‘tish, dizaynerning buyumni loyihalashtirishda u yoki bu uslub belgilaridan ongli ravishda foydalanishi kiradi. Bunday olib o‘tish ko‘p hollarda dekorativ bezashda (plastik, rangli-grafik, teksturali) amalga oshiriladi. U konstruksiya va shakl yuzaga kelishi mohiyatiga dahl qilmaydi.

Uslublashtirishning ikkinchi metodi – bu ijodiy qayta ishlash: tasvirlanayotgan figurlar va ashyolarni shartli usullar yordamida umumlashtirish. Bu usul naqsh uchun ayniqsa xos bo‘lib, unda uslublashtirish tasvir obyektini naqsh motiviga aylantiradi, bunda ishlov berish obyektining yaqqol dekorativ shaklini yaratish tabiiy yoki inson yaratgan obyektlar shakli tashqi belgilariga taqlid qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

### ***Loyihani bajarish bo‘yicha tavsiyalar:***

Har qanday uslublashtirish o‘rganilayotgan obyekt tahlili-dan boshlanadi.

Masalan, o'simliklarda e'tiborimizni jalb qiluvchi birinchi jihat – bu o'simlik shakli yoki siluetidir. Chunonchi, daraxt butoqlari sharsimon, osilchoq, ustunsifat, piramidataxlit, yerbag'ir bo'lishi mumkin. Butoqlarni o'rganishda biz shox-shabbalarning daraxt poyasiga nisbatan o'sishi yo'nalishiga, shoxlarni kuzatganda – barglar o'sish yo'nalishi va shakliga e'tibor berishimiz lozim.

Barg siluetini baholashda uni geometrik figuraga yaqinlashtirishga harakat qiling: uchburchak, aylana, oval va sh.k. Ko'p hollarda barglar murakkab, yorilgan yoki ko'p a'zoli shaklga ega bo'ladi. Siluetdagi kabi, bu yerda hoshiyalar xarakteri muhim. Shuningdek, biz gullar va o'simlikning umumiy shaklini tahlil etishimiz lozim bo'ladi.

O'simliklarning aslidan olingan qoralamalar va keyingi tasvirlash grafik texnikalari jarayonida siz o'rganilayotgan obyektlar tahlilining katta qismini amalga oshirib bo'ldingiz. Uslublashtirish yo'lidagi navbatdagi qadam – bu kuzatuvlarni umumlashtirish va murakkab tabiiy shaklni soddalashtirish orqali soddaroq tuzilmaga, geometrik xarakterdagi shaklga keltirish sanaladi. Maqsadimiz – tasviriy naqshinkorlik baxsh etish uchun o'simlik qiyofasini o'zgartirishdir. Buning uchun o'simlik qismlari o'lchamlaridagi muvozanatni saqlagan holda, o'simlik shakli ichidagi ritmik tuzilishni aniqlash kerak bo'ladi.

Kelgusi ishlar ikki yo'nalishda borishi mumkin: naqsh yaratilishi va transformatsiya. Uslublashtirish va transformatsiya obyekti nafaqat o'simlik, balki istalgan bioforma, ashyolar dunyosining istalgan obyekti (me'moriy inshootlar, bezakli-amaliy san'at obyektlari, rangtasvir) ham bo'lishi mumkin.

**Transformatsiya usullaridan foydalanish.** Transformatsiya – bu avvalda mavjud shakllar, obyektlarning yangi, oldin mavjud bo'lмаганларига айланishi, o'zgarishi, boshqacha tus olishidir. Kostyum yaratish san'atida transformatsiya – yangi shakllar, uslublar yuzaga kelishining asosiy usullaridan biridir (modern uslubidagi S-simont shakl yaratuvchi kostyum liniyasi o'simliklar dunyosi mavzuini yanada yaqindan ifodalaydi). Transformatsiyaning quyidagi usullari mavjud:

– ko‘chirib o‘tish – obyekt konstruksiyasining ba’zi qismalarini boshqalari bilan almashtirish; biriktirish – obyekt konstruksiyasi qismlarini birlashtirish;

– qo‘shilish – yangi chegaralarga ega bo‘lish uchun konstruksiyaning bir silueti yoki qismini boshqasi ustiga qo‘yish;

– umumlashtirish – soddalashtirish, detallarni olib tashlash, soddaroq shaklga keltirish, geometrizatsiya;

– o‘xhash va yaqin shakllarni va ularning xususiyatlarini tipiklashtirish – o‘xhash shakllardagi farqli belgilarni chiqarib tashlash orqali, ularni yagona shaklga keltirish.

Transformatsiya usullari turli ijodiy manbalarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Ularni ishlab chiqishning nozik jihatlari manba xususiyati va musavvir o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga bog‘liq bo‘ladi. Transformatsiya usullarini qo‘llab, u manbani aslidan qoralama olishdan to kostyum shakllarigacha o‘zgartirishga yo‘liqtiradi. Bu ish qator bosqichlarni o‘z ichiga oladi:


– tadqiqot ishlari (aslidan qoralama ko‘chirish, kutubxonada ishslash);

– aslidan yoki nusxdan rasm ishslash, grafik tahlil (siluet, kontur chiziqlari, tipik jihatlarni, eng muhim nuqtalarni, asosiy hajm va tarmoqlanishni, ritmik tashkil topishni ajratish, plastikani yetkazib berish);

– transformatsiyani inson proporsiyalariga yaqinlashgan siluet shakllarida bajarish (plastik yechimni izlash, uslublashtirish, badiiy obrazni aks ettirish vositalari va shaklni yuzaga keltirish vositalarini aniqlash);







– mantiqiy qatorlarni bajarish – mavhum-yaqinlashtirilgan siluet shakllaridan kostyum va badiiy obrazni tashkil etishning shakl tashkil qiluvchi vositalarini aniqlashga o‘tish. Transformatsiya jarayonida yuzaga chiqqan kompozitsiya vositalari g‘oyalari: simmetriya, siluetni proporsional tarmoqlash, ritmik tashkil etish, urg‘u holati uchun qo‘llash;

– mantiqiy qatorlar va turli maqsadlardagi oqqa ko‘chirilgan komplekt hamda ansambl eskizlarida ishlov berish (uslublashtirishni namoyon qilish, mazmunning obrazli ifodalaniishi, manbani modadagi zamonaviy yo‘nalishlar kontekstida o‘qish).



4.1-rasm. Tabiat shakllarini stilizatsiya qilish-uslublashtirishga misollar. Dizayner-rassom Nguen (Quang Nguyễn)ning ishlari<sup>61</sup>.

<sup>61</sup> <http://pikby.com/account/quangkitaro198/686165830634872965/>



4.2-rasm. Tabiat shakllarini stilizatsiya qilish-uslublashtirishga misollar. Dizayner-rassom Nguen (Quang Nguyễn)ning ishlari<sup>62</sup>.

<sup>62</sup> <http://pikby.com/account/quangkitaro198/686165830634872965/>

## *Tabiatdagi shakllarni stilizatsiya qilish bosqichlari*

Shaklning  
chizmatasviri

Oq-qora grafikadagi  
stilizatsiyasi

Rangli grafikadagi  
stilizatsiyasi

Shaklning  
transformatsiyasi.  
Shakl-siymo, shakl-  
simvol



4.3-rasm. Tabiat shakllarini stilizatsiya qilish-uslublashtirishga misollar. Dizayner-rassom Nguen (Quang Nguyẽn)ning ishlari<sup>63</sup>.

<sup>63</sup> <http://pikby.com/account/quangkitaro198/686165830634872965/>

### *Tabiatdagi shakllarni stilizatsiya qilish bosqichlari*

Shaklning  
chizmatasviri

Oq-qora grafikadagi  
stilizatsiyasi



Rangli grafikadagi  
stilizatsiyasi

Shaklning  
transformatsiyasi  
Shakl-symo, shakl-  
simvol




4.4-rasm. Tabiat shakllarini stilizatsiya qilish-uslublashtirishga misollar. Dizayner-rassom Nguen (Quang Nguyễn)ning ishlari<sup>64</sup>.

<sup>64</sup> <http://pikby.com/account/quangkitaro198/686165830634872965/>




4.5-rasm. Tabiat shakllarini turli usullar yordamida stilizatsiyalash.



4.6-rasm. Qushni stilizatsiya qilish natijalari<sup>65</sup>.

<sup>65</sup> Pinterest. сахифаларидан



4.7-rasm. Chinnigul va kapalak shaklining stilizatsiyasi natijasida hosil bo‘lgan shakllarni libos dizaynida qo‘llash. MRDI talabalarining qoralama eskizlari.



4.8-rasm. Kapalak shaklini libos dizayniga qo'llash.



4.9-rasm. Turli hasharotlarni stilizatsiya natijalarini qo'llash.  
MRDI talabalarining eskizlari.



4.10-rasm. Valentino ning 1989-yil kuz-qish mavsumi “ot-kutyur” kolleksiyasi uchun yaratilgan eskiz. Mazkur modelga kapalak qanoti va undagi naqshning shakli turtki bo‘lgan.

## **7-loyiha. Arxitektura (me'morchilik) – ijod manbasi sifatida**

### ***Tayanch ma'lumotlar:***

**XX asrda me'morchilikning rivojlanishi.** Me'morchilik – bu moddiy madaniyat sohasi, shu bilan bir vaqtda, san'atning bir turi sifatida, u ma'naviy madaniyat sohasiga kiradi, inson atrof-muhitini estetik shakllantiradi, ijtimoiy g'oyalarni badiiy obrazlarda ifodalaydi. Ming yillar davomida me'morchilik durdonalari poetikasi har doim u yoki bu xalq diniy-milliy mentaliteti bilan sug'orilgan bo'lган.

Ammo keyingi 100 yil ichida jahon keskin o'zgardi. Chegaralar ochildi, insoniyat o'zining umumiyligini his eta boshladi. Qanchalik g'ayritabiyy tuyulmasin, bu o'zgarishlar avvalo me'morchilikda yaqqol ifodalandi.

XX asr ostonasida nafaqat siyosiy soha inqilobiy g'oyalar bilan to'lgandi. Texnik imkoniyatlarni anchayin kengaytirgan ilmiy kashfiyotlar qurilishda yangi funksiyalar, konstruktiv tizimlar, badiiy vositalar, sanoat metodlari yuzaga kelishiga turtki berdi.

Industrial jamiyatning rivojlanishi zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalari yuzaga kelishiga xizmat qilibgina qolmay, me'morchilik oldiga yangi vazifalarni ham qo'ydi. Arzon ommaviy turar joyni loyihalashtirish arxitektorlardan qo'lida bajariladigan ishdan va individual buyurtmadan voz kechishni talab qildi. Did nuqtai nazaridan nimani ko'paytirishning farqi yo'q bo'lган mashinalardan foydalanish me'morchilik nazariyotchilarini ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarini va materiallar xususiyatlarini o'rganish zaruriyatiga, me'mor va muhandis kasbini birlashtiruvchi yangi turdag'i badiiy loyihalashtirish faoliyati yuzaga kelishiga olib keldi. Shu tariqa, me'morchilikning butun avvalgi rivojlanishiga xos bo'lган konstruksiya va shakl o'rtasidagi tafovut bartaraf etildi. Amerikalik me'mor Luis Sallivenning "shakl funksiyaga tobedir" formulasi XX asr birinchi yarmi me'morchiligidagi xos bo'lган funksionalizmning asosi bo'ldi.

O'z rivojlanish yo'lida funksionalizm ratsionalizmdan funksional obrazni tashuvchi shaklning mantiqiy qurilishiga o'tdi.

Bunday shakl yaratilishi me'morchilikdagi funksionalizmni tasviriy san'atdagи tendensiyalar, dastlab Po1 Sezanning rangtasvir asarlari va Pablo Pikasso hamda Jorj Brakning ilk kubizmi, K. Malevich va P. Mondrianning izlanishlari bilan, keyinroq purizm – A. Ozanfan va SH.-E. Le Korbyuzye (asl familiyasi – Jannere) yaratgan yo'naliш bilan bog'ladi. Le Korbyuzye arxitekturaga purizm prinsiplarini keltirdi, Mondrian neoplastitsizmi esa, me'morchilikka Lyudvig Mis van der Roe tomonidan ko'chirilgandi. Me'morchilikka tasviriy san'atda yaratilgan badiiy uslublarni baxsh etuvchi konsepstiyalarda shakl soddaligi timsoliy ma'no kasb etdi va funksional mazmunni siqib chiqardi. Me'moriy shakllar o'zları obrazli timsoliylikka bo'ysungan holda, nofunksional elementlarni yo'qotdi. Har qanday bezaklardan mahrum binoning o'zi bezakka aylandi.

Germaniyada "Verbkund" ishlab chiqarish ittifoqining yuzaga kelishi (1907-y.) modern uslubidan zamonaviy sanoat dizayniga o'tish jarayoniga asos soluvchi voqeа bo'ldi.

XX asr me'moriy uslublari (konstruktivizm, modern, purizm, neoplastitsizm, minimalizm), bir tomonidan, vaqt cheklavlari bilan chegaralangandi. Boshqa tomonidan, ularning asr davomida eklektika orqali qaytishi doimiy birikib ketish va bir-biriga ta'sir ko'rsatishga olib keldi. Eklektika katta uslubning vaqtincha yo'qligi o'rnini bosadi, deb hisoblanadi, ammo XX asrda umuman hech qanday global uslub yaratilmadi va bu jihatdan eklektika – XX asr me'morchiligining o'ziga xosligidir.

**Eklektika** (yunon. eklektikos – tanlayman) – turli yo'naliш, oqim, uslub, usul yoki qismlarni hech qanday negiz yoki asossiz birlashtirish va buni yangilik, ixtiro deb atash.

Shunga qarmay, bu usul kutilmaganda sermahsul bo'ldi: turli vaqlarga oid ashyolarning birikishi ba'zida ularga butunlay yangicha nazar tashlashga yordam beradi.

Shu tariqa, yangi texnologiyalarning tarixiy merosga sho'ng'ish bilan uyg'unlashuvi XX-XXI asrlarda yangi uslublar yaratilishining eng odatiy metodi bo'ldi. Me'moriy uslub taniqli usullar to'plami majmuasidir. Kelgusi interpretatsiya uslub-

lashtirishda hal etiladigan vazifalar (konstruktiv, bezakli)ga bog'liq.

Zamonaviy me'morlar me'morchilik borgan sari dizaynning bir yo'nali shiga aylanib borayotganidan noliydi. Dizayn xususiy uy interyeri bo'ladimi, jamoat inshooti yoki shahar muhitni bo'ladimi, muhitni umumiylidka loyihalashtirishga da'vo qiladi. Me'mor makon yaratadi, uning dramaturgiyasini arxitektonika, eshik va deraza teshiklari shakli, yorug'lik tushishi, yuzalar rangi va pardozlash fakturasi bilan bo'rttirib ko'rsatadi. Dizayner esa, inson uchun psixologik va fiziologik qulay muhitni shakllantirib, bu makonni muayyan funksional jarayonlarga moslab jihozlaydi. Bu faoliyat yo'nali shi me'moriy muhit dizayni deb ataladi.

### **Me'moriy uslublar.**

**Konstruktivism.** Sof holda, ya'ni kompozitsiyani sxemaning nafis aniqligiga, har qanday bezaklardan holi holatga olib boruvchi konstruktivism Yevropada 1925-yilgacha mavjud bo'ldi. D. Pakston 1851-yilda Londondagi Butunjahon ko'rgazmasi uchun "Billur saroy" pavilyonini loyihalashtirdi, undagi novatorlik oynavand tom orqali tom konstruksiysi (kolonnalar, panjarasimon fermalar, to'siqlar) ham, osmon ham ko'rinish turardi. XIX asr me'morchiligidagi "gaykalarda qurilgan minora" deya atalgan Eyfel minorasi (1889-y.) hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, XX asr uchun bunday obyekt Tatlin minorasi – Uchinchi baynalmilal yodgorligi bo'ldi. Bu me'moriy inshoot o'sha paytda mavjud barcha mezonlarga shunchalik zid ediki, unga mutlaqo nomaqbul narsadek yondashishgan. Sho'ro konstruktivizmi asoschisi V.A. Tatlin zamonaviy inshootlar me'moriy obrazini yaratishdagi yangi konstruksiyalar rolini baholashda psixologik baryerni yengib o'tishga yordam berdi. Tatlin shakl oqilonaligi va funksionalligiga, uning material xususiyatlariga muvofiqligiga e'tibor berdi.

**Funksionalizm yoki baynalmilal uslub.** Amerikada F.L. Rayt, yevropala A. Loos va P. Berens tomonidan boshlangan yangi shakl yaratish 1920-yillar o'rtalariga kelib me'morchilik va dizayndagi baynalmilal shakllar tiliga aylandi. Bu oqimning konsepsiysi shakl faqat konstruksiya bilan belgilanadi, u esa, o'z

navbatida, ashyo funksiyasiga bog‘liq degan g‘oyaga asoslanadi. Bunday faoliyat natijasida oqilona shakl yuzaga kelishi ko‘zda tutilgandi. “San’at” so‘zi me’morlar tilidan yo‘qoladi, uning o‘rnini “ashyoli faoliyat” atamasi egallaydi. Funksionalizm asoslari Veymardagi Valter Gropius tashkil etgan “Bauxauz” (1919-y.) maktabi tomonidan ishlab chiqilgandi.

Funksionalizm baynalmilal uslub deb ataladi, chunki u har qanday tarixiy, madaniy va milliy an’analarni istisno etadi. Funksionalizm taraqqiyoti birinchi bosqichining nazariy asosi Le Korbyuzyening “Me’morchilikka” (1922-y.) kitobi bo‘ldi, unda toza, geometriyalashtirilgan umumlashma shakl konsepsiysi asoslab berildi, bunda uy – “yashash uchun mashina”, stul esa – “o‘tirish uchun apparat” sifatida yaratilgan.

Amerikada baynalmilal usul L. Mis van der Roe ijodiyotida o‘z aksini topadi. E’lon qilingan shakl soddaligi formaning murakkab texnik va muhandislik ishlammalar hisobiga turli maqsadlarda qo‘llash uchun amalda bo‘lishining universialligiga olib kelishi zarur bo‘lgan esa-da, oxir-oqibat, antifunktzionallikka olib keldi. 1970-yilda ingliz me’mori J. Brodbent, forma soddaligiga intilgan L. Mis van der Roening va me’morchilik shakllarining biomorf talqini muallifi A. Gaudi binolarini qiyoslab, haqli ravishda maqsadga muvofiqlik va funksionallik mezonlariga zohiran nofunksional ko‘ringan Gaudi binosi javob berishini, funksionalizmning timsoli bo‘lmish bino esa, bu talablarga zid ekanligini qayd etadi.

Funksional me’morchilik inqirozi uslublashtirish (muayyan obrazlar timsoli bo‘lmish standartlarga yuzaki ergashish) keng tarqalishiga turki berdi, funksionalizm me’morlari A. Aalto, E. Saarinen, E. Mendelson, F.L. Rayt, Le Korbyuzyeni esa, yangi ekspressionizm va “organik me’morchilik” g‘oyalariga yo‘lladi. F.L. Raytning “organik me’morchilik” konsepsiysi funksiya va shakl muvofiqligida namoyon bo‘ldi. U doim atrofdagi manzarani nafaqat fon, derazadan ko‘rinuvchi manzara sifatida qo‘llardi, balki uni bino ichiga ham olib kirardi. Masalan, Pensilvaniyadagi E. Kaufman villasida tabiiy qoyaning bir bo‘lagi ichki interyerning bir qismi sifatida ishlatilgan.

**Modern.** XIX oxiri – XX asr boshidagi Yevropa va Amerika san’atidagi uslubiy yo‘nalish shunday nomlanadi (boshqa nomlari: “ar-nuvo”, “yugendstil”, “setsession”). Uslubning asosiy belgisi – bezakdorlik, asosiy motiv – chirmashib o‘sgan o‘simlik, asosiy prinsip – qo‘lda yasalgan shaklni tabiiysiga o‘xshatish va aksincha. Modern me’morchiligidagi konstruktiv va dekorativ elementlarning uyg‘unlikda birikishi yuzaga keldi. Bu davrdagi modern uslubidagi qasrlar, pavilyonlar, jamoat binolari go‘yoki “ichi – tashida” qilib qurilgan, ya’ni ichki makon tashqi qiyofani belgilaydi. Bunday uylar fasadlari simmetrik emas va bir vaqtning o‘zida tabiiy obyektlarni ham, haykaltaryoshning erkin shakl yaratishi samarasini ham namoyon etadi. Dekordagi sevimli mavzular – uslublashtirilgan tabiiy motivlar (ko‘tarilib kelayotgan to‘lqin, tovus pati, kapalak qanoti, uzun, jingalak soch tolalari, gullar, ayniqsa orxideyalar, gulsapsarlar, lolalar).

**Art-deko.** “Art-deko” atamasi Parijda 1925-y.da o‘tkazilgan Zamonaviy san’at va hunarmandchilik xalqaro ko‘rgazmasidan keyin iste’molga kirdi. Art-dekoning asosi, bir tomondan, kubizm, ar-nuvo, “Bauxauz” maktabi, boshqa tomondan – Qadimiy Misr, Sharq, Afrika va Amerika qit’alari san’ati sanaladi. Art-deko uslubi Parijda yuzaga keldi va ikki jahon urushi oralig‘ida mavjud bo‘ldi. Art-dekoda shakl yuzaga kelishi funksionallikka asoslanmagandi, balki, aksincha, dekorativligi bo‘rttirib ko‘rsatilardi. Me’morchilikda art-deko uslubi naqshlarga o‘ta boyitilgan fasad va interyerlar, qimmatbaho yog‘och navlari va marmarning metall, shisha va plastikka uyg‘unlashuvi bilan eslanadi. Amerikada art-deko uslubida bahaybat osmono‘par binolar va kinoteatrлar qurilgan (Nyu-York, Mayami).

**Neoklassitsizm.** XX asr san’atida bu oqim uzlusiz yangilanish estetikasiga reaksiya sifatida yuzaga keldi. Uslub klassik me’morchilik tajribasining so‘nmas qadriyatları haqidagi barqaror tasavvurni o‘zida namoyon etadi. Me’morchilikda neoklassitsizm milliy an’analar va modern bilan chambarchas qo‘shilib ketadi. Badiiy izlanish turi va shakli bo‘yicha neoklassik bo‘lgan zamonaviy binolarning klassik motivlar bilan birlashishiga qaratilgan. Stalin davrida me’morlar klassitsizmga

o‘zida sho‘ro hokimiyatining siyosiy va ijtimoiy sohadagi yutuqlarini aks ettiruvchi davlatchilik uslubi sifatida murojaat qilganlar. Sho‘ro Rossiyasida neoklassitsizm klassitsizm va konstruktivizm sintezi sifatida yuzaga chiqqan va jamiyatda mavjud bo‘lgan avangard uslubi orqali badiiy o‘zini oqlagan anarxiya va Stalin davlatchiligining ichki to‘qnashuvini ifodalagan.

**Minimalizm.** “Artefakt undan hech narsani, birorta ham elementni olib bo‘lmaydigan holga yetgandagi mukammallikni minimum sifatida ta’riflash mumkin”, – ta’kidlagan edi J.Pauson.

Minimalizmning yuzaga kelishiga sabab T.V. Dusburg va P. Mondrian – “Abstraksiya – Bunyodkorlik”, “Oltin kesim”, “Aylan va kvadrat” birlashmalari rassomlarining “De Stil” guruhi ustalariga xos geometrik asbtrakcionizm bo‘ldi. Shakl minimalizm timsoli deb K. Malevichning “Qora kvadrat” asari sanaladi.

Minimalizm 1960-yillarda “primary structures” – seriyali san’at deb atalgan. Minimalizmning asosiy qonuniyatları konstruktivizm qonuniyatlariga o‘xshash: makon erkinligi, maksimal ochiqlik va shaffoflik; maksimal funksionallik, imkon qadar universalizatsiya; proporsional va rangli mutanosiblik; oq-qora grafika.

Boshqalar hech narsa ko‘rmayotgan joyda ko‘p narsani ko‘ra bilish – minimalistlarga xos alohida qobiliyatdir. Musavvirlar, haykaltaryoshlar va me’morlar juda yaxshi biladilar: agar bir shakl yoki rang asos qilib olinsa, proporsiya va jilolarni o‘ta aniq uyg‘unlashtirish nihoyatda muhim, zero ozgina xato ham uyg‘unlikni buzib yuborishi mumkin. XX asr oxirida minimalizm postmodernizmning haddan ortiqligiga qarshi turish uchun hayotga qaytdi va shunchaki minimum emas, balki yo‘qolib boruvchi kichik minimum muhim bo‘lgan uslub sifatida asta-sekin qaror topdi.

Yangi minimalizm stilistikasiga yaponlarga xos lo‘ndalikmi yoki Afrika mahalliy aholi hayotiga xos soddadillik bo‘ladimi – etnikadan turfa o‘zlashtirishlar kirdi. Qiziq jihat – minimalizmning bunday talqin etilishi ba’zida “postminimalizm” deb ataladi.

**Xay-tek “high tech” va texno.** “Xay-tek” (“yuksak texnologiya”) atamasi 1960-yillarda me’morlar Normann Foster

va Richard Rojers sharofati bilan yuzaga keldi. Yangi yo‘nalish konstruktivizm an’anasini davom ettirdi. Yuksak texnologiyalar rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan materiallarni qo‘llashga alohida e’tibor berildi (nomi ham shundan kelib chiqqan): shisha tolali izolyatsiya, plastika, galvanizatsiyalangan po‘lat va antifriksion rezina elementlari va sh.k. Ko‘p hollarda omma uchun ochiq namoyon qilingan texnik kommunikatsiyalar ham uslub dekorativ elementlari sanaladi. “Texno” tushunchasi jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, madaniyat va maishiy hayotga ta’sir ko‘rsatgan axborot texnologiyalarining jo‘shqin rivojlanishi boshlanishi bilan bir vaqtda qo‘llay boshlandi. Natijada, me’morchilik va dizaynda yangi texno uslubiy yo‘nalishi shakllandi, uning asosida binoning tashqi va ichki makoni o‘rtasidagi chegarani sezilmaydigan qilishga intilish, nurni qaytaruvchi materiallardan foydalanish, murakkab egri chiziqli devorlar ko‘tarish, interyerlarning virtual kibermakonlarga o‘xshatish yotadi. Interyerda mashinalar detallari – samolyotlar, turbinalar, chang yutgichlar qo‘llanilishi ham shundan.

### **San’at va modada go‘zallik ideali.**

Me’morchilikning uslubiy yo‘nalishlari barcha ashyoviy muhitni qamrab olib, jumladan, go‘zallik idealini ham belgilab bergen.

San’at har doim badiiy obrazlarda go‘zallik haqidagi o‘z davri tasavvurini aks ettirishga intilgan. Bunda har bir tarixiy davr inson tanasi go‘zalligi borasida o‘z qonuniyatlariga ega bo‘lgan.

San’atdagi qonuniyat har doim ham inson tanasining tabiiy shakliga muvofiq kelavermagan. Modaga mos siluetga erishish uchun turli tarixiy davrlarda tananing tabiiy proporsiyalarini o‘zgartirishga to‘g‘ri kelgan.

Agar milliy madaniyatlarda bu jarayon ba’zida hatto jismoniy shikast yetkazish bilan kechgan bo‘lsa, Yevropada kosmetik aralashuvlar va kostyumning shakl yaratilishini bo‘rttirish bilan kifoyalanilgan. Ideal tana tasavvurini libos shakli yuzaga keltirgan.

O‘rta asrlar Yevropasida, san’atda gotik uslub hukmronlik qilgan davrda, nozik, biroz bukchaygan va qorin oldinga chiqib turgan figura ayol tanasi namunasi sanalgan. Libos kerakli hajmni imitatsiyalab, qorinni yanada bo‘rttirib ko‘rsatgan. Keng peshana

go‘zal sanalgan, shu sababli ayollar peshana tepasidagi sochlarini yulib tashlaganlar.

Uyg‘onish davrida libos inson proporsiyasini umuman buz-magan, biroq yangi kostyumda tana shaklining vizual kattalash-tirilishi tendensiyasi hukmron bo‘lgan, bunga maxsus korset, dabdabali yenglar va ko‘p sonli ichki yubkalar orqali erishilgan.

XX asr davomida modaga muvofiq nafaqat figura hajmi va proporsiyalari, balki umuman ayol go‘zalligi obrazi ham o‘zgarib bordi. Bu manekENCHI va top-modellar (bu kasb 1920-yildan buyon mavjud) figuralari parametrlari o‘zgarishida o‘z aksini topdi.

Hozirda hukmron badiiy uslubni aniqlash imkonsizdir. XX asrda san’atda hukmronlik qilgan eklektika bir vaqtning o‘zida bir qancha uslubiy tizimlar mavjud bo‘lishini taqozo qildi, boz ustiga, ular doimo bir-birlari bilan chatishib, yangi yo‘nalishlar va oqimlarni yuzaga keltiradi.

Modada ham shunday jarayon kechmoqda. Ko‘p hollarda modadagi me’morchilikka oid uslubiy yo‘nalishlar kostyum loyihalashtirilishi jarayoniga uslubning umumiylarini olib o‘tishda ko‘rinadi.

Ko‘pincha modada ma’lumotiga ko‘ra me’mor bo‘lgan insonlar ishlaydilar. Ular qatorida dunyoga mashhur Pako Rabann va Janfranko Ferre mavjud. Ferrening asarlarini “To‘qimachilik me’morchiligi” deb ataydilar.

Me’morchilikni uyg‘unlikda qabul qilishning asosiy shartlaridan biri – me’morchilik inshootining atrof-makon, ya’ni landshaft bilan bog‘liqligidir. Megapolis sharoitida bu uylar hajmi va ular orasidagi makon bilan bog‘liqlik bo‘ladi.

Me’morchilik e’tiboringizni birinchi navbatda konstruk-siyaga, obyektning makondagi joylashuviga va uning tabiat bilan uyg‘unlikdagi aloqasiga qaratadi. Libosni loyihalashtirishda obyektga bunday munosabat birinchi navbatda, umuman libos siluetiga puxta o‘ylangan munosabatda namoyon bo‘ladi. Masalan, zamonaviy kundalik libosda ko‘p hollarda old tomonda ko‘plab – ham funksional, ham dekorativ elementlar to‘plangan

bo‘ladi, yon tomonda esa bunday elementlar yo bo‘lmaydi, yoki puxta o‘ylanmagan qaror samarasi bo‘ladi.

Libosning makon bilan o‘zaro munosabati, nima maqsadda qo‘llanilishiga qarab, kostyum shaklini tanlashda ham ko‘rinadi. Chunonchi, kokteyl ko‘ylagi kichik hajmga, tor yengga, katta dekoltega ega bo‘ladi, to‘y ko‘ylagi esa, istalgan shakl va hajmda bo‘lishi mumkin. Kostyuming har bir varianti uchun nafaqat modaga mos, balki funksional shaklni ham tanlash lozim.

### ***Loyihani bajarish bo‘yicha tavsiyalar:***

Me’morchilik shakllari transformatsiyasining xususiyatlari. Me’morchilik ko‘plab san’atlar sintezi-qo‘shiluvidan yuzaga kelgan. Me’morchilik obyektlari konstruksiyalarida dunyo modeli yashirin. Arxitekturani o‘z ichiga to‘rtinchchi o‘lchamni olgan murakkab makoniy his etish san’atga aylantiradi.

Me’morchilikda ijodiy manba sifatida uslubiy yo‘nalishlarni ishlab chiqishda aynan loyihalashtirilayotgan obyektning makoniy yechimiga, barcha qismlarning tuzilmaviy bog‘liqligini aniqlashga hamda ichki va tashqi makonning uyg‘unlikda his etilishiga birinchi navbatda e’tibor berish lozim. Me’morchilikda texnik va texnologik taraqqiyotga bog‘liq bo‘lgan ichki konstruksiyadan tashqari, fasad bezatilishi – dekor ham uslubiy farqlilikni ta’minlovchi omil bo‘ladi.

Ijodiy manbani ishlab chiqishda har qanday badiiy uslub bilan ishlagandagi kabi prinsiplarni qo‘llang, lekin tasvirlashda makoniy tuzilmani, konstruksiyani aniqlashga alohida e’tibor bering. Hajmiy tafakkurni rivojlantiring.

Me’mor, binoni loyihalashtirar ekan, u turli nuqtalardan qanday ko‘rinishini, me’moriy elementlarning tashqi joylashuvi ichki joylashuv bilan qanday bog‘liq bo‘lishini tasavvur qiladi. U bino oldinga qo‘yilgan maqsadlarga muvofiq kelishi va inson uchun qulay bo‘lishiga intiladi.

Libosni loyihalashtiradigan dizayner oldida ham o‘xshash vazifalar turadi. Sof estetik vazifalarni hal etishdan tashqari, siz libosning dekorativ bezatilishining uning konstruktiv yechimiga muvofiqligi, materiallar va ularga mos tushuvchi texnologiyalar, bular barchasining libos nima maqsadda kiyilishiga va

ergonomika talablariga muvofiq kelishi haqida o‘ylab ko‘rishingiz zarur. Vazifangiz – libos eskizi ustida go‘yoki ushbu barcha tarkibiy qismlarni qamrab olgan loyihadek ishlashni o‘rganish.

**Ijodiy manbani ishlab chiqish ketma-ketligi.** Rus avant-gardistlari ishlagan sxemadan foydalanishga urinib ko‘ring: bo‘rttirib ko‘rsatish (mubolag‘a qilish), uslublashtirish, assimilyatsiya (aralashtiruv natijasida o‘zaro singish).

Avval siluetli va mantiqiy qatorlardan tashkil topgan eskizlarni bajaring.

Bo‘rttirib ko‘rsatish, ya’ni mubolag‘a qilish – bu me’moriy obyektlar va ularning dekor (bezagi) elementlari shakliga nisbatan transformsiya usullarini qo‘llashdir. Umumlashtirish, kattalashtirish va bo‘rttirish yo‘li bilan shakl, konstruksiya, siluet, proporsiyalarni o‘zgartiring hamda yangi paydo bo‘layotgan shakl va chizqlarni odam gavdasi o‘lchamlari va proporsiyalariga moslashtiring.



4.11-rasm. Me’moriy shakllarning transformatsiyasi. Mantiqiy qatorlar (talabalarning ijodiy ishlari)<sup>66</sup>

<sup>66</sup> Н.С.Макавеева. «Основы художественного проектирования костюма. (практикум)». Москва, Издательский центр «Академия». – 2008г.



A



B

4.12-rasm. Arxitekturaviy shakllarni bo'rttirish (A) va assimilyatsiyalash (B) natijasida yaratilgan libos eskizlari.  
A- Milanlik (Italiya) modelyer Marina Meliksetovaning eskizlari<sup>67</sup>; B-Xitoylik rassom Yan Veyning eskizlari<sup>68</sup>.

<sup>67</sup> [fashionaryhand](https://fashionaryhand.com) сайтидан

<sup>68</sup> <https://www.pinterest.com/yanveyning/>



4.13-rasm. Zamonaviy osmono‘par imoratning oynali fasadi va unda aks etayotgan reklama chiroqlari, hamda tayanch balkalar shaklidan ilhomlanib yaratilgan libos eskizi (uchyoqlama ko‘rinish). Djina Atkinsonning (Gina Atkinson) portfoliosidan, Westminster universiteti.<sup>69</sup>

<sup>69</sup> [http://issuu.com/westminsterfashion/docs/westminster\\_gina\\_atkinson](http://issuu.com/westminsterfashion/docs/westminster_gina_atkinson)



4.14-rasm. Zamonaviy osmono‘par imoratning shaklidan ilxomlanib yaratilgan libos eskizlari.  
MRDI bitiruvchisi Po‘latova Madinaning eskizlari.



4.15-rasm. Pekinlik (Xitoy) dizayner Chjou Yanyanning ijodiy ishlari. Mazkur eskizlar asosida yaratilgan “Revers” deb nomlanuvchi kolleksiya

Yosh dizaynerlarning “Xan Xao” Xalqaro 20- ko‘rik-tanlovida oltin mukofotga ega bo‘lgan<sup>70</sup>.

<sup>70</sup> /www.fashion.org.cn/sspx/zxds/hbj/201203/t20120326\_915378\_2.html

## **8-loyiha. Rangtasvir - ijod manbasi sifatida**

### **Tayanch ma'lumotlar:**

**XX asrdagi tasviriyligining san'ati.** XX asrda masofalar va ahamiyatiga ko'ra ustuvorliklar bilan bo'lib tashlanmagan jahon san'ati to'g'risida so'zlashga imkon tug'ildi. Berlin, Venetsiya, London, Myunxendagi jahon badiiy ko'rgazmalari butun XX asr davomidagi badiiy hayotning turfa xil jihatlarini namoyish etdilar. Qanchalik kutilmasin, XX asr yagona badiiy uslubni taqdim etmadni, turli oqimlar bir vaqtida yuzaga keldi, aralashib ketdi; birlari, yaqqol namoyon bo'lib, keyin so'ndilar (kubizm), boshqalar, ko'rinishini o'zgartirib, hozirda ham yashab kelmoqdalar. Shu sababli, XX asr san'atida uslubiy evolyusiyani aniqlash o'ta murakkabdir.

XX asr boshida san'atdagi vorisiylikni inkor etish tendensiyasi yuzaga keldi. "Avangard san'at" umumlashma nomi ostida eksperimental oqimlar yuzaga keldi, ular san'atda yangi shakllar va taraqqiyot yo'llarini yaratishni maqsad qilib olgandilar. Avangard XIX-XX asrlar chegarasidagi san'at va modern davri san'atida unib o'sdi. XX asr boshidagi G'arbiy Yevropa va Rossiya avangardining barcha asosiy yo'nalishlarida shakl yaratish jarayonining san'atdagi ma'naviy mohiyatdan izchil ajralib borishi ro'y berdi.

XIX asr oxiri – XX asr o'rtalarida san'at taraqqiyotining ikkinchi tendensiyasi modernizm deb nomlanadi. Modernizmning asosiy xususiyati – badiiy til yangilanishiga intilishdir. Shakl ustidagi sinovlar – modernizm ijodiy metodining asosidir. Uning mohiyati faqat san'atga xos, faqat san'at qonuniyatlariga asoslangan yoki musavvirning tasodifiy harakatlari mahsuli bo'lgan shakllarni yaratishdan iborat.

Avangard san'atga quyidagilar kiradi: abstraksionizm, dadaizm, futurizm, syurrealizm, pop-art, sots-art, installyatsiya. Modernizmga – timsoliylik, fovizm, kubizm, ekspressionizm.

Agar zamonaviy san'atga diqqat bilan qaraydigan bo'lsak, yangilikni da'vo qiluvchi barcha yo'nalishlar (texnik yo'nalishlardan tashqari) XX asrning birinchi yarmidayoq mavjud

bo‘lganlarini ko‘ramiz. O‘tkazib kelinayotgan oxirgi biyennalelar – bu hayot tarzi, ish, sport, baxt va fojia haqida juda ko‘plab hikoyalar so‘zlovchi kollajlar, raqamli texnologiyalar, ekran va klaviaturalar g‘alabasidir.

## **XX asr tasviri san’ati uslubiy yo‘nalishlari.**

**Timsoliylik.** Timsoliylik nima ekanligini ta’riflay turib, shoir Aleksandr Beliy yozgandi: “San’atdagi timsoliylikning o‘ziga xos jihat voqelik obrazidan ongdagi kechinmalar mazmunini yetkazish vositasi sifatida foydalanishga intilishdan iborat... Obraz, ongdagi kechinmalar mazmuni modeli sifatida, timsoldir. Kechinmalarni obrazlar orqali timsolizatsiyasi metodi timsoliylikning ayni o‘zidir”.

Timsolchilar san’ati konsepsiysi ular tomondan badiiy ijodiyot va falsafaviy, deyarli metafizik anglashga voqelikning chambarchas bog‘liqligini e’tirof etish asosida qurilgan. G‘arbiy Yevropa tasviri san’atida timsoliylik namoyandalari: “Nabi” parijlik musavvirlar guruhi (P. Seryuzye, M. Deni, G. Bonnar va boshq.), belgiyalik “Latem guruhi”, 1920- yillarda – O. Rodon (Fransiya), A. Velti (Shveysariya), A.P. Rayder (AQSH). Rus tasviri san’atida timsoliylik ta’siri M.A. Vrubel, V.E. Borisov-Musatov, N.K. Rerix, K.A. Somov, P.V. Kuznetsov, M.S. Saryan, N.N. Sapunov kabi musavvirlar ijodida kuzatildi.

**Primitivizm.** Primitiv, yoki sodda san’atni rassomchilikni mustaqil o‘rgangan musavvirlar yaratdilar. Sodda san’at samimiylik va olamga tiniq nazar tashlashga intilishni aks ettiradi, xalqona estetik tasavvurlarni ifodalaydi. Primitivizmning yorqin namoyandalari Fransuz rangtasvir ustalari Anri Russo, Moris Utrillo, gruziyyalik mustaqil o‘rgangan rassom Niko Pirosmani (Pirosmanishvili) bo‘ldilar. Rossiyada primitivizmga yaqin musavvirlar deb M.F. Larionov va N.S. Goncharovani keltirish mumkin, ularning ijodida badiiy madaniyatning barqaror meyorlaridan voz kechish yotadi.

**Fovizm.** Bu badiiy oqimning nomi fransuzcha “les fauves” so‘zidan kelib chiqadi, u “yovvoyilar” ma’nosini anglatadi. Fovistlar qo‘srimcha ranglarning bir vaqtdagi kontrasti hisobiga rangli dog‘ ifodalilagini kuchaytirdilar. Oqim sifatida fovizm ikki

yilcha davom etdi. 1905-yilda fovistlar M. Vlaminka, K. Van Dongen, J. Brak, A. Deren, R. Dyufi, A. Matiss ko‘rgazmalarda birgalikda qatnashdilar. So‘ngra har bir musavvir o‘z yo‘lidan bordi: Matiss dekorativ uslubni ishlab chiqdi, J. Brak kubist bo‘ldi.

**Ekspressionizm.** Yevropa ekspressionizmi (germaniyalik “Ko‘prik” va “Ko‘k chavandoz” guruhlari) manbai fovizm bo‘ldi. “Ekspressionizm” atamasi fransuz tilidan ifoda, deya tarjima qilinadi. Ekspressionizm insonning subyektiv ma’naviy dunyosini yagona voqelik deb, uni ifodalashni esa – san’atning bosh maqsadi deb hisoblaydi. Rangtasvirdan formani yorug‘li-soyali modellashtirish, hajmiy-makoniy tuzilish, old tomondagi iliq tonlardan uzoqdagi sovuq tonlarga tomon rang harakati kabi perspektiva istisno etiladi. Yaqinligiga qaramay, bu guruhlar o‘rtasida farqlar ham bo‘lgan. “Ko‘prik” guruhi musavvirlari ashyoviyroq, holbuki ular uchun ham rangdan bevosita emas, balki ishoraviy foydalanish xarakterlidir. “Ko‘prik” guruhining (1905-y.) namoyandalari E.L. Kirxner, E. Xekel, K. Shmidt-Rotluff, E. Nolde, O. Myuller va M. Pexshteyn bo‘lgan. “Ko‘k chavandoz” guruhiba (1911-g.) F. Mark, A. Make, V. Kandinskiy, L. Feyninger, P. Kleye va boshqalar kirgan.

**Modern.** Modern birinchi navbatda me’morchilik va amaliy san’atda o‘z ifodasini topgan, deb hisoblash odad bo‘lgan. Modern yangi turdagisi – ham sof san’at asari, ham maishiy buyumlar yarata oladigan universal musavvir yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan sintetik yechimlarga moyildir. Modern musavvirlari universalligi texnika ishlab chiqaruvchilar orasida talabgor bo‘ldi, ular yuksak professional ijodiyotni maishiy buyumlar ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashtirishdan manfaatdor edilar. Rangtasvirda modern tendensiyasi Gogen, Deni, Bonnar (Fransiya); Klimt (Avstriya); Munk (Norvegiya); Vrubel, Vasnetsov, Benua, Bakst, Somov (Rossiya) ijodida kuzatiladi. Modern uslubi tasviriy san’atning funksional yondashuv talab etiladigan sohalari – kitob va jurnal grafikasi (Angliyada Berdsley), afisha va plakat (Fransiyada Tuluz-Lotrek, Chexiyada Muxa)da yanada yaqqol o‘zini ko‘rsatdi. Modernda ishlab chiqilgan, surat va poligrafiyani bog‘lovchi

o‘ziga xos grafizm XX asr boshlaridagi bosma grafikaning barcha jihatlarini qamrab oldi. Rossiyada modern uslubida ko‘plab musavvirlarning, hech bo‘lmaganda qaysidir vaqt oralig‘ida, monumental-dekorativ izlanishlari rivoj topdi: V. A. Serov, M.A. Vrubel, V.E. Borisov-Musatov, G. Klimt.

**Kubizm.** Pablo Pikassoning Afrika haykaltaryoshligi bilan qiziqishi kubizmning tamal toshini qo‘ydi. O‘z paytida P. Sezan taklif etgan shaklning geometrik tahlili bilan birgalikda, zangi haykaltaryoshligi plastikasi kubizm manbalarining biri bo‘ldi. Asliyatning real shakllarining geometrik deformatsiyalanishi ketidan tahliliy kubizm yuzaga keldi, u kartina yuzasini bo‘lak-bo‘lak ornament – orasidan surat anglashib turadigan, geometrik elementlardan iborat naqshga aylantirdi. Sintetik kubizm ashyolarning yassi fragmentlaridan tashkil topgan ko‘prangli kompozitsiyalarini ifodalaydi. J. Brak, A. Glez. J. Metsenje, X. Gris o‘z ijodlarida kubizm rivojlanishining turli bosqichlaridan o‘tdilar.

**Futurizm.** Futuristlar kelajak san’atini yaratishga intilishlarida (bu yo‘nalishning nomi mana shundan – lot. futurum – kelajak ) an’naviy madaniyatdan, uning ma’naviy va badiiy qadriyatlaridan voz kechdilar va mashinali urbanizatsiyalangan sivilizatsiya – megapolislar, yuqori tezliklar, harakat, kuch va energiya kultini e’lon qildilar. Futurizm rang tasvirda kubizm va ekspressionizm bilan umumiyligi jihatlarga ega. Shakllar kesishuvi, ko‘chishi, bosishi va qoplab olishidan foydalanib, musavvirlar o‘z zamondoshlari bo‘lgan inson, shahar aholisi taassurotlarining tarqoqligini ifodalashga intilganlar. Futurizm Italiyada dunyoga keldi. Harakatning yetakchilari va g‘oyaviy tashabbuskorlari adabiyotshunos F. Marianetti, haykaltaryosh va rangtasvir ustasi U. Bochchoni, rangtasvir musavvirlari K. Kara, J. Severini, D. Balla bo‘ldi. Rus futurizmi G‘arbnikidan ancha farq qilardi, u o‘tmish san’ati va madaniyatiga qarshi qo‘yilgan “kelajak san’ati” mubolag‘asinigina o‘zlashtirgandi. Peterburgdagi “Yoshlar ittifoqi” a’zolari V.YE. Tatlin, P. Filonov, M. Shagal, A. Ekster; “Eshak dumii”, “Nishon”, “B Tramvay” ko‘rgazmalari

ishtirokchilari: M.F. Larionov, N.S. Goncharova, K.S. Malevich o‘zlarini futuristlar (“budetlyan”lar) deya atashgan.

Kubofuturizm – tahliliy kubizmdan abstraksiyaga qarab boruvchi oqim (K.S. Malevich, L.S. Popova, O.V. Rozanova, N.A. Udalsova).

**Abstraksionizm.** Borlik va estetik tafakkur yaxlitligiga erishishga intilish real ashyolar va hodisalarni tasvirlashdan voz kechishga olib keldi. Abstraksionist-musavvirlar ashyoviy olam-dan voz kechdilar va ashyosizlikka yuzlandilar. Ular chin novatorlik rangtasvir san’ati voqelikning sarobigina namoyon bo‘luvchi optik tajriba bilan o‘zini bog‘lab qo‘ymasligi kerak, deb hisoblashardi. Ularning nazdida, musavvir dunyoni biz uni tasavvur qilganimizdek emas, balki u qanday bo‘lsa, shundayligicha ko‘rsatishi lozim. Abstraksiya – bu tomoshabinlarda assotsiatsiyalar uyg‘otuvchi ashyosiz, plastik, rangli, ritmik kompozitsiyalarini yaratishdir.

XX asrning ilk rus abstratsionistlaridan biri, ashyosizlikning kashshofi V.V. Kandinskiy o‘z ijodini hissiy abstraksionizm deb nomladi. U ijodiy jarayonni vazifalar bosqichlari bo‘yicha taq-simladi: impressiya, improvizatsiya, kompozitsiya. Impressiya – yarim ashyoli yoki ashyosiz impressionizm. Improvizatsiya fantaziyaning yanada faolroq qatnashishini, taassurotlarni qayta anglash, intuitiv ibtidoni ozod qilishni o‘z ichiga oladi. Kompozitsiya – ijodiy jarayonning eng murakkab shakli. Rossiyada abstraksionist-musavvirlar orasida F. Kupke, A.G. Yavlenskiy, M.F. Larionov (luchizm) ko‘proq mashhurdir. Yevropada abstraksionizm vakillari belgiyalik A. Vande Velf, T. Van Dueburg, P. Modrian bo‘lganlar.

**Suprematizm.** “Rangtasvir san’ati – bo‘yoq, rang, u organizmimiz botinida mavjud. Uning chaqnashlari buyuk va talabchan bo‘ladi. Mening asab tizimim ularga bo‘yalgan, miyam ular rangidan jizg‘inak bo‘ladi”, – yozgandi Kazimir Malevich. “Qora kvadrat” yangi yo‘nalishning vizual manifesti bo‘ldi.

Unda hamma narsa – bo‘yoqlar, shakllar, tuzilmalar nolga keltirilgan va musavvir, semurg‘ kabi, mana shu yo‘qlikdan yangi olamlarni yuzaga keltiradi. Ashyosiz energiya sifatida

tushuniluvchi rang rangtasvirda shakldan mosuvo ifoda vositasini namoyon etadi. Harakat va rangni his etish hukmronlik qiladi. Alal-oqibat, suprematizmda faqat rangli to‘g‘ri to‘rtburchak orqali uzatiluvchi jo‘shqin rang hislari qoladi. El Lisitskiy konstruktivizm va suprematizm chegarasida obyektlar – “proun”lar yaratardi, ular ifodalashning yangi shakli, “rangtasvirdan me’morchilikka tomon o‘tish bekatlari” sanalardi. Maishiy ashylar (suprematik servizlar, choynaklar, siyohdonlar)ni loyihalashtirib, K. Malevich va N. Suetin rus avangardining sanoatga yo‘nalganligini davrning o‘ziga xosligi sifatida namoyish etdilar.

**Konstruktivizm.** Tasviriy san’atda konstruktivizm rangtasvir va haykaltaryoshlik sinteziga asoslangan izlanish sifatida namoyon bo‘ldi. Maqsadga muvofiqlik va funksionallik – konstruktivistlar uchun badiiy faoliyatning asl maqsadlari – zamonaviy dizaynning tamal toshini qo‘ydi. Ijodiy jarayon makoniy kompozitsiyalarda, ashoviy-makoniy muhitning kompozitsion tashkil etilishi mavzuiga oid loyihalarda ifodalandi. Nederlandiyalik rangtasvir ustasi Pit Mondrianni geometriyaning buyuk sehrgari deb atadilar. Faqat ideal to‘g‘ri, sodda elementlardan, ochiq ranglardan foydalanib, u to‘liq kompozitsion vazminlikni yaratardi. Rossiyada konstruktivizm asoschilaridan biri V.YE. Tatlin – rangtasvir ustasi, grafik, teatr rassomi bo‘ldi. Rus konstruktivizmining boshqa vakili – A. Rodchenko qobiliyatli kitob bezakchisi, sho‘ro reklamasi, fotomontaji kashshoflaridan biri sifatida mashhur. Uning rafiqasi V. Stepanova teatr uchun ko‘p ishlar qilgan, konstruktivizm ruhida kundalik liboslar modellarini yaratgan.

**Dadaizm.** Dadaizm asosini, ushbu harakat vakillari fikriga ko‘ra, tafakkurning mantiqiy tizimini inkor etadigan ongsiz, bolalarcha-tizimsiz ijodiyotda ifodalanuvchi tasavvurning nosog‘ tushkunligi tashkil etadi. Bunday prinsiplarga tayangan holda, dadaizm tezda boshi berk ko‘chaga kirib qoldi va 1920- yillar o‘rtalariga kelib yakun topdi. Dadaizm g‘oyalarida postmodernizm konsepssiyasining tamal toshi qo‘yilgan – bu tomoshabinni muloqotga, o‘yinga, epatajga chorlashdir.

Dadaistlar qo‘llaydigan badiiy vositalar – kollaj, ochiq ranglar, hamda eng muhimi – obrazni groteskli qo‘llashdir. “Dada” harakati vakillari ko‘rgazmalar ekspozitsiyasiga beo‘xshov kollajlar – suratga yopishtirilgan fotosuratlar va gazetalar parchalari, mochalka bo‘lagi, arqonlar, tugmachalar, singan oyna, simlarni taqdim etganlar. M. Dyushan, masalan, Parijdagi Tantanalar saroyidagi ko‘rgazma ekspozitsiyada Mona Lizaning soqol va mo‘ylov chizib qo‘yilgan rangli reproduksiyasi bilan qatnashgan, uning hamkasbi F. Pikabia esa – “Muqaddas Deva” asarini namoyish etgan, u bahaybat qora dog‘dan iborat bo‘lgan. Dadaizm butun jahon adabiyoti va tasviriy san’ati rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Bunda Mark Shagalning ijodi alohida o‘ringa ega. XX asr butun Yevropa she’riyati ilhombaxshisi G. Apolliner maxsus atama o‘ylab topgandi – “syurnaturalizm”. M. Shagalni surrealitlar ham, ekspressionistlar ham o‘z salaflari deb hisoblaganlar. Dunyoning makoniy kompozitsiyasi – aroziy “quyilik” va samoviy “yuqorilik”ni o‘z ichiga oluvchi yagona rangtasvir makonini Mark Shagal rus ikonalaridan olgan. Uning metodi asosida alogizm – hissiyotlarni belgilar va metaforalar orqali xuddi jismoniy harakatlardek ifodalash yotadi.

**Surrealizm.** Dadaizm asosida metafizik rangtasvir – surrealizm (favqolvoqelik) rivojlanishi ro‘y berdi. Syurrealizmda asosiysi – bu borlikning haqiqatga zidligi va yolg‘onligi g‘oyaviybadiiy konsepsiyasidir. Syurrealistlar makon va vaqt ni parchalardilar, ashylar va hodisalardan ularning mohiyatini sug‘urib olardilar, shakllarni bamisol pufaklardek uchirib yuborardilar. Belgilar va badiiy obrazlarni syurrealistlar shuurdan: instinctlar, fantaziyalar, tushlardan olardilar, kartinani esa topishmoq sifatida taqdim qilardilar – tomoshabin uning mag‘zini chaqish uchun ancha bosh qotirishi lozim bo‘lardi.

“Men o‘z asarlarimga qaraganimda, har tomondan meni sir-asror o‘rab olayotgandek va dunyoda ularning yechimi topilmaydigandek tuyuladi”, – Rene Magrittning bu so‘zlari uning asarlaridan olinadigan taassurotlarni juda yaxshi tasvirlaydi. Musavvir syurrealizmga qaysi yo‘nalishdan kelganligiga qarab,

tasvirning uslubiy xarakteristikalari ham o‘zgaradi. Chunonchi, P. Kleye abstratsionizmga moyil bo‘lsa, A. Miro biomorfiyaga tortib ketadi. R. Magritt va S. Dali o‘z metodlarini “tanqidiy-paranoidik” deb ataydilar. Rossiyada syurrealizm vakili P.N. Filonov o‘z oldiga borliq metafizikasini rangtasvir vositalari orqali anglash maqsadini qo‘ygandi. Filonov ijodining bosh ma’nosi bashoratdan iborat. Ushbu musavvirning tahliliy metodi u yaratayotgan obrazda mujassamlanadi, ashyo tahililiga sho‘ng‘iydi. U olamni tarkibiy qismlarga parchalaydi va ularni murakkab obrazlarga sintezlaydi. Ashyolar yechilishi lozim bo‘ladigan belgilarga aylanadi.

**Pop-art.** “Men Amerikani juda sevaman va asarlarimda bu o‘z izohini topadi. Ular bugungi Amerika barpo etilishiga asos bo‘lgan qo‘pol-moddiy obyektlarning yorqin, mavhum mahsulotlari belgilarini qaror toptiradi”, – Endi Uorxol o‘z ijodi haqida shunday yozgandi. Pop-art uslubiy oqimi Angliyada 1950-yillar o‘rtalarida paydo bo‘ldi va o‘n yillardan keyin, Amerikada yuqori nuqtasiga yetdi. Pop-art ommaviy, asosan yosh iste’molchiga yuzlangan. Bu uslubdagagi ilk asarlarni “Independent Group”dagi E. Paolotssi va R. Xamilton yaratgan. Pop-art sodda shakllarga, arzon materiallar (plastik, plastmassa, sun’iy charm)ga, yorqin “o’tkir” ranglarga va sodda yirik rasmga moyil bo‘ladi. Pop-artda dizayn rangdan va kitch suratlaridan foydalanishdagi haddan tashqarilik, ortiqchalik va chegaradan chiqishda namoyon bo‘ladi. Pop-artning yangi badiiy usullari oliylik va tubanlik o‘rtasidagi chegarani yuvib tashladi. Nozik did qoidalariga qarshi har qanday da’vo estetik g‘alabaga tenglashtiriladi. Pop-artning eng mashhur vakillari – R. Rashenberg, R. Lixtenshteyn, D. Djons, D. Rozenkvist, E. Uorxol, Y. Kusama. Avval-boshdanoq pop-art moda bilan bog‘liq bo‘lgan. R. Rashenberg va D. Rozenkvist modadagi do‘konlar peshoynalarini bezashgan, E. Uorxol esa moda illyustratori sifatida taniqli bo‘lgan. U Tiffany va Glamour jurnallari uchun ishlagan. Uning banan surati tushurilgan va “Dumalatilmasin. Nozik yuk” yozuvili ko‘ylagi pop-artga moda urf bo‘lishidan ancha oldin yaratilgandi.

## **San'atning zamonaviy shakllari**

**Konseptualizm.** Modernizmdan keyin san'atda konseptual san'at davri boshlandi. Unga oid asarlar an'anaviy badiiy vositalar doirasidan chetga chiqdi. Zamonaviy san'at, voqe'ligimizning o'tkir burchaklariga urilib, o'zimi namoyon etish uchun fitnakor shakllarni tanlaydi. Konseptual san'at – bu mojaroli ishora, bu o'ziming ko'p ma'noliligi bilan e'tibor jalb qiluvchi, ijtimoiy ma'naviyatni tahqirlovchi har bir narsadir.

Postmodernizm davri musavviri o'zimi na tanqid qilishga, na madh etishga majbur deb biladi, u "tarafdar" ham emas, "qarshi" ham emas, u umumqabul qilingan meyorlarni atay buzadi, fitna qo'zg'aydi, unda mas'uliyat yo'q. U savolga savol bilan javob beradi. Uning uchun san'at – tomoshabin bilan o'yin. G'arb ommasida 1990-yillarda esdan chiqmas taassurot qoldirgan I. Kabakov va O. Kulikdan boshlab, badiiy aksiyalar o'tkazish rus badiiy hayotining uzviy qismiga aylandi. San'at reklamaning barcha vositalarini qo'llagan holda sotiladigan mahsulotga aylandi. Bugungi kunda zamonaviy musavvir asarini xarid qilarkansiz, birinchi navbatda uning ismiga bog'liq afsona, to'qima, mojaroni sotib olgan bo'lasiz. Musavvir ismi – savdo belgisi, texnika va janr esa aytarli ahamiyatga ega emas.

**Fotografiya.** XX asrdagi mavzulardan biri insonning mashina bilan kurashi bo'ldi. Birinchisini musavvir ifodalagan bo'lsa, ikkinchi tomon vakillari fotoapparat, kinokamera, videokaamera, kompyuter bo'ldi. Texnika obrazlar yaratish qobiliyatidan mahrum qildi. Mashina bilan raqobatlashib, musavvirlar ijodiy faoliyat jarayonini dasturlashga intildilar, obrazlar yaratishdan ularni buzishga o'tdilar. Bularning bari rangtasvirning "qashshoqlanishi"ga va san'atning texnik turlari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Dastlab oq-qora, keyin rangli fotografiya badiiy obrazlarda vaqt qiyofasini yaratish va saqlab qolish istagi borasida rangtasvirga yaqin san'atga aylandi. Bugungi kunda fotografiya kompyuter texnologiyalari bilan uyg'unlashib "fashion"-fotografiyalar yaratmoqda, shuningdek, konseptualistlar san'atini hujjatlash (mojaroli loyihalar va tavakkalchi performanslar fotosuratları) bilan shug'ullanmoqda.

Umuman san'at oldida turgan muammolar zamonaviy fotografiyaga ham tegishli bo'lmoqda.

Kompyuter va raqamli texnologiyalarni qo'llash mumkinligi tu-fayli fotografiyaga diletantlar ham bemalol kirib kelmoqda. Texnikaga asoslangan fotografiya ham xuddi shu yo'nalishda rivojlanishi mumkin: masalan, golografik texnika hisobiga hajm bag'ishlash.

**Videoart.** “Kelajak musavviri qandaydir ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan uslublar yordamida devorlarda bo‘yoq, mo‘yqalam, xolstlarsiz ijod qiladigan bo‘ladi. Ular g‘ayrioddiy, hozirda noma’lum ranglar bilan tovlanib turadi”, - deb orzu qilgandi 1919 yilda Rodchenko. Shunday ham bo‘ldi. Zamonaviy musavvirlar uchun suyuq kristalli ekranlar xolst vazifasini o‘tamoqda, raqamli texnologiyalar va neon tarkib esa, mo‘yqalam va bo‘yoqlar o‘rnini bosmoqda. Bugungi kunga kelib videokamera olamga ochilgan derazagina bo‘lib qolmay, voqelikni qaytadan yaratib, uning rejissyoriga aylanmoqda. Devorga tushiralayotgan videoinstallyatsiyalar yoki ekranlar zamonaviy san'at ko‘rgazmalaridagi asosiy badiiy loyihalar bo'lmoqda.

San'atning interaktiv shakllari musavvirning fikrini tushunish uchun tomoshabin badiiy asar yaratishda go‘yoki o‘zлari ham qatnashishlarini talab qiladi. Buning uchun u, masalan, kompozitsiya ichiga kirishi kerak. Muhitni zamonaviy texnik vositalar, shuningdek nur va yoritish san'at asariga aylantiradi.

**Kompyuter grafikasi.** Tabiatni, xudoni yoki tarixiy zaruratlari anglash uchun musavvir voqelik mohiyati inson tushunchasidan murakkabroq ekanligiga asoslanadi.

Kompyuter bilan ishlashda voqelik mavjudlar ichidan tanlash va uni kombinatsiyalash imkoniyatigacha soddalashadi. “Ha–yo‘q” ikkilik tizimi insonga xos “ehtimol”, “balki”, “agar”, “bo‘lishi mumkin” kabilarni istisno qiladi. Bu esa, qandaydir ko‘rinishda butun madaniyatda o‘z aksini topishi kerak. Yangi avlod ijodiy jarayonni kompyuter bilan bog‘laydi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari musavvir imkoniyatlarini anchayin kengaytirdi. Uch o‘lchamli grafika va multiplikatsiyani o‘z ichiga olgan badiiy-grafik kompyuter dasturlari musavvirni universalga aylantirmoqda.

Axborot jamiyatida kompyuter grafikasi san'atning mustaqil turiga aylanmoqda, u televideniyeda, kanallar dizaynini bezashda, reklama roliklarini va videokliplarni yaratishda ayniqsa samarali qo'llanilmoqda. Kompyuter filmlari tobora keng tarqalmoqda. Butunlay kompyuterda tayyorlangan bolalar multfilmlari ham, kompyuterda loyihalashtirilgan muhitga insonni qo'shish ham shular jumlasidan. Internet tarqalishi bilan web-dizayn tobora rivojlanmoqda.

### **Rangtasvirning modaga ta'siri.**

Rangtasvirni modaga jalb qilishdagi ilk qadamlar rus avangardist-musavvirlari tomonidan qo'yildi. Ularning qizi-qishlari inson hayotining barcha sohalarini qamrab olardi. Chunki inqilobdan keyin inson yangicha yashashi kerak, deb taxmin qilinardi. "San'at olami" jamiyati musavvirlari (M.A. Vrubel, K.A. Somov, N.K. Rerix, K.S. Petrov-Vodkin, A.I. Benua, L.S. Bakst, I.Y. Bilibin) yaqinlari va o'zлari uchun jon deb kostyumlar yaratardilar. Birinchi bor professional musavvir qalamiga mansub eskiz bo'lajak libos uchun asos bo'ldi. Libos loyihalashtirishga ko'plab musavvirlar qiziqish bildirganlar, hatto Malevich ham kostyumlar eskizlarini yaratgan.

Parijdagi Dekorativ san'atlar ko'rgazmasi (1925 y.)dan keyin modern uslubi, o'sha paytda urf bo'lgan o'simliklar motivlari bilan birga, art-dekoga joy bo'shatdi.

Pol Puare ayollar silueti qiyofasida inqilob qildi – korsetdan voz kechdi, buning natijasida modernning forma hosil qiluvchi liniyasi o'tmishda qoldi. Usta tomonidan Dyagilev baletlari estetikasi va, ayniqsa, L. Bakst rangtasvir asarlari ta'siri ostida yaratilgan ekzotik sharqona kiyimlar Yevropa modasini tubdan o'zgartirib yubordi.

1930-yillarda "dekorativ san'atlar" uslubi eskira boshlaydi. Moda alohida o'rin egallaydi, moda namunalarining almashinuvi uslubning xos jihatiga aylanadi. Modelyerlarning dadaistlar bilan do'stligi ta'sirida qaldig'och dumlarini eslatib yuboradigan ko'ylaklar, Lyusyen Lelong (Lelong) va hajmli ananaslar ko'rinishidagi cko'ntakli pidjaklar – Marsel Rosha (Rochas) yuzaga keldi. Elza Skyaparelli ayollar jaketiga ko'zgular qadadi.

“Oqshomgi ziyofatlarda erkaklar nuqlulayollar ko‘kragiga suqlanib qaraydi. Mana, endi o‘z aftlarini to‘yib tomosha qilsinlar” – o‘z dizaynerlik g‘oyasini u shunday izohladi.

1960-yillar modasi bamisoli avangardist musavvirlar kartinalaridan ko‘chib o‘tgan bo‘yoqlar, ranglar mutanosibligi, matolar abstrakt printlarini, balki abstrakt uslublar konsepsiyasini ham qabul qildilar. XX asr boshlari san’atidagi o‘xshash izlanishlar kontekstida libos borasidagi qarashlarning bunday o‘zgarishiga insonning koinotga chiqishi turtki bo‘ldi.

Kurrej (Courreges) va P. Karden (Karden) ijodi qisman yangi ichki konstruktivizmni izlashga qaratilgandi, buning samarasi o‘laroq, kostyumga dizayn predmeti sifatida qaray boshladilar. Kurrej yarqiroq, yaltirab turuvchi materiallardan kostyumlar yaratdi, Karden plastikdan tayyorlangan libos bilan ishladi, P. Rabann esa, modellarida plastmassa va metalldan foydalandi. Uning ijodiga Bauhaus maktabi va Balensiaga (Balensiaga) texnik usullari katta ta’sir ko‘rsatdi. Fransiyada uni “Kutyuryelar metallurgi” deb ataydilar.

Fransuz modelyeri Iv Sen-Loran (Ives Saint Laurent)ning ijodiy izlanishi san’atning turli tomonlarini, jumladan rangtasvirni ham qamrab olgan. 1965–1966-yil kuz-qish kolleksiyasida u mashhur “Mondrian” ko‘ylaklarini taqdim etdi. Uni Goya kartinalaridagi qora to‘rlar, Velaskes krinolinalari, Matiss va Pikasso rangtasviri ruhlantirgandi.

1966-yilda Iv Sen-Loran ayollar yuzlari va qirmizi lablar suratlari bilan bezatilgan qora ko‘ylaklardan iborat mashhur pop-art kolleksiyasini yaratdi.

1980-yillarda ingliz T. Myugler (T. Mugler) futuristik obyektlarni yodga soluvchi liboslar, masalan “kadillak” charm byustye-bodi yaratdi. XX asr san’atida dadaistlar kashf etgan nimaiki bor bo‘lsa, bari Gotye (Jean Paul Gaultier)ning “Dadaizm” (1983 y.) kolleksiyasida o‘z ifodasini topdi va uning ijodiy kredosiga aylandi.

1990-yillarda Janni Versache (Versace) Jeyms Din va Merilin Monro portretlari ko‘rinishidagi bosma suratli ko‘ylak yaratdi.

Hozirda ham rangtasvir ustalarining eksperimentlari liboslar dizaynerlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy moda Bottichellidan Pikassogacha bo'lgan turli davr va yo'nalishlarga oid musavvirlar asarlaridan ruhlanmoqda. XX asr oxirlari – XXI asr boshlaridagi moda tendensiyalari xususiyatlari turli uslubdagi manbalardan bir vaqtida iqtibos olish va mavsumdan-mavsumga o'tganda bir mavzuga turli jihatlardan turib murojaat qilishdan – o'tmishdan yangilik topishga o'ziga xos intilishdan iborat bo'lmoqda.

Oq-qora va rangli fotografiya estetikasi hukmronligi rangtasvir uchun modaga san'at tomonidan yaratilgan obrazlarni belgilarga, logotiplarga va shriftlarga aylantiruvchi fotoprintlar ko'rinishida kirib borish imkonini berdi.

2001-yil pop-artdan iqtibos olishning cho'qqisi bo'ldi. Kastelbajak ko'yaklaridagi E.Uorxol obrazlari, Roy Lixtenshteyn uslubida Gabriel Koko Shanel portretili sviterlar, "Mondrian" uslubidagi golflar, K. Lakruaning "Endi Uorxol nomidagi" jemperi, a lyu yo'l xaritasi kurtkasi (K. Dior). Dadaizmning ikki yoqlamalilikka muhabbat F. Moskinoning Cheap&Chic jaketida (2004-y.) va Comme des Garcons namoyishidagi ikkinchi juft lablarda ifodalandi.

### ***Loyihani bajarish bo'yicha tasviyalari:***

Rangtasvirning ijodiy interpretatsiyasi. Rangtasvir go'zallikning estetik obrazini yaratish uchun tekislik va turli tasviriy vositalardan foydalanadi. Rangtasvirning o'qiladigan belgilarini zamonaviy dunyoga ko'chirish mumkin. Rangtasvirni ijodiy interpretatsiyalash uchun material sifatida musavvir tomonidan yaratgan muayyan obraz ham, badiiy asarlar bizda uyg'otadigan taassurotlar ham bo'lishi mumkin. Libosni loyihalashtirishga badiiy nazariyot, masalan, konstruktivizmni ko'chirish ham mumkin. Zamonaviy dizaynerlar rangtasvir asarlaridan E. Puchchi (Pucci) matolari suratlarida ayniqsa ko'p iqtibos qiladilar, Kastelbajak liboslarida print sifatida ishlataladilar, Iv Sen-Loran (Yves Saint Laurent) badiiy konsepsiyasini kostyumga ko'chiradilar, modellar yaratishda J.L. Sherrer rangtasvir asarlaridagi obrazlardan foydalanadilar.

Ba’zida, taqdirining va iqtidorining g‘ayrioddiyligi oqibatida, musavvirning o‘z qiyofasi ham moda obyektiga aylanadi, bunga meksikalik musavvir ayol Frida Kalo misol bo‘la oladi. Jan Pol Gotye (Gaultier) o‘zining yozgi-bahorgi kolleksiyalaridan birining bir qismini asarlarining aksariyati musavvirning ichki dunyosini aks ettiruvchi avtoportretlar bo‘lgan Frida Kaloga bag‘ishladi. U erkaklar kostyumini, yorqin va ola-bula matolardan an’anaviy Meksika bezaklari, uzun, o‘ta hashamatli yubkalar va sirib turuvchi koftalar kiyardi. 2002-yil modasida unga taqlid qilish yorqin, ekzotik bosma suratlarda va etnik mavzudagi assotsiatsiyalarda o‘z ifodasini topdi.

**Libos va tashqi qiyofa uyg‘unligi.** Ijodiy manbani tanlash va uni tahlil etishdan oldin, kim uchun uslub yaratmoqchi bo‘lsak, o‘sha insonni o‘rganib chiqishimiz lozim bo‘ladi. Individuallikni uning barcha ko‘rinishlarida – ham tashqi qiyofani, ham ichki olamni – o‘rganish oldimizda turgan birinchi vazifadir.


Tabiat hodisalari, vaqt lahzalari, belgilar, harakatlardan assotsiativ qator tuzishga harakat qiling. Tashqi qiyofani koloristika nuqtai nazaridan tahlil qiling (sovuv yoki iliq tip, qaysi rangdagi libos mos keladi). Siz o‘ylagan g‘oyalardan qay biri bu insonga yoqishini tushunish uchun uning psixologik portretini tuzing.

Tashqi qiyofa va psixologik portretga berilgan bahodan kelib chiqib, assotsiativ qatorni yana davom ettirishga, obyektga ko‘proq mos keluvchi davrga va rangtasvirdagi uslubga yuzlanishga intiling (sof realistik san’atdan chetlaning).

So‘ngra muayyan bir musavvirga va uslub, chizish tarzini o‘rganishga o‘ting.

**Ijodiy manba ustida ishslash ketma-ketligi.** Oldindagidek, ijodiy manba ustida ishslash tadqiqot ishini, transformatsiyani va uslublashtirishni o‘z ichiga oladi.

Eskizlarda rassom qo‘llaydigan rang koloriti, bo‘yoqni polotnoga yotqizish tarzi, sathlarni rang bilan to‘ldirish uslubi, asardagi shakllarga e’tiborni qarating.



4.15-rasm. Pit Mondrianning tasviriy asaridan ilhomlanib yaratilgan libos eskizlari. Chelyabinsk (Rossiya) Moda va biznes xalqaro instituti talabalarining ijodiy ishlari<sup>71</sup>.



4.16-rasm. Tasviriy san'atdagi suprematizm yo'naliishidan ilhomlanib yaratilgan loyiha. Westminster universiteti talabasi Liza Barnett (Lisa Barnett) eskizlari<sup>72</sup>.

<sup>71</sup> <http://kafedramody.ru/kursy-master-klassy-seminary/dizajn-kostjuma>

<sup>72</sup> <http://issuu.com/westminsterfashion/docs/westminster>



4.17-rasm. Boris Dmitriyevning (Rossiya) Pikasso asarlari asosida ishlagan libos eskizlari.

## **9-loyiha. Musiqa - ijod manbasi sifatida**

### **Tayanch ma'lumotlar:**

#### **Musiqaning modaga ta'siri.**

Moda fenomeni shaxsning jamiyatdagi estetik barqaror-lashuvidan va libos uslubi orqali o'zining vizual ifodalash huquqidan iborat. Odamlar modaning faol ishtirokchilaridan biri bo'lishlari, ya'ni modali qadriyatlarni o'zlarinikidek qabul qilishlari yoki, agar bu shaxsiy e'tiqodlariga zid kelmasa, modada formal qatnashishlari mumkin. Biroq shaxsning estetik bahosi modani namoyishkorona inkor etishida ham ifodalanishi mumkin. "Nonkonformizm" tushunchasi aynan jamiyat insonga singdiradigan qadriyatlarni qat'iy rad etishni anglatadi.

Darhaqiqat, shaxs dastlab jamiyatga qarshi turadi, lekin keyin bunday yorqin o'z fikrini ifodalash muhlislarni jalg qiladi, ular uchun taqlid namunasi, o'z fikrini ifodalash uslubiga aylanadi. Modaga muholifatni **antimoda** deb atash qabul qilingan.

Antimoda rasmiy moda bilan parallel davom etadi, boz ustiga, ular bir-biriga nisbatan faol ziddiyatda bo'ladilar. Moda nonkonformistlar g'oyalarini darhol qabul qilavermaydi. Moda namunasi sifatida shakllanish uchun antimoda jamiyat tomonidan qarshilikni hazm qilib o'tishi kerak.

XX asrda yoshlar submadaniyatlari nonkonforizmi moda dvigatellaridan bira bo'ldi.

"Submadaniyat" tushunchasi dastlab madaniyatdan tashqari hodisani anglatgan. Bugungi kunda submadaniyat turli ijtimoiy guruhlarning hayot uslubi (life styles) sifatida talqin etilmoqda. XX asrda yoshlar submadaniyatlari yuzaga kelishining sababi moda, jamiyatdagi qadriyatlarga oid qonuniyatlar va stereotiplar diktatiga qarshi norozilik, shuningdek, avlodlar, madaniyatlar o'rtasidagi mojarolar, ijtimoiy va iqtisodiy omillar (ishsizlikning keskin o'sishi va iqtisodiy inqiroz) bo'ldi. Submadaniyatlар turli mintaqalar yoshlarini birlashtirish orqali madaniy yaxlitlikda katta rol o'ynaydilar, umummadaniy obrazlar yaratadilar.

Nonkonformizm ommada to'plangan o'zgarishlar istagini aks etuvchi musiqada ayniqla, yaqqol namoyon etadi. Musiqiy

guruqlar yoshlari kumiriga aylanadi, yangilik ommaviy tus oladi, modaga kiradi. Kumirlarga taqlid ko‘chaga chiqadi. O‘z vaqtida moda bitniklar, xippi, panklar g‘oyalarini qabul qilgan va nonkonformistlarning qadriyatlarini tijorat jihatidan muvaffaqiyatlari mahsulotga aylantirgan. Masalan, bir paytlar nonkonformistlarning uniformasi, jamiyat fikriga va modaga nisbatan befarqlik shiori bo‘lgan jinsi bugungi kunda eng modadagi libosga aylangan.

### **Musiqa va modadagi yoshlari submadaniyatlari.**

1920-yillar. Bu yillar jaz davri boshlanishi bo‘ldi. Uning asosida Yevropa va Afrika musiqaviy madaniyatlari sintezi yotardi. Jaz uchun poliritmiya, tembr o‘ziga xosligi va jamoaviy improvizatsiyaviylik xos. Amerikada, Nyu-Orleanda yuzaga kelib, jaz biroz vaqtidan keyin Yevropaga tarqaldi. “Qora revyu” (1925 y.) Yevropa turnesi Parijda tom ma’noda aqldan ozgulik ta’sir ko‘rsatdi. Keyinchalik turli jaz uslublari yuzaga keldi: regtaym, blyuz, sving, bi-bop, bugi-vugi. Charlston va jaz davri art-deko uslubida o‘z ifodasini topdi, u yana “jaz moderni” nomi bilan mashhur.

1930–1940-yillar. Birinchi yoshlari antimodasi deb AQShda Ikkinchi jahon urushi vaqtida yuzaga kelgan Afrika va Lotin Amerikalik yoshlari orasidagi irqchilik va urushga qarshi norozilik keltiriladi, uni Amerikaning qora tanli aholisi – zutis (zooties)lar olib borgan.

Urush davrida tejamkorlikka chorlovlarni inkor qilib, yoshlari zutlar – uzunligi tizzagacha bo‘lgan o‘ta keng pidjaklar va belida burmali shimlar kiydilar. Moda bob qiyofani yorqin galstuklar va armiyadagi kalta sochlari ziddiy o‘laroq uzun sochlari to‘ldirdi. 1950-yillarga qadar mavjud bo‘lgan zutis (zut) uslubi jazmenlar (Lui Armstrong va Dizzi Gillesp)da, shuningdek gangsterlarda ayniqsa shuhrat qozongandi.

Zutis submadaniyatiga qarshi o‘laroq, baykerlar oqlarning rosmana birinchi yoshlari submadaniyati bo‘ldi – ularning o‘z uslubi, tili va hatti-harakatlar tarzi bor edi. Mototsiklet submadaniyatlar shunchalik jozibador bo‘ldiki, ular haligacha mavjud. Baykerlar – patriotlar. Ularning libosdagi uslubini urush

belgilab bergen. Urush yillarida zobitlar tutgan qora charm kurtka baykerlar uniformasiga aylangan. Imijni og‘ir armiya botinkalari yoki etiklar to‘ldiradi. Rok-musiqa rivojlanishi bilan baykerlar urbanizatsiyalangan hamjamiyat ommaviy submadaniyatida o‘z mavqeini mustahkam egalladi va “ko‘chmanchi qabila” nomini oldi.

1950-yillar. Bu paytga kelib yangi hodisa – yoshlar modasi yuzaga keldi. Qo‘lga kiritilgan tanlov erkinligi ota-onalar qadriyatlarini qabul qilmaslikda, rasmiy modadan voz kechishda, raqs hamda musiqaga berilishda ifodalandi. Musiqada Amerika ta’siri davri boshlandi.

AQShda bitniklar harakati – beat generation (“Parchalangan avlod”) yuzaga keldi. Bitniklar boshqa submadaniatlardan kiyim va uslubga befarqlik ajratib turadi. Muqobil modada yorqin ranglar, ommaviy jinsi, harbiylar ko‘ylaklari va trikotaj ustunlik qiladi. Bitniklarning kult figuralari jazning bi-bop yo‘nalishi musiqachilari D. Gelespi va CH. Parker bo‘ldilar.

Rossiyada bu yillarda stilyagalar paydo bo‘ldi, London ishchi mavzelarida esa Britaniyadagi ilk yoshlar submadaniyati – “teddi boyz” yuzaga keldi. Bill Xeyli, Jerri Li Lyuis qo‘sishqlari ta’siri ostida Britaniya bit va ritm-end-blyuzi shakllandi, u Amerikaga bumerang tarzida, “Bittlz” va “Rolling Stounz” bilan birgalikda qaytadi. Amerikada rokabillilar paydo bo‘ldi. Ular duxoba yoqali uzun pidjaklar, tor surnay-shimlar kiyishar, odatiy galstuk o‘rniga kapalak nusxa galstuk yoki tizimcha taqishardi, boshlarida briolinlanib qotirilgan “kok” (xo‘roz tojini eslatuvchi shaklda sochning old qismini shishirib qotirish), oyoqlarida – tagcharmi mikrog‘ovak rezinali botinka. Yoshlar “Bittlz” va Elvis Presli rok-n-rollini tinglashardi. Rokabilli uslubi bir vaqtda bir qancha musiqiy yo‘nalishlar uyg‘unligi bo‘ldi. Qora blyuz va jaz oq kantri bilan aralashib ketdi.

1960-yillar. Rokabillidan yangi musiqaviy submadaniyat – “garaj” yuzaga keldi. Yoshlar kambag‘alliklari sababli, rok-n-roll va ritm-end-blyuzni garajlarda ijro etishardi. 1960-yillar o‘rtalarida garaj, psixodelik, keyinchalik progressiv rok ijro etuvchi yuzlab guruhlar vujudga keldi. U paytda Londonning

Soxo tumani nafaqat zamonaviy musiqa laboratoriysi, balki jahon yoshlar modasining markaziga aylandi. 1966 yilda plakatlar va plastinkalar dizayni, liboslar va musiqa – hammasi psixodelik tusda bo‘ldi. Bu uslub Endi Uorxol va uning izdoshlari ijodida namoyon bo‘lgan Amerikaning badiiy avangardiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Psixodelik rok tashqi noaniq aranjirovkada, suzuvchan, deformatsiyalangan ovozda ifodalanardi. “Psixodelik davr”ning yaxlit ko‘rinish olishi “Bittlz”ning “Serjant Pepper” plastinkasi chiqqanidan keyin ro‘y berdi.

1960-yillarning yana bir yoshlar submadaniyati – rokerlar – baykerlar muhitidan chiqdi. Rokerlar musiqaviy rokka berilganlari tufayli shu nomga ega bo‘ldilar. Charm ishton yoki jinsi, “kosuxa” – ko‘pincha yengi kesilgan, metall parchin va emblemalar qadalgan, taqilmasi qiyalamasiga joylashagn charm kurtka kiygan yoshlar o‘zlarining jamiyat autsayderlari (eng orqada qolganlar ma’nosida) ekanliklarini ochiq e’lon qilardilar. Ularning musiqali qiziqishlari og‘ir va qo‘pol rok-n-roll (Eddi Kokran, Jin Vinsent va Vins Teylor (keyinroq “Rolling Stounz” ham qo‘shildi) edi.

XX asrdagi madaniy fenomenning yana biri modlar bo‘ldi. Har doim mod bo‘lish mumkin, asosiysi – o‘zingiz uchun yangilik ochishingizdir. Taxminan 1963-yilda modlar o‘z an’analari, tasavvurlari va kumirlariga ega sof tineyjerlar submadaniyati sifatida ko‘rila boshlandi. Modlar libosidagi asosiy jihat – meyoriylik va tartiblilik. Ular tor yoqali ko‘ylak, sirib turuvchi kostyum, albatta oq paypoq kiyishar, sochlari tartib bilan turmaklangan bo‘lardi. Libosni qanday kiyishning bir olam nozik jihatlari bo‘lardi. Masalan, shimlar eni bir o‘lchamda bo‘lsa, ular va botinka o‘rtasidagi oraliq yarim dyuym bo‘lishi, shim kengligi ortsa, bu oraliq bir dyuymga o‘zgarishi kerak bo‘lgan. Modlar musiqasi o‘z ichiga modern-jazni ham, blyuzni ham, soulni va ekzotik Yamaykaning “ska”sini ham olardi.

Vudstokdagi yarim milliondan ziyod kishini to‘plagan uch kunlik festival oltmishinchchi yillar avlodining o‘ziga xos timsoli bo‘ldi, o‘sha tadbirdan xippi harakat rivojlana boshladi. Xippilar o‘zlarini freaks (g‘aroyiblar) deya atardilar. Ularning dunyoqarashlarining asosiy prinsiplari – umumqabul qilingan madaniyatga

qarshi munosabat, daydilikning targ‘iboti, turli xalqlar madaniyatlariga murojaat, musiqa va adabiyot orqali o‘z fikrini ifodalashning yangi shakllarini izlash, seksual erkinlik, tabiat bilan uyg‘unlik, kommunadagi oddiy hayot tarzi.

Xippilarning o‘z fikrini ifodalashga intilishi modaning demokratlashuvi tendensiyasini yuzaga keltirdi va “individual uslub” tushunchasi paydo bo‘lishiga olib keldi. Xippi sekond-xend kiyimlarni, ota-onalari javonlaridan olingan eski liboslarni kiyishardi. Uniqqanlik effekti ko‘pincha yamoqlar, qo‘lda tikilgan applikatsiyalar, kashtalar orqali erishilardi. Kiyimni to‘qilgan narsalar va aksessuarlar to‘ldirib turardi. Jinsi xippilar uniformasi va norozilik timsoli bo‘ldi, 1970-yillarga kelib uniseks uslubidagi ommaviy libosga aylandi. Xippi musiqasi – bu pop va rock. Vudstok qahramoni Jenis Joplin, dunyodagi eng yaxshi oq tanli jaz qo‘shiqchisi – xippining ideal ifodasidir. U doim modada va doim undan tashqarida.

Yamaykalik yoshlar submadaniyati – reggi (reggae)ning birinchi cho‘qqisi 1969–1971 yillarga to‘g‘ri keladi. Reggi vakillari – rastamanlar harakatining g‘oyaviy asosi xristian ta’limoti va Yamaykalik qora tanli qullar avlodlarining milliy afsonalarining g‘aroyib qorishmasidan iborat. Rastamanlar kiyimida Efiopiya bayrog‘ining ranglari – sariq, yashil, qizil albatta qatnashadi. Ular to‘qilgan beret, oddiy keng libos kiyadi, boshiga – dred (dreadlocks)larni qilib, oyoq yalang yuradi. Reggi submadaniyati hozirda ham Londonning klublari va qoratanlilar mavzelarida mavjud.

1970- yillar. Bu davr boshida rock-musiqa muqobililik ifodasining asosiy ifodasidan biri bo‘ldi va yoshlar bozorida mustahkam qaror topdi. Yoshlar submadaniyati olamida o‘tish davri keldi. Britaniya andegraundi nufuzli va aksariyat yoshlar uchun yiroq bo‘lgan progressiv-rock – rock va jaz, folk va klassika uyg‘unligidan iborat musiqali yo‘nalish yaratdi (“Genezis”, “Djetro Tall”, “Yes”, “King Krimzon” guruhlari).

1970- yillar o‘rtalarida yoshlar madaniyatida ikkita o‘xshash yo‘nalish paydo bo‘ldi – funk va glem. Funk amalda bizni zutiz davriga qaytaradi, o‘shanda ham libos Amerika qora tanli yoshlari

uchun muvaffaqiyatning bosh belgisi bo‘lgandi. Fank libosida jinoyatchilik avj olgan qora tumanlar ko‘cha imiji va Londonning psixodelik uslubi qorishgan – keng klyosh shim, ipak ko‘ylak, tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan ola-bula rangli erkin turuvchi pidjak, oltin zanjir, kepka, furajkalar.

Glem-rok (glamorous – samarali) uniseks (uniseks – yoshlar madaniyatida jinslar almashinuvi) konsepsiya rivojlanishini oxirgi nuqtasigacha olib chiqdi. Glem-rok ijro etuvchi musiqachilar sahna kostyumlarida erkaklar va ayollar liboslari o‘rtasidagi chegara yo‘qolib bordi. Yorqin ranglar ustunlik qiladigan, atlas, rarbof, velyur (ayollar oqshom liboslari matolari)dan tikilgan, kashta, boa bilan yasatilgan erkaklar kostyumi ayollarnikiga yaqinlashib bordi. Uzun sochlar va juda yorqin makiyaj obrazning nazokatini yanada bo‘rttirdi.

1970-yillar o‘rtalarida navbatdagi alvodlar to‘qnashuvi yuzaga keldi. Amerikadagi yoshlar submadaniyatining vaqtinchalik hukmronlik qilishi muqobililikning yo‘qotilishiga olib keldi. Qaror topgan tuzilmalarni portlatishga qodir yangi musiqali shakllariga ehtiyoj sezildi.

1976-yilda navbatdagi uslub inqilobining timsoliga aylangan submadaniyat paydo bo‘ldi – panklar. Xippilarga muxolafatda bo‘lgan panklar tajovuzkor epatajni, qasddan qo‘pollik va barchani va hamma narsani rad etishni e’lon qildilar. Panklarning asosiy uslubiy mohiyati – o‘z fikrini ifodalashning cheksiz imkoniyati. Punk iborasi ingliz slengida “iflos”, “palid” ma’nosini anglatadi. Panklar liboslarda qora maykalar, yirtilgan, sonsiz parchinlaru nishonlar taqilgan charm kurtkalar, ip qadamasi uzun bo‘lgan “doktor Martens” botinkalari, it bo‘yinbog‘ini ma’qul ko‘rardilar. Qirdirib olingan boshdagi dikkayib turgan soch yo‘li – irokez, yarmi qirilgan, turli ranglarga bo‘yalgan sochlar va “baqiroq” tatuirovkalar obrazni to‘ldirib turardi. 1970-yillarda panklar Yaponiyada, G‘arbiy va Sharqiy Yevropada va hatto Rossiyada paydo bo‘ldi. AQShda Los-Anjeles – pank-rok va “metall”ni mujassam etgan xard-rok poytaxti-ularning markazi bo‘ldi. “Uslubdagi inqilob”ni e’lon qilib, panklar keyinroq o‘zlarining uslubiy muvaffaqiyatlari qurbaniga aylandilar.

Modaga kelsak, panklar submadaniyati unga hanuzgacha ta'sir ko'rsatib keladi.

1980-yillar – bu davr disk musiqasi davri bo'ldi, unda e'tiroz va muqobillik kuzatilmay, faqat moda bo'lgandi. ABBA, Boney M, Modern Talking, S. S. Catch, Blondie guruhlari disk musiqasi ijrosi tufayli shuhrat qozondilar. Libosda bu uslub yaltiroq, nur qaytaruvchi, o'tkir rang jilosiga ega materiallardan foydalanishda ifodalandi, ularni yorqin va arzon aksessuarlar, ko'zlar va lyureks to'ldirardi. Boshqacha aytganda, bu kitch edi. Lekin uni libos dizaynerlari o'z ijodlarida muvaffaqiyat bilan qo'llashardi. Chunonchi, kitch va ko'cha modasi qorishmasida o'z ifodasini topgan Janni Versache (Versace)ning uslubini pop-madanyat apofeozi deb ataydilar.

1980-yillar oxirida yirik megapolislar qora mavzelari musiqasi va yoshlar submadaniyatları davri boshlanadi. Nyu-Yorkda bu xip-xop, breyk-dans va rep, Detroytda – texno, Chikagoda – xaus, Londonda va Manchesterda – revv. Musiqaning ajralib turuvchi xususiyati di-djeylar yuzaga keltiruvchi singan bit bo'ldi. Vokal musiqa ritmiga moslangan nuqtdan iborat bo'ldi.

1980-yillar boshlarida ular o'zlarini bi-boyz yoki breyk-bit deb atadilar. Bi-boyz uslubi: tilla zanjirlar, katta stereotizimlar va Adidas krossovkalari. Belgilovchi omil repper Run DMCning Ring of Rock xit-qo'shig'idagi (1985-y.) imiji bo'ldi.

Libosdan kult yaratmadilar, raqs uchun qulay kiyimlar kiydilar. Rep tufayli modaga bo'ksagacha tushirilgan kamarlar va qorinni yalang'ochlab yurish kirib keladi.

1990-yillar. 1980-yillar oxirlari – 1990-yillar boshlarida yangi yoshlar submadaniyatları yuzaga keldi, shuningdek "yangi" qo'shimchasili qayta tiklanish, masalan, "yangi glem" kuzatildi. Musiqada "yangi psixodeliya" katta shuhrat qozondi, "yangi modlar" paydo bo'ldi.

Sivilizatsiya taraqqiyotining texnik yo'li texnomadaniyat yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Texnik musiqa asbobida semplerning yuzaga kelishi va uning yordamida amalda har qanday odam boshqalar musiqasi bo'laklaridan o'z musiqasini yarata olishi imkoniyati submadaniyatlar taraqqiyotida yangi

davrni ochib berdi. Reyverlar va kiberpanklar – yorqin va favqulodda ko‘p sonli yoshlар submadaniyati vakillaridir.

Britaniya guruhlari yangi avlodining shuhrati ortgani sari Amerikada granj submadaniyati yuzaga keldi. Granj paydo bo‘lgan yer Sietl – “Nirvana” guruhi vatani sanaladi. Pank- va xard-rok musiqaviy uslubiyoti granj musiqasiga ekssentrik ekstetikani, mafkuraviy yangroqlik va hissiy tus berdi.

Musiqada ham, matnda ham tushkunlik hukmronligi bu yerda lirika va musiqiylik bilan uyg‘unlashadi. Granj juda tez shuhrat qozondi va tom ma’noda umumjahon ko‘lamga chiqdi. Bu uslub birinchi to‘lqini (Green River, The Melvins, Mudhoney, L7 guruhlari)ning musiqasi Nirvana guruhi va keyinroq chiqqan Pearl Jam va Alice in Chains guruhlari musiqasiga qaraganda og‘irroq edi.

Uslubiyot jihatidan granjda ingliz panki va Amerika xippi estetikasi aralashmasi ifodalangan. Bu – uzun sochlar, qasddan modaga zid, yirtiq, sekond-xend, bir necha o‘lchamga katta kiyimlar, harbiylar botinkalari. 1990-yillarda bu ko‘cha modasi podiumga chiqadi. Dizaynerlar qashshoqlar obrazidan foydalanadilar – o‘z modellari uchun atayin eskirtirilgan materiallar, ko‘pqatlamlilik va “birlashmaydiganni birlashtirish”ni qo‘llaydilari. Natijada nuqsonsiz go‘zallik modadan chiqdi, birinchi o‘rinni individuallik va noto‘g‘rilik egalladi.

Ikkinchi mingyllik oxirida turli yoshlар submadaniyatlari uslublari qarama-qarshiligi yakun topdi. Bugungi kunda uslublarning yanada aralashuvi kechmoqda. Endi hech kim bularning hammasi qachonlardir oddiy erkaklar kostyumi, mototsikllar va jazzdan boshlanganligini esga olmaydi.

### ***Loyihani bajarish bo‘yicha tavsiyalar:***

Mazkur loyiha doirasida ham ijodiy manbani ishlash uch bosqichdan iboratdir: tadqiqot ishi; ijodiy manbaning transformatsiya va stilizatsiyasi; libos kompozitsiyasini rangli va dekorli yechimlarini ishlab chiqish.

Ijod manbasini ishlab chiqishga yondashuvdan kelib chiqib **tadqiqot ishi** turli yo‘nalishlarda bajarilishi mumkin.

Assotsiativ yondashuv (yoki assotsiatsiyalar metodi) yordamida ishlansa, musiqani eshitishning o‘zi yetarli. Buning

uchun tanlangan musiqadan qoladigan taassurotlarni chiziqlar, dog‘lar, ranglar orqali ifodalash mumkin (4.18-rasm).

Undan tashqari ma’lum musiqaning ritmini, xarakterini shartli ravishda plastik chiziqlar, rangli sathlar, dinamik kompozitsiyalar orqali ifodalash mumkin (4.19-, 4.20-, 4.21-rasmlar). Bunda grafika vositalari, akvarel yoki kollaj, aralash texnikalarni, kompyuter texnologiyalarini qo‘llash mumkin.

Dastlabki assotsiativ tasvirlardan paydo bo‘lgan chiziq, rang va shakllar dinamikasi, ritmi va pulsatsiyasini bo‘lajak libos eskizlarida qo‘llash – bu keyingi - mantiqiy qatorlarni yaratish bosqichidir.



4.18-rasm. Musiqani tinglashda hosil bo‘lgan assotsiyatsiyalarni chiziq va dog‘lar oqali ifodalashga misollar.



4.19-rasm. Djaz musiqasi bo'yicha assotsiatsiyalar  
(charlston raqsi).



A



B



C

4.20-rasm. Tango (A), fokstrot (B) va flamenko (C) raqslarini xarakterlovchi assotsiativ eskizlar.



4.21-rasm. Kompyuter yordamida bajarilgan assotsiativ tasvirlar. Bu yerda zamonaviy musiqaning ritmi, pulsatsiyasi, shiddati yoki mayinligi ustma-ust tushib takrorlanuvchi rangli shakllar orqali uzatilgan. Tobbi Jidioning ishlari.

Agar loyihalashning eklektika metodi qo‘llansa, ya’ni turli yo‘nalishlar bilan submadaniyat vakillari liboslaridagi o‘ziga xosliklarni aralashtirib uyg‘unlatirilish vazifasi qo‘yiladi. buning uchun illyustrativ material to‘plash lozim.

Agar musiqiy ijrochining imiji yaratiladigan bo‘lsa, unda assotsiativ usulni boshqa ijod manbalari bilan aralashtirib qo‘llash mumkin.

**Siluetli va mantiqiy qatorlarni (modellar qatorini) ishlab chiqish.** Ijodiy manbani ishlab chiqishda mantiqiy qatorni tuzish nisbatan murakkab bosqichdir. Libos siluetiga yaqinlashtirilgan abstract shakldan g‘oyalarni konkret qo‘llash va amalga oshirish ularni o‘zgartirish – tarnsformatsiyalash bosiqichida amalga oshiriladi.

Mantiqiy qatorlarning vazifasi - libos va badiiy obrazni tashkil etuvchi yetakchi vositalarini aniqlash. Tasvirlash vositalari ham ijodiy manbadan paydo bo‘lgan chiziq va shakllarning plastikasi, xarakteridan kelib chiqib tanlanadi. Mantiqiy qatorlarni tuzishda modadagi zamonaviy yo‘nalishlar ham ta’sir etishi mumkin.

Ijodiy manbani tarnsformatsiyalash va uslublashtirish ijod manbasini ishlab chiqishga yondashuvning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda u yoki bu nyuanslar bilan deyarli bir xil ketma-ketlikda bajariladi. Qo‘yilgan masaladan kelib chiqib va unga binoan libos loyihalashninng kompozitsion vositalarini qo‘llab eskizlar yaratishingiz (mantiqiy qatorlar) hamda ulardan eng yaxshi va ma’qul yechimlarini izlashingiz (stilistik qatorlar) lozimdir.

Masalan imij yaratish bo‘yicha olib borilayotgan loyihada sahna libosi uchun epataj (frans. *epatage* – mashmasha, mojaroga sabab bo‘luvchi nojo‘ya qiliq yoki xulq-atvor), kitch (nem. *Kitsch* – didsizlik, xaltura) elementlari hamda musiqa (yoki musiqiy yo‘nalish)ga taalluqli ramzlar bo‘lishi mumkinligini hisobga olish darkor. Undan tashqari musiqachi ijro etadigan sahnaning o‘ziga xosligini (katta stadion, konsert zali, kichik tadbirlarning baland bo‘lmagan sahnasi va h.k.) hamda tomoshabinning dunyoqarashlarini e’tiborga olish kerak. Har aytildigan kuy yoki qo‘sinqqa ham alohida libos loyihalash mumkin.

Zamonaviy modaning bo‘lajak tendensiyasini yaratayotganda, madaniy hayotdagi turli-tuman hodisalarining borishini

boshqalardan oldin payqashga harakat qilish yoki oldin unutilgan narsalarni izlab, ularni yangilash (modernizatsiyalash)ga urinib ko‘rish mumkin.

**Rangli va bezakli yechimlar kompozitsiyasini ishlab chiqish** bosqichida barcha bajarilgan eskizlarni moda tendensiyalar nuqtai nazaridan kelib chiqib tahlil qilish va tahlillar natijasida yakuniy eskizlarni chizish kerak bo‘ladi. eskizlarni kolleksiyaga birlashtirib har biri bo‘yicha texnik eskizlarni bajarish hamda tanlangan ashyo, tikish va shakl hosil qilish usullarini asoslash darkor.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Dizaynerning ijod manbasi bo‘lib nimalar xizmat qilishi mumkin?
2. Assotsiativ qatorlar, eskizlar qanday yaratiladi?
3. Mantiqiy qatorlarda nimalar aks ettiriladi?
4. Uslubiy (stilik) qatorlar ijod manbasidan kelib chiqib loyihalash jarayonining qaysi bosqichida bajariladi?
5. Zamonaviy dizaynda libosni loyihalashtirishning qanday metodlarini bilasiz?
6. Shaklni stilizatsiyalash (uslublashtirish) deganda nima tushuniladi?
7. “Uslub” va “uslublashtirish” tushunchalarining farqi nimada?
8. O‘rganilayotgan shaklni transformatsiya qilish qanday usullar bilan bajarilishi mumkin?
9. XX asrda me’morchilikning rivojlanishi, me’moriy uslublar haqida nimalarni bilasiz?
10. XX asr tasviriy san’atidagi uslubiy yo‘nalishlar qanday?
11. “Antimoda” degan tushuncha qanday paydo bo‘lgan?
12. “Submadaniyat” tushunchasi izohlang.
13. Musiqa va modadagi yoshlar submadaniyatlari haqida nimalarni bilasiz?

## **5-BOB. LIBOS MODELLARI KOLLEKSIYALARINI YARATISH**

### **11-loyiha. Milliy, an'anaviy liboslar asosida kiyimlar kolleksiyasini yaratish**

#### ***Loyihaning maqsadi:***

- milliy, an'anaviy liboslarning matosi, bichimi, bezagi, shakli, to'ldiruvchilarini o'rganish va tahlil qilish;
- ijod manbasi sifatida tanlangan an'anaviy, milliy libosning genezesi va semantikasini o'rganish;
- ijod manbasi sifatida milliy, an'anaviy libos elementlarini qo'llash;
- etno uslubdagi zamonaviy modellarning dizayn-loyihasini ishlab chiqish va liboslar kolleksiyasini yaratish.

#### ***Loyiha doirasidagi ishlar ketma-ketligi:***

1. Milliy, an'anaviy liboslarni tahlil qilish va o'rganish: matosi, bichimi, bezagi, shakli, to'ldiruvchilari.
2. Zamonaviy moda yo'nalishini o'rganish.
3. Milliy, an'anaviy libos shakli, dekori asosida eskizlarining mantiqiy va stilistik qatorlarini yaratish.
4. Kolleksiya uchun taklif etilayotgan modellarning texnik spetsifikatsiyasini ishlab chiqish.
5. Loyihadagi liboslarning konstruksiyasi, tikilish texnologiyasi, mato sirtining badiiy bezagi ustida ishlash – maketlarni bajarish.
6. Kolleksiyadagi kiyim modellari namunalari – prototiplarni yaratish.
7. Kolleksiyadagi obrazlarni aksessuar, soch turmag'i, to'ldiruvchilari ustida ishlash.
8. Kolleksiyaning fotosessiyasini tayyorlash.

### **Tayanch ma'lumotlar:**

**Milliy libos** – bu ma'lum bir joydagi xalq uchun xarakterli bo'lgan kiyimlarning an'anaviy majmuidir. U bichimininig o'ziga xosligi, badiiy-kompozitsion-plastik yechimi, matoning fakturasi va koloriti, dekorining xarakteri (naqsh bajarilish texnikasi va uning motivlari), libosning tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini kiyish tarzi bilan farq qiladi.

Dunyo modasiga yevropalik bo'limgan modelyerlarning kirib kelishi quyidagi yangi ikkita tendensiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi:

-Sharq madaniyati vakillari tomonidan libosdagi yevropa-cha an'analarni o'zlashtirish (masalan, Xanae Mori, Rey Kavakubo, Yodji Yamamoto kabi yapon dizaynerlari kolleksiyalari);

-yevropalik bo'limgan modelyerlarning boshqa, o'zinikiga o'xshamagan va begona an'analarga murojati (misol, yapon Kenzo Takadaning Janubiy-Sharqiy Osiyo milliy liboslari motivlari qo'llangan kolleksiyasi).

Milliy an'analarni zamonaviy liboslarda qo'llash postmodernizm estetikasi bilan bog'liqdir. Hususan, postmodernizmning sitatlar yoki iqtiboslar metodi –libos qismini o'zgarishsiz o'zlashtirish hamda bitta modelda turli ijod manbalaridan olingan elementlarni aralashtirish metodi bunda ancha sezilarlidir. "Sitata" bo'lib milliy libosning detali, dekor elementi, uslublashtirilgan naqsh motivi, bichim yoki libosning rang gammasi bo'lishi mumkin.

Turli o'zlashtirishlarni o'zaro chog'ishtirib, turli halqlarning milliy liboslaridan olingan elementlarni aralashtirish natijasida dizayner umuman o'zgacha, konkret ijod manbasidan yiroqlashgan va aniq tanilmaydigan siymolarni yaratadi. Jan-Pol Gotye, Djon Galyano, Roberto Djili ana shu usulda etnik yo'nalishdagi liboslarni yaratuvchi dizaynerlardir.

Zamonaviy va modabop liboslar yaratuvchi rassom o'zining faoliyatida xalq libosi yoki tarixiy libos shakllaridan nusxa ko'chirishi kerak emas. Bu zamonaviy libosning etnografik libosga aylanishiga olib kelishi mumkin. Eski shakllarni zamonaviy libosda ko'r-ko'rona mexanik ravishda qayta tiklash dizayner ishini muvaffaqiyatsiz bo'lishiga olib keladi. O'zining

davrida ma'lum uyg'unlikka ega bo'lgan libos bugungi hayot sharoitida noo'rin, bemavrid bo'lib qolib, o'zining jozibasini yo'qotadi. Dizaynerning vazifasi libosdagi badiiylik va ifodalilikka assotiativ fikrlash yo'li bilan ijod manbasini o'zgartirish - transformatsiyalash hisobiga erishishdir. Dizayner tomonidan alohida xarakterli elementlar: shakl, bichim, ornament va uning kiyimdagi joylashuvi, bezaklar olinishi mumkin.

Milliy libosning asosiy qadri uning nihoyatda funksionalligi, konstruksiya va shaklining mantiqlligi, ratsionalligi va maqsadga muvofiqligi hamda shu bilan birga dekor berishning turlicha usullarini qo'llash hisobiga tashqi ko'rinishning xilmassisligidadir.

Xalq ana'anaviy va milliy san'atini o'rganish va unga ijodiy qayta yondoshish zamonaviy libosning boyishi, rivojlanishi, yangilanishi uchun imkon tug'diradi. Shu bilan bir qatorda zamonaviy libosdagi milliy motivlar asosiy e'tiborni o'ziga tortmasdan, haddan tashqari ta'kidlanmasdan biroz tanilishi yoki namoyon bo'lishining o'zi ham kifoya.

Saqlanib kelinayotgan ana'analarni chuqur o'rganmasdan esa zamonaviy libosning progressiv rivojlanishi mumkin emas.

Muzeylarda saqlanuvchi milliy libos termalari xalqning nozik yuqori didi, fantaziysi, ijodkorligi va mahoratini namoyon etadi. Shakl va siymolarning turfa xildaligi, kompozitsion yechimlarning mukammalligi, rang-barang kolorit, dekorning, ayniqsa qo'lida bajarilgan kashtaning, nafisligi va takrorlanmasligi professional rassomlarni hayratga solib kelmoqda.

Hozirgi vaqtida zamonaviy libosda folklor motivlarni qo'llashga yondoshish yetarlicha shakllangan: uni loyihalashda asosiy o'rinni obrazli yechimlar egallaydi. Etno yo'naliishdagi milliy libos dizayni yaratishda esa quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

- milliy yoki an'anaviy libosdan nusxa ko'chirmasdan, undagi go'zallik ruxini ilg'ash, shakl va propotsiyalar, bichish usuli, ranglar birikmasi va bezak berish orasidagi balansga e'tiborni kuchaytirish;

- to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirmalardan yiroqlashib, barchaga tanish obrazlarni (masalan, atlas matosi va abr naqshlar, bodom

elementi naqsh elementi, kashta elementlari, O‘rta asr miniatyurasiagi obrazlar) zamonaviy intepretatsiyalar yaratishda g‘oya sifatida qo‘llash;

-milliy libos tashkiliy etuvchilarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilgan vazifasiga mos ravishda qo‘llamasdan ularga yangicha funksiya bag‘ishlash;

-zamonaviy ashylarda an’anaviy bichimni hamda aksincha, an’anaviy matolarda zamonaviy bichimni qo‘llash;

-qo‘lda bajarilgan dekor-bezaklarni meyyorda ishlatilish;

-aslidek olingan autentik aksentlarni meyyorida qo‘llash hamda birlashtirib bo‘lmaydigan buyumlarni o‘zaro uyg‘unlash-tirish.

Hozirgi zamonaviy dizaynerlar uchun an’anaviy (milliy) libos bitmas-tuganmas ijod manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Bichish usullari, konstruktiv o‘ziga xoslik, libosning badiiy-kompozitsion tuzilishi, koloristik (rang) va dekorativ (bezaklar) yechimi, kost-yum shaklinining hosil bo‘lishi usul va vositalarini bilish libosning yangicha shakl va proporsional yechimlarini yaratishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Liboslar to‘plamini yaratayotganda dizaynerlar ko‘pincha u yoki bu tarixiy davrning estetik qonunlariга murojaat etishadi. Ba’zan, bu – yaqqol taniladigan aniq obrazlar bo‘lsa, ba’zan esa uslublashtirilib, interpretatsiya qilingan ma’lum siymoli assotsiatsiyalarni tug‘diruvchi modellardir. Tarixiy va xalq milliy liboslarining o‘ziga xosligini chuqur o‘rganish libos dizaynerlarining professional tayyorgarliklarining ajralmas qismidir.

Zamonaviy kiyimdagи uslubiy yechimlar turlicha. Ularning o‘ziga xos xususiyatlarini farqlash, uslublarning paydo bo‘lish va ommaviylik cho‘qqisiga chiqish sabablarini tushunish va tahlil etish, zamonaviy modagi uslublarni bir tizimga keltira olish muxim ahamiyat kasb etadi.

Yetakchi dizaynerlar libos loyihalashda an’anaviy libosning badiiy strukturasini tashkil etuvchi quyidagi elementlardan foydalananadilar:

1. Stilik (obrazli) o‘ziga xos hususiyatlar. 2. Badiiy-kompozitsion va ritmik struktura. 3. Koloristik qator va fakturaviy

yechim. 4. Konstruktiv-shakl hosil etuvchi yechimlar. 5. Ornamentli-dekorativ xususiyatlar. 6. Yosh-jinsga xos va ijtimoiy xususiyatlar. 7. Semantik xususiyatlar.

Libos kompozitsiyasini shakllantirishda ishtirok etadigan ushbu tarkibiy qismlarni ixtiyoriy ravishda loyihalashning maqsadi, kolleksianing vazifasi, muallifning ijodiy yo‘nalishiga bog‘liq holda tinimsiz kombinatsiyalash mumkin.

### ***Loyihani bajarish bo‘yicha tavsiyalar:***

G‘oyalar kamdan-kam holatda yangi bo‘ladi: dizaynerlar tevarak-atrofni o‘zgartirgan holda ijod qiladilar. Libos dizayneri uchun har qanday narsa ilhomlanish manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. G‘oyalar mo‘jiza sabab paydo bo‘lmaydi, ular obraz, voqeya-hodisa hamda tushunchalar vositalarining sistematik qayta ishlanishi natijasi sanaladi. Ko‘pincha ma’lum bir ilhomlanish manbaiga ega bo‘limgan va yagona uslubiy qarorlar bilan birlashmagan tarqoq modellar seriyasini yaratishlari yangi dizaynerlarning xatosi sanaladi.

Moda uch o‘lchamli san’at turi bo‘lib, hech narsa modada-gichalik o‘tmish, hozirgi zamon an’analari g‘oyalariga ko‘p karra murojaat etmagan bo‘lsada, u ko‘pincha ajoyib natija beradi. Ijodiy jarayon bu – zamon va makon birligining yutug‘idir. U yoki bu g‘oyaga shaxsiy yondoshuv dizaynni dolzarb qilib qo‘yadi. Etnik manbani o‘rganishda manbara ta’sirini saqlab qolib, biroq uni takrorlamagan dizaynga muallifning tadqiqodi va ilhomni ko‘chishi uchun ko‘proq madaniy uyushmalar miqdorini yig‘ish lozim. Axir model an’anaviy tushunchalarni boshqa qirralar orqali ochib berilganda omadli hisoblanadi. Bizning olamimizda turli xalqlarning kostyumlari to‘plami, shu jumladan milliy liboslar butun dunyo bo‘ylab liboslar dizaynerlari uchun ilhomlanish manbalaridan biri sanaladi. Kostyumlar va uning semantikasi bilan yanada yaqinroq tanishish ijod qilish uchun yanada katta kuch ato etishi mumkin, chunki barcha kostyum elementlarining go‘zalligini, chuqurligini, ko‘p asrlik mantiq va mazmunini hamda kutilmaganlik holatlarini o‘rganib, milliy kostyumlarning ham aynan ushbu qirralarini namoyon etgimiz keladi.



5.1-rasm. Etno-uslubdagi liboslar kolleksiyasi uchun ishlangan eskizlar. MRDI bitiruvchisi M.Po'latovaning eskizlari.

Zamonaviy kiyimlar yaratilishida xalq libosi an'analaridan foydalanish kiyimning vazifasiga ham bog'liqdir. Modelerlarnig bu yo'nalishdagi ijodiy faoliyati qator obyektiv omillarga bog'-liq. Bularidan biri kiyim badiiy yechimini uning utilitar funksiya-siga bog'liq ravishda yechishdir. An'anaviy kiyimlardan farqliroq zamonaviy kiyimlarning utilitar vazifasi nisbatan kattaroq variant-larda namoyish bo'ladi. Shu munosabat bilan kiyimlar obrazli yechimi har bir variant uchun, kishining kiyimni qaysi vaziyatda kiyishiga qarab alohida bo'lishi lozim. Shuning uchun milliy ele-

mentlardan foydalanib liboslarni loyihasini tuzishda turli vazifa-dagi kiyimlar uchun turlichal bo‘lishidan kelib chiqmoq kerak.

Misol qilib, rus modelyeri N.P.Lamanovaning ijodiga murojaat qilinsa, uning ham nazariy, ham amaliy faoliyatida ijod-korning libosdagi funksionallik va yaxlitlik tarafdori bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi. Ammo uning ijodida libosning obrazliligi va emotsiyal ta’sirchanligi ustun qo‘yilganligi ham namoyondir. Bular asosan rang va ornament orqali erishilgan. Bunda an’anaviy milliy rus liboslarda naqsh joylashtirish prinsiplariga rioya etib



5.2-rasm. Etno-uslubdagi liboslar kolleksiysi uchun ishlangan eskizlar. MRDI bitiruvchisi M.Po‘latovaning eskizlari.

rassom-modelyer konstruksiya talab qilgan joylardagina ornamentlarni joylashtirgan: ko'krak va yelka qismlarida, yeng va etak uchlarida. Ko'pincha Lamanova asl qadimiy naqsh turlarini olib, ba'zan esa o'zi naqshlarni yaratib ularni qo'llagan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan an'anaviy liboslarning assosiy fazilatlari quyidagi xususiyatlarda aksariyat namoyon bo'ladi va taniladi. Barcha milliy va an'anaviy liboslarda o'xshashliklar (ayniqsa, yonma-yon joylashgan hududlar bo'lsa. Masalan: O'rta Osiyo xalqlari liboslari, slavyan xalqlari liboslari, kavkaz halqlari liboslari va hokazo) va farqlar mavjud. Boshqacha qilib aytganda, ma'lum libosni tanitadigan ko'rstanichlari har bir milliy libosning alohida sifatlarini namoyon etadi. Bularni quyidagicha guruhlarga ajratsa bo'ladi:

1. Libos turlari va o'ziga xos bichim va shakllar.
2. Libos tikiladigan mato.
3. Kiyimdagি rang gammasi.
4. Libosdagi bezak turlari (dekor).

Bu xislatlarning barchasi modelyer-rassom uchun ijodiy faoliyatda asosiy tamoyillar bo'lib xizmat qilishi zarur. Milliy libosning nafaqat ratsionallik, balki go'zallik nuqtai nazaridan taqdim etadigan shakli va bichimi, siluet va konstruktiv chiziqlari kabi xususiyatlariga e'tibor berish kerak. Undan tashqari yana libosning bezatilishi, rangi, naqsh texnikasi, material plastikasi ham muximdir. Milliy an'anaviy libosning aynan shu hususiyatlari "milliy motiv" tushunchasining tarkibi – mazmuni – ma'no – mohiyatini tashkil etadi.

Milliy motivlar – bu buyumlarni yaratish zamonaviy san'atida xalq an'analarining o'zgacha burchak ostida tushuntirilishi.

Rassomda asar g'oyasining paydo bo'lishi uning real voqe likni kuzatishi va ushbu voqelikni baholashi natijasida vujudga keladi. Bo'lajak asarning yangi g'oyasi, yangi shakli ustida ish olib borar ekan ijodkor turli manbaalarga murojaat etadi.

Zamonaviy libosni yaratishda milliy libos an'analarini zamonaviy sharoitlarni hisobga olish nuqtai nazaridan qayta idrok etish jarayoni ro'y beradi. Bunda dizayn nuqtai nazaridan eng

qiziqarli modellarda milliy ruh, milliy ohanglar bo‘rttirilmasdan, bilinar-bilinmas seziladi.



5.3-rasm. Yapon erkaklarini an'anaviy libosi va o'ziga xos falsafasidan kelib chiqib yaratilgan zamonaviy libos loyihasidan namuna.

Avliyo Martin (Sent Martin) nomidagi Markaziy san'at va dizayn kolledji (Londondagi oliygoh) talabalarining ijodiy ishlari.  
*(Central Saint Martins College of Art and Design.)<sup>73</sup>*

<sup>73</sup> <https://www.arts.ac.uk/colleges/central-saint-martins>



GREMO.DEVANTART.COM

5.4-rasm. Tibet xalqlarining an'anaviy liboslari ijodiy manbasi sifatida qo'llangan zamonaviy libos eskizlari. Dizayner-rassom Gremo (Gremo) ning ijodiy ishlari.<sup>74</sup>

<sup>74</sup> <http://devianart.com/> gremo



GREMO.DEVIANTART.COM

5.5-rasm. Tibet xalqlarining an'anaviy liboslari ijodiy manbasi sifatida qo'llangan zamonaviy libos eskizlari. Dizayner-rassom Gremo (Gremo) ning ijodiy ishlari.<sup>75</sup>

<sup>75</sup> <http://devianart.com/gremo>



GREMO.DEVANTART.COM

5.6-rasm. Tibet xalqlarining an'anaviy liboslari ijodiy manbasi sifatida qo'llangan zamonaviy libos eskizlari. Dizayner-rassom Gremo (Gremo) ning ijodiy ishlari.<sup>76</sup>

<sup>76</sup> <http://devianart.com/gremo>



5.7-rasm. Slavyan xalqlarining an'anaviy liboslari ijodiy manbasi sifatida qo'llangan zamonaviy libos eskizlari. Dizayner-rassom Pol Keng (Paul Keng) ning ijodiy ishlari.<sup>77</sup>

## **12-loyiha. Transformatsiyalanuvchi libos modellari kolleksiyasi loyihasini yaratish**

### ***Loyihaning maqsadi:***

- libos dizaynida shaklni o‘zgartirish – transformatsiyalash usullarini o‘rganish;
- zamonaviy liboslarning transformatsiyalanuvchi modellarining dizayn-loyihasini ishlab chiqish va liboslar kolleksiyasini yaratish;
- transformatsiyalanuvchi detallarni texnik jixatdan aniq va chiroyli tarzda bajarishini o‘rganish.

### ***Loyiha doirasidagi ishlar ketma-ketligi:***

1. Kiyimdagи transformatsiyaning turli xil usullarini o‘rganish va tahlil qilish. Zamonaviy moda yo‘nalishini o‘rganish.
2. Kiyimdagи transformatsiya prinsiplari qo‘llangan shaklini o‘zgartiruvchi liboslarning texnik uchyoqlama eskizlari ustida ishlash.
3. Kolleksiya uchun taklif etilayotgan modellarning texnik spetsifikatsiyasini ishlab chiqish. Loyihadagi liboslarning konstruksiyasi, tikilish texnologiyasini asoslash. Maketlarni tayyorlab ularni sinash.
4. Kolleksiyadagi kiyim modellari namunalari – prototiplarni yaratish.
5. Kolleksiyaning fotosessiyasini tayyorlash.

### ***Tayanch ma’lumotlar va loyihani bajarish bo‘yicha tavsiyalar:***

#### ***Kiyimdagи transformatsiya.***

Ishlab chiqarish va iste’mol darajasi o‘sishi tufayli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan, inson hayotidagi funksional jarayonlar doimo almashinib turadigan dunyoda iste’molchining barcha talablariga javob beradigan va uning u yoki bu ehtiyojlari, istaklarini qondiradigan kiyim yaratiladi. Hozirda insonning qulay kiyimga ehtiyoji katta. Inson qanday vaziyatda, vaqtida va makonda bo‘lishidan qat’i nazar, qulay kiyim unga o‘zini qulay

his qilish imkonini beradi. Barcha vazifalari bilan bir qatorda kiyim insonning ijtimoiy mavqeini ko'rsatib turishi, modadagi tendensiyalarga mos bo'lishi va insonni shaxs sifatida tavsiflashi kerak. Kiyim sotib olar ekan ko'pchilik iste'molchilar nafaqat uning sifati va narxiga qaraydilar, balki hamanning diqqatini o'zlariga tortishni, o'zligini namoyon qilishni istaydilar.

Kiyim tanlash va kiyish jarayoni – bu o'yin, tajriba, o'z obrazini yaratish degani. U yoki bu kiyim predmetini almashtirar ekan, kishi o'z kiyimining ko'plab uslublardagi variantlarini yaratadi. Ko'pchilik modelyerlarning fikricha, bugungi kunda kiyimning rollari ko'paygan, u kundalik hayot bezagiga aylanishi kerak.

Kiyimlarda kuzatish mumkin bo'lgan ko'plab hazil elementlari, humor va kulgu zamonaviy modelyerlar o'z oldiga qo'ygan vazifalarga mos keladi. Moda endi shunchaki ijtimoiy mavqe ko'rsatkichi emas, endi u o'z uslubiga yengil qarashni ham aks ettiradi. Modelyerlar qo'shgan o'yin elementlari kiyimni kiyish jarayonida foydali elementga aylanadi. Masalan, kiyimning shakli o'zgarishi, taqiladigan elementlar, noodatiy qo'shimchalar va aksessuarlar. Aralashtirilgan alohida elementlar, aksessuarlar, matoning guli va rangi cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Dizaynerlar har mavsumda taklif etadigan turfa xil obrazlar ichidan iste'molchi o'ziga mosini tanlab olishi mumkin. Shaklini o'zgartiradigan kiyim garderobdag'i boshqa kiyimlarning ham shaklini o'zgartirish imkonini beradi.

Ammo, kiyim transformatsiyasi, ya'ni shakl o'zgarishi nimaligini va u qanday vazifa bajarishini tushunish uchun mazkur atamaga aniqlik kiritib olish zarur. Eng keng tarqalgan ta'rif quyidagicha: **transformatsiya** – bu biror narsaning ko'rinishi, shakli, muhim xususiyatlari o'zgarishi. Bu atama dizayn doirasida o'rganiladigan bo'lsa, ayon bo'ladiki, **transformatsiya** (yangi lotin tilida trans – orqali va formatio – shakl hosil bo'lishi) – bu buyum va makon dunyosi obyektlarining hayot yoki foydalanish jarayonida o'zining dastlabki shakli va parametrlarini o'zgartirish xususiyati. Bu ta'rifni bevosita kiyim yaratish jarayoniga tadbiq qilsak, ko'rishimiz mumkinki, tranformatsiya nafaqat kiyimni kiyish davomida inson ishtirokida, balki mahsulotning xizmat

qilish davrida ham yuz berishi mumkin (boshlang‘ich rangi o‘zgarishi, cho‘zilishi yoki, aksincha, “o‘tirishi” mumkin).

Transformatsiyaga uchragan obyekt (dizaynda) – moddiy struktura bo‘lib, “nol transformatsiya” atalmish neytral holatda o‘z konstruksiyasini ichidan o‘zgartirish orqali bir qator funksional holat kasb etishga qodir. Transformatsiyaga uchragan buyum deganda, odatda, harakatdagi moddiy struktura tushunilib, u buyumga boshqa buyumga aylanish yoki o‘z xususiyatlarini jiddiy darajada o‘zgartirish imkonini beradi.

Transformatsiya to‘g‘risidagi ma’lumotlar turli fan sohalari dagi texnik adabiyotlarda ham bayon etilgan. Bu ma’lumotlarga tayanib aytish mumkinki, ko‘rinishini o‘zgartirishga qodir strukturaga ega buyumlarni yaratish doimo buyumlar dunyosida shakl yaratishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Inson hayot faoliyatidagi ko‘plab muhim funksiyalarni ta’minalash aynan shu yo‘nalish bilan bog‘liq. Xullas, turli maqsadlarga mo‘ljallangan zamonaviy kiyim shaklini yaratishda transformatsiya prinsipi fundamental ahamiyatga ega, transformatsiyaning o‘zi esa dunyoning badiiy modeli sifatida ham, ijodiy usulning bo‘g‘inlaridan biri sifatida ham mavjud.

Transformatsiya harakat, boshqa narsaga aylanish yoki o‘zgarish dinamikasi bilan belgilanadi. Transformatsiya quydagicha yuz beradi:

- bitta shakl boshqasiga aylanishi;
- bitta shakl ichida detallar transformatsiyasi.

Aylanish va o‘zgarish jarayoni cheksiz davom etishi mumkin. Turli shakllarda yaratilishi tufayli kiyim jonga tegmaydi va uzoq vaqt kiyiladi. Kiyim modelini loyiha-lashtirishda turli transformatsiya usullaridan foydalanish uning universalligini oshiradi, funksional imkoniyatlarini kengaytiradi, kiyish muddatini oshiradi, yangi kiyim sotib olishga xarajatlarni kamaytiradi.

Transformatsiyalanadigan kiyimga tejamlilik nuqtai nazaridan qaralsa, u sotuvchiga ham, xaridorga ham foydali. Transformatsiyalanadigan kiyim sotib olgan iste’molchi rangi va materiali o‘xhash, ammo assortimenti va vazifasi har xil bir

nechta kiyim sotib oladi. Ishlab chiqaruvchi esa transformatsiyalanadigan yaxlit matodan kiyim bichib va tikib, matoni tejaydi va shuning o‘zidan foyda ko‘radi, bunda mato chiqimga chiqmaydi.

Mablag‘ tejashdan tashqari, transformatsiyalanadigan kiyim bir qator boshqa ijobiy funksiyalarni bajaradi. Transformatsiya yordamida inson uyiga kiyim almashtirish uchun qaytmasdan kun davomida o‘z obrazini o‘zgartirishi, u yoki bu vaziyatga mos kiyinishi mumkin. Bir necha transformatsiyalanadigan kiyim yordamida kiyinish uslubini va kiyim assortimentini doimo o‘zgartirish mumkin. Transformatsiyalanadigan kiyim kun davomida bir necha vazifani bajaradigan, turli holatlarga tushadigan serharakat kishilar uchun, ayni muddao.

Yuqorida bayon etilgan afzalliklaridan tashqari, transformatsiyalanadigan kiyim inson hayotini yengillashtirish, ba’zida qutqarish xususiyatiga ham ega. Bu transformatsiyalanadigan maxsus kiyimga taalluqli. Bular – alpinist va o‘t o‘chiruv-chilarning kiyimi va ish quroli, qutqaruv guruhlarining kiyimi, temir yo‘l ishchilarining maxsus kiyimi va h.k.

Asrlar davomida transformatsiyalanadigan kiyim va uning elementlarini yaratishning konstruktiv-texnologik va kompozitsion yechimlari yaratib kelingan. Badiiy manba, arxiv va muzey materiallarini tahlil qilish kiyim yaratishda foydalanilgan transformatsiya turlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish, kiyimni transformatsiya qilish usullarini tasniflash imkonini beradi, bu esa turli vazifalarini bajaradigan zamonaviy transformatsiyalangan kiyimni loyihalashtirish uchun muhim dastlabki ma’lumot bo‘lib xizmat qiladi.

Libos loihalashda quyidagi transformatsiya usullari mavjud:

- kiyim detallari yoki elementlarini “cho‘zish – siqish”;
- kiyim detallari yoki elementlarini “ajratish – qo‘shish”;
- kiyim detallarining kattaligi, hajmi va shaklini “o‘zgartirish – qotirish”;
- kiyim detallari yoki elementlarini “shimarish – yozib yuborish”;
- kiyim hajmini “kichraytirish – kattalashtirish”;

-kiyim detallari yoki elementlarini boshqa detallar va elementlarga almashtirish;

-detallar “birlashishi – taxlanishi”;

-kiyim detallari yoki elementlari o‘rnini almashtirish.

Bu usullarning barchasini kulisa, bog‘ich, qayishqoq va yopishqoq lenta, tugma, ilgak va ko‘plab boshqa ulash va qotirish usullari yordamida amalga oshiriladi.

Shakl o‘zgartirish usullari tasnifi bilan bir qatorda transformani tubdan o‘zgartirish usullari tasnifi ham bor. Adabiyot va Internet-resurslarga tayanib quyidagi tasnifni keltirish mumkin.

### **Kiyimni transformatsiya qilish metodlari tamoyillari. Kombinator metodika.**

Shakl va uning elementlarini turli usullarda kombinatsiyalash yoki variantlar izlash kiyim loyihalashtirishda bir necha asosiy usullarga ajratiladi. Kombinatorika loyihalashtirish faoliyatini ikki yo‘nalishda amalga oshirish imkonini beradi, bular: yangi tarkibiy tuzilma yaratish va dastlabki elementlarning variantlarini izlash. Shakl yaratishning kombinator usullari cheklangan miqdordagi elementlarni turli usullarda kombinatsiyalash imkonini beradi. Kiyim loyihalashtirishda kombinatorika g‘oyasi faqatgina stimul vazifasini bajaradi – shakl yaratish uchun asos qilib kombinator tizim yaratish mumkin bo‘lgan shakl elementlari (geometrik, konstruktiv, rang va h.k.) olinadi.

### **Modulli metod.**

Modul (lot. modulus – o‘lcham) – o‘lchov birligi, dastlabki o‘lchov birligi bo‘lib, yaxlit shaklda (obyektda) takrorlanadi va unga jo bo‘ladi.

Muxtasarlik – modul hech bir qoldiqsiz amalga oshadi, turli shakllarni to‘plash va ularning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash imkonini beradi. Modullar har xil hajmda bo‘lishi mumkin. Hajm esa inson tanasining antropologiyasiga va tayyor kiyimning maqbul o‘lchamiga qarab tanlanadi. Modul:

- oddiy shakldan murakkab shakl yaratish;
- mahsulotning vazifasini o‘zgartirish;

- assortimentni o‘zgartirish;
- kichikni katta qilish xususiyatiga ega.

Modulli loyihalashtirish konstruktiv, texnologik va funksional tugallanganlikni ko‘zda tutadi. Modulning o‘zi tugallangan tayyor mahsulot bo‘lishi yoki buyumning, shu jumladan boshqa vazifani bajaradigan buyumning tarkibiy qismi ham bo‘lishi mumkin

### **Yassi bichim metodi:**

Mazkur usuldan foydalanganda bitta matodan bitta yoki turli assortiment turkumi, shaklan har xil mahsulot yaratiladi. Turlicha bichim, qo‘sishimcha element, kesiq, teshik, kiyish usullari yordamida modellar xilma-xilligiga erishiladi. Transformani “yoish – yig“ish” prinsipiga asosan yuz beradi, bu prinsip bir parcha mato qanday o‘zgartirilishini belgilaydi.

### **Kinetizm metodi:**

Kombinator loyihalashtirish usuli bo‘lib, uning negizida shaklning harakatlanishi, har qanaqasiga o‘zgarishi yotadi. Kinetizm usuli mato shakli, bezagi, guli dinamikasini yaratishdan iborat. Kiyim dizaynida kinetizm usulidan borgan sari keng foydalanilmoqda, ayniqsa professional namoyishlarda: kiyimning transformatsiyalanadigan detallari dinamikasida, nur taratib turadigan obyektlardan foydalanishda, kiyim avtonom yoritilishida, kostyumning aylanadigan yoki harakatlanadigan elementlarida.

Transformatsiya xususida so‘z borar ekan, aytish mumkinki, u doim iste’molchilarda qizig‘ish uyg‘otgan va bundan keyin ham uyg‘otadi, chunki o‘z garberodini yaratishda tanlash imkoniyatini beradi hamda tajriba va improvizatsiyaga turtki bo‘lishi mumkin. Transformatsiyalanadigan kiyim sotib olgan iste’molchi o‘z vaqt va mablag‘ini tejaydi, kiyimni kiyish muddati uzayadi. Transformatsiya o‘zgarishi usullarini aniqlash va tadqiq qilish natijasida aytish mumkinki, shakl yaratishda transformatsiya prinsipi fundamental ahamiyatga ega.


Kiyimni transformatsiyalash metodlari	
<b>Kombinatorika metodi</b>	Geometrik tizmilarni kombinatorikasi
	Ranglar kombinatorikasi
	Konstruktiv kombinatorika
<b>Modulli metod</b>	Konstruktiv modullar
	Texnologik modullar
	Funksional modullar
<b>Yassi bichim metodi</b>	Bitta yoki turlicha assortimentdagi kiyimning paydo bo‘lishi
	Turlich shakldagi buyumlarning paydo bo‘lishi
<b>Kinetizm metodi</b>	Yorug‘lik taratuvchi obyektlar
	Nurli diodlar
	Alovida qismlarni yoritish
	Aylanuvchi va haraktlanuvchi buyum yoki detallar.



5.7-rasm. Transformatsiyalanuvchi liboslar kolleksiyasidagi eskiz namunasi. MRDI o‘qituvchisi Z.G‘aniyeva (Xodjayeva)ning bitiruv malakaviy ishidan.



5.8-rasm. Transformatsiyalanuvchi libos detallarining texnik eskizi.



5.9-rasm. Transformatsiyalanuvchi liboslar kolleksiyasidagi eskiz namunasi. MRDI o‘qituvchisi Z.G‘aniyeva (Xodjayeva)ning bitiruv malakaviy ishidan



5.10-rasm. Transformatsiyalanuvchi libos detallarining texnik eskizi

## **13-loyiha. Bolalar uchun kiyimlarni loyihalash va badiiy bezash**

### ***Loyihaning maqsadi:***

-maktab yoshigacha bo‘lgan (3–7 yosh) bolalar uchun kiyimlarni loyihalash va badiiy bezashning xususiyatlarini o‘rganish;

-kichik maktab yoshidagi (7–1,5 yosh) bolalar kiyimlarini loyihalash va badiiy bezashning hususiyatlarini o‘rganish;

-katta maktab yoshidagi (11,5–14,5 yosh) bolalar kiyimlarini loyihalash va badiiy bezashning hususiyatlarini o‘rganish;

-o‘smirlar (14,5–18 yosh) uchun kiyimlarni loyihalash va badiiy bezashning hususiyatlarini o‘rganish.

### ***Loyiha doirasidagi ishlar ketma-ketligi:***

1. Bolalar kiyimiga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish.
2. Har bir yosh guruhiga mansub liboslarni loyihalashning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.
3. Bolalar kiyimlari assortimenti, bolalar modasining asosiy tendetsiyalari, bolalar kiyimlari uchun ishlab chiqarilayotgan yangicha ashyolarni o‘rganish.
4. Har bir yosh guruhi uchun bo‘lajak kolleksiyaning konsepsiyasini ishlab chiqish.
5. Eskiz-loyiha ustida ishlash.
6. Kolleksiya uchun taklif etilayotgan modellarning texnik spetsifikatsiyasini ishlab chiqish. Loyihadagi liboslarning konstruksiyasi, tikilish texnologiyasini asoslash. Maketlarni tayyorlab ularni sinash.
7. Kolleksiyadagi kiyim modellari namunalari - prototiplarni yaratish.
8. Kolleksiyaning fotosessiyasini tayyorlash.

### ***Tayanch ma’lumotlar:***

Bolalar kiyimni loyihalash ularning jismoniy rivojlanishi, psixologiya, fiziologiya, pedagogika va boshqa sohalardan maxsus bilimlar majmuini talab qiladi.

Xuddi kattalarnikiga o‘xshab bolalar kiyimi ham modaga binoan o‘zgarishga moyil. Bolalar kiyimida yosh guruhi qanchalik katta bo‘lsa, kattalar modasining ta’siri shunchalik sezilarli bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘smirlar kiyimi va yoshlarbop kiyimlarni loyihalashdagi chegaralarni ajratish mushkullik tug‘diradi.

Liboslarni loyihalashda bolalarni yoshlari bo‘yicha beshta guruhga ajratiladi<sup>78</sup>:

- 1.Yasli yoshigacha bo‘lgan bolalar guruhi (tug‘ilgandan 3 yoshgacha).
- 2.Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar guruhi (3—6 yoshli).
- 3.Kichik maktab yoshidagi bolalar guruhi. (6—11 yoshli).
- 4.Katta maktab yoshidagi bolalar guruhi (12—15 yoshli).
- 5.O‘spirinlar guruhi (16—18 yoshli).

Bunday ko‘rinishdagi davrlarga bo‘linish libos kompozitsiyasidagi shakl, bichim, ranglarni tanlash va ularni aniqlash imkonini boyitadi.

Bundan bir necha yil avval bizning mamlakatimizda “bolalar modasi” degan tushuncha hatto mavjud ham emas edi. Barcha sohalarni qamrab olgan total defitsit davrida bolalar “tasodifiy” kiyimlarni kiyishga majbur edilar. Lekin shunga qaramay, ota-onalar o‘z farzandlarini iloji boricha yorqinroq kiyintirishga harakat qilishar edi. Bolalarning o‘zi ham bu jarayonda faol ishtirok etib, kattalar paltosini gavdaga yopishtirib tikib, oddiy bichimli shimplarning pochasiga “klyosh”larni ulab, jinsilarni tog‘oralarda qaynatib yoki g‘isht bilan ishqalab o‘sha davrda modabop bo‘lgan fakturalarni hosil qilishar edi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tilganidan so‘ng esa, ilk yillarda, bozor va kiyim do‘konlarini yorqin va zamonaviy ko‘ringani bilan sifatsiz va didsiz kiyimlar to‘ldirib yubordi. Ularning birgina afzalligi narxi arzonligida edi.

Birmuncha vaqt o‘tib dunyo ilg‘or mamlakatlari zamonaviy modasi respublikamizda iste’mol madaniyati rivojlanishiga o‘zgacha ta’sir qildi. Ya’ni, mamlakatimizdagi odamlarning

<sup>78</sup> Россиянинг Антропология ИТИ (ЦНИИШП (Тикувчилик саноатининг Марказий ИТИ) билан хамкорликда.

go‘zalroq va didli kiyinish, farzandlarini esa undan ham chiroyliroq kiyintirish istagi o‘ziga xos kiyinish madaniyatini shakllantira boshladi.

Yuqorida aytilganidek, yoshlar guruhi ichida yoshi qanchalik ulg‘aygan bo‘lsa, moda tendensiyalariga rioya qilish shunchalik faolroq namoyon bo‘ladi. Ayniqsa katta maktab yoshi va o‘siprinlar (“tineydjerlar”) kiyimida bu muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosan “kattalar” modasidagi yo‘nalish va tendensiyalarni emas, balki yoshlarning turli submadaniyatlariga xos aktual uslublaridagi elementlarni hisobga olish zarur.

Bolalar kiyimi va uni loyihalashga bo‘lgan talablarning qat’iyligi va har narsagaga ham ruxsat yo‘qligiga qaramay, bolalar modasi jahon modasining to‘laqonli mustaqil yo‘nalishidir. Buning isboti sifatida bolalar liboslarini yaratishga yetakchi korxona va Moda uylarining tobora ortib borayotgan munosabatlarini keltirish mumkin. Yildan yilga bolalar uchun kiyim ishlab chiqaruvchi korxonalar soni ortib bormoqda. Shular bilan bir qatorda dongdor markalarning bolalar kiyimini ishlab chiqaruvchi maxsus liniyalari ham ko‘paymoqda. Bunga misol qilib, Miss Blumarine, Laura Biagiotti, Gianfranco Ferre, Roberto Cavalli, Agatha Ruiz de la Prada, Soniya Rikel, MEXX va boshqalarni keltirish mumkin<sup>79</sup>.

### **Bolalar kiyimiga qo‘yiladigan talablar.**

Kiyimga qo‘yiladigan talablar uning vazifasi, iste’mol qilinadigan shart-sharoitlar, iste’molchining yoshi va jinsidan kelib chiqib shakllantiriladi. Bolalar libosi uchun ham ma’lum talablar doirasi shakllantirilgan. Ba’zi talablar guruhiga qat’iyan rioya qilish zarur bo‘lsa, ba’zilari unchalik ahamiyatli emas, lekin shunda ham bu talablar libos sifatiga ta’sir qilmas darajada e’tiborga olinishi kerak. Bolalar kiyimi va uni loyihalashga qo‘yiladigan talablarni quyidagi tartibda shakllantirish mumkin:

1. Iste’molchilik talablari.
  - 1.1. Ijtimoiy.
  - 1.2. Funksional.

<sup>79</sup> <https://studopedia.org/4-148612.html>

- 1.3. Ergonomik.
- 1.3.1. Antropometrik.
- 1.3.2. Gigiyenik.
- 1.3.3. Psixofiziologik.

- 1.4. Estetik.
- 1.5. Ekspluatatsion.

2. Ishlab chiqaruvchilar (sanoat) talabi.

2.1. Konstruktorlik va texnologik talablar.

2.2. Iqtisodiy talablar.

1.1. **Ijtimoiy talablar** xaridorlarning bolalar kiyimidagi maqsadga muvofiq bo‘lgan assortimenti va bolalar tarbiyasidagi umumjamoa ma’naviyat asoslarini qondiruvchi liboslarga bo‘lgan ehtiyojini hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini aks ettiradi.

1.2. **Funksional talablar** o‘zida libosning konkret amaliy-utilitar vazifasiga (modelning kompozitsion tuzilishi, konstruksiyasi va materiallarning, yoshiga qarab gavda tuzilishining o‘ziga xosligi, bolaning psixologik yetukligi va tashqi qiyofasiga) mos kelishida ifodasini topadi. Undan tashqari modelning xarakteri, matosi, bezagi, rangi bolaning didiga mos kelshi lozimdir.

1.3. **Ergonomik talablar** o‘zi ichiga antropometrik, gigiyenik va psixofiziologik talablar yig‘indisini mujassam etgan. Kiyim qulay bo‘lishi, komfort hissini tug‘dirishi, odamni charchatmasligi va uning ishlash yoki o‘qish qobiliyatini pasaytirmasligi kerak.

1.3.1. **Antropometrik talablarni** qoniqtirish uchun libos bolaning bo‘yi, to‘laligi bo‘yicha gavda o‘lchamlariga mos bo‘lishi kerak. Bundan tashqari bolalar libosida kiyimning gavdaga yopishib turishidagi bemalollik darajasi ham muhimdir. Bu bemalollik darajasi mos keluvchi qo‘srimchalar miqdori hisobiga ta’milanadi. Bemalollik qo‘srimchasining eng kichik miqdori paltolar uchun – 5-6 sm, ko‘ylak, pidjak va jaketlar uchun – 2,5 sm bo‘lishi kerak. Antropometrik talablar yana o‘zining deformatsiyalanish, cho‘zilish va qisqarish xossasi tufayli gavdaning harakat vaqtida, ya’ni dinamikada o‘zgaradigan o‘lchamlarini kompensatsiyalovchi to‘qimachilik ashyolari

hisobiga ham qondirilishi mumkin. To‘qimachilik materiallari qanchalik ko‘p cho‘zilsa, bemalollik qo‘sishimchasi shunchalik kichik olinadi.

1.3.2. Inson organizmining normal hayotiy faoliyatini ta’minlab beruvchi talablar kiyimga qo‘yiladigan **gigiyenik talablarda** shakllanadi. Ularga havo va bug‘ni o‘tkazuvchanlik, gigroskopiklik, issiqlik saqluvchanlik, suv o‘tkazmaslik, buyumning, ya’ni libosning og‘irligi kabi xossalar kiradi.

Havo o‘tkazuvchanlik. Kiyim va odam tanasi orasidagi bo‘shliqda karbonat kislotasi gazi to‘planishi natijasida odam o‘zini noxush sezaga boshlaydi shuning uchun kiyim osti bo‘shlig‘ida havo almashinuvchanligi ta’minlangan bo‘lishi kerak. Ich kiyim va ko‘ylaklik assortimentida albatta eng ko‘p havo o‘tkaziuvchanlikka, ustki kiyimlar (palto, plashch, kostyumlar) esa nisbatan kamroq havo o‘tkaziuvchanlikka ega bo‘lishi kerak.

Bug‘ o‘tkazuvchanlik xossasi mato qanchalik qalin va zinch bo‘lsa, shunchalik kam bo‘ladi. Bug‘ o‘tkazuvchanlik eng ko‘p paxta va viskoza tolali matolarda namoyon bo‘ladi.

Issiqlikni saqlash – bu kiyimning kiyim osti bo‘shlig‘idagi issiqlikni saqlash xususiyati. Issiqlikni saqlash xususiyatiga kiyimning konstruksiyasi, bichimi ta’sir qiladi. Bu xossani kuchaytirish uchun sirti paxmoqlashtirilagan matolar va maxsus issitkich qatlamlari ishlatiladi.

Gigroskopiklik – bu kiyimning namlikni tortish, ya’ni terlagandagi namlikni o‘zidan o‘tkazib, tashqi muxitga chiqarish xususiyati. Kiyimning gigroskopikligi u tikilgan mato gigroskopikligiga bog‘liq.

Tikuv buyumining og‘irligi. Qishki kiyim komplektining og‘irligi ba’zan odam og‘irligiga 1/10 nisbatda bo‘ladi. Bunday kiyimni kiyayotganda ortiqcha energiya sarflanadi, shuning uchun asosiy, yordamchi va isituvchi qatlarni tashkil etuvchi materiallarning yengil bo‘lishi talab etiladi.

Bolalarning organizmi tinimsiz o‘sish va rivojlanishda bo‘ladi. Bolalar terisi kattalarnikiga nisbatan nozikroq va yupqaroq bo‘ladi. Epiteliyning nisbatan yupqaroq qatlami va teri qatlamlarida kamroq qon aylanishi evaziga tana ortiqcha sovub

ketishi mumkin. Shuning uchun bolalarning terisi organizmni tashqi muxit temperaturasining keskin o‘zgarishlaridan kattalarnikiga nisbatan kamroq saqlaydi. Shu sababli bolalarning qishki kiyimi kattalarnikidan issiqroq, yozgilari esa tana va kiyim osti bo‘shlig‘idagi ortiqcha haroratning chiqib ketishiga to‘sinqlik qilmasligi kerak. Ya’ni, qishki kiyim yetarli miqdorda tanaga jipslashib turishi, iloji boricha kiyim ostiga sovuq havo kirmasligini ta’minlovchi yopiq konstruksiyasiga ega bo‘lishi kerak. Bunday kiyim uchun havo o‘tkazuvchanligi va gigroskopikligi kichik bo‘lgan matolar tanlanadi. Yozgi kiyimlar esa nisbatan kiyimning nisbatan kengroq va havo ventilyatsiyasini ta’minlovchi konstruksiyaga ega bo‘lishi talab qilinadi.

**1.3.3. Psixofiziologik talablar** o‘z aksini libos xossalari odam tomonidan hissiy idrok etilishida topadi. Buyumning haddan tashqari og‘irligi, uning qo‘polligi va qalinligi, matosining tikandek botishi, choklariga ishlov berilishining qo‘polligi, beli, bilagi yoki to‘pig‘ini juda siqib turuvchi rezinkalar (elastik tasmalar, belbog‘lar) bola tanasi va organizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va bolaga yoqmasligi mumkin. Undan tashqari bolalar kiyimi yechib-kiyishda komfort bo‘lishi, taqilmalarni qadash va boshqa elementlaridan foydalanishda qulay bo‘lishi kerak. Cho‘ntak, taqilma, boshqa elementlarning o‘lchami va joylashuvi bolaning kiyim bilan foydalanishdagi bilimi va ko‘nikmalariga mos kelishi kerak.

**1.4. Estetik talablar** kiyimning qulay va chiroyli, zamonaviy moda yo‘nalishiga mos bo‘lishi, umuman olganda, libosninig rangi, bichimi, uslubiy yechimi uyg‘un obraz yaratishga xizmat qilishida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa bolalar uchun mo‘ljallangan liboslarning zamonaviy moda yo‘nalishidagi uslubga mos bo‘lishi talab doirasidadir.

Bolalar kiyimiini tarbiyaviy vazifasi badiiy didni shakllantirish, kiyim kiyishda saramjonlikka, mustaqil kiyinish ko‘nikmalarika (maktabgacha bo‘lgan yoshdagilar uchun), ozodalikka, kiyimni avaylashga o‘rgatishdan iboratdir.

Kiyim bolaga yaxshi kayfiyat in’om etishi kerak. Bolalar kiyimida rangning ahamiyati juda katta. Masalan, eng kichkina-

larga (yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga) bola psixikasiga tinchlan-tiruvchi ta’sir etadigan pastel ranglaridagi matolar tanlanadi. 4-6 yoshli bolalar uchun esa yorqin, to‘yingan tuslardagi ranglar tanlanishi muvofiqdir. Chunki bunday ranglar bola irodasi, qat’iyligi, fikrning bir yerga to‘planganligini rivojlantiradi.

Bolalar kiyimining dekorativligi ham muhim o‘ringa ega. Bezaklar, turfa rangli detal, furnitura, applikatsiyalar kiyimga o‘yinqaroqlik va yorqinlik bag‘ishlaydi.

**1.5. Ekspluatatsion talablar.** Kiyimni kiyish, ya’ni ekspluatatsiya qilish vaqtida u birmuncha deformatsiya va zo‘riqishlarga duch keladi. Buyumning ekpluatatsiya qilish (yoki iste’mol qilish) davrininig uzoqligi kiyim kiyiladigan sharoit, kiyim tikilgan matoning xossalari, kiyimga texnologik ishlov berish turi va sifatiga bog‘liq. Kiyimning iste’mol davridagi pishiqligi – muhim ekspluatatsion ko‘rsatkichdir. Kiyimni kiyish – eksplutatsiya qilish davrida uning sifat ko‘rsatkichlari ma’lum davr mobaynida (kiyimni kiyish muddati mobaynida) keskin o‘zgarmasligi kerak.

Yuqorida aytilgandek, kiyimning kiyish davridagi mustahkamligi - muhim iste’molchilik ko‘rsatkichidir. Kiyimning pishiqligi tikuv buyumining utilitar va estetik xossalari qisman yoki to‘liq o‘zgarishyoki yo‘qotilishi bilan bog‘liq. Kiyim pishiqligi murakkab xususiyat bo‘lib, u kiyimning tinimsiz kiyilishga chidamliligi, kerak bo‘lganda ta’mirlash mumkinligi, uzoq vaqt kiyishga chidamliligi va boshqalardan tashkil topgan. Kiyimning chidamliligi uning to‘zg‘ish, yirtilishga qarshiligidagi bog‘liq. To‘zg‘ish – bu ko‘zga ko‘rinadigan darajada materiallarning yemirilishi, kiyim o‘lchamlarining o‘zgarishi, rangining oqarishi, ma’lum xossalari (masalan: suv o‘tkazmaslik)ning yo‘qolishidir. Agar mahsulot moda yo‘nalishiga mos kelmay qolgan yoki iste’molchining kiyim shakli, rangi, material fakturasiga nisbatan talablari o‘zgargan bo‘lsa, demak, kiyim ma’naviy jihatdan ham eskirgan hisoblanadi.

**2. Bolalar kiyimlariga qo‘yiladigan ishlab chiqaruvchilar (sanoat) talablarini konstruktorlik-texnologik va iqtisodiy talablarga ajratish mumkin.**

**2.1. Konstruktorlik-texnologik** talablar buyum konstruksiyasingning texnologikligi, modelni tayyorlashga sarflangan mehnat va vaqt orqali aniqlanadi. Bolalar kiyimining texnologikligi ishlab chiqarish jarayonida optimal va iqtisodiy jixatdan texnologik jarayonlarni, buyumga ishlov berishining eng qulay usul va yo'llarni qo'llash imkoniyati bilan aniqlanadi.

**2.2. Iqtisodiy talablar** kiyim modelini ishlab chiqishdagi sarf-harajatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari va kiyimni iste'mol qilish davridagi (yuvish, dazmollah, kimyoviy tozalash, kiyimni tiklash) harajatlarni hisobga oladi.

Bolalar libosiga qo'yiladigan talablar faqat libosning vazifasi va kiyiladigan shartlarni emas, balki bolaning yoshini ham inobatga olishi kerak.

Umuman olganda, kiyim konstruksiyasiga alohida talablar qo'yiladi. Bular libosning yumshoq va yengilligini, qulay bichim va chiroyli rusumini, gavdaga mosligini ta'minlovchi talablardir. Bu talablarning barchasi bolaning bemalol harakat qilishiga xizmat qiladi. Chunki serharakat faoliyat bola uchun odatiy bo'lib, ayniqsa ochiq havodagi harakatlar organizmning normal o'sishi va rivojlanishi uchun kuchli omil, muxim stimul hisoblanadi. Shuning uchun kiyim bolaning bemalol harakat qilishi uchun, nafas olishiga, organizmdagi qon aylanishiga xalaqit qilmasligi lozim. Ya'ni libos xaddan tashqari uzun va keng yoki haddan tashqari tor bo'lishi kerak emas. Kiyim oson va tez yechib – kiyilishi, chiroyli bo'lishi va bolalarda estetik didini shakllantirishi kerak. Meyoridan ortiq keng va uzun yoki juda tor kiyim esa bularga to'sqinlik qilib, harakat paytida bolani besunaqay qilib qo'yadi. Bunday kiyim hatto qomat rasoligini buzishi va umurtqa pog'onasining turli qiyshayishlariga olib kelishi mumkin. Bolalar kiyimida imkon qadar tarang tortilgan kamar va belbog'lar, liflar, baland va tor yoqalar, siqib turuvchi manjetlarning ishlatilishga yo'l qo'ymaslik maqsadga muvofiq. Model bo'yicha xaddan tashqari ortiqcha bezak elementlari: pirpiraklar, burmalar, meyoridan ortiq taxlamalarning qo'llanilishi kiyiladigan kiyimni parvarishlash (tozalash, yuvish, dazmollah) jarayonida noqulayliklar tug'diradi.

Kiyimning bola gavda o‘lchamlari va bo‘yiga mosligi ham muximdir. Tor, gavdaga xaddan tashqari yopishib turuvchi kiyim bolaning tanasini ezib, uning hol-axvolini yomonlashtirishi mumkin. Shuning uchun bolalar libosi o‘lchamlari gavda o‘lchamlariga mos kelishidan tashqari yengil ham bo‘lishi kerak.

Kiyimdagi odam o‘zini noxush sezmasligi, ayniqsa tana sirtiga tegib turadiga ichki kiyimlarda ko‘p jihatdan shu kiyim tikilgan materiallar xossiga bevosita bog‘liq. So‘nggi yillarda kimyo sanoatining jadal rivojlanishi mato va trikotaj ishlab chiqarishda sintetik (polimer) tolalarning qo‘llanilishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Aynan ana shu sintetik tolalar nafaqat o‘zining kimyoviy nomuqimligi, balki qoniqarli bo‘lmagan past gigroskopikligi, ortiqcha elektrlanib qolishi kabi fizik-kimyoviy xossalari bilan bolalar organizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bolalar libosi o‘zining uyg‘un propotsiyalari, chiroyli shakl ichidagi muvaffaqiyatli tanlangan nafis chiziqlar, monand ranglar, mato sirtidagi rasmi, material fakturasi va tuzilishi, zamonaviy va qulay bezaklari bilan ko‘zni quvontirishi lozim.

Bolalar uchun mo‘ljallangan kiyim modellari gavda tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak.


**Bolalar kiyimini konstruksiyalash.** Bolalar kiyimini konstruksiyalashda, birinchi navbatda, ularning gavda tuzilishilarini va tana proporsiyalarini hisobga olish kerak. Undan tashqari bolalarning mashg‘ulotlari, harakatlanishining xarakterini (tabiatini) ham e’tiborga olish kerak. Bu faktorlarga bolalar kiyimining shakli, uning silueti, proporsiyalari, asosiy detallardagi bo‘linishlarning hususiyatlari bog‘liqdir.

Bolalar kiyimini (jumladan qizlar va o‘g‘il bolalar uchun kiyimni) konstruksiyalash jarayoni kattalar (ya’ni ayollar va erkaklar ) kiyimini konstruksiyalash jarayonidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: dastlabki ma’lumotlar tanlanadi; hisoblash ishlari bajariladi va chizmaning bazis to‘ri quriladi, so‘ng asosiy detallar chizmalari tuziladi. O‘tkazma yeng chizmasi old va ort bo‘lak chizmasidagi yeng o‘mizi chiziqlariga bog‘lab quriladi. Bolalar kiyimini konstruksiyalashning o‘ziga xos tomoni - turli yosh

guruhlariga mansub bolalar gavda tuzilishlari va proporsiyalarining xususiyatlarini hisobga olish kerak. Bu xoslik individual gavda yoki tipaviy gavda o‘lchamlaridan foydalanishda, konstruksianing turli uchastkalariga qo‘sishimcha qiymatlarini tanlashda, hisoblash formulalarining ba’zi ko‘rsatkichlarining o‘zgarishida o‘z aksini topadi.

**Bolalar gavdasining proporsiyalari** kattalarnikidan farq qiladi hamda bolanining yoshiga qarab ham o‘zgaradi. Hatto bolalar gavdasi tasvirini qurish uchun avval 4 ta modul kerak bo‘lsa, borgan sari (bola voyaga yetgan sari) modullar 8 taga yetadi.


Hayotining birinchi yillarida o‘g‘il bolalar va qiz bolalar tanasi unchalik katta farqlanmaydi. Ular orasidagi farq voyaga yetish davrida seziladi, qizlarning gavdasi o‘g‘illarnikiga nisbatan noziklashadi<sup>80</sup>.




Yoshiga qarab bolalarning bo‘yi ham o‘zgaradi. Yuqorida aytilganidek, go‘daklarda tana uzunligi 4 taga bo‘linsa, keyin-

<sup>80</sup> “Il Figurino Di Moda”, Fernando Burgo. ISTITUTO di MODA BURGO, 2005.- 172-173-бетлар.


chalik har safar ma'lum bir davrda ularning bo'yи uzayadi va gavda uzunligining bo'linishlari soni ko'payadi. Shunga qaramasdan, kattalarining kichraytirilgan gavdasiga o'xshaydi.



7 - 9



10 - 12




13 - 16

### 5.11-rasm. Bolalar gavdasining tuzilishi va proporsiyalari.

Bola kallasining o'lchamlari turlicha bo'lib, shakli kvadrat shakliga to'liq mos keladi. Kallaning oldidan ko'rinishi yon ko'rinishiga nisbatan kichikroq ekanligini ko'rishingiz mumkin. Bola yuzidagi detallar – keng peshona, siyrak sochlar, dumaloq va katta-katta ko'zlar, kichkina buruncha va katta quloqlar kabilar yaqqol ko'rinishib turadi. 7 yashar bolaning kalla suyagining shakli 2 yoshlinikidan farq qiladi: peshonaning

do‘ngligi kamroq, sochlari qalinqroq (ko‘proq), ko‘zlar, burun va og‘izning o‘lchamlari kattalarnikiga o‘xshagan<sup>81</sup>.



5.12-rasm. Bolalar kallasi proporsiyalarining o‘zgarishi.

### ***Loyihani bajarish bo‘yicha tavsiyalar:***

Bolalar kiyimining assortimenti kattalarnikiga qaraganda ancha keng. Ular yosh guruhlaridan tashqari mavsumi, tayyorlanadigan materiali, kostyum sistemasidagi holati (ichkiyim, ko‘ylak, ustki kiyim), vazifasi (nima maqsadda va qayerda kiyilishi)ga qarab farqlanadi.

Shunga qaramay, bolalar kiyimidagi, ayniqsa, kichkina bolalarnikida, kattalar modasidagi uslubiy yechimlarni aks ettiruvchi detallarni ehtiyyotkorona qo‘llash lozim. Har holda, bolalar kiyimi bu kattalarning kichik o‘lchamda tikilgan kiyimi

<sup>81</sup> “Il Figurino Di Moda”, Fernando Burgo. ISTITUTO di MODA BURGO, 2005. -174-бет.

emasligini esdan chiqarmaslik lozim. Yuqorida ta'riflangan talablar, bolalar tanasining proporsiyalarini hisobga olish zaruriyati aslida dizaynerni chegaralamasligi, balki nisbatan vazifaning murakkablashganligini e'tiborga olib, o'z ustida ko'proq ishlashaga undashi kerak.

Har bir yosh guruhi uchun kiyim loyihamalarini ishlab chiqishdan avval kolleksianing konsepsiyasini asoslash kerak bo'ladi. Chunki, bo'lajak dizayn-loyihada bolaning (shu jumladan, ota-onaning ham) dunyoqarashi, kun davomidagi faoliyati (mактабгача та'лим мусассасига qatnovchi yoki uyda buvisi bilan shug'ullanuvchi), libos kiyiladigan sharoit (dam olishga chiqish, shahar ko'chalarida aylanish, bog'cha yoki mактабга borish, turli to'garak va seksiyalarda qatnashish, uy ichi, teatr, transport; bahor, yoz, kuz, qish; tong, peshin, oqshom) bilan bog'liq bo'ladi.

Undan tashqari bolaning harakteridan kelib chiqib ham kiyim loyihalashda turli kompozitsion vositalar tanlanishi kerak. Masalan, musiqiy mактабда shug'ullanuvchi bola bilan sport seksiyasiga qatnashuvchi bolaning xarakteri turlichay bo'lishi mumkin. Yoshi bo'yicha tengdosh bo'lsalar-da ko'p farzandli oilaning to'ng'ich farzandi va oiladagi yolg'iz farzand xarakteri bo'yicha turlichadir.

Kolleksianing loyihasini ishlab chiqishdan avval nafaqat savdo rastalarida taklif etilayotgan modellarni o'rganish, balki ota-onalar va bolalardan intervyu olish metodini qo'llab tadqiqot o'tkazish yaxshi samara beradi. Intervyu uchun savollar murakkab bo'limgan javoblarni nazarda tutishi maqsadga muvofikdir.

Agar tor vazifa uchun (misol uchun, 12 yoshga to'lganligi munosabati bilan muchal to'yi, bog'chani tamomlab mактабга chiqishi, nufuzli tanlovda ishtirok etish uchun va b.) mo'ljallangan kiyimlar yaratish maqsadi qo'yilsa, bo'lajak kolleksianing mavzusi yoki "shiori"ni aniqlashtirish ham ijodiy ishni bir tomonga yo'naltirib, uni osonlashtirib oydinlashtiradi.

Bolalar kiyimni loyihalashda ham assotsiatsiyalar metodi qo'l keladi.



5.13-rasm. Bolalar libosini yaratish uchun turli obrazlar (internetdan olingan sxema-shablonlar).



5.14-rasm. Ural Davlat arxitektura instituti (Rossiya) talabasi A. Grachyovaning diplom loyihasidan namuna (rahbar L.B. Orlova).



5.15-rasm. Maktabgacha bo‘lgan davrdagi bolalar uchun taklif etilgan liboslar. MRDI talabasi Zayniddinnova Umidaning eskizlari.



5.16-rasm. 11-15 yashar bolalar uchun taklif etilgan liboslar. MRDI talabasi Zayniddinnova Umidaning eskizlari.



5.17-rasm. O'smir qizlar uchun taklif etilgan liboslar.  
MRDI bitiruvchisi Yusupova Reginaning eskizlari.

## **14-loyiha. Sanoat ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan libos modellari kolleksiyasi loyihasini yaratish**

### ***Loyihaning maqsadi:***

-O‘zbekistondagi turli ko‘rinishdagi tikuvchilik korxonalarida ishlab chiqarishga tadbiq eitsh uchun libos modellarining dizayn-loyihasini ishlab chiqishni o‘rganish.

### ***Loyiha doirasidagi ishlar ketma-ketligi:***

1. Loyihalash uchun dastlabki ma’lumotlarni to‘plash. Ishlab chiqarish sharoiti va bozorni o‘rganish. Texnik topshiriqni ishlab chiqish.
2. Berilgan kiyim assortimenti uchun zamonaviy moda yo‘nalishining tahlili. Tahlil natijalarini asosida konsepsiyanı ishlab chiqish.
3. Eskiz-loyihani ishlab chiqish va uni asoslash.
4. Sanoat ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan libos modellari kolleksiyasi loyihasining badiiy-konstrukturlik qismini bajarish.
5. Model andazalarini tayyorlash va buyumnining sinov nusxalarini tikish. Konstruksiyaga tuzatishlar kiritish.
6. Taklif etilayotgan kiyim modelini original materialda bajarish.

### ***Tayanch ma’lumotlar:***

#### **Kolleksiya yaratish bosqichlari.**

Har qanday sanoat dizayni obyekti singari kiyim sanoat kolleksiyasi ham ko‘plab mutaxassislar tomonidan muayyan ketma-ketlikda yaratiladi.

Kolleksiya yaratishning *birinchi bosqichi* quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

1. Iste’mol va talabning obyektiv omillari: aholi daromadi dinamikasi, aholi jon boshiga daromad darajasi, chakana tovar aylanmasi va hokazolarni o‘rganish.

2. Mazkur kolleksiya mo‘ljallangan iste’molchilarning tipologik xususiyatlarini (jinsi, yoshi, daromadi darajasi, modaga qarab kiyinishda faolligi darajasi va h.k.) o‘rganish.

3. Iste’molchilarning aniqlangan ehtiyojlari va kolleksiya mo‘ljallangan iste’molchilar guruhi hayot tarzi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilish.

*Ikkinch bosqich* – qomat tipini belgilashga tadqiqot natijalarini tatbiq qilish. Bu bosqichda kolleksiya g‘oyasining moddiy shakli aniqlanadi.

*Uchinchi bosqich* — kolleksiyani iste’molchilar nazorat guruhida sinab ko‘rish.

*To ‘rtinchi bosqich* — yangi kolleksiya reklamasini (reklama obrazlarini ishlab chiqish, plakat, videoklip va hokazolar yaratish), press-relizni loyihalashtirish.

Xullas, kolleksiyani loyihalashtirishni boshlar ekan, dizayner kolleksiya kimlarga mo‘ljallanganligini va qanday ehtiyojlarni qoniqtirishi kerakligini aniq tasavvur qilishi kerak. Shu bilan birga, kiyimni loyihalashtirishda iste’molchilarning tipologik xususiyatlarini hisobga olish zarur, bular:

1) iste’molchilarning jins va yoshiga qarab hamda kichik yosh guruhlariga qarab tasnifi;

2) iste’molchilarning to‘laligi va bo‘yiga qarab tasnifi. Sanoat kolleksiyalari kabi, perspektiv kolleksiyalar ham manekenlarda namoyish etiladi, ammo ko‘pchilik modellarni mexanik ravishda transformatsiya qilib bo‘lmaydi, masalan, katta to‘lalik guruhlari yoki I—III bo‘ylar (148 dan 161 smgacha) uchun alohida yechimlar, o‘zgacha proporsional farqlashlar, boshqa hajmlar kerak;

3) iste’molchilarning to‘lalik belgilari bo‘yicha tasnifi. Sanoat kolleksiyasini loyihalashtirishda aholining 19,5 foizi oz darajada to‘la, 50,5 foizi o‘rta darajada to‘la, 26,5 foizi yuqori darajada to‘la va 3,5 foizi juda to‘la ekani inobatga olinadi;

4) iste'molchilarning modaga qarab kiyinish belgisi bo'yicha tasnifi. Modada faol ishtirok etishiga qarab iste'molchilar guruhlarga ajratiladi:

–2,5 foizini «novatorlar», ya'ni eksperiment qilishga va yangi moda yaratishga tayyor iste'molchilar. Yangi shakl va uslublarni taklif etadigan avangard kolleksiyalar aynan shu iste'molchilarga mo'ljallangan;

–13,5 foizni «erta amal qiluvchilar», ya'ni yangi modaga birinchi bo'lib amal qiladiganlar va o'z muhitining yetakchilari tashkil etadi. Shakl, rang, mato tuzilishida so'nggi moda tendensiyalar o'z aksini topgan kolleksiyalar shu iste'molchilarga mo'ljallangan;

–34 foizi «ilg'or ko'pchilik». Bu iste'molchilar modaga amal qiladi, ammo uning dadil shakllarini inkor etadi. Dolzarb moda tendensiyalarini biroz yumshoqroq shaklda bo'lsa-da, aks ettirilgan kolleksiyalar shu toifa iste'molchilar uchun yaratiladi;

–34 foizni «kechikadigan ko'pchilik» tashkil etadi. Bu moda jamiyatda keng tarqalganidan so'nggina unga amal qiladigan iste'molchilar. Ular so'nggi shakl va uslublarni qabul qilmay, ko'proq oldingi modaga amal qiladilar;

–iste'molchilarning 16 foizi «orqada qoluvchilar» (an'ana tarafdarları) hisoblanadi. Ular moda tendensiyalarini rad etadilar, biror yangilikni faqat u modadan chiqqanidan keyingina qabul qiladilar. Klassik yo'naliishdagi, moda belgilari yaqqol aks ettirilmaydigan kolleksiyalar shunday iste'molchilar uchun mo'ljallangan;

5) narxlar tasnifi. Kolleksiyada modellar soni va ularning xususiyatlari ular qaysi toifaga mansubligiga bog'liq. Modelarning 65 foizi arzon modellarga, taxminan 30 foizi o'rtacha va 5 foizi qimmat modellar toifasiga kiradi. Qimmatbaho modellarning chakana va ulgurji savdodagi ustama narxi o'rta va arzon modellarnikidan yuqori.

Qimmatbaho modellar dolzarb moda tendensiyalarini mujassamligi, konstruksiyalar noyobligi, siluetlar "o'tkirligi", yuqori

sifatli matolar va bezaklar bilan ajralib turadi. Qimmatbaho modellarda mashhur dizayner yoki taniqli firmaning belgisini ko‘rish mumkin. Bu toifaga “pret-a-porte”lux kolleksiyalari kiradi. Bu toifadagi kolleksiyalar juda kam turkumda chiqariladi – ko‘pi bilan 5-10 ta nusxa bo‘lishi mumkin. Kolleksiya qanchalik qimmatbaho bo‘lsa, undan o‘rin olgan modellar soni shuncha ko‘p bo‘ladi.

O‘rta toifadagi modellar bichimi qulayligi, modaga mos muloyim siluetlar, matolar va mashhur savdo belgisi bilan ajralib turadi (masalan, «Klaus Shtayl-mann» yoki «Livane»).

Arzon modellarning tashqi ko‘rinishi jozibali, fasonlari antiqa, shu toifadagi oldingi kolleksiyalardan yangi yechimlari bilan ajralib turishi, moda bo‘lgan rangdagi matolardan tikilishi, moda bo‘lgan rasm va fakturalardan foydalanilgan bo‘lishi kerak. Arzon toifaga kiradigan modellar katta partiyada ishlab chiqariladi. Demak, kiyim qanchalik arzon bo‘lsa, kolleksiyada modellar soni shuncha kam bo‘ladi;

6) modellarning nimaga mo‘ljallanganligiga qarab tasnifi. Model qaysi assortment guruhiga tegishliligin yoki avvalboshidan ko‘p funksional model sifatida yaratilganmi, dizayner buni aniq bilishi zarur. Bichim xususiyatlari, tanlanadigan mato va ranglar aynan shunga bog‘liq;

7) firmanın obrazı. Kolleksiyani yaratırdıktan sonra, dizayner mazkur marka qanday obraz yaratılganını yoki qanday obraz yaratishi kerakligini bilishi zarur. Shu bois kolleksiya modellari iste'molchining ushbu firma kiyimlari haqidagi tasavvuriga mos keladigan umumiyligi uslubda: konservativ, oxirgi modada, milliy yoki etnik uslubda, yoshlar uchun, o‘rta yoshlilar uchun mo‘ljallangan uslubda tikilishi lozim.

Bu tarzda farqlash va potensial mijozlar sonini ko‘paytirish istagi shunga olib keldiki, 1980-yillarda ko‘pchilik firmalar chiqariladigan kolleksiyalar sonini ko‘paytirdilar, erkaklar va ayollar uchun mo‘ljallangan asosiy kolleksiyaga qo‘sishma ravishda yoshlar uchun maxsus yaratilgan va boshqa assortimentdagi va

o‘zgacha iste’molchiga mo‘ljallangan kolleksiyalar bilan to‘ldirdilar. Italiyalik modelyer J.Armani bu yo‘nalishda birinchi qadamni qo‘ydi. Bugungi kunda u erkaklar va ayollar uchun mo‘ljallangan qimmatbaho asosiy kolleksiya bilan parallel ravishda «Giorgio Armani» belgisi ostida «Mani», «Emporio Armani», «Armani Exchange», «Borgonuovo/21», «Armani jeans» (jinsi kiyim) va «Armani Golf» (qimmatbaho sport kiyimi) kolleksiyalarini yaratadi.

Deyarli barcha mashhur dizaynerlar shu yo‘ldan ketgan. Bu kabi har qanday kolleksiya ma’lum iste’molchilar guruhiga mo‘ljallangan va uni yaratishda dizaynerlar shu iste’molchilarning ehtiyojlarini va psixologik portretini aniq tasavvur qiladilar.

### ***Loyihani bajarish bo‘yicha tavsiyalar:***

Sanoat ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan liboslarni loyihalashni uch xil yo‘nalishda bajarish tavsiya etiladi:


- 1) Trikotaj buyumlarni yaratish;
- 2) Yengil kiyim assortimentini yaratish.
- 3) Ustki kiyim assortimentini yaratish.

Mazkur ijodiy loyihani bajarishdagi yondashuv xuddi avvalgi dizayn-loyihalardagi kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Lekin bu jarayonlarda ishlab chiqarishning shartlariga mahkam rioya qilinishi kerak. Ishlab chiqarish korxonasining turi va sharoitlariga qarab (kichik korxona, qo‘shma korxona, katta hajmdagi mahsulot ishlab chiqarishga qurbi yetadigan korxona, “outlet” tarzida ishlaydigan firma, kichik buyurtmalarni bajaruvchi atelye va h.k.) loyihadagi liboslarning modellariga bo‘lgan talablar ham o‘zgaradi.



5.18-rasm. Uimboldondagi tennis o‘yinlari turniridagi xodimlar uchun Polo Ralph Lauren brendi ishlab chiqqan “pret-a-porte lyuks” toifasidagi libos modellari.



Bunda ham brendning taniqli rang va shakllari, ham elitar sport turi hisoblanadigan tennis o‘yining o‘ziga xos klassik xossalari(Britaniyadagi tennis klubи bleyzerlarining rang) mujassam etilgan eksklyuziv liboslar taqdim etilgan.




### 5.19-rasm.

A- trikotaj buyumlari loyihasi;  
B- ustki kiyim loyihasi.


### LOOK 2 FLATS




### LOOK 3 FLATS




5.20-rasm. Ustki yoshlabop kiyim loyihalari.



5.21-rasm. Amerikalik illyustrator rassom va ishlab chiqarish korxonasining badiiy rahbari Djon Oni Lislning eskizlari. Trikotaj ko‘ylaklar loyihasi uchun bajarilgan. Bunda ijod manbasining talqini trikotajning o‘ziga xos fakturasi va ranglarida namoyon bo‘ladi.



5.22-rasm. Sanoatda ishlab chiqarilishi mo‘ljallangan yengil kiyim loyihalari. Internet sahifalaridan olingan eskiz.



5.22-rasm. Sanoatda ishlab chiqarilishi mo‘ljallangan yengil kiyim loyihalari. Internet sahifalaridan olingan eskiz.

## **Nazorat uchun savollar:**

1. Milliy libosning genezesi va semantikasini o‘rganish nima uchun kerak?
2. Etno-uslubga ta’rif bering.
3. Milliy libos bu qanday libos? Etno-uslubdagi libos-chi?
4. Zamonaviy modada etno-uslubning shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?
5. Transformatsiyalanuvchi liboslarning o‘ziga xosligi haqida nimalarni bilasiz?
6. Libos dizaynida shaklni o‘zgartirish – transformatsiyalashning qanday usullari mavjud? Ularni tushuntiring.
7. Kombinator usuli nimadan iborat?
8. Kinetizm usuli qanday tamoyillarga asoslanadi?
9. Bolalar uchun kiyimlarni loyihalash va badiiy bezashda qanday yosh guruuhlariga bo‘linadi?
10. Bolalar kiyimiga qanday talablar qo‘yiladi? Ularni izohlang.
11. Bolalarning yosh guruhlari bo‘yicha gavda tuzilishlarining o‘ziga xosliklari qanday? Ularni nima uchun e’tiborga olish kerak?
12. Sanoat ishlab chiqarish uchun kolleksiyalarni loyiha-lash qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
13. Pret-a-porte yo‘nalishidagi libsolarning toifasi turlicha bo‘lishi mumkin-mi?
14. O‘zbekistonda qanday tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalarini bilasiz? Ularning faoliyatini tahlil qiling.

## ATAMALAR LUG‘ATI

**“Haute Couture”** (farangcha talaffuzda “ot – kutyur” – yuqori darajadagi tikish, yoki oliy san’at darajasidagi tikish ma’nosida) – hozirgi vaqtda “oliy moda” ma’nosida ishlatilib, eng yuqori sinf darajasidagi kiyimlarni yaratish tushuniladi. Bunday sinfga yoki turkumga kiruvchi kiyimlar yagona nusxada bajariladi, bularga asosan qo‘l mehnati ishlatiladi.

**“Pret-a-porter”** (farangcha talaffuzda “pret-a-porte” – tayyor ko‘ylak industriyasi, tayyor ko‘ylak ishlab chiqarish sanoati ma’nosida) - kiyim korxona va fabrikalarda tayyorlana boshlanishi natijasida XX asrda paydo bo‘lgan tayyor kiyimlar ishlab chiqaruvchi sanoatiga tegishli bo‘lgan kiyimlar sinfi. Bu turkumga mansub kiyimlar nusxalari soni, sifati va narxlari doirasida yana bir necha sinflarga bo‘linadi.

**“T-Shirt”** (so‘zma-so‘z – T-simon ko‘ylak) Birinchi jahon urushi (1914-1918-yy.) yillarida futbolkalar g‘arbiy armiya harbiylari formasida ichkiyim vazifasini o‘tagan. Havoning issiq yoki sovuqligiga qarab ularning yengi kalta yoki uzun bo‘lishi mumkin bo‘lgan. Biz o‘rgangan “futbolka” so‘zi esa rus tilidan kelgan bo‘lib, futbol o‘yinchilarining uniformasini aynan shu kiyim turi tashkil etgani uchun shu nomni olgan.

**Sketchbook** – (*sketchbook* – ingl. “sketch” – eskiz, chizgi, xomaki qolip, suratning taxminiy nusxasi, dastlabki namunasi, bir onda bajarilgan tavsif, tarx, krok + “book” – kitob, ya’ni loyiha ustida olib borilayotgan kundalik yoki “kuzatuvlar kundaligi”) dizayner ijodiy faoliyatini aks ettiruvchi chizgilar, tavsiflar kitobchasidir.

**Abstraksionizm** – borliq va estetik tafakkur yaxlitligiga erishishga intilish real ashyolar va hodisalarini tasvirlashdan voz kechgan holda ijod qilish yo‘nalishi.

**Abstraksiya** – bu tomoshabinlarda assotsiatsiyalar uyg‘otuvchi ashyosiz, plastik, rangli, ritmik kompozitsiyalarni yaratishdir.

**Avangard yo‘nalishi** - (fransuzcha – oldinda yuruvchi) yangicha ko‘rinishdagi, avvalgilarini inkor etuvchi, ommabop buyumlarga qarama-qarshisini tanlovchi oqim.

**Avangard** tasviriy san’atga quyidagilar kiradi: abstraksionizm, dadaizm, futurizm, syurrealizm, pop-art, sots-art, installyatsiya.

**Ansambl** - fransuzcha bu so‘z tarjimada – to‘liq, tekis, uyg‘un, turli qismlardan yoki bo‘laklardan, kishilardan yig‘ilgan bir butun manosini bildiradi. Kiyimda esa ansambl o‘rniga ba’zan kostyum so‘zi ishlatiladi.

**Antropomorf ornamentda odamlarning stilizatsiya qilingan gavdalari yoki tana qismlari qo‘llaniladi.**

**Applikatsiya** – (lot. yopishtirish) asos materialga (gazlama, charm, trikotaj, qog‘oz va b.) rang-barang materiallarni yopishtirish yoki tikish yo‘li bilan bezashdir. Applikatsiya - rang-barang qog‘oz yoki mato parchalarini biror narsaga yopishtirib yoki tikib naqsh, gul hosil qilish usuli; shu usulda hosil qilingan naqsh, gul.

**Badiiy loyihalash** – bu hali mavjud bo‘lmagan (yoki yaratilishi lozim bo‘lgan) ma’lum berilgan xossaga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan obyektning yaratilishi va vujudga keltirilishidir.

**Badiiy to‘qimachilik** – naqsh yoki ma’lum tasvirni ko‘pincha har xil fakturaga ega bo‘lgan rangli iplar yordamida polotno yoki tasma to‘qish.

**Batik** – XVIIasrda Indoneziyada kashf etilgan bo‘lib, oq rangli ipak yoki paxta tolali mato ustiga turli xil gullar, naqsh va boshqa tasvirlar tushirish imkonini yaratuvchi texnologiyadir. Batik – matoga maxsus bo‘yoqlar yordamida turli usullar bilan rasm tushurish.

**Bosma iz qoldirish** – materialning yumshoq sirtini ezib rasm yoki naqsh hosil qilish. Asosan charmada qo‘llaniladi, ya’ni ko‘nga naqsh solish texnologiyasi (“tisneniye”). Bunda yuqori harorat va katta bosim beradigan maxsus moslamalar zarur.

**Bosma qilish** – mato sirtiga turli shakl, qolip, trafaretlar yordamida gul bosish.

**Geometrik ornament** – nuqta, chiziqlar va geometrik shakllardan tashkil topgan bo‘ladi.

**Gofre** – bir tomonlama yo‘nalishdagi mayda yoki yirik g‘ijimlangan faktura. **Gofre** - fr. gaufré; “gofre” deb o‘qiladi. Bu ham xuddi plissega o‘xshab mato sirtiga ishlov berish usuli bo‘lib, bunda taxlamalr “qovurg‘a”siga turgazilib presslanadi (xuddi garmonga o‘xshab). Gofreda taxlamalar ham parallel, ham radial kengaygan bo‘lishi mumkin.

**Grafika** (yunon. “graphike”, “grapho” – yozaman so‘zidan) – tasviriy san’atning turi bo‘lib, chizmatasvir va badiiy bosma tasvirlarni (gravyura, litografiya, monotipiya va b.) o‘z ichiga oladi.

**Dekorativ bezaklar va aksessuarlar** - tugma, tugmacha mix (knopka), kashta, tasma, lenta, jiyak, kantlar, munchoq, payetka, shisha toshlar va boshqalar dizaynga o‘ziga xoslik baxsh etuvchi elementlardir. Ba’zan aynan shu unsurlar kolleksiyaning mohiyatini bo‘rttirib ko‘rsatadi va ochib beradi. Boshqa omillar singari dekor elementlarini tanlash, ularni qo‘llashga, ularning kolleksiya g‘oyasiga mosligini ta’minlashga e’tibor berish muximdir.

**Drapirovka** – materialni turli xarakterga ega bo‘lgan taxlamalarga yig‘ish. Bunda taxlamalar turli yo‘nalishlarda va erkin to‘kilib turuvchi bo‘lishi mumkin.

**Zardo‘zlik** – kashtachilikning muxim turlaridan biri bo‘lib, kashtalarda oltin, kumush rangdagi ipak va zar tolalardan foydalaniladi.

**Zoomorf ornament** o‘z ichiga real yoki fantastik jonzotlar (hayvon, qush, baliqlar va h.k.)ning uslublashtirilgan tasvirini o‘z ichiga oladi.

**Impressiya** – yarim ashyoli yoki ashyosiz impressionizm.

**Improvizatsiya** fantaziyaning yanada faolroq qatnashishini, taassurotlarni qayta anglash, intuitiv ibtidoni ozod qilishni o‘z ichiga oladi.

**Issiq usulda bajariladigan batik** matoga badiiy ishlov berishning qadimgi usullaridan biridir. Ipak matoga eritilgan mum bilan tasvir tushirilib tasvir ranglari ochdan to‘q ranga qadar

buyoqlar bilan bo‘yalish bosqichlaridan o‘tadi, so‘ng ish nihoyasida qotib qolgan mum issiq dazmol yordamida olib tashlanadi. Bunda bo‘yalgan mato ikki tarafdan qog‘oz bilan yopiladi va mum erib qog‘ozga shimilib ketguniga qadar dazmol urilib turiladi.

**Kastomáyzing** (ingl. *customize; custom* — buyurtmaga binoan bajarilgan) – mijozning hohishi yoki ma’lum vaziyat va mavzuga mos ravishda kiyim, poyabzal, aksessuarlarni qayta ishslash yoki qaytadan bezash.

**Kashtado‘zlik** – rangli iplar, kumush va tilla simlar, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, marjon va munchoqlar, biser va shisha toshlar (steklyarus), payetkalar yordamida mato va materiallarga naqsh, rasm, gul solish (tushurish).

**Kvilt** – (ingl. *quilt* – qavilgan) – bahyalarni turli shakldagi bahyaqatorlaga joylashtirib qavilgan qurama yoki pechvork. Bunda qaviqlar bo‘rtibroq turishi uchun buyumga qo‘srimcha qatlam sifatida paxta, vatin yoki sintepon qo‘yiladi. Kvilt – quroq qilingan polotno ustidan naqshli qaviqlar o‘tkazish. Ba’zan polotno shishibroq turishi va qalinroq bo‘lishi uchun unga sintepon, paxta, vatinli qo‘srimcha qatlam qilinadi.

**Kiyimning silueti** uning bichimi, odam tanasiga yopishib turish darajasi, hajmdor detallarning joylashuvi va ularning kattakichikligi, yelka, bel va etak chiziqlarining xolatlarga bog‘liq bo‘ladi.

**Klassik uslub (mumtoz uslub, mumtoz kostyum, mumtoz moda)**- shunday kiyimlar borki, insonning didi, talablari, qiziqishlari, odatlarining o‘zgarishiga qaramay, ular ma’lum ma’noda o‘zgarishsiz qolaveradi. Mumtoz modaga taalluqli, va hatto ba’zan mumtoz moda deb ataluvchi ingliz kostyumi ana shunday kiyimlardandir. Umumjamoatchilik uni hamisha ajoyib, zo‘r, o‘rnak bo‘ladigan deb hisoblayveradi

**Kollaj** – tasvirlash texnikasi, unda turli faktura va teksturalari ashylarni hamda rangtasvir, akvarel, grafika texnikalarining vosita va usullaridan foydalanib kompozitsiya yaratish mumkin.

**Kolleksiya** (lot. *yig‘ilish, yig‘ma, terma*) - uslubi, konstruksiyasi, shakli, materialarning o‘xshashligi asosida terilgan yoki ma’lum bir badiiy obrazni ifoda etishga xizmat qiladigan kiyim modellari termasi (*yig‘masi*).

**Kompozitsiya** (lot. “*compositio*” – tashkil qilish, tuzish, joylashtirish, bog‘lash, qurish, struktura) – san’at asarining tuzilishi, qurilishi.

**Kompozitsiyaning asosiy turlari.** Kompozitsiyaning asosan uchta turi ajratiladi: 1) frontal - tekislikdagi; 2) hajmiy; 3) fazoviy. Kompozitsiyalarni bu kabi turlarga bo‘linishi tasviriy va amaliy san’at hamda dizaynerlik sohalaridagi turli yo‘nalish va janrlaridan kelib chiqqan.

**Kostyum** – vazifasiga, mo‘ljaliga binoan ma’lum darajada terilgan kiyimlardir.

**Kreyzi** (ingl. *crazy* – aqldan ozgan ) texnikasida bajarilgan pechvork namunalarini namoyish etadi. Kreyzi usuli kimxob, zarbof, barqut, ipak kabi hashamatli matolardan ixtiyoriy shakl, rang va rasmli kompozitsiyalarni hohlagancha tuzish imkonini berardi.

**Kubizm.** Pablo Pikassoning Afrika haykaltaryoshligi bilan qiziqlishi kubizmning tamal toshini qo‘ydi.

**Kubofuturizm** – tahliliy kubizmdan abstraksiyaga qarab boruvchi oqim (K.S. Malevich, L.S. Popova, O.V. Rozanova, N.A. Udalsova).

**Quroq** – turli rang va shakldagi gazlama parchalarini ulab – qurab hosil qilingan buyum yoki ana shunday usulning nomi. Quroq, pechvork – turli material va mato bo‘lakchalaridan ma’lum rasmli yoki naqshli polotno yig‘ish.

Liboslar dizayni sohasi sog‘lom va komfort mahsulot ishlab chiqarishga ongli yondoshuv extiyojiga shiddatli ravishda munosabat bildirdi. Buning sabalaridan biri libosning insonga nafaqat estetik, balki fiziologik ta’sirining ahamiyatli ekanligidadir. Yangicha ashyolar, matolarni tabiiy bo‘yashning yangicha usullarini izlash, to‘qimachilikda qayta ishlangan tolalarni ishlatish, kiyim ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan an’anaviy hunarmandchilik turlarini tiklash – bularning barchasi

bir paytlari tushunarsiz bo‘lgan nazariy qarashlardan bugungi kunlarda umumiylar tarzda “Eco-fashion” deb ta’riflanuvchi muhim va hamma soxada qo‘llaniluvchi amaliyatga aylangandir.

**Libosning silueti** kiyimning tashqi ko‘rinishi va shaklini xarakterlaydi. Kiyim hajmdor shaklining tekislikdagi tasviri ham siluet deb ataladi.

**Mashinada bajariladigan kashtado‘zlik** ikki xil usulda bajarilishi mumkin: 1)Erkin yuritilib mashinada tikiladigan kashta. 2)Kompyuterli kashtachilik.

**Minimalizm, purizm va xay-tek** – XX asr oxirlariga oid me’morchilikni belgilovchi uslublardir.

**Moda** (frans. meyor, usul ma’nosida) – bu inson faoliyatining ixtiyoriy sohasida: san’at, kiyinish, xulq-atvor va boshqa sohalarida ma’lum shakllarning tinmay o‘zgarishidir.

**Modabop eskiz** – bu odam gavdasidagi ma’lum kiyim shaklining tekislikdagi tasviri. Uning asosiy vazifasi tushunarli tarzda kiyimning nima uchun mo‘ljallanganligini, uning silueti, rangi mato teksturasi va shu kabilarni aniq va ravshan aks ettirishdir.

**Modern.** XIX oxiri – XX asr boshidagi Yevropa va Amerika san’atidagi uslubiy yo‘nalish shunday nomlanadi (boshqa nomlari: “ar-nuvo”, “yugendstilъ”, “setsession”). Uslubning asosiy belgisi – bezakdorlik, asosiy motiv – chirmashib o‘sgan o‘simgilik, asosiy prinsip – qo‘lda yasalgan shaklni tabiiysiga o‘xshatish va aksincha. Modern me’morchiligida konstruktiv va dekorativ elementlarning uyg‘unlikda birikishi yuzaga keldi.

**Mozaika** (*ital. mosaiko*) – qadama, terma naqsh va shunday naqsh ishslash san’ati.

**Mulyaj usulining** mohiyati bevosita odam tanasi yoki manekenda materialni shakllantirib libosning hajmiy-fazoviy shaklini (yoki 3 yoqlama dizaynini) yaratishdan iborat. Boshqachasiga aytganda, xuddi haykaltaryosh kabi matodan tana atrofida libosning shakli yaratiladi.

**Naqsh** - arabcha tasvir, gul degan ma’noni anglatadi.

**Ornáment** - (lot. ornemantum - bezak) tarkibiga kiruvchi elementlarning takrorlanishidan hosil bo‘lgan naqsh.

**Pancherlar** – avtomatik kashta tikish mashinalari uchun dastur yaratuvchilar. Bu so‘z inglizcha “puncher” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “perforator, teshgich” ma’nolarini bildiradi. Zamonaviy pancherlar yuqori texnologik texnikani qo‘llashadi. Ular ham rassom, ham dizayner, ham dasturlovchi vazifalarini bajarishadi.

**Perforatsiya** – material sirtida turli shakl va kattalikdagi teshiklardan naqsh tushurish (o‘yib-qirqib yoki maxsus pichoqli qoliqlar yordamida teshib).

**Plisse** (plissirovka) - fr. plisse so‘zidan (“plissé” deb o‘qiladi) – mato turli usullar bilan kengligi 5 mm dan 5 sm ga qadar bo‘lgan parallel taxlamalar hosil qilish usuli. Plisse degan nom XVII ga kelib paydo bo‘lgan va fransuzcha so‘z “pli” — “taxlama” ma’nosidan kelib chiqqan.

**Primitivizm.** Primitiv, yoki sodda san’atni mustaqil o‘rgangan musavvirlar yaratdilar.

**Print** – bu ma’lum usul (kashta, bosma qilish, termotransfer) bilan mato, qog‘oz yoki boshqa sirtlarga tushurilgan tasvir (rasm, yozuv, fotosurat, naqsh)dir.

**Prototip** – (frans. prototype < yunon. protos – birlamchi + tupos – namuna, shakl) kolleksiyadagi liboslarning ilk original namunalari. Ijodiy jarayonning so‘nggi bosqichida liboslarni asosiy g‘oyadan kelib chiqib o‘ylangan asl materiallar, ranglar, bezaklarni qo‘llab tayyorlanadi.

**Pechwork** (ingl. *patchwork* – parchalardan ishlangan, parchalardan tuzilgan) – qiyqimlarni tikish, qiyqimli texnika, qiyqimli mozaika, gazlamali mozaika – chevarchilikning bir turi, bunda mato parchalaridan (qiyqimlar, qiyindilaridan) mozaikaga o‘xshatib (yoki mozaika tamoyillariga asoslanib) yaxlit buyum tikiladi.

**Rangshunoslik** – rang haqidagi fan bo‘lib, rangni an’ana-viy o‘rganishdan tashqari rang madaniyati, rang garmoniyasi haqidagi bilimlarni ham beradi. Rangshunoslik rangning fizikaviy asoslariga hamda uni idrok etishning psixofiziologik negiziga tayanadi.

**Redizayn** – (ingl. redesign - *re-* qaytadan, yangidan, boshqatdan + design - o‘ylamoq, loyihalamoq, ishlab chiqarmoq, ixtiro qilmoq), ya’ni eski shaklni qaytadan ishlab chiqish natijasida yangi shakl, yangi dizayn yaratib, buyumga ikkinchi xayot berish; buyumga qaytadan yangicha ishlov berish natijasida unga yangich ko‘rinish berish.

**Resaykling** (ingl. recycling – takroriy sikl) va apsaykling (ingl. up-yuqoriga + cycling – sikl, ya’ni siklning yuqoriga harakatlanib takrorlanishi) –qayta ishlov berib eski ashylardan yangi buyumlarni yaratish.

**Restayling** (ingl. restyling) – buyumning, brendning, logotip tashqi ko‘rinishidagi elementlarning vizual o‘zgartirilishi; buyum tashqi ko‘rinishini modabop uslublarga mos tarzda o‘zgartirilishi.

**Romantik uslub** o‘tgan asrlar bezaklarning barchasini o‘z ichiga olgan: to‘rlar, nozik kashtalar, gullar, burmalar, pirpiraklar, qo‘shetaklar, bantlar. Bu uslubdagi kiyimlar uchun murakkab bichim; chiroyli, ammo amaliy jihat-dan befoyda detallar; nafis yoki murakkab ranglar, matolarning g‘ayrioddiy fakturalari xosdir. An’anaga ko‘ra oqshom liboslari romantik uslubda tikiladi.

**Sovuq usulda bajariladigan batik (“gutta” texnikasi)** sovuq rezervlash jarayoni amalga oshirilishi bilan farqlanadi.

**Sport uslubi** – bu uslub professional va havaskor sportchilarning gigiyenik va qulaylik jihatidan mukammal va chiroyli kiyimining modaga ta’siri va ommalashuvi oqibatida tug‘ilgan. Sodda konstruksiyalar, nisbatan arzon materiallar (sintetik materiallar va sun’iy charm bundan mustasno emas) qulaylik, universallik, yorqin ranglar, turli yozuvlarning bezak sifatida qo‘llanishi sport uslubining tashkil etuvchilaridir. Bu yerda sport kiyimi va sport uslubidagi kiyimni farqlash darkor. Agar sport kiyimi sport kiyimi professional va havaskor spotchilarning ma’lum sport turi bilan shug‘ullanishlari uchun mo‘ljallangan maxsus kiyim bo‘lsa, sport uslubidagi kiyimlar esa, mo‘ljallangaligiga va badiiy yechimiga qarab yo kundalik kiyim,

yo uy-ichi kiyimi, yoki dam olish kiyimi, va hatto bashang kiyim ham bo‘lishi mumkin.

**Stilizatsiya** – bu qator shartli usullar yordamida predmet shakliga xos xususiyatlarni dekorativ umumlashtirish va bo‘rttirib ko‘rsatish.

**Struktura** deganda obrazli, funksional va texnik yechimga bog‘liq bo‘lgan geometrik shakl elementlarining muayyan fazoviy sistemasini tushunish kerak.

**Trapunto** texnikasi - kashta tikishning bir turi bo‘lib, unda qaviqlar hisobiga gul va rasmlar bo‘rttirib kashtalanadi. Kelib chiqishi Italiyaning Florensiya shahridan. Shuning uchun bu kashtani ba’zan italyancha yoki florenitiycha kashta deb ham atashadi

**Tekislikdagi frontal kompozitsiyaning o‘ziga xosligi** bu shakl elementlarining tekislikdagi ikkita yo‘nalishda, ya’ni gorizontal va vertikal yo‘nalishlarda joylashishidir, ya’ni bu kompozitsiya absolyut tekislikda joylashgan yoki nisbatan chuqr yoki baland bo‘lmagan relyefli bo‘ladi. va gorelyeflar, panno va vitrajlar, kartina va fotolar, plakatlar.

**Tektonik shakl** – bu materialning husuciyatini konstruksiya bajarilishining hamda mahsulot tayyorlanishi uslubidagi xususiyatlarining badiiy mushohada qilishdagi jonli, ifodali aniqlovchisidir. Bu aniqlanishga asos bo‘lib material yoki materiallar yig‘indisi ham, mahsulot konstruksiyasi ham, tayyorlash texnologiyasi ham xizmat qiladi.

**Tektonika** shaklga olgan konstruksiya va materialning ko‘zga tashlanuvchi akslanishidir. Tektonika – grekcha «qurilish san’ati». Tektonika kostyum kompozitsiyasidagi (qurulishidagi) eng muhim kategoriyalardandir.

**Texnik rasm** modelyer - rassom va konstruktor orasidagi professional “ziddiyatini” kamaytirib , “yumshatib”, model tasvirini yagona xalqaro standartlarga olib keladi.

**Texnik spetsifikatsiya.** Bu fashion-eskizda tasvirlangan libosni (kostyumni) tashkil etuvchi har bir kiyim turi va uning to‘ldiruvchi aksesuarlarining texnik eskizlari hamda qo‘llanilishi nazarda tutilgan materiallar, furnituralarning namunalari va

tavsiya etilayotgan ranglardan tuzilgan hujjatdir. Texnik spetsifikatsiyaning asosiy maqsadi – dizaynerlik eskizidagi g‘oyani kiyim ishlab chiqaruvchi, konstruktor, texnologlar uchun tushunarli tarzda interpretatsiya qilish.

**Transformatsiyalash** – bu tashqi ko‘rinish yoki hajmni tezkor ravishda shaklini o‘zgartirish degani.

**Trafaret usuli** (“shelkotrafaret”) yoki fotofilmpechat (FFP) – setkali yassi shablonlar yordamida ipakli, aralash ipakli, ipaksimon, jun va zig‘ir bolali matolarga badiiy bezak berish hamda tayyor buyumlar dizaynnini yaratish

**Trefeshn** (ingl. trashion so‘zidan: trash – chiqindi, axlat + fashion – moda) – tashlab yuborilgan narsalardan zamonaviy, modabop buyumlar yaratish;

**Tugunli batik** batikning qadimiyligi turlaridan bo‘lib, Hindistonda paydo bo‘lgan va shu yerning o‘zida keng tarqalgan. Matoning bo‘yoqlar tegishi lozim bo‘lmagan joylariga ip puxta qilib bir necha marta o‘ralib bog‘lanadi, so‘ngra mato to‘laligicha bo‘yoqga botiriladi.

**O‘simliksimon ornament** barg, gul, mevalar, shox va novdalarning uslublashtirilgan shakllaridan tuzilgan bo‘ladi.

**Uslug** – qandaydir vaqt oralig‘ida umumiyligi vosita va usullar bilan badiiy ifodalanishga aytildi.

**Uslugblashtirish** – bu biror-bir muallif, janr, oqim yoki muayyan ijtimoiy muhit, elat, davr san’ati va madaniyati uchun xarakterli bo‘lgan badiiy uslubning ongli ravishda imitatsiyasidir.

**Fazoviy kompozitsiya** moddiy elementlar, hajmlar, sirtlar va sathlar, bo‘liq va chuqurliklar hamda bular orasidagi intervallardan tashkil topadi. Kompozitsiyaning chuqurligi fazoni ketma-ket keluvchi qator sathlar (planlar)ga bo‘luvchi elementlar kiritilganda kuchayadi. Fazoviy kompozitsiyalar ko‘chalar, maydon, sahnalarning yechimida qo‘llaniladi.

**Faktura** – bu material tashqi ko‘rinishi (uning bo‘rtma yoki bo‘rtma emasligi, o‘ng tarafidagi sirtining guli, yaltiroqligi) va boshqa hususiyatlariga ta’sir etuvchi sirtining strukturasi, tuzilishi. Umuman olganda, faktura o‘ta qudratli vositadir.

**Fovizm.** Bu badiiy oqimning nomi fransuzcha les fauves so‘zidan kelib chiqadi, u “yovvoyilar” ma’nosini anglatadi. Fovistlar qo‘sishimcha ranglarning bir vaqtdagi kontrasti hisobiga rangli dog‘ ifodaliligin kuchaytirdilar.

**Futbolka** – bevosita tanaga kiyiladigan ham ayollar, ham erkaklar uchun mo‘ljallangan uzun yoki kalta yengli yelka kiyimi. Odatda taqilmasi, yoqasi va cho‘ntagi bo‘lmaydi. Kiyilish vaziyatiga ko‘ra futboldalar ikki xil toifada – ichkiyim (ya’ni, boshqa kiyimlar ichidan kiyiladigan) va ustki kiyim (ya’ni, ko‘rinib turadigan va ustidan boshqa kiyim kiyilmaydigan) toifasida bo‘lishl mumkin. Futboldalarni tayyorlash uchun assosiy ashyo sifatida turli qalinlik va zinchlikdagi (130 dan 260gacha g/m<sup>2</sup>), turlicha to‘qilgan (kulirli glad, interlok, pike o‘rinishli), tolaviy tarkibi turlicha bo‘lgan (100% paxta tolali, aralash tolali (paxta tolasi bilan elastan yoki poliester), viskozali, viskoza va elastan, 100% poliester) trikotaj qo‘llaniladi.

**Futurizm.** Futuristlar kelajak san’atini yaratishga intilishlarida (bu yo‘nalishning nomi mana shundan – lot. futurum – kelajak ) an’anaviy madaniyatdan, uning ma’naviy va badiiy qadriyatlaridan voz kechdilar va mashinali urbanizatsiyalangan sivilizatsiya – megapolislar, yuqori tezliklar, harakat, kuch va energiya kultini e’lon qildilar.

**Hajmiy kompozitsiya** o‘zida nisbatan har tomonlama (uch yoki to‘rt yoqlama va hk.) idrok qilinadigan nisbatan yopiq sirtga egadir. O‘z nomidan kelib chiqib hajmiy kompozitsiyadagi shaklning har tomonlama nazar solsa bo‘ladigan uchta assosiy o‘lchami – balandligi, kengligi va chuqurligi bo‘ladi.

**Chitgar** – matoga qolip vositasida gul bosib mahsulot tayyorlaydigan usta.

**Chitgarlik** – paxta yoki ipakdan to‘qilgan matolarga o‘yma yog‘och qolip yordamida qo‘lda gul bosish hunaridir.

**Ekspressionizm** insonning subyektiv ma’naviy dunyosini yagona voqelik deb, uni ifodalashni esa – san’atning bosh maqsadi deb hisoblaydi. “Ekspressionizm” atamasi fransuz tilidan ifoda, deya tarjima qilinadi.

**Erkaklar ko‘ylagi (rubashka) ning bichimi** old va ort bo‘laklar, koketka, yenglar (bilakkacha uzun yoki tirsakkacha kalta), yoqa kabi detallar tashkil topgan. Yengi uzun rubashkalarda manjetlar (tugmachali yoki ilmatugma-zaponkali) bo‘lishi shart. Aksariyat ko‘ylaklar old bo‘lagining chap tomonida bitta cho‘ntakli bo‘ladi, ba’zi kundalik va norasmiy sharoitda kiyiladiganlarida har ikkala tarafda cho‘ntaklar tikilishi mumkin. Uslubiy yechimiga muvofiq cho‘ntak qopqoqlar ham tikilishi mumkin.

**Etno-uslub (folklor uslubi).** Zamonaviy kiyimda milliy va an’anaviy libos elementlarining ishlatilishi. Boshqacha qilib aytganda milliy libos asosida zamonaviy kiyimni uslublashtirish. Bunda libos ansambli butunlay yoki uning bir qismi uslublashtirilishi mumkin. Ba’zan esa modellarga an’anaviy libosning rostmana haqiqiy elementlari kiritilishi mumkin.

## DIZAYN-LOYIHALASH FANIDAN TESTLAR

Savollar	Javob variantlari			
	A	B	C	D
Ritm nima degani?	* Bu shakl elementlarin ing navbat-ma-navbat, qonuniy almashlanib turishi.	Turli shakllarning almashinib turishi	Biror shaklda turli kompozitsiyalar qurish va ularni qonuniy almashtrish imkonи	SHakl kompozitsiya siga musiqiylik bag‘ishlash vositasi
Qanday kompozitsiya vositalari libosda qo‘llaniladi?	* Tenglik, o‘xshashlik va kontrast; simmetriya va asimmetriya; proporsiyalar, ritm, kompozitsion markaz; rang, faktura, tektonika kabi kompozitsiya vositalari.	O‘xshashlik va kontrast; simmetriya va asimmetriya; metrik va ritmik takrorlanishlar, kompozitsion markaz; axromatik ranglar, gulli “print”lar, konstruktiv detallar kabi kompozitsiya vositalari.	Asimetriya; proporsiyalar, “sovuq” ranglar gammasi; tenglik, o‘xshashlik va kontrast, matoning fakturasi, eni va guli; turli aksesuarlar kabi kompozitsiya vositalari.	Simmetriyaning turli ko‘rinishlari va asimmetriya; proporsiyalar, ritm, “issiq” rang gammasi, milliy matolar; zamonaviy uslublar; tenglik va o‘xshashlik kabi kompozitsiya vositalari
Kostyumda kompozitsion markazni bo‘rttirishning qanday qonunlari mavjud?	* 1.Miqdor qonuni. 2.Markazda joylashish qonuni. 3.Sifat qonuni. 4.Ma’no omili	1.Miqdor qonuni. 2.Markazda joylashish qonuni.	1.Miqdor qonuni. 2.Sifat qonuni. 3. YUqorida joylashish qonuni. 4. Ma’no omili	1.Miqdor qonuni. 2.Katta maydon egallash qonuni. 3.Sifat qonuni. 4. Ma’no omili

	qonuni.		qonuni. 5. Ritmik takrorlanishlar qonuni	omili qonuni. 5. Kontrast va nyuans qonuni
3 yoshdan 7 yoshga-cha bo‘lgan bolalar kiyimidagi asosiy siluetlar	To‘g‘ri va trapetsiyasi mon	Yopishib turuvchi va to‘g‘ri	Yopishib turuvchi va nim yopishib turuvchi	Etagi toraytirilgan, keng
Zamonaviy modadagi uniseks terminiga ta’rif bering.	*Bu termin bir jinsli yoki jinsdan tashqari ma’nosini bildiradi, ya’ni ham ayollar, ham erkaklar kiysa bo‘ladigan kiyimlar	Oddiy qilib aytilsa, bu shunday uslubdagi kiyimlarki, uni katta yoshdagilar ham, kichik yoshdagilar ham kiyaveradi.	Barcha uslubiy echimga ega bo‘lgan ommabop kiyimlar.	Faqat sahna – podium, estrada, sirk, teatr uchun mo‘ljallangan kiyimlarni anglatuvchi termin.
Zamonaviy kiyim modasida yangi uslub va oqimlar paydo bo‘lishiga nimalar sabab bo‘lishi mumkin?	* Har xil vaqt mobaynida uslublarning bir-biriga qo‘shilishi; tabiat va jamiyatdagi turli hodisalarning ro‘y berishi; yangi texnologiyalar va materiallarning ixtiro etilishi	Diffuz, fyujn, “miks” uslublarinig qo‘shilishi natijasida	Biror mashhur dizayner ijodi va uning faoliyatiga sarf qilingan mablag‘ tufayli	Tabiat va jamiyatdagi turli voqealarning ro‘y berishi; yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi, biror mamlakat prezidentining farmoni tufayli

Zamonaviy modadagi retro - uslubga ta'rif bering.	* Retro uslub – zamonaviy modaning o'tgan zamonlar modasidan olingan element yoki obraz-larni qo'l-lashi.	XX asrning 80-yillarida moda 50-yillardagi liboslarning ayrim g'oyalarini o'zlashtiri-shi hodisasi.	Tarixiy, an'anaviy, modadan "qolgan" liboslar.	Tarixiy, an'anaviy, milliy, harbiy liboslarni sahna uchun uslublashtirish (stilizatsiyalash)
Etno uslubining asosiy belgilari.	* Butun dunyo milliy kostyum elementlarin ing zamonaviy libos-da aks etishi.	Xarbiy kiyim elementlari qo'llangan zamonaviy kostyum.	Afrika milliy kostyum elementining zamonaviy kiyimda qo'llanilishi	Kundalik milliy kiyimlar.
Zamonaviy kiyimdagи sport uslubining asosiy belgilari	* Maksimal qulaylik, gigieniklik, sodda konstruksiya lar, nisbatan arzon materiallar universallik, yorqin ranglar, turli yozuvlar-ning bezak sifatida qo'llanishi	Estetiklik, dekorativ elementlar bilan to'ldiril ganlik	Professional va havaskor sportchilarni ng ma'lum sport turi bilan shug'ullanishlari uchun mo'ljallangan maxsus kiyim	Uy-ichi kiyimi yoki dam olish kiyimi Qarindosh ranglar uyg'unligi, estetiklik.
Kostyum (libos) kompozitsi yasi bu-	* - shu kostyumi tashkil etuvchi	- turli elementlar- dan kostyum yoki libosni	- kostyumi tashkil etuvchi detallarning	- kostyumi tashkil etgan hamma qismlarini

	elementlarni ng ma'lum g'oyani, badiiy obrazni aks ettiruvchi yaxlitlikka biriktirish.	vazifasiga moslab toplash	ma'lum obraz va ma'lum uslubni aks ettirishga bo'ysun-ganligi	bir-biriga bog'lash
Zamonaviy kiyim modasidagi asosiy yirik yoki makro-uslublarni aytib o'ting.	*Klassik, romantik, sport, etno-uslublari va avangard yo'nalishlari	"Haute Couture" (ot – kutyur) va "Pret-a-porter" (pret-a-porte)	Klassik va sport uslubi	Romantik va avangard yo'nalishlari
SHanel uslubi deganda nima tushuniladi?	*Fransuz modeleri Shanel taklif etgan liboslarning ommala-shuvi natijasida rivojlangan uslub	Romantik va klassik uslublar uyg'unligi-dan hosil bo'lgan mikro-uslub	Fransuz modeleri Gabriel SHanel kiyib yurgan liboslar	Klassik, sport va romantik usulblar uyg'unligidan kelib chiqqan liboslar
Libosni badiiy loyihalash nima?	*Bir necha bosqichlarda n tashkil topgan ijodiy jarayon.	Kiyim ko'rinishini o'zgartirish.	Libos tayyorlashning industrial uslubi.	Libos eskizini rangda bajarish.
"Kiyim" tushunchas iga ta'rif bering.	*Inson tanasini himoya qiluvchi sun'iy tashqi qatlam.	Bu palto, plaişlar, ko'yaklar.	Bosh kiyimlar va poyabzal.	Inson ko'yagining stilistik vazifasi

Grafik ifodalashning usullarini ko'rsating	*CHiziq, dog‘, shtrix, nuqta.	CHiziqli tasvir.	Akvarel, guash, tush	Rantasvir va qalamtasvir
“Kostyum” tushunchasiga ta’rif.	*Inson kiyimining stilistik funksiyasi	Inson tanasini himoya qiluvchi sun’iy tashqi qatlam	Maxsus kiyim.	Bir necha buyumlardan tashkil topgan garnitur.
Siluet nima?	*Kostyum shaklining tekislikdagi ifodasi.	Bir nechta konstruktiv kamarlar.	Inson ko‘ylagining grafik tuzilishi.	Kostyum shaklining hajmiy ifodasi.
Siluet chiziqlari nimani aks etadi?	* Kiyim shaklining chegarasini. Bu buyumning elka, ko‘krak, bel, etak, yon chiziqlaridir.	Kiyimning konstruktiv echimining chizmasini	Libos silueti va dekorativ element larining teksilikdagi aksini	Konstruktiv-dekorativ echimli kiyimning for-eskizini
Konstruktiv chiziqlar bu...	* - kiyim sirtini alohida qismlarga bo‘luvchi chiziqlar.	- kiyim konstruktiv chizmasinin g asosiy chiziqlari	- libos shakli yoki konturining chiziqlari	- kiyimdagи turli bezak detallari shaklini aks ettiruvchi chiziqlar.
Bel chizig‘ida mahkamlanib, bo‘ksalar sirtiga tayanuvchi kiyimlar qanday	*Belda turuvchi kiyimlar.	Belni maxsus himoyalovchi kiyimlar	Elkada nim turuvchi kiyimlar	Sport turlari bilan shug‘ullanish uchun mo‘lajallangan kiyimlar

kiyimlar deb ataladi?				
Elkada turuvchi kiyimlar -	* ...elkalarda ushlanib va elka kamariga tayanib turuvchi kiyimlar.	... bo'yinda ushlanib bo'ksalar sirtiga tayanuvchi kiyimlar	... ko'krak kamarida ushlanib, butun tana sirtiga tayanuvchi kiyimlar	elkalarda ushlanib, butun tana sirtiga tayanuvchi kiyimlar
Kostyumda ansambl tushunchasi...	* to'liq, uyg'un, turli qismlardan yoki bo'laklardan yig'ilgan bir butun manosini bildiradi	...ustki kiyimlarning ma'lum darajada terilgan majmuasi-ning nomi	... rang gammasi va ranglarning libos va uning qismlaridagi to'liq uyg'unligini bildiradi	...bir xil rangdagi libos kiygan musiqachilar kollektivi
Liboslar kolleksiysi deganda nima tushunildi?	* Konstruksiyasi, shakli, materiallar-ning o'xshashligi asosida terilgan yoki ma'lum bir badiiy obrazni ifoda etishga xizmat qiladigan kiyim modellari termasi	Dekorativ vazifani bajaruvchi biror tarixiy davrdagi usulubiy echimlarni aks ettiruvchi buyumlar termasi	Utilitar funksiyasini ng bir xilligi ko'rsatkichi bilan birlashtirilgan liboslar majmui	Kontrast ranglardan tanlab terilgan mahsulotlar guruhi
"Pret-a-porte" nima?	* Tayyor ko'ylak industriyasi,	Kundalik turmushda kiyib	Kundalik libos	Engil sanoat korxonalarida ishlab

	tayyor ko‘ylak ishlab chiqarish sanoati ma’nosida	bo‘lmaydi- gan libos		chiqilgan ommabop antiqa libos
Zamonaviy modadagi “militari” uslubiga ta’rif bering.	* Harbiylar formasidagi elementlarni zamonaviy kiyimga ko‘chirish natijasida paydo bo‘lgan liboslar	Harbiylar formasini uslublashtiri sh hisobiga yangilash	Barcha toifadagi harbiylarning turli forma kiyimlari	“Militari”- milliy va an’anaviy libos elementlari va harbiy forma elementlari- ning uyg‘un- lashuvidan paydo bo‘lgan uslub
Zamonaviy modadagi diffuz uslubga ta’rif bering.	* Diffuz uslubi - avvaldan bilib turib, o‘ylab, libosdagi qismlarni turli uslublardan tanlab terish.	Diffuz uslubi - romantik uslubdagi ko‘ylak ustidan folklor uslubidagi bluzkani kiyish	Diffuz uslubi - bema’ni, bachkana liboslar aralashmasi dan tuzilgan zamonaviy kiyim modasidagi kiyimlar	Diffuz uslubi – faqat “safari”, retro uslublari va avangard yo‘nalish elementlarida n tanlab terilgan libos uslubi.
Garnitur nima?	* Aynan bir maqsadga yo‘nalti- rilgan buyumlar- ning to‘liq to‘plami	Kiyim va uning detallarining yig‘indisi	Mahsulot- ning ma’lum uslubiy echimdagi to‘liq nabori.	YAgona (yakka) mahsulot.
“Haute Couture” (“ot –	* Yuqori sinf darajasidagi	Kiyishga tayyor bo‘lgan	Kiyilmaydig an libos ma’nosida	Defile uchun muljallangan romantik

kutyur") nimani anglatadi?	kiyimlarni yaratish - "yuqori moda"	kiyimlar-barcha tikuvchilik buyumlari assortimenti	ishlatiladi, bezak turlari va boshqalar yagona, takrorlanmas bo'radi.	uslubidagi liboslarni ishlab chiqarish
Klassik uslubning asosiy belgilari.	* Elegant siluet, bosiq ranglar uyg'unligi, me'yyordagi bezak detallari .	Erkin keng siluet, ranglarda-gi kontrastlik, bezak elementlarin ing ko'pligi	Yopishgan siluet, monoxrom ranglar uyg'unligi	Erkin siluet, axromatik ranglar, yorqin detallar, kontrast fakturalarning uyg'unligi
Romantik uslubning asosiy belgilari.	* To'rlar, nozik kashtalar, gullar, burmalar, pirpiraklar, qo'shetaklar, bantlar, nafis yoki murakkab ranglar, matolarning g'ayrioddiy fakturalari	Tukli matolar, kontrast ranglar uygunligi, geometrik rasmlar, geometrik shakllarni eslatuvchi siluetlar, sun'iy va tabiiy charmning qo'llanilishi	Erkin siluet, ranglardagi kontrastlik, faqat funksional detallar, turli furnitura bilan to'ldirilganlik	Volanlar, drapirovkalar, engil va og'ir matolar, pastel ranglari, gul bostirilgan rasmlar, cho'ntaklar, konstruktiv choklarning ataylab bo'rttirib ko'rsatilishi, mavzuli "print"lar, turli emblemalar
Uniforma nima?	* Ma'lum bir tashkilot uchun mo'ljallangan forma	Ma'lum uslub va vazifaga mo'ljallangan kiyim formasi	Ma'lum bir o'kuv yurti uchun mo'ljallangan forma	Maksimal kulay va funksional kundalik kiyim
Komplekt	* Kostyum	Ishbilarmon	Uslubiy	Sport uchun

nima?	elementlari va detallari-ning o‘zaro almashtirilis hi mumkin bo‘lgan buyumlar sistemasi	kiyim	jihatdan o‘zaro bir-bir bilan uyg‘unlashti rish mumkin bo‘lgan buyumlar	mo‘ljallangan kiyim
Dengiz-chilar uslubining asosiy belgilari	* Ko‘k-oq ranglar gammasi, yo‘l-yo‘l mato, funk-sionallik, dengizchilar libosi atributikasi	Qora-ok ranglar gammasi, dengiz va suv bilan bog‘liq atributika	Trikotaj materiallar, chiziqli va katak-katak mato, sovuq ranglar gammasi	Qulaylik, dengizdagи sayr uchun mo‘ljallangan himoyalovchi va suv o‘tkazmay-digan ustki kiyimlar
Disko uslubining asosiy belgilari.	* kontrast ranglarning uygunligi, usti yaltirok materiallar, yarqiroq dekorativ elementlar bilan boyitilgan, ko‘zga tashlanuvchi pardoz	ko‘k-oqish ranglar gammasi, yo‘l-yo‘l mato, funksional-lik, dengiz atributikasi, bosiq makiyaj	volanlar, drapirovlar, engil matolar, pastel ranglar, gul bostirilgan rasmlar, past poshnali poyabzal	to‘g‘ri va sodda bichim, og‘ir materiallar, axromatik ranglar, libosdagi ko‘p qavatlilik, makiyajning umuman ahamiyati yo‘q
Dizayner bu ...	*Rassom - konstruktor	Hunarmand	Rassom	Injener-texnolog - konstruktor
Aksessuarl arni ko‘rsating.	* Oyok kiyim, bosh kiyim, sumkalar, taqinchoqlar, sun’iy	Sumka, taqinchoq, gullar, cho‘ntaklar, eng va yoqa	Bosh kiyim, bezakli detallar, kamarlar, murakkab bichimli	Oyok kiyim, sodda bichimli libos, tikilish murakkab bo‘lmagan

	gullar, ko'zoynak		hajmdor detallar, mato guli.	detallar, fakturali matolar, kamarlar, ro'mollar.
Fransiya modasining taniqli dizayner- lari.	* Kristian Dior, Gabriel SHanel, Per Karden, Iv- Sen Loran	Terri Myugler, Djanni Versache, Jan - Pol Gote	Koko SHanel, Balensiaga, Yodji YAmamoto	Per Balmen, Lanvin
Mato va materiallar ni badiiy bezash turlari	* Gul (naqsh)bosis h, batik, applikatsiya, qavish, qo'lda bo'yab bezash, kashta	Applikatsiya , bezak chok, qo'lda bo'yab bezash, sun'iy gullar	Bosma qilish, batik, applikatsiya, munchoqlar, metall elementlar, furnitura, charm kamarlar	Batik, applikatsiya, qavish, kashta, charm aksessuarlar, ro'mol va sharflar, boa
Reglan nima?	* Eng bichimi	YOKA bichimi	Bosh kiyim bichimi	SHIM bichimi
Applikatsiy a nima?	* Mato sirtiga boshqacha mato parchalarini qo'yib tikish evaziga matoni bezash usuli	Kiyimni konstrutiv- dekorativ bezash usuli	Ayollar kiyimidagi taqilmaning dekorativ bezaginnig turi	Maktabgacha yoshdag bolalar ko'ylagining bichimi

## **Foydalaniladigan adabiyotlar**

- 1.“An introduction to Silk Painting”. Caroline Earl, “D&S Books Ltd”, 2002.
2. “Fashion Design. Drawing Course”. Caroline Tatham, Julian Seaman, “Barron’s Educational Series”, 2003.
- 3.“Field guide: How to be a fashion Designer”. Marcarena San Martin. Copyright ©, 2009, by Mao-Mao publications. First published in 2009 in the United States of America by Rockport Publishers, a member of Quayside Publishing Group.
- 4.Bethan Morris. Fashion Illustrator. Laurence King Publishing, 2006.
- 5.Collage and Texture in Painting: Step-by-Step guide. 2014.
- 6.Elisabetta ‘Kuky’ Drudi, Tizian Paci. Figure DraWing for Fashion Design. Amsterdam, The Pepun Press, 2011, - 18 p.
7. Fashion Design (Portfolio (Laurence King)): Sue Jenkyn Jones: 272 pages; Publisher: Laurence King Publishing; 3 edition (24 Mar. 2011).
- 8.Fernando Burgo. “Il Figurino Di Moda”. ISTITUTO di MODA BURGO, 2005.
- 9.John Hopkins. Basics Fashion Design or Fashion Drawing. AVA Publishing, SA, 2010, - 18p.
10. Sandra Burke. Fashion Artist-Drawing Techniques to Portfolio Presentation. Burke Publishing, 2<sup>nd</sup> Edition, 2006 y., -

11. The Fabric Decorating Project Book: 100 Inspirational Ideas for Printing, Stencilling, Painting and Deing Fabric Items of All Kinds Paperback – 1 May 2009.
12. А.В. Шилкина. Обемно-пространственная композиций. Практический курс: Методические указания для студентов. – Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2012.
13. А.Н. Лаврентьев. “История дизайна”, Москва, “Гардарики”, 2007 г.
14. Бердник Т.О., Неклюдова Т.П. “Дизайн костюма”, учеб. пособие. Ростов-на-Дону. Феникс, 2000 г. -265 .
15. В. Овчинников. «Сакура новдаси». М., «Молодая гвардия», 1971.
16. Г.М. Гусейнов, В.В. Ермилова, Д.Й. Ермилова, Н.Б. Ляхова, Е.М. Финашина. “Композиция костюма”, учеб. пособие. – М. Издательский центр «Академия», 2003. – 432 с.
17. D.Raxmatullayeva, U.Xodjayeva, F.Ataxanova. “Libos tarixi”, darslik, Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. -336 b.
18. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. “Моделирование и художественное оформление одежды”, учеб. пособие. – М: Мастерство; Издательский центр «Академия»; Высшая школа, 2001г. – 184 с.
19. К.Кантор. Правда о дизайне. – М.: АНИР, 1996.

20. К.Тетхем, Дж. Симен. “Дизайн в моде. Моделирование одежды”. Москва, “Риппол классик”, 2005.
21. L.P. Krisin. Chet tilidan kirib kelgan so‘zlarning izohli lug‘ati. M., Eksmo, 2016, - 580 b.
22. Л.П.Крысин. «Иллюстрированный Толковый словарь иностранных слов». М.; Эксмоб 2006. –580 стр.
23. Пармон Ф.М. “Композиция костюма”, учеб. – М.: Легпробитиздат, 1997. – 318 с.
24. Петушкина Г.И. “Проектирование костюма”, учеб. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 416 с.
25. R. Mirzaahmedov. “Chitgarlik sirlari”, Toshkent, Islom Karimov nomidagi Respublika hayriya jamoat fondi, “San’at” jurnali nashtiyoti, 2017 ., - 5 bet.
26. Розалба Пепи. “Объемная вышивка. Техника трапунто”. Арт родник, 2005.
27. Рунге В.Ф., Сенковский В.В. “Основы теории и методологии дизайна”, – М.: МЗ – Пресс, 2001.-240 .
28. S.Bulatov. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. Т.: “Mehnat”, 1991, - 312-b.
29. Современная энциклопедия “Мода и Стиль”. Москва, “Аванта+”, 2002, 283 с.
30. Сю Джонс. Фашион-дизайн. - Санкт Петербург, “Питер”, 2012.

31. Т.В. Козлова, Р. Степучев и др. «Основы теории проектирования костюма» Лекцияларнинг конспектлари. М., Москва тўқимачилик саноати институти. 1982.
32. Т.В. Козлова. «Основы теории проектирования костюма». М., «Легпромбитиздат». 1988.
33. Т.О. Бердник “Основы художественного проектирования одежды и эскизной графики”, учеб. – М. Ростов «Феникс», 2001. -250.
34. Э.М.Андронова. Основы художественного проектирования костюма. – Челябинск: Медиа-принт, 2004.

Internet saytlari:

35. <http://devianart.com/> gremo
36. [http://issuu.com/westminsterfashion/docs/westminster\\_gina\\_atkinson](http://issuu.com/westminsterfashion/docs/westminster_gina_atkinson)
37. <http://kafedramody.ru/kursy-master-klassy-seminary/dizajn-kostjuma>
38. <http://pikby.com/account/quangkitaro198/686165830634872965/>
39. <http://www.trashtocouture.com/>
40. <https://diyfashionsense.Wordpress.com/>
41. <https://www.arts.ac.uk/colleges/central-saint-martins>
42. [https://www.pinterest.com/路目](https://www.pinterest.com/)
43. [www.fashionaryhand](http://www.fashionaryhand)

44. www.academy of art university
45. [www.fashion.org.cn/sspx/zxds/hbj/201203/t20120326\\_915378\\_2.html](http://www.fashion.org.cn/sspx/zxds/hbj/201203/t20120326_915378_2.html)
46. www.paganoonoo
47. www.pinterest.com
48. [www.studyblue.com/notes/note/n/picasso-exam-2/deck/13066450](http://www.studyblue.com/notes/note/n/picasso-exam-2/deck/13066450)
49. [www.usaaa.ru/faculties/fd/dizain-odezhdy/1-kurs](http://www.usaaa.ru/faculties/fd/dizain-odezhdy/1-kurs)
50. www.vikipediya-erkin ensiklopediya

## **MUNDARIJA**

<b>FANGA KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>Badiiy loyihalash va uning bosqichlari.....</b>	<b>11</b>

### **1-BOB. ZAMONAVIY KIYIM MODASIDAGI**

#### **USLUB VA YO‘NALISHLARNI**

##### **O‘RGANISH.**

1-loyiha: Kollaj texnikasi yordamida zamonaviy modadagi turli uslublarni aks ettiruvchi kompozitsiyalar yaratish.....	77
---	----

### **2-BOB. LIBOSLAR VA GAZLAMALARNI**

#### **BADIY-DEKORATIV BEZASH**

##### **USULLARI**

2-loyiha: Liboslar va gazlamalarni badiiy-dekorativ bezashning turli usullarni o‘rganish.....	92
---	----

1-amaliy topshiriq: Kashta tikish texnologiyasi, kashta turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.....	93
---	----

2-amaliy topshiriq: Quroq, pechvork, kvilting texnologiyasi, turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.....	117
--	-----

3-amaliy topshiriq: Bo‘yash, batik texnikasi texnologiyasi, usullari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.....	134
--	-----

4-amaliy topshiriq: Bosma qilish, blokprinting texnologiyalari, turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.....	147
5-amaliy topshiriq: Plisse, gofre, taxlamalar va boshqa bezak turlari, ularning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.....	156

### **3-BOB. DASTLABKI LOYIHALAR**

3-loyiha. Sodda shaklli buyumlar dizaynini yaratish (futbolkaning shakli misolida).....	163
4-loyiha. “Recycling” yo‘nalishidagi loyiha ustida ishlash.....	179
5-loyiha. Hajmiy-fazoviy struktura qurish.....	188
1-topshiriq: Yassi sirdan bo‘rtma (relyef) yuza yaratish.....	196
2-topshiriq: Yassi sirtni taxlamalar yordamida hajmga transformatsiyalash.....	201
3-topshiriq. Yassi tekislikni kesiklar (o‘yiq va teshiklar) yordamida shaklini o‘zgartirish (transformatsiyalash).....	206
4-topshiriq: Tektonikasi turlicha bo‘lgan qog‘ozdan hajmiy – fazoviy struktura qurish.....	210
5- topshiriq: Tektonikasi turlicha bo‘lgan matolardan turli usullardan foydalanib hajmiy – fazoviy struktura qurish.....	213

## **4-BOB. RASSOM-DIZAYNERNING IJODIY**

### **MANBAALARI.**

6-loyiha. Tabiat-ijod manbasi sifatida.....	223
7-loyiha. Arxitektura – ijod manbasi sifatida.....	239
8-loyiha. Rangtasvir - ijod manbasi sifatida.....	253
9-loyiha. Musiqa - ijod manbasi sifatida.....	269

## **5-BOB. LIBOS MODELLARI**

### **KOLLEKSIYALARINI YARATISH.**

11-loyiha. Milliy, an'anaviy liboslar asosida kiyimlar kolleksiyasini yaratish.....	283
12-loyiha. Transformatsiyalanuvchi libos modellari kolleksiyasi loyihasini yaratish.....	296
13-loyiha. Bolalar uchun kiyimlarni loyihalash va badiiy bezash.....	307
14-loyiha. Sanoat ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan libos modellari kolleksiyasi loyihasini yaratish.....	324
<b>Atamalar lug'ati.....</b>	<b>335</b>
<b>Foydalilaniladigan adabiyotlar .....</b>	<b>347</b>

**F.Z. ATAXANOVA**

# **DIZAYN-LOYIHALASH**

**Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2018**

Muharrir:	Sh.Kusherbayeva
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	F.Tishabayev
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Raxmatullayeva

**E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 71-245-57-63, 71-245-61-61.**

**Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi . . 2018.**

**Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog‘i . Nashriyot bosma tabog‘i .**

**Tiraji . Buyurtma № .**

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.  
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**